O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

ISSN: 2181-2365

# O‘ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI













Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

**JURNAL**

2026 №1(20)



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan "O‘zbekiston sud ekspertizasi" ilmiy jurnali yuridik va siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.**

**MUNDARIJA**

**Xalilov A.U.** Sud ekspertizasi tizimini raqamlashtirish va yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirishning odil sudlovni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati.................................. 2
**Qodirov E.** Iste’fo institutining konstitutsiyaviy tahlili: nazariy va amaliy masalalar............................................. 12
**Nishanova N.B., Zarmasov Sh.Sh., To‘ychiyev A.M.,** Sud-lingvistik ekspertizada haqoratli holatlarini aniqlash: uslubiy yondashuvlar va barqaror mezonlar ............................... 16
**To‘xtayeva Sh.A.** Sud-lingvistik ekspertizasida argo va jargon birliklarning tahlili.............................................. 22
**Samadova F.Z., Karimova D.T.** Organik kislotalar va ularning turlari. Tabiatda uchrashi.......................................... 30
**Nosirova M., Yakubov I.T.** Genetic identification of cattle based on str markers................................ 36
**Tileuov Y.M.** Probatsiya tushunchasi va o‘ziga xos jihatlari...................................................................... 40
**Fayzullayev Sh.F.** Ishni sudga qadar yuritishda videokonferensaloqa rejimini qo‘llash.............................................48
**Кенжаев Т.И.** Институциональное развитие антикоррупционной экспертизы проектов законодательства: ретроспектива и периодизация.................. 57
**Kudratov B.B.** Raqamli davrda kiberjinoyatlarga qarshi kurashishning dolzarb masalalari ...................................... 68
**Shomaxsudov Sh.Sh.** Mobil qurilmalar va ilovalar xavfsizligi...................................................................................... 78
**Галлямов М.Г.** Некоторые вопросы обеспечения безопасности интернет вещей (IOT) и системы умного дома ......................................................................................85
**Babayev T.A.** Fuqarolik jamiyati shakllanishida huquq-tartibot organlarining legitimlik darajasini oshirish omillari......................................................... 93
**O‘lmasxo‘jayev Z.A.** Qonun ustuvorligi va ijtimoiy voqelik: "qonunlar qog‘ozda emas, amalda ishlashi" mexanizmlarining huquqiy-sotsiologik va empirik tahlili ...........................................97
**Mahmudova F.N.** Mediatsiya halqaro munosabatlarning muhim vositasi va usuli sifatida ....................................................................102
**Юсупова Э.Ф.** Политические процессы и молодёжь Узбекистана............................................................ 111
**Qolqanov N.T.** Siyosiy sabotsizlikni keltirib chiqaruvchi omillar: nazariy tahlil............................................... 119
**Raximova S.G‘.** Konfutsiylikda "junzi" konsepsiyasi asosida jamiyat barqarorligini ta’minlash mexanizmlari .......................... 126
**Qodirov U.G‘.** Mahalliy boshqaruvni isloh qilishning global tendensiyalari: Yevropa modellari, "raqamli hukumat" va vertikallashuv ...........................................................................131
**Farmanov Z.N.** Referendum instituti: nazariya, milliy tajriba va xalqaro amaliyotning qiyosiy-huquqiy tahlili ................................ 138
**Jurayev F.X.** Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida sud ekspertlarining malakasini oshirishni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish masalalari: xorijiy tajriba va ilmiy yondashuvlar . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .143
**Rasulbekova R.R.** Ma’naviy zararni kompensatsiya qilishning huquqiy mezonlari: O‘zbekiston qonunchiligi va xalqaro tajriba qiyosiy tahlili . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .147
**Sayfullayeva M.A.** Korporativ boshqaruvda sun’iy intellekt: fidutsiar majburiyatlar, komplayens va risk-menejment kesimida huquqiy tahlil . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . . .153

**Muassis:**

**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi**

**Bosh muharrir:**
Akram **XALILOV**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
Uchkun **UZAKOV**
**Mas’ul kotib:**
Nuriddin **QOLQANOV**

**Tahrir hay’ati:**
Akbar **TASHKULOV**
Mirjalol **ALLAKULIYEV**
Shavkat **ASADOV**
Istam **ASTANOV**
Narzulla **JO‘RAYEV**
Odil **MUSAYEV**
Oybek **SIROJOV**
Eshmuxamad **KADIROV**
Shuhrat **RAXMANOV**
Saidillaxodja **SAIDXODJAYEV**
Shuxrat **OTAQULOV**
Murodjon **MAXKAMOV**
Farrux **JURAYEV**
Irodaxon **YULDASHOVA**
Nilufar **XALILOVA**
Nadejda **KORABLYOVA**
Niyyora **SAITOVA**

**Mas’ul muharrir:**
Husan **NISHONOV**

**Dizayner:**
Faxriddin **RAHIMOV**

**Sahifalovchi:**
Malohat **TOSHOVA**

"O‘zbekiston sud ekspertizasi" huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda 1185-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg‘ona yo‘li ko‘chasi.
Telefonlar:
(71) 209-11-55 (153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: www.sudex.uz
e-mail: info@sudex.uz
facebook.com/sudex.uz
telegram.me/sudex.uz

Jurnal 31.03.2026-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

"Reliable Print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.

# SUD EKSPERTIZASI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA YUQORI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ODIL SUDLOVNI TA’MINLASHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

*Xalilov Akram Utamurodovich,*
*X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi direktori, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada sud ekspertizasi tizimini raqamlashtirish va yuqori texnologiyalar asosida rivojlantirishning odil sudlovni ta’minlashdagi roli va ahamiyati tahlil qilingan. Unda sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, zamonaviy axborot tizimlari, sun’iy intellekt, DNK tahlili, raqamli ekspertiza usullari hamda xalqaro hamkorlik masalalari yoritilgan. Shuningdek, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari asoslab berilgan. Maqola sud ekspertizasi faoliyatining samaradorligini oshirish, xolislik va ishonchlilikni ta’minlash hamda inson huquqlarini himoya qilishdagi ahamiyatini ochib beradi.

**Kalit so‘zlar:** sud ekspertizasi, raqamlashtirish, yuqori texnologiyalar, sun’iy intellekt, DNK tahlili, “E-ekspertiza”, elektron hujjat almashinuvi, sud-tergov jarayoni, kripto-aktivlar, xalqaro hamkorlik.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье проведен комплексный анализ роли и значения цифровизации, а также внедрения высоких технологий в систему судебной экспертизы как одного из ключевых факторов обеспечения справедливого правосудия. Рассмотрены нормативно-правовые основы развития судебно-экспертной деятельности, особенности внедрения современных информационных систем, технологий искусственного интеллекта, методов ДНК-анализа и цифровых инструментов проведения экспертиз. Особое внимание уделено вопросам документооборота и расширения международного сотрудничества в данной сфере. Кроме того, выявлены актуальные проблемы отрасли и предложены возможные пути их решения. В статье раскрывается значение судебной экспертизы в повышении эффективности правосудия, обеспечении объективности судебно-следственного процесса и защите прав человека.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, цифровизация, высокие технологии, искусственный интеллект, ДНК-анализ, Е-экспертиза, электронный документооборот, судеб-

но-следственный процесс, криптоактивы, международное сотрудничество.

**Annotation:**

This article analyzes the role and significance of digitalization and the introduction of advanced technologies in the forensic examination system in ensuring fair justice. It examines the legal framework for improving forensic activities, the implementation of modern information systems, artificial intelligence, DNA analysis, digital forensic methods, and international cooperation. The paper also identifies existing challenges in the field and proposes practical solutions. The study highlights the importance of forensic expertise in enhancing the efficiency, objectivity, and reliability of judicial processes, as well as in protecting human rights.

**Keywords:** forensic examination, digitalization, advanced technologies, artificial intelligence, DNA analysis, e-forensics system, electronic document exchange, judicial investigation process, crypto-assets, international cooperation.

Bugungi kunda adolatli sudlovni ta’minlash har qanday huquqiy davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Sudlarda ishlarni ko‘rib chiqishda haqiqatni aniqlash ko‘p jihatdan sud ekspertizasi xulosalariga bog‘liq. Ayniqsa, ilm-fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda sud ekspertizasida yuqori texnologiyalardan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bois, so‘nggi yillarda sud-huquq tizimining ajralmas bo‘g‘ini bo‘lgan sud ekspertiza sohasi yurtimizda olib borilayotgan islohotlar jarayonida alohida e’tibor markazida turibdi. Bugungi kunda ushbu yo‘nalishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ekspertiza faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash, ekspertlarning malakasini oshirish hamda qonunchilik bazasini yanada takomillashtirish bo‘yicha qator tashabbuslar ilgari surilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida sud-huquq tizimini isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini samarali himoya qilish borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar sud ekspertizasi tizimiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, so‘ngi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmonlari va qarorlarida sud ekspertizasining ilmiy-uslubiy asoslarini mustahkamlash, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish hamda ekspertiza muassasalarining mustaqilligini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan.

Jumladan, 2025-yil 8-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 270-son qarori qabul qilindi. Mazkur qarorda sud-ekspertlik faoliyatining samaradorligini oshirish, jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan

keng foydalanish hamda elektron hujjat almashuvini yo'lga qo'yish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mazkur qaror sud va tergov organlari xodimlari faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u ekspertiza xulosalarining tezkor, xolis va aniq bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, elektron hujjat almashuvi joriy etilishi orqali vaqt va resurslar tejaladi hamda ish yuritish samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Qarorga ko'ra, sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy maqsadlari etib quyidagilar belgilandi:

– sud-ekspertlik faoliyatini **raqamlashtirish** va **sun'iy intellektdan foydalanish** orqali tadqiqotlarning tezkorligi, xolisligi va to'liqligini ta'minlash;

– sud-ekspertiza tashkilotlari hamda ekspertiza tayinlovchi organlarning **axborot tizimlarini o'zaro integratsiya qilish** orqali **elektron hujjatlar almashinuvi** hajmini **100 foizga** yetkazish.

– sud-tergov organlarining mavjud ehtiyojlaridan kelib chiqib, **davlat sud ekspertiza muassasalarida** o'tkaziladigan ekspertiza turlari sonini **90 taga** yetkazish hamda **hududiy bo'limlarida** ekspertizalar hajmini ikki **barobarga** oshirish;

**– nodavlat sud ekspertiza instituti rolini kuchaytirish** va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali ekspertiza tadqiqotlaridagi ulushini **5 barobarga oshirish;**

– davlat sud ekspertiza muassasalarining **akkredatsiyadan o'tgan laboratoriya va bo'limlari sonini 4 barobarga ko'paytirish**.

– Qarorda shuningdek, sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida Adliya vazirligi, Bosh prokuratura, Ichki ishlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati tizimidagi sud-ekspertiza muassasalari, ularning hududiy bo'linmalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida **"E-ekspertiza"** axborot tizimini joriy etish belgilangan.

Bundan tashqari, qarorda sun'iy intellekt yordamida sodir etilgan huquqbuzarliklarni aniqlash, raqamli fotosurat va videoyozuvda montaj belgilarini fosh etish kabi zamonaviy ekspertiza turlarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Hududlarda o'tkaziladigan ekspertiza turlarini ko'paytirish orqali tizimni nomarkazlashtirish va kelgusida hududiy ekspertiza turlarini **35 tadan 50 tagacha yetkazish** rejalashtirilgan.

Mazkur islohotlarni amalga oshirish zamonaviy texnik vositalarni joriy etishni ham taqozo etadi. Shu bois, **86 ta** laboratoriyani zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, hududlarda



**15 ta** yangi laboratoriya tashkil etilish hamda **25 ga yaqin yangi ekspertiza turlarini amaliyotga** joriy etish ko‘zda tutilgan.

Sud ekspertlari tomonidan foydalanilayotgan tadqiqot uslubiyotlarini yangilash hamda ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida xorijiy davlatlarga doimiy ravishda stajirovkalarga yuborish belgilab qo‘yildi. Tadqiqot uslubiyotlarini yagona reyestr yuritilishi hamda yagona amaliyot yo‘lga qo‘yilishi ham ko‘zlangan bo‘lib, bu orqali xulosalarning ishonchliligi yanada oshirilishiga erishiladi.

Shuningdek, avtohalokat joyini 3D modellashtirishni yo‘lga qo‘yish belgilandi. Ushbu tadqiqot turi transport vositalari ishtirokidagi yo‘l-transport hodisasi joyini, u yerdagi izlar, obyektlar, yo‘l infratuzilmasini qayta tiklash va virtual modellashtirish imkonini beradi. Bu borada **Turkiya davlati bilan hamkorlik o‘rnatilib, ularning tajribasi o‘rganilmoqda.**

Shuningdek, quyidagi yangi tadqiqot turlarini joriy etish nazarda tutilgan:

* videoyozuvda hamda raqamli fotosuratda montaj belgilarini aniqlash;

* elektron raqamli imzolarning haqiqiyligini aniqlash;

* tovar nomenklaturasi kodini aniqlash;

* avtohalokat joyini skanerlangan ma’lumotlarga asosan modellashtirish;

* kripto-aktivlarning miqdori va turlarini aniqlash;

* sun’iy intellekt orqali sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni aniqlash;

* poligraf uskunasi yordamida insonning psixofiziologik holatini aniqlash;

* imo-ishoralar orqali haqorat qilishga doir holatlarni tadqiq etish.

Shu bilan birgalikda, sud ekspertizasi xulosalarining ishonchliligini yanada oshirish hamda sohani ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash maqsadida sud-ekspertiza tadqiqotlarining xalqaro tan olingan usul va uslubiyotlarini validatsiyadan o‘tkazish (sohada qo‘llashning maqsadga muvofiqligini baholash) tartibini joriy qilish ham sud ekspertizasi faoliyatiga albatta ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Shuningdek, ekspertiza tadqiqotlarini o‘tkazishda shaffoflik va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida sud ekspertlari obyektlarini ko‘zdan kechirish uchun joylarga chiqqanda majburiy ravishda mobil videokamera (bodikamera)lardan foydalanish tartibi yo‘lga qo‘yish belgilangan.

Qaror bilan Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi bilan kelishgan holda uchuvchisiz uchadigan apparatlar, ularning butlovchi va ehtiyot qismlarini xarid qilish, ulardan belgilangan tartibda foydalanish va saqlashga ruxsat berildi. Ushbu apparatlar avtotexnika, yong‘in-texnikaviy va sud-qurilish-texnikaviy ekspertizalarni o‘tkazishda hodisa joylari va tadqiqot obyektlarini ko‘rikdan o‘tkazishda katta ahamiyatga ega.

Qaror ijrosini ta’minlash, shuningdek, ekspertiza tayinlovchi organlar va sud-ekspertiza tashkilotlari o‘rtasida elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini to‘liq joriy etish maqsadida 2026-yil 20-fevralda Vazirlar Mahkamasining 74-sonli qarori bilan **“Sud ekspertizasini o‘tkazishda elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”** nizom tasdiqlandi.

Ushbu Nizom davlat sud-ekspertiza muassasalari, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari, shuningdek, sud-ekspertlik byurolarida hamda ekspertiza tayinlovchi organlar bilan “E-ekspertiza” elektron axborot tizimida elektron hujjatlar almashinuvi tartibini belgilaydi.

“E-ekspertiza” elektron axborot tizimining joriy etilishi sud ekspertizasi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqayotgan muhim islohotlardan biri sifatida baholanishi mumkin. Mazkur platforma orqali ekspertiza tayinlovchi organlar va sud-ekspertiza tashkilotlari o‘rtasida hujjatlar almashinuvining to‘liq elektron shaklga o‘tkazilishi, avvalo, ortiqcha byurokratik jarayonlarni qisqartirishga xizmat qiladi. Natijada hujjatlarni yuborish, qabul qilish va ko‘rib chiqish jarayonlari sezilarli darajada tezlashadi.

Shuningdek, elektron tizimning joriy etilishi inson omilini kamaytirib, xatoliklar ehtimolini pasaytiradi. An’anaviy qog‘oz shaklidagi hujjatlar aylanishida uchrashi mumkin bo‘lgan yo‘qotishlar, noto‘g‘ri rasmiylashtirish yoki kechikishlar kabi kamchiliklar raqamli tizim orqali bartaraf etiladi. Bu esa sud ekspertizasi xulosalarining ishonchliligini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Yana bir muhim jihat – tizim orqali ekspertiza jarayonining shaffofligi ta’minlanadi. Ekspertiza tayinlovchi organlar o‘zlari yuborgan ishlarning ijro holatini onlayn tarzda kuzatish imkoniyatiga

ega bo‘ladilar. Bu esa o‘z navbatida nazorat mexanizmlarini kuchaytiradi hamda ortiqcha aralashuvlar va subyektiv yondashuvlarning oldini oladi.

Mazkur Nizomda belgilangan tartiblar sud ekspertizasi jarayonini aniq bosqichlarga ajratgan holda, har bir ishtirokchining vakolatlari va majburiyatlarini belgilab beradi. Bu esa tizimli ishlashni ta’minlab, mas’uliyatni oshiradi. Ayniqsa, elektron raqamli imzo (ERI)dan foydalanish hujjatlarning huquqiy kuchini ta’minlash bilan birga, ularning haqiqiyligi va dahlsizligini kafolatlaydi.

Sud ekspertizasi jarayonida elektron hujjatlar almashinuvining joriy etilishi nafaqat ichki samaradorlikni oshiradi, balki xalqaro standartlarga moslashuvni ham ta’minlaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasida sud ekspertizasi faoliyatining raqamlashtirilganligi uning samaradorligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etilgan. Shu sababli, mazkur tizimni joriy etish O‘zbekistonning sud-huquq sohasida xalqaro integratsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Nizomda nazarda tutilgan axborot xavfsizligi choralariga alohida e’tibor qaratilgan. Elektron tizimlar orqali hujjatlar almashinuvi jarayonida ma’lumotlarning maxfiyligi, yaxlitligi va himoyasi ta’minlanishi muhim ahamiyatga ega. Bu esa sud ekspertizasi jarayoniga nisbatan ishonchni yanada oshiradi.

Kelgusida mazkur tizimni yanada takomillashtirish uchun bir qator yo‘nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalarini keng joriy etish, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlarini yaratish, ekspertlar malakasini oshirish hamda hududiy infratuzilmani rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, tizimdan foydalanishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnik muammolarni bartaraf etish va foydalanuvchilar uchun qulay interfeys yaratish ham muhim vazifalardan biridir.

Muhtaram Prezidentimizning 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasi belgilab berilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari hamda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi farmonida ham sud-ekspertlik sohasiga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur farmonda, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining hududiy bo‘limlarida o‘tkaziladigan ekspertiza turlarini kengaytirish orqali sud va tergov organlari faoliyati uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Mazkur qaror va farmonlar ijrosi natijasida sud-ekspertlik faoliyatida innovatsion ilmiy yo‘nalishlar izchil rivojlanib, zamonaviy texnologiyalar keng joriy etilmoqda hamda ilmiy asoslangan yangi ekspertiza turlarini yaratish va ularni amaliyotga tatbiq etish jarayoni jadallashmoqda.

Xususan, X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazida olib borilgan ilmiy-tadqiqot va amaliy ishlar natijasida keyingi 7 **yilda 24 ta yangi**, jumladan, Sud-lingvistika, Sud-kompyuter-texnik, Sud-avtomobil yo‘llari, Sud-elektrotexnika, Sud-psixologik, “Bank va tadbirkorlik sohasida boy berilgan foydani aniqlash tadqiqoti”, “Gaz va elektr texnika obyektlarining portlash-texnik ekspertizasi”, “Dendrologiya”, “Axloqshunoslik”, oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizasi, Sud-soliq, Oziq-ovqat mahsulotlarini baholash ekspertizasi, “Sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi”, “Sud psixologik-filologik ekspertizasi”, Radiotexnika ekspertizasi, “Parfyumeriya mahsulotlari ekspertizasi”, “Qurilish mollari tadqiqoti”, **“Oziq-ovqat mahsulotlarida genetik modifikatsiyalangan organizmlar (GMO) mavjudligini aniqlash ekspertizasi”** kabi yangi ekspertiza turlari yaratilinib, sud-ekspertlik amaliyotiga tatbiq etildi. Natijada Markazda amalga oshiriladigan **sud ekspertizasi turlari 44 tadan 68 taga oshdi, mutaxassislik yo‘nalishlari esa 119 taga** yetdi.

Hozirgi kunda xorijiy va mamlakatimizdagi boshqa sud ekspertiza muassasalari bilan hamkorlikda **30 tadan ortiq yo‘nalish bo‘yicha,** jumladan, Hayvonlar biologik materiallarini

identifikatsiya qilish, NJS texnologiyasi asosida murakkab murakkab turdagi qarindoshlikni aniqlash, Zararli dasturlar va ulardan qolgan izlar tadqiqoti, Bulutli servis xizmatlari va boshqa tadqiqotlarni yaratish hamda amaliyotga joriy qilish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda yuqori texnologiyalarni keng joriy qilish, xususan, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data), raqamli modellashtirish, avtomatlashtirilgan diagnostika tizimlari hamda zamonaviy laboratoriya uskunalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa murakkab ekspertiza obyektlarini chuqur va har tomonlama tahlil qilish, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish hamda tadqiqot natijalarining aniqligi va ishonchliligini sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ilg‘or texnologiyalarning qo‘llanilishi ilmiy-tadqiqot jarayonlarini optimallashtirib, yangi turdagi ekspertiza metodikalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tezkor joriy etish uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Markaz laboratoriyalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida, laboratoriyalar ISO/IYEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiyadan o‘tkazilib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘ldi. Mazkur akkreditatsiya Markazga tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida bajarish imkonini beradi hamda laboratoriyalar tomonidan berilgan xulosalarning xalqaro miqyosda shubhasiz tan olinishi bilan birgalikda fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini nafaqat mamlakatimiz hududida, balki xalqaro sudlarda ham ishonchli himoya qilinishiga hamda odil sudlov ta’minlanishiga xizmat qiladi.

Dalillarni DNK tahlili asosida aniqlash jahon amaliyotida o‘zining yuqori samaradorligini isbotlagan bo‘lib, huquqni muhofaza qilish faoliyatida ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning sud ekspertiza xulosalariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda ularga yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida, tegishli normativ-huquqiy hujjatlar asosida hududlarda zamonaviy laboratoriyalar tashkil etilmoqda. Jumladan, Samarqand viloyatida Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi hamda materiallar, ashyolar va buyumlarning kriminalistik ekspertizasi laboratoriyalari, Xorazm va Farg‘ona viloyatlarida esa Odam DNKsi



sud-biologik ekspertizasi laboratoriyalari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, ushbu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilib, Surxondaryo viloyatida ham Odam DNKsi sud-biologik hamda materiallar, ashyolar va buyumlarning kriminalistik ekspertizasi laboratoriyalari tashkil etildi.

Bundan tashqari, Markazda Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi bo‘yicha murojaat qilgan shaxslarning shaxsiga doir ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlashga qaratilgan zamonaviy tartib joriy etilgan. Mazkur tartibga ko‘ra, anonim murojaat qilgan shaxslar haqidagi ma’lumotlar maxsus identifikatsiya belgilar asosida qayd etilib, tadqiqotlar aynan shu belgilar orqali amalga oshiriladi. Bu esa shaxsga doir ma’lumotlarning oshkor etilishini oldini olish bilan birga, tadqiqotlarning xolisligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

DNK tahlillaridan yanada keng va samarali foydalanish uchun, ayrim toifadagi shaxslarning, xususan potensial jihatdan jinoyatlarni sodir etishga moyilligi bo‘lgan shaxslar DNK profillarining ma’lumotlar bazalarini yaratish maqsadida Markazda **“DNA Expert”** avtomatlashtirilgan dasturiy kompleksidan iborat bo‘lgan DNK ma’lumotlar bazasi ishlab chiqilgan. Hozirda laboratoriya ma’lumotlar bazasiga bir necha turkumlar bo‘yicha jami 40 mingdan oshiq genotiplar kiritilgan.

So‘ngi besh yil ichida ushbu baza yordamida nafaqat mamlakatimizda, balki yaqin xorij davlatlardagi shaxsga qarshi og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarni sodir etgan xavfli jinoyatchilarning shaxsi aniqlandi.

Shuningdek, bugungi kunda NJS texnologiyasi Markazda joriy etilgan bo‘lib, bir vaqtning o‘zida autosom STR, Y va X xromosoma, SNP va mitoxondrial DNK markerlari asosida voqea joyida qoldirilgan biologik izdan uning egasini fenotipik belgilari – sochini, ko‘zini, tanasini rangi, uning irqi, taxminiy bo‘y bastini aniqlash asosida jinoyatlarni tezkor fosh etishga zamin yaratiladi.

Ushbu texnologiyaning yana bir muhim afzalliklari shuki, homiladorlik vaqtida biologik otalikni aniqlash imkoniyati mavjud, ya’ni ona qonidan homilaning (tug‘ilmagan bolaning) DNKsi tekshirish orqali biologik otalikni bilish imkoniyati yaratildi. Oldin esa bu turdagi tadqiqotni Amniotsintez kabi invaziv (jarrohlik) usullar bilan qilinar edi. Bu texnologiya xavfsiz va noinvaziv tekshiruv usul hisoblanadi.

Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-texnologik yutuqlar sud ekspertizasi amaliyotida DNK tahlilining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirib, nafaqat shaxsni identifikatsiya qilish, balki uning biologik va fenotipik xususiyatlarini aniqlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, genetik tadqiqotlarning rivojlanishi boshqa muhim sohalarda, xususan, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So‘nggi paytlarda dunyoning ko‘pgina mamlakatlaridagi oziq-ovqat do‘konlarida genetik modifikatsiyalangan organizm(GMO)lar mavjud mahsulotlarning turi va soni ortmoqda.

Shu bilan birga, GMO mahsulotlarini iste’mol qilishning ziyon va xavflari haqida bir qator ma’lumotlar mavjud. GMO mahsulotlarini nazoratdan o‘tkazmasdan foydalanish nafaqat aholi salomatligiga, balki kelajak naslimizga va millat genofondiga ham jiddiy xavf solishi mumkin. GMO ichki organlar patologiyasi, allergiya, onkologiya, shuningdek, bepushtlikni keltirib chiqarishi mumkinligi aniqlangan.

Shunga ko‘ra, Markazda genetik modifikatsiyalangan organizm (GMO) ekspertizasini joriy etish, buning uchun lozim bo‘lgan uslubiyatlarni ishlab chiqish, xodimlarni bu borada malakasini oshirish hamda zarur bo‘lgan texnologiyalar bilan ta’minlash, shuningdek, Genetik jihatdan o‘zgartirilgan organizmlar (GMO) munosabatini tegishli normativ-huquqiy hujjat bilan tartibga solish bo‘yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda Markazda sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish va avtomatlashtirish maqsadida zamonaviy dasturiy ta’minotlarni joriy etish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, turli yo‘nalishdagi ekspertiza jarayonlarini optimallashtirish, ish samaradorligini oshirish hamda inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirish maqsadida ilg‘or axborot tizimlari amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.

Jumladan, Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi laboratoriyasida ish yuklamalari va hujjat aylanishini samarali boshqarish uchun mo‘ljallangan LIMS (Laboratory Information Management System) dasturiy ta’minoti Markaz mutaxassislari tomonidan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Mazkur tizim

laboratoriya jarayonlarini raqamlashtirish, ma’lumotlarni tizimli saqlash va tezkor qayta ishlash imkonini berib, ekspertiza faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda.

Shu bilan birga, Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi yo‘nalishida murakkab qarindoshlik aloqalarini aniqlashga qaratilgan “DNA Helper” nomli ko‘p funksiyali elektron dasturiy ta’minot ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi. Ushbu dastur biologik opa-singil, aka-uka, bobo-buvi kabi ikkinchi darajali qarindoshlik darajalarini aniqlashda yuqori aniqlikdagi hisob-kitoblarni amalga oshirish imkonini beradi.

Markazning sud-avtotexnika ekspertizasi laboratoriyasi hamda uning hududiy bo‘linmalarida “DTP Expert” dasturiy ta’minoti joriy etilgan bo‘lib, u yo‘l-transport hodisalari bilan bog‘liq holatlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mazkur dastur yordamida videotasmalar asosida transport vositalarining harakat tezligi aniqlanib, hodisa mexanizmini aniq rekonstruksiya qilish imkoniyati yaratiladi. Dasturdan foydalanish Turkiya tajribasi asosida markazlashgan tartibda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bugungi kunda barcha hududiy ekspertlar tomonidan samarali qo‘llanilmoqda.

Bundan tashqari, Markazning sud-qurilish-texnikaviy ekspertizasi yo‘nalishida “AutoCAD” va “ABC” kabi zamonaviy dasturiy vositalardan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu dasturlar yordamida uy-joylarni bo‘lish, yer maydonlari chizmalarini tayyorlash, shuningdek, smeta hujjatlarining amaldagi SHNK talablariga muvofiqligini aniqlash ishlari yuqori aniqlikda amalga oshirilmoqda. Mazkur dasturiy vositalardan foydalanish ham markazlashgan tartibda yo‘lga qo‘yilib, hududiy ekspertlar faoliyatiga keng joriy etilgan.

Sud-ballistika va izshunoslik ekspertizasi laboratoriyasidan esa avtotransport vositalarining dvigatel va kuzov qismlaridagi identifikatsion belgilarni aniqlashga mo‘ljallangan “ELVIN” nomli zamonaviy vizualizator uskunasidan foydalanilmoqda. Ushbu qurilma bo‘yoq qatlami ostida yashiringan belgilarni sirtga zarar yetkazmasdan aniqlash imkonini berib, ekspertiza natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ham muhim strategik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda Markaz tomonidan ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish, zamonaviy ekspertiza metodikalarini joriy etish hamda xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan o‘zaro hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, **Markaz Osiyo sud ekspertiza tarmoqlari (AFSN)** hamda **Butunjahon sud ekspertizasi xalqaro assotsiatsiyasi (IAFS)** ning to‘laqonli a’zosi sifatida faol ishtirok etib, xalqaro miqyosda tajriba almashish, ilg‘or ilmiy yutuqlarni o‘zlashtirish va milliy sud-ekspertlik tizimini rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ushbu a’zolik Markaz faoliyatini xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etish, ekspertiza metodikalarini takomillashtirish hamda xulosalarning xalqaro miqyosda tan olinishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, **Koreya Respublikasining Incheon shahrida** o‘tkazilgan **Osiyo sud ekspertiza tarmoqlarining 17-yalpi yig‘ilishi**da Markaz delegatsiyasining faol ishtiroki natijasida O‘zbekistonda sud-ekspertlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuqori baholandi. Mazkur e’tirofning amaliy ifodasi sifatida **AFSNning 2028-yilga mo‘ljallangan 20-yalpi yig‘ilishi**ni O‘zbekiston Respublikasining Samarqand shahrida o‘tkazish to‘g‘risida qaror bir ovozdan qabul qilindi.

Bu esa, o‘z navbatida, mamlakatimizda sud-ekspertlik sohasining xalqaro maydondagi nufuzi ortib borayotganidan dalolat berib, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga keng joriy etish, zamonaviy texnologiyalar asosida yangi ilmiy yo‘nalishlarni rivojlantirish hamda sud ekspertizasi faoliyatining samaradorligini yanada oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik doirasida erishilgan amaliy natija sifatida joriy yilning 18 mart kuni Respublika sud ekspertiza markazida Toshkent davlat yuridik universiteti, Hindiston Milliy kriminalistika fanlari universiteti hamda “Axon System Technologies” kompaniyasi hammuassisligida Raqamli sud ekspertizasi va tadqiqot markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur markaz mamlakatimizda yuridik ta’limni yanada rivojlantirish, talabalarning amaliy bilim va ko‘nikmalarini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni o‘quv jarayonlariga keng joriy etish, sud-ekspertiza sohasini raqamlashtirish,

unga sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish hamda raqamli sud ekspertizasi sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda sud-ekspertlik sohasi jadal rivojlanib, unda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar keng joriy etilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida **quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq** hisoblanadi.

**Birinchidan**, ekspertlarning ortiqcha ish yuklamasini kamaytirish uchun sud-ekspertlik muassasalarida kadrlar salohiyatini oshirish, yangi mutaxassislarni tayyorlash va amaliyotga jalb etish bilan bir qatorda, ekspert ish yuklamasini ilmiy asoslangan holda to‘g‘ri belgilashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqish zarur. Mazkur hujjat orqali har bir ekspertiza turi bo‘yicha me’yoriy yuklama chegaralarini aniq belgilash, ish hajmini taqsimlash hamda ekspert faoliyatining sifat ko‘rsatkichlarini ta’minlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ayrim ekspertiza turlarini avtomatlashtirish, sun’iy intellekt asosidagi dasturiy yechimlarni joriy etish hamda hududlar kesimida nomarkazlashtirish orqali mavjud yuklamani optimallashtirish mumkin.

**Ikkinchidan**, “E-ekspertiza” axborot tizimini boshqa idoraviy axborot tizimlari bilan to‘liq integratsiyalash, hujjatlar almashinuvi jarayonini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish va yagona raqamli platforma asosida ishlashni ta’minlash lozim. Bunda tizimlar o‘rtasidagi texnik nomuvofiqliklarni bartaraf etish, dasturiy interfeyslarni (API) takomillashtirish hamda foydalanuvchilar uchun qulay va tushunarli interfeys yaratish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, xodimlarning raqamli ko‘nikmalarini oshirish orqali tizimlardan samarali foydalanish darajasini yuksaltirish zarur.

**Uchinchidan**, bugungi kunda O‘zbekistonda ham kriptovalyuta bozorining hajmi oshib bor-



ishini inobatga olgan holda, kriptovalyuta va raqamli aktivlar bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida sud-ekspertlik faoliyatida yangi ixtisoslashgan yo‘nalishlarni rivojlantirish zarur. Xususan, Markazda kripto-aktivlar bilan bog‘liq ilmiy-tadqiqot ishlari tizimli ravishda, tasdiqlangan rejalar asosida olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar doirasida blokcheyn texnologiyalarini tahlil qilish, raqamli tranzaksiyalarni kuzatish va identifikatsiya qilish metodikalarini ishlab chiqish, zamonaviy dasturiy vositalarni joriy etish hamda xalqaro tajribani o‘rganish bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mazkur sohada normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va ekspertiza metodikalarini amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida qayd etilgan farmonlar, qarorlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar sud-ekspertlik sohasini kompleks modernizatsiya qilishga qaratilgan yagona tizimli yondashuvni shakllantirmoqda. Mazkur islohotlar doirasida hududiy bo‘linmalar faoliyatini kengaytirish, ekspertiza turlarini ko‘paytirish, ilg‘or ilmiy yutuqlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, ekspertiza jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish orqali elektron hujjatlar almashinuvini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan.

Natijada sud ekspertizasi faoliyatining tezkorligi, aniqligi va xolisligi sezilarli darajada oshib, inson omiliga bog‘liq xatoliklar kamaymoqda, shaffoflik va nazorat mexanizmlari kuchaymoqda. Bu esa, o‘z navbatida, sud-tergov organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, ishlarni ko‘rib chiqish muddatlarini qisqartirish hamda asosli va adolatli qarorlar qabul qilinishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, sud-ekspertlik faoliyatining xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirilishi, ilmiy-tadqiqot ishlarining kengaytirilishi hamda innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham ekspertiza xulosalarining tan olinishi va ishonchliligini ta’minlamoqda. Bu esa fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari uchun yanada qulay huquqiy muhit yaratib, ularning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sud-ekspertlik sohasida amalga oshirilayotgan ushbu tizimli islohotlar qonun ustuvorligini mustahkamlash, odil sudlovni ta’minlash hamda jamiyatda huquqiy ishonchni oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-270-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-fevraldagi “Sud ekspertizasini o‘tkazishda elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 74-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risidagi PF 22-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi PQ-270-son qaroriga 2-ILOVA “2025 – 2027-yillarda davlat sud-ekspertiza muassasalarining moddiy-texnika bazasini yangi zamonaviy uskuna va jihozlar bilan ta’minlash” DASTURI.

# ISTE’FO INSTITUTINING KONSTITUTSIYAVIY TAHLILI:

# NAZARIY VA AMALIY MASALALAR

*Qodirov Eshmuhammad Omonturdiyevich,*
*Toshkent davlat yuridik universiteti “Konstitutsiyaviy huquq” kafedrasi professori, yuridik fanlar doktori*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur tezisda Yangi O‘zbekistonda davlat organlarida mansabdor shaxslar o‘rtasida iste’fo institutining protsessual va o‘ziga xos jihatlari konstitutsiyaviy ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, iste’fo huquqiy hodisa sifatida erkin, o‘z xohish-irodasiga ko‘ra va majburiy xarakter xususiyatiga egaligi tahlil qilingan, ularning bugungi kundagi dolzarbligi masalasi tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** davlat organlari, ijro organlari, iste’fo, iste’fo instituti, majburiy iste’fo, mansabdor shaxs, konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq, mehnat huquqi, huquqiy hodisa, huquqni qo‘llash amaliyoti, erkin iste’fo.

**АННОТАЦИЯ**

В данном тезисе с конституционно-правовой и научно-теоретической точек зрения анализируются процессуальные и специфические аспекты института отставки должностных лиц в государственных органах Нового Узбекистана. Также анализируется отставка как правовое явление, обладающее характеристиками свободного волеизъявления, добровольности и принудительного характера, и исследуется актуальность этих вопросов на современном этапе.

**Ключевые слова:** государственные органы, исполнительные органы, отставка, институт отставки, принудительная отставка, должностное лицо, конституционное право, административное право, трудовое право, правовое явление, правоприменительная практика, добровольная отставка.

**ANNOTATION**

This thesis analyzes the procedural and specific aspects of the institution of resignation among officials in state bodies of New Uzbekistan from a constitutional scientific and theoretical perspective. It also examines resignation as a legal phenomenon with characteristics of free will, voluntary action, and mandatory nature, investigating the relevance of these issues today.

**Keywords:** state bodies, executive bodies, resignation, institution of resignation, forced resignation, official, constitutional law, administrative law, labor law, legal phenomenon, law enforcement practice, voluntary resignation.

## KIRISH

Iste’fo o‘ziga xos huquqiy institut sanalib, u shaxsning o‘z xizmat vakolatini erkin, o‘z xohishiga ko‘ra yoki siyosiy vakolatidan kelib chiqib to‘xtatishini anglatadi. Iste’fo tushunchasi yuridik fanda subyektning egallab turgan lavozimi yoki siyosiy-huquqiy maqomini belgilangan tartibda to‘xtatishga yo‘naltirilgan xohish-istagini bildiradi.

Yangi O‘zbekistonda ham qator davlat organlarida mansabdor shaxslar o‘rtasida iste’fo institutining huquqiy mexanizmi amalda rivojlanayotgani bois iste’foning tarixi va huquqiy asosda rasmiylashtirish masalasiga qiziqish kuchaymoqda. Qator subyektlarga nisbatan qo‘llanilayotgan iste’foning aksariyat qismi davlat organlarida Respublika va hududiy darajalarda konstitutsiyaviy, ma’muriy va mehnat huquqi doirasida amalda keng qo‘llanilayotgani, iste’fo institutini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga zarurat borligini ko‘rsatadi.

Iste’fo, ilmiy-nazariy jihatdan, odatda quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

Birinchidan, shaxsning tashabbusiga ko‘ra, ya’ni o‘z xohish-istagiga asosan erkin amalga oshiriladi;

Ikkinchidan, uning rasmiylashtirilishi o‘rnatilgan qonunchilik asosida belgilangan tartibni talab qiladi yoxud iste’foning rasmiy tavsifi bilan izohlanadi;

Uchinchidan, tegishli organ va uning subyekti o‘rtasidagi mehnat va hokimlik-rahbarlik munosabatlarining to‘xtatilishi yoxud yuridik oqibati hisoblanadi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda iste’fo institutining konstitutsiyaviy-huquqiy mohiyatini chuqur va tizimli tahlil qilish maqsadida zamonaviy huquqiy tadqiqot metodlari majmuasi qo‘llanildi.

Birinchidan, dialektik metod asosida iste’fo institutining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda davlat hokimiyati tizimidagi o‘rni o‘zaro bog‘liqlik va uzviylikda tahlil qilindi. Ushbu metod iste’fo institutining nazariy asoslari bilan uning amaliy qo‘llanilishi o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash imkonini berdi.

Ikkinchidan, formal-yuridik metod orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, konstitutsiyaviy qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda iste’fo institutiga oid normalarning mazmuni, tuzilishi va huquqiy texnikasi o‘rganildi.

Uchinchidan, tizimli tahlil metodi yordamida iste’fo instituti konstitutsiyaviy-huquqiy institutlar tizimida (mas’uliyat, vakolatlarni tugatish, ishonchsizlik votumi va boshqalar) tutgan o‘rni aniqlanib, uning boshqa institutlar bilan o‘zaro aloqasi yoritildi.

To‘rtinchidan, qiyosiy-huquqiy metod asosida rivojlangan xorijiy davlatlar (AQSH, Fransiya, Germaniya va boshqalar) konstitutsiyalarida iste’fo institutining tartibga solinishi tahlil qilinib, ularning ijobiy tajribasi va milliy huquq tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari baholandi.

Beshinchidan, mantiqiy (analiz va sintez) metodlar orqali nazariy qarashlar umumlashtirildi, muammoli jihatlar aniqlanib, ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

## TADQIQOT NATIJALARI

Shuningdek, tadqiqotda tarixiy-huquqiy metoddan foydalanilib, iste’fo institutining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari o‘rganildi. Amaliy materiallar tahlilida esa huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish metodi qo‘llanildi.

Shu o‘rinda, “iste’fo” va “ishdan bo‘shatish” tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim. Chunki dastlabki tushunchada subyektning o‘zi – mustaqil ravishda, keyingi tushunchada esa – vakolatli organ qaror qabul qiladi. Shunday qilib, iste’fo – shaxsning o‘z xizmat vakolatini tegishli yuridik oqibatlarga ko‘ra va huquqda belgilangan tartibda erkin hamda mustaqil ravishda zimmasidan soqit qilishi hisoblanadi.

Bugungi kunda milliy huquqshunoslik fanida maxsus iste’fo institutining protsessual va o‘ziga xos jihatlari tahliliga bag‘ishlangan yaxlit tadqiqotlar kamligini qayd etish joiz. Tadqiqotchilar iste’fo institutining faqat ayrim

jihatlari (masalan, ijro organlari va davlat boshlig‘i kabi ba’zi subyektlarni) tadqiq etishib, iste’fo institutining yaxlit huquqiy hodisa ekanligiga e’tibor qaratishmagan. Tabiiyki, bunday holatni bartaraf etish vaqti keldi. Muammoning yechimi esa dastlab masalaga kompleks yondashib, uni zamonaviy konstitutsiyashunoslik va qonunchilik hamda huquqni qo‘llash amaliyoti nuqtayi nazaridan hal etilishi mumkinligida ko‘rinadi.

Mazkur masalaning o‘rganilganlik darajasi milliy yurisprudensiya yo‘nalishida iste’fo masalasiga bag‘ishlangan monografik tadqiqot yoxud ilmiy maqolaning ham kamligi bilan xarakterlanadi. Iste’fo institutining ayrim jihatlari rus huquqshunos olimlari A.S.Avtonomova, L.A.Okunkova,V.Y.Chirkina hamda T.A.Nesterova[1], Y.V.Xolodova[2]larning disssertatsiya ishlarida V.Y.Chirkina hamda T.A.Nesterova, Y.V.Xolodovalarning dissertatsiya ishlarida va N.M.Kolosova, M.A.Krasnova, I.N.Barsis, D.T.Shona hamda Y.P.Yeremenko, A.M.Vasileva, T.D.Zrajevskaya, T.A.Bobrovlar tomonidan tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur masalaning ba’zi tomonlari taniqli rus konstitutsionalist olimlari S.A.Avakyan, N.V.Baglay, B.A.Strashun, Y.I.Kozlova va O.Y.Kutafinlarning tadqiqotlarida ham ayrim jihatlari ochib berilgan.

Iste’fo – funksional huquqiy hodisa sanaladi. U qator huquq sohalari doirasida, asosan konstitutsiyaviy huquq faoliyatida ko‘p qo‘llaniladi. Iste’foning qanday bosqichda qo‘llanilishi to‘g‘ri ekanligi yuridik adabiyotlarda o‘rganilmagan. Natijada iste’fo institutining amaldagi qonunchilikda asosan konstitutsiyaviy huquq va huquqni qo‘llash amaliyotida rivojlanish qonuniyatida murakkabliklar yuzaga keladi. Fikrimizcha, mazkur hodisalarning barchasi iste’fo institutining ham nazariy va ham amaliy jihatdan dolzarbligini ko‘rsatadi.

## TADQIQOT NATIJALARI TAHLILI

Bizningcha, iste’fo mavzusini quyidagi nuqtayi nazardan tahlil va tadqiq etish maqsadga muvofiq:

- iste’foning tarixan vujudga kelishi va taraqqiy etishini o‘zbek davlatchiligining tarixiy tajribasi, sobiq ittifoq davri hamda Yangi O‘zbekistonning qonunchiligi nuqtayi nazaridan umumnazariy jihatdan tahlil etish samarali hisoblanadi;
- iste’foni huquqiy hodisa va tushuncha sifatida konstitutsiyaviy huquq, ma’muriy huquq va mehnat huquqi kabi tarmoqlararo reja asosida ko‘rib chiqish mantiqan asosli bo‘ladi;
- davlat organlaridagi mansab lavozimlarini ijro etish jarayonini to‘xtatish bilan bog‘liq munosabatlarni yuridik normalar asosida tartibga solishning ixcham yig‘indisi sifatida institutsional nuqtayi nazardan tahlil etish ham optimal yondashuv sanaladi;
- iste’foning markaziy va hududiy darajadagi umumiy va maxsus o‘ziga xos xususiyatlarini amaldagi qonunchilik asosida aniqlash, shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish yordamida qiyosiy huquqshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish ham bu boradagi tadqiqotlarning ko‘lamini kengaytirishi shubhasiz.

Iste’fo mazmun va mohiyati hamda o‘z belgilariga ko‘ra, o‘z xohishiga ko‘ra erkin va majburiy xarakter xususiyatiga ega bo‘ladi. Erkin, o‘z xohishiga ko‘ra iste’fo – bu o‘z xohish-irodasiga asosan subyektning o‘z vakolatlarini ijro etishni to‘xtatishi hisoblanadi. Mamlakatimiz qonunchiligiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti oliy lavozimi, Vazirlar Mahkamasi, Respublika davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari mansabdor shaxslarining erkin, o‘z xohishiga ko‘ra iste’fosi Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan. Majburiy iste’fo – bu subyektning o‘z vakolatini bajarishni, uning xohish-irodasidan qat’i nazar, boshqa davlat organining yoki mansabdor shaxsning mavjud vaziyatdagi qonunchilik talablaridan kelib chiqib majburan iste’foga chiqarilishini anglatadi. Majburiy iste’foga yaqqol misol sifatida O‘zbekiston Prezidentining qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasining

---

[1] Нестерова Т.А. Дисс… канд. юрид. наук “Правовое регулирование трудовых отношений при прохождении службы в прокуратуре как в особом классе федеральной государственной службы в России” Пермь, 1999 г..

[2] Холодова Е.В. Дисс… канд. юрид. Наук “Правовое регулирование труда государственных служащих” М, 1995 г.



iste’fosini keltirish mumkin. Shuningdek, davlat rahbari tomonidan o‘z sha’niga dog‘ tushiradigan xatti-harakatlar sodir etgan tuman va shahar hokimlarining majburiy iste’foga chiqarilishi ham misol bo‘la oladi.

## XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur maqoladan kutilayotgan asosiy maqsad, masalaning dolzarbligi va uning zaruratidan kelib chiqib, iste’fo institutining huquqiy hodisa sifatida O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunchiligida mustahkamlangan tartibda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilib, tadqiq etilishidan iborat.

Ushbu qo‘yilgan maqsad, quyidagi vazifalarning amalga oshirilishiga:

- iste’foning huquqiy hodisa sifatida vujudga kelishi va rivojlanishining mohiyatini aniqlash;
- iste’fo huquqiy institutining mazmun-mohiyatini tahlil qilish orqali uning konstitutsiyaviy, ma’muriy, mehnat huquqi va alohida tarmoqlar tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- har bir subyekt iste’fosining o‘ziga xos tartibi va xususiyatlarini, moddiy-huquqiy jihatlarini alohida ko‘rsatib berish;
- iste’foning huquqiy oqibatini yoritib berish;
- tadqiq qilinayotgan huquqiy hodisaning istiqbolini belgilash va qonunchilik hamda huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha aniq takliflar berishga zamin yaratadi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Yuridik adbiyotlar publish, 2023. – 112-b.
2. Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “Tasvir” nashriyot uyi, 2020. – 72 b.
3. Нестерова Т.А. Дисс канд. юрид. наук “Правовое регулирование трудовых отношений при прохождении службы в прокуратуре как в особом классе федеральной государственной службы в России” Пермь, 1999 г.
4. Холодова Е.В. Дисс канд. юрид. Наук “Правовое регулирование труда государственных служащих”. – М., 1995.

# SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZADA HAQORATLI HOLATLARINI ANIQLASH: USLUBIY YONDASHUVLAR VA BARQAROR MEZONLAR

*NISHANOVA*
*Nigora Batirovna,*
*X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi sud-lingvistik va psixologik ekspertizasi bo‘limi boshlig‘i,*

*ZARMASOV*
*Shahboz Shahriddin o‘g‘li,*
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tilida va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi ilmiy-metodik ta’minot bo‘limi boshlig‘i, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),*

*TO‘YCHIYEV*
*Abdurashid Mustafoyevich,*
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tilida va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Toshkent viloyati hududiy bo‘linmasi rahbari*

## ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada sud-lingvistik ekspertizada “haqorat” hamda “nomaqbul shakl” tushunchalarining lingvistik va huquqiy talqini, ularni baholashda uchraydigan metodologik qiyinchiliklar, mavjud yondashuvlar hamda lingvistik mezonlarning o‘ziga xos jihatlari tahlil etiladi. Shuningdek, haqorat mazmunini aniqlashda semantik, pragmatik va kommunikativ omillarning o‘rni, raqamli kommunikatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan yangi nutqiy shakllarning ekspertiza amaliyotiga ta’siri yoritiladi. Maqolada sud-lingvistik ekspertizasi amaliyotini metodik jihatdan takomillashtirish, ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va izchilligini ta’minlashga xizmat qiluvchi barqaror mezonlarni shakllantirish zarurati asoslab beriladi. Umuman olganda, maqola O‘zbekiston Respublikasi sud-lingvistik ekspertizasi amaliyotida ushbu yo‘nalishdagi dastlabki ilmiy-metodik material sifatida yaratilgan uslubiy qo‘llanma haqida axborot berishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** sud-lingvistik ekspertiza, haqorat, nomaqbul shakl, lingvistik mezonlar, lingvistik tahlil, ekspert xulosasi, semantik tahlil, pragmatik tahlil, kommunikativ kontekst, raqamli kommunikatsiya, uslubiy yondashuv, lingvistik ekspertiza, verbal va noverbal shakllar.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются лингвистическая и правовая интерпретации понятий «оскорбление» и «неприемлемая форма» в судебно-лингвистической экспертизе, методологические трудности, возникающие при их оценке, существующие подходы, а также особенности лингвистических критериев. Кроме того, освещается роль семантических, прагматических и коммуникативных факторов при установлении оскорбительного содержания, а также влияние новых речевых форм, возникающих в условиях цифровой коммуникации, на практику экспертизы. В статье обосновывается необходимость методического совершенствования практики судебно-лингвистической экспертизы, формирования устойчивых критериев, обеспечивающих научную обоснованность и последовательность экспертных заключений. В целом статья носит информа-

ционный характер и посвящена сообщению о разработанном методическом пособии, являющемся одним из первых научно-методических материалов данного направления в практике судебно-лингвистической экспертизы Республики Узбекистан.

**Ключевые слова:** судебно-лингвистическая экспертиза, оскорбление, неприемлемая форма, лингвистические критерии, лингвистический анализ, экспертное заключение, семантический анализ, прагматический анализ, коммуникативный контекст, цифровая коммуникация, методический подход, лингвистическая экспертиза, вербальные и невербальные формы.

### ANNOTATION

This article analyzes the linguistic and legal interpretations of the concepts of “insult” and “inappropriate form” in forensic linguistic expertise, the methodological difficulties encountered in their evaluation, existing approaches, and the specific features of linguistic criteria. It also examines the role of semantic, pragmatic, and communicative factors in determining insulting content, as well as the impact of new speech forms emerging in digital communication on expert practice. The article substantiates the need for methodological improvement of forensic linguistic expertise, as well as the development of stable criteria ensuring the scientific validity and consistency of expert conclusions. Overall, the article is informational in nature and reports on a methodological guideline developed as one of the first scientific and methodological materials in this field within the practice of forensic linguistic expertise in the Republic of Uzbekistan.

**Keywords:** forensic linguistic expertise, insult, inappropriate form, linguistic criteria, linguistic analysis, expert conclusion, semantic analysis, pragmatic analysis, communicative context, digital communication, methodological approach, linguistic expertise, verbal and non-verbal forms.

Zamonaviy tilshunoslik an’anaviy tizimli yondashuvdan inson va til munosabatlarini o‘rganuvchi antropotsentrik hamda integrativ yo‘nalishlarga yuza burmoqda. Bu jarayonda til va huquq kesishmasida shakllangan yurislingvistika va sud-lingvistik ekspertizasi alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari va raqamli kommunikatsiyaning keng tarqalishi ijtimoiy munosabatlarda shaxsning sha’ni va qadr-qimmatiga tajovuz qilish holatlarining ortishiga sabab bo‘ldi. Bu esa matnlarni obyektiv baholash, xususan, haqorat mazmunini aniqlashda **yagona ilmiy-metodik mezonlarni ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda**.

Global o‘zgarishlar ta’sirida jahon ilm-fanida **yangi** yo‘nalishlar va fanlararo tadqiqot sohalari shakllanib bormoqda. XX asr boshlarida tilshunoslik fani tizimli va struktur yondashuvlar asosida tilning ichki qonuniyatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, XX asr oxirlariga kelib, u boshqa fanlar bilan integratsiyalashib, inson va til o‘rtasidagi munosabatlarni chuqurroq tahlil etishga yo‘naltirildi. Shu davr mobaynida jahon ilm-fanida kompyuter lingvistikasi, sotsiolingvistika, neyrolingvistika va lingvokulturologiya kabi yangi yo‘nalishlar, shuningdek, tilshunoslik va huquqshunoslik kesishmasida **sud-lingvistik ekspertizasi**, yurislingvistika hamda lingvokriminalistika kabi sohalar shakllandi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida, xususan, raqamli kommunikatsiyaning rivojlanishi natijasida sud amaliyotida sha’n, qadr-qimmat va ishchanlik obro‘siga tajovuz bilan bog‘liq huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda. Bunday holatlar matn va nutq birliklarini lingvistik jihatdan baholashga, xususan, ularda haqorat mazmunining mavjud yoki mavjud emasligini lingvistik ekspertiza doirasida

aniqlashga bo‘lgan ehtiyotni kuchaytirmoqda. Natijada XXI asr boshlaridan boshlab shaxsni haqorat qilish, uning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish bilan bog‘liq ish materiallari asosida sud-lingvistik ekspertiza metodologiyasini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. Mazkur ehtiyoj O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–270-son qarorida o‘z ifodasini topgan bo‘lib, shu va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar muammoning dolzarbligini belgilovchi metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ma’lumki, insonning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, tahqirlash yoki haqorat mazmunining mavjudligini aniqlash sud-lingvistik ekspertiza jarayonida matnning semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini huquqiy mezonlar bilan uyg‘un holda kompleks tahlil qilishni taqozo etadi. Matnlarni lingvistik ekspertizadan o‘tkazishga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlarda tilshunos-ekspertlar tomonidan hal etilishi lozim bo‘lgan vazifalar doirasi belgilab berilgan. Shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bog‘liq ishlar toifasining mazmunan yaxlit ekani sud-lingvistik ekspertiza rivojlanishining ilk bosqichlaridayoq lingvist-ekspertlar tomonidan anglab yetilgan.

Bugungi kunda fuqarolarni muloqotni ixtiyoriy talqin etish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan huquqbuzarliklar ta’siridan huquqiy himoya qilish choralari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi hamda Jinoyat kodeksida belgilangan normalar bilan ta’minlangan bo‘lsa-da, haqorat holatlarida ekspert oldiga qo‘yiladigan lingvistik vazifalar doirasi huquq-tartibot idoralari tomonidan ko‘tarilayotgan masalalarni hal etishda yagona mezonlarni ishlab chiqishni taqozo etadi. Ekspert vazifalarining lingvistik jihatdan o‘ziga xosligi, xususan, shaxsning sha’ni, qadr-qimmati hamda ishchanlik obro‘sini himoya qilishga oid ishlar doirasida hal etiladigan vazifalar bilan to‘liq mos kelmasligi haqorat bilan bog‘liq ishlarni lingvistik ekspertiza tadqiqotlarida alohida, mustaqil toifa sifatida ajratish uchun asos bo‘lmoqda.

Haqorat qilishga oid lingvistik ekspertiza tadqiqotlari bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishda yuzaga kelayotgan obyektiv



qiyinchiliklar bir qator lingvistik va huquqiy omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, *“haqorat”* atamasi ma’no jihatdan diffuz, ya’ni aniq chegaralarga ega bo‘lmagan tushunchadir. Uning ko‘plab emotsional-baholovchi (hissiy munosabatni ifodalovchi) leksik birliklar bilan semantik va pragmatik jihatdan bog‘liqligi, shuningdek, mazkur atamaning yuridik tildagi (maxsus huquqiy diskursdagi) ma’nosi bilan adabiy tildagi ma’nosi o‘rtasida to‘liq moslikning mavjud emasligi so‘z va nutqiy ifodalarni huquqiy asosda baholash jarayonida uni qat’iy lingvistik mezon sifatida qo‘llashni murakkablashtiradi.

Xususan, izohli lug‘atlarda “haqorat” tushunchasiga oid lug‘aviy izoh umumiy semantik mazmunni yoritishga xizmat qilsa-da, u huquqiy diskurs uchun muhim bo‘lgan normativ belgilarni to‘liq qamrab olmaydi. Shu bois sohaviy terminologiyadagi talqin bilan umumtil lug‘atlaridagi talqin o‘rtasidagi tafovut haqoratga oid birliklarni baholashda alohida e’tiborni talab etadi.

Ikkinchidan, haqorat qilish bilan bog‘liq materiallar bo‘yicha lingvist-ekspertning vakolat doirasi va uning chegaralarini aniq belgilash masalasida turli yondashuvlar mavjud, bu holat mazkur masalani hal etishda yagona va barqaror konseptual qarashning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Lingvistik ekspertiza mavjud bo‘lgan butun davr mobaynida, K.I.Brinyov ta’kidlaganidek, “haqorat ishlari bo‘yicha lingvist kompetensiyasi chegaralarini aniqlash masalasida ikki yondashuv o‘zaro raqobat qilib kelmoqda. Birinchi yondashuvga ko‘ra, haqoratning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash lingvist-ekspert kompetensiyasiga kirmaydi, balki bu masala sof huquqiy baholash doirasiga taalluqlidir; ikkinchi yondashuv esa, aksincha, mazkur masala lingvist-ekspert vakolatiga kirishini asoslab, haqoratni aniqlashda lingvistik tahlil hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ilgari suradi”[1].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–270-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-son qarori; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 14-sonli qarori va boshqalar.

Uchinchidan, “nomaqbul shakl” tushunchasini talqin etishdagi farqlar lingvistika fanining o‘zida mazkur tushunchaga to‘g‘ridan to‘g‘ri va aniq mos keluvchi terminologik hamda kategorial tafovutning mavjud emasligi bilan izohlanadi. U mazmunan asosan etika, axloqshunoslik hamda nutq madaniyati sohalariga tegishli bo‘lib, lingvistik jihatdan esa nutqning baholovchi, ekspressiv va pragmatik xususiyatlari orqali tavsiflanadi. Natijada, “nomaqbul shakl”ni aniqlash va huquqiy baholash jarayonida subyektiv talqinlar yuzaga kelishi ehtimoli ortadi hamda lingvistik ekspertiza uchun universal mezonlarni ishlab chiqish murakkablashadi.

**To‘rtinchidan,** haqorat mazmunidagi nutq birliklarini baholashda nutqiy vaziyat, kommunikativ kontekst, so‘zlovchi va adresat o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, ifodaning qo‘llanish sharoiti muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ayrim til birliklari bir vaziyatda haqorat mazmunini anglatishi mumkin bo‘lsa, boshqa vaziyatda ular kinoya, kesatiq, hissiy munosabat yoki ekspressiv baho sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Bu esa haqoratni aniqlashda matnni alohida birliklar darajasida emas, balki butun diskurs doirasida tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Beshinchidan,** raqamli kommunikatsiya sharoitida haqorat mazmuni faqat adabiy til birliklari orqali emas, balki so‘zlashuv unsurlari, jargon, slang, qisqartmalar, grafonlar, emoji va boshqa paralingvistik vositalar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunday holat lingvist-ekspertdan nafaqat til birliklarining lug‘aviy ma’nosini, balki ularning kommunikativ-pragmatik yuklamasini ham chuqur tahlil qilishni talab etadi. Natijada haqoratga oid birliklarni baholashda an’anaviy lingvistik mezonlarni yangi kommunikativ shakllarga moslashtirish zarurati yuzaga keladi.

Ma’lumki, haqoratga oid materiallarni lingvistik tahlil qilish jarayonida lingvist-ekspert so‘z va ifodalarning semantik mazmuni, kommunikativ vazifalari hamda uslubiy xususiyatlarini aniqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, haqoratga oid huquqiy normalarda qo‘llaniladigan *“nomaqbul shakl”* tushunchasi tilshunoslik terminologiyasida to‘g‘ridan to‘g‘ri va aniq muqobilga ega emas. Mazkur holatda **“shakl”** atamasi nutqiy ifodaning uslubiy-

ta’sirchan jihatini, ya’ni fikrning og‘zaki yoki yozma shakldа ifodalanish xususiyatini anglatadi. Bunda ifoda shakli kommunikativ vaziyatga qarab neytral, yumshoq, qattiq, qo‘pol, dag‘al, kamsituvchi yoki haqorat mazmunini ifodalovchi tus kasb etishi mumkin. Demak, **“nomaqbul shakl”** tushunchasi lingvistik jihatdan nutqning baholovchi, ekspressiv va pragmatik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, uni aniqlash jarayonida leksik-semantik hamda pragmatik tahlil usullarini kompleks qo‘llashni taqozo etadi.

Zamonaviy sud-lingvistik ekspertizasi amaliyotida “nomaqbul shakl” tushunchasini talqin etishda uchta asosiy yondashuv ajratiladi:

Birinchi yondashuv keng yondashuv bo‘lib, u **rus sud-lingvistik maktabi doirasida A.A.**Kuznetsov va boshqa tadqiqotchilar ta’sirida shakllangan **umumlashtirilgan etik-lingvistik tasnifga tayanadi**[2]**. Mazkur tasnif** axloqiy va lingvistik mezonlar asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda “nomaqbul shakl” tushunchasi keng lingvistik talqinda izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, nomaqbul shakl faqat ochiq so‘kish birliklari bilangina cheklanmay, bilvosita, kontekstual hamda metaforik haqorat ifodalarini ham qamrab oladi.

**Ikkinchi yondashuv** tor yondashuv sifatida tavsiflanadi. Unga ko‘ra, **“nomaqbul shakl”** faqat adabiy til me’yorlariga zid bo‘lgan, ya’ni ochiq haqoratni ifodalovchi qo‘pol va so‘kish xarakteridagi leksik birliklar bilan chegaralanadi. Mazkur yondashuv **“nomaqbul shakl”** tushunchasi doirasining qat’iy belgilanishi bilan xarakterlanadi va, asosan, huquqiy aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq bunday yondashuv nutqning baholovchi, ekspressiv va pragmatik imkoniyatlarini yetarli darajada qamrab olmaydi.

**Uchinchi yondashuv** mazkur uslubiy qo‘llanmada ilgari surilayotgan konseptual qarashni ifodalaydi. Unga ko‘ra, **“nomaqbul shakl”** so‘z yoki nutqiy ifodaning adabiy til me’yorlaridan chetga chiqishi, shuningdek, uning muayyan semantik guruhlarga mansubligi asosida belgilanadi. Bunda “nomaqbul shakl”ni aniqlash leksik-semantik, pragmatik va kommunikativ mezonlarning o‘zaro uyg‘un hamda izchil qo‘llanilishiga tayanadi. Mazkur yondashuv ekspert xulosasining lingvistik jihatdan asoslanganligi va izchilligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda haqoratga oid ishlar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasi amaliyotini metodik jihatdan takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Shu bilan birga, bunday ekspertizada qo‘llaniladigan lingvistik mezonlarni tizimlashtirish, ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi, izchilligi va ishonchliligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Haqorat mazmunini ifodalovchi nutq birliklarini aniqlash, “nomaqbul shakl”ni baholash hamda ularni lingvistik ekspertiza doirasida talqin etishning asosiy tamoyillarini belgilash bugungi kun lingvist-ekspertlari va soha mutaxassislari oldida turgan kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardandir.

Shu o‘rinda, xulosaviy mulohazalarni quyidagi tarzda umumlashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Terminologik diffuziya: “Haqorat” va “nomaqbul shakl” tushunchalari ham huquqiy, ham lingvistik jihatdan murakkab mazmunga ega bo‘lib, ularni faqat lug‘aviy ma’no doirasida talqin etish yetarli emas.

2. Yondashuvlar differensiatsiyasi: Ekspert amaliyotida “nomaqbul shakl” tushunchasini izohlashda keng va tor yondashuvlarning mavjudligi yagona va barqaror ekspertiza mezonlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

3. Kontekstual tahlilning muhomligi: Haqorat mazmunini aniqlashda til birliklarining lug‘aviy ma’nosi bilan bir qatorda nutqiy vaziyat, so‘zlovchi va adresat o‘rtasidagi munosabat, shuningdek, pragmatik omillar ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

4. Raqamli kommunikatsiya omili: Emoji, jargon, slang va boshqa paralingvistik vositalarning nutq amaliyotiga keng kirib kelishi ekspertiza metodikasini yangilashni hamda uni zamonaviy kommunikativ shakllarga moslashtirishni taqozo etadi.

5. Metodik takomillashtirish zarurati: Taklif etilayotgan konseptual yondashuv ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligi va izchilligini ta’minlashga, shuningdek, sud amaliyotida adolatli qarorlar qabul qilinishi uchun mustahkam metodik asos yaratishga xizmat qiladi.

Umuman, mazkur yondashuvlarning mavjudligi haqorat qilishga oid ishlar bo‘yicha sud-lingvistik ekspertizasida **prinsipial ahami-**

[2] O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – Toshkent, 2023; O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari to‘plami. – Toshkent: “Adolat”, 2023.

**yat kasb etuvchi** masalalar yuzasidan tilshunoslar pozitsiyasining sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Natijada, “haqorat” va “nomaqbul shakl” tushunchalarining mazmunini turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan muvofiqlashtirgan holda, huquqiy jihatdan asosli, nazariy jihatdan barqaror hamda amaliyotda tatbiq etish mumkin bo‘lgan optimal yechimni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa sifatida namoyon bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023; O‘zbekiston Respublikasi Kodekslari to‘plami. – Toshkent: “Adolat”, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi “Shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilikni qo‘llashning ayrim masalalari haqida”gi 14-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yil 1-iyundagi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi O‘RQ–249-son Qonuni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–270-son qarori.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-fevraldagi “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-son qarori.

6. European Convention on Human Rights (Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya). – 4thNovember, 1950 (Council of Europe. – European Treaty Series (ETS) No. 005: Strasburg Fra, 1953; 2009 (Lisbon, Porugal; 2013).

7. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt (BMT Bosh Assambleyasining 1966-yil 16-dekabrdagi 2200 A (XXI) rezolyutsiyasi). [O‘zbekiston Respublikasi 1995-yil 31-avgustda qo‘shilgan]. – T.: O‘zbekiston, 1996.

8. Ko‘chimov Sh.N. Sud lingvistik ekspertizasi: monografiya. – Toshkent: Bookmany print, 2025.

Yuridik atamalar qomusiy lug‘ati. – Toshkent: “Sharq”, 2013.

9. Бринев К.И. Теоретико-методологические основания лингвистической экспертологии: монография / К.И.Бринев; под ред. Н. Д. Голева. – 2-е изд., стер. – Москва: Флинта: Наука, 2014. – 296 с.

10. Галяшина Е.И. Судебная лингвистическая экспертиза. – М., 2021.

11. Кузнецов А.А., Бельчиков Ю.А. Справочник по судебно-лингвистической экспертизе. – Москва: Юрист, 2002.

12. Кузнецов А.А..О термине «неприличная форма» в лингвистической экспертизе по делам об оскорблении. // Теория и практика судебной экспертизы. №1. – Москва, 2005.

13. Кузнецов С.А., Оленев С.В., Плотникова А.М., Санников А.В. Методические рекомендации по назначению и производству лингвистических экспертиз. – Москва: ЭКЦ МВД России, 2010.

14. Кузнецов, А.А. Объекты и методы лингвистического экспертного исследования: Методические рекомендации. – Москва: РФЦСЭ (Российский федеральный центр судебной экспертизы), 2003.

# SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA ARGO VA JARGON BIRLIKLARNING TAHLILI

*TO‘XTAYEVA*
*Shaxnoza Adizovna,*
*X.Sulaymonova nomidagi*
*Respublika sud ekspertiza markazi*
*Buxoro viloyat bo‘limi eksperti*

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada sud-lingvistik ekspertizasida argo va jargon birliklarining qo‘llanilishi hamda ularning korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlashdagi lingvistik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda argo va jargon terminlarining nazariy asoslari, ularning farqlovchi xususiyatlari, semantik-pragmatik jihatlari hamda turli tillarda qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklar ko‘rib chiqilgan. Korrupsion muloqotlarda qo‘llaniladigan yashirin leksik vositalar, kodlangan nutq birliklari va ularni ekspertiza jarayonida talqin qilish metodologiyasi tahlil etilgan. Maqolada o‘zbek, rus, ingliz va boshqa tillardagi korrupsion terminologiyaning qiyosiy tahlili berilgan. Tadqiqot natijalari sud-huquq tizimida daliliy materiallarni lingvistik baholashda amaliy ahamiyat kasb etishi ko‘rsatilgan.

**Kalit so‘zlar**. Sud-lingvistik ekspertiza, argo, jargon, korrupsion terminologiya, kodlangan nutq, semantik tahlil, yashirin leksika, daliliy materiallar, lingvistik baholash, huquqbuzarliklar, sotsiolekt, evfemizm, metaforik nominatsiya.

## АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется применение арготических и жаргонных единиц в судебной лингвистической экспертизе и их лингвистические возможности в выявлении коррупционных правонарушений. В исследовании рассмотрены теоретические основы терминов арго и жаргон, их дифференцирующие характеристики, семантико-прагматические аспекты и особенности употребления в различных языках. Проанализированы скрытые лексические средства, используемые в коррупционной коммуникации, закодированные речевые единицы и методология их интерпретации в экспертном процессе. В статье представлен сопоставительный анализ коррупционной терминологии в русском, английском, турецком и других языках. Показано, что результаты исследования имеют практическую значимость для лингвистической оценки доказательственных материалов в судебно-правовой системе.

**Ключевые слова.** Судебная лингвистическая экспертиза, арго, жаргон, коррупционная терминология, закодированная речь, семанти-

ческий анализ, скрытая лексика, доказательственные материалы, лингвистическая оценка, правонарушения, социолект, эвфемизм, метафорическая номинация.

## ANNOTATION

This article analyzes the application of argot and jargon units in forensic linguistic expertise and their linguistic capabilities in identifying corruption offenses. The research examines the theoretical foundations of argot and jargon terms, their differentiating characteristics, semantic-pragmatic aspects, and specific features of usage in various languages. Hidden lexical means used in corruption communication, coded speech units, and the methodology of their interpretation in the expert process are analyzed. The article presents a comparative analysis of corruption terminology in Russian, English, Turkish, and other languages. It is demonstrated that the research results have practical significance for the linguistic evaluation of evidentiary materials in the judicial and legal system.

**Key words.** Forensic linguistic expertise, argot, jargon, corruption terminology, coded speech, semantic analysis, hidden lexicon, evidentiary materials, linguistic evaluation, offenses, sociolect, euphemism, metaphorical nomination.

## KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni o‘tkazilgan kengaytirilgan yig‘ilishda ta’kidlaganidek, “Islohotlar yo‘lidagi eng katta to‘siq va g‘ov – bu korrupsiyadir... Korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi”[1].

Jamiyatimizda korrupsiyaga nisbatan keskin va murosasiz kurash e’lon qilingan hozirgi sharoitda korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlashning zamonaviy metodlari, jumladan, lingvistik tahlil usullari alohida dolzarblikka ega. Korrupsion holatlarni tergov qilish jarayonida yozma va og‘zaki muloqot materiallari muhim daliliy manba sifatida xizmat qiladi. Bunday kelishuvlar, odatda, ochiq va bevosita ifodalanmay, balki yashirin, bilvosita hamda kodlangan nutq vositalari orqali amalga oshiriladi.

Xususan, argo va jargon birliklari pora miqdorini, noqonuniy xizmatni yoki manfaatdor kelishuvlarni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Leksik vositalar ma’lumotni begonalardan yashirish, suhbat mazmunini tor doira vakillarigagina tushunarli qilish hamda huquqiy javobgarlikdan qochish maqsadida ishlatiladi. Natijada nutqdagi mazkur birliklarni to‘g‘ri anglash va lingvistik jihatdan talqin qilish sud-lingvistik ekspertizasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, korrupsion mazmundagi nutq materiallarida uchraydigan argo va jargon birliklarini aniqlash, ularning semantik-pragmatik xususiyatlarini ochib berish hamda ekspertiza jarayonida baholash masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

**Nazariy-metodologik asoslar.**

Jargon – biron ijtimoiy yoki professional guruhga xos, faqat ularning o‘zi tushunadigan va adabiy tildan farq qiladigan so‘z va iboralar tizimi.

Kasbi, jamiyatdagi o‘rni, qiziqishlari, yoshiga ko‘ra alohida guruhni tashkil etgan kishilarning, asosan, og‘zaki nutqida ishlatiladigan va ma’nosini boshqalar ko‘p hollarda anglab yetavermaydigan birliklar jargon deyiladi.

Sud-lingvistik ekspertizasida tadqiqot jarayonlarida asosan pul yoki moddiy qadriyatni yashirin ifodalash vositasi sifatida “**limon**”, “**karam**”, “**qog‘oz**”, “**ko‘kidan**”, “**tanga**”, “**bilet**”, “**pochka**” kabi leksik birliklar, korrupsion harakatni yashirin ifodalash uchun esa “**yes qilamiz**”, “**do‘ndiramiz**”, “**gullatamiz**”, “**o‘tkazamiz**” kabi fe’l shakllari qo‘llaniladi.

Yuqoridagi so‘z va so‘z birikmalari matnga, kommunikativ holatga, shart-sharoitga qarab tahlil qilinadi. Misol uchun, “limon” so‘zi leksik ma’nosi jihatidan “asosan janubiy mamlakatlarda o‘sadigan doimo yashil subtropik o‘simlik va uning tuxumsimon sariq nordon xushbo‘y mevasi”ni anglatadi, ammo ushbu so‘zning “million so‘m” (ushbu semantik o‘zgarish “limon” va “million” so‘zlari talaffuzidagi o‘xshashlikka asoslangan; dastlab rubl uchun qo‘llangan)”[2] kabi ma’nosi matnda umuman boshqa konsepsiyani ifodalaydi.

Jargon so‘zlarni turli sohalarda uchratish mumkin. Masalan, tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi shaxslarning nutqida uchrab turuvchi jargonlar: “doktorni xursand qiling”, “rahmat”, “maydalab berish”, “xizmat haqqi”, “ko‘ngildan chiqarish”, “alohida qaraymiz” kabi evfemistik iboralarning semantik strukturasida ushbu so‘zlarning aynan ma’nosi emas, balki shaxslarning moddiy manfaatga bo‘lgan moyilligi yotadi.

Jargonlarga xos so‘zlar tez-tez yangilanib turadi, buning sababi bu so‘zlarning ma’nosi jamiyatdagi kishilarga ayon bo‘lgach yashirin ma’no kasb etmay qoladi. Jargon so‘zlarning yashirin ma’nosi o‘zbek tilidagi lug‘atlarda deyarli aks ettirilmaydi, ular asosan jonli nutqda yashaydi va faol qo‘llaniladi.

Argo – yasama til, biror ijtimoiy guruh, toifaning o‘ziga xos, boshqalar tushunmaydigan leksik birliklardan iborat maxfiy til turi. Argolar nutqda muloqot predmetini sir tutish maqsadida qo‘llaniladi. Argo jargondan maxfiy til bo‘lganligi bilan farq qiladi.

Tilshunos olim Roberning kichik lug‘atida *argo* atamasi umumiy ma’noda “jinoiy muhit tili”, lingvistik termin sifatida esa “ma’lum ijtimoiy guruh tomonidan ishlatiladigan leksika” sifatida berilgan. Argoning etimologiyasi – “corporation des juex” – “qora niyatli kishilar jamoasi” sifatida izohlangan.

Xususan, jinoyatchilar argosida o‘ziga xos semantik xususiyatga ega so‘zlar mavjud: “ment” – “millitsioner”, “gopstop qilmoq” – “o‘g‘irlamoq”, “narkora” – “giyohvand modda bilan shug‘ullanuvchi”, “shuxer” – “qorovul” va boshqalar. Argolar boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo‘llaniladi, shu orqali asl maqsad yashiriladi.

Mashhur rus tilshunosi, sotsiolingvistika bo‘yicha yetakchi olimlardan biri Leonid Petrovich Krisin so‘nggi ellik yil davomida yozgan sotsiolingvistika haqidagi maqola va ocherklaridan tuzilgan mualliflik to‘plamida argo va jargon so‘zlar haqida quyidagicha fikrlarini bildiradi: “Zamonaviy lingvistik terminlar lug‘ati mualliflarining fikricha, jargonda ma’lum bir guruhga mansublikni ifodalash ustun bo‘lsa, argoda muloqot mazmunini til orqali yashirish ustundir”[3]. Biroq bunday farqlash asosan jargonlar va argoning tarixiy shakllanishiga tegishlidir.

Hozirgi zamonda jinoyatchilar argosining “maxfiyligi” ancha nisbiydir: jinoyatchilikka qarshi kurashuvchilar, odatda, bu tilni juda yaxshi bilishadi, jinoyat qurboni oldida argoda yashirincha kelishib olish g‘oyasi esa umuman olganda oddiy va ishonchsiz ko‘rinadi. Bunday maqsadlar uchun jinoyatchi guruhlar doirasida bir martalik kodlar yaratiladi.

L.P. Krysin fikrlarini quyidagicha davom ettiradi: “Argoning mavjud bo‘lishidagi yana bir sabab – ekspressivlikka (hissiy-emotsional ifodaga) bo‘lgan ehtiyojdir. Shu bois, ko‘plab leksik birliklar argoda tez-tez almashinib turadi, hissiy jihatdan kamroq bo‘yalganlari esa asrlar davomida o‘zgarmay qoladi”[3].

Tilshunos D.S. Lixachyov argoning paydo bo‘lishi va davom etishining yana bir muhim sababini ko‘rsatadi: “o‘g‘rilar tafakkurining o‘ziga xosligi – unda dunyoga nisbatan magik munosabat unsurlari mavjudligidir. Bu ibtidoiy-magik tushuncha tilga munosabatda ham namoyon bo‘ladi: noo‘rin yoki noqulay vaqtda aytilgan so‘z baxtsizlik keltirishi, boshlangan ishni barbod qilishi mumkin, deb hisoblanadi.

Shu sababli jinoyat olamida oddiy so‘zlar argotik so‘zlar bilan almashtiriladi, shuningdek, argoda ham gapirish taqiqlangan mavzular mavjud. Bu jihatdan jinoyatchilar argosi ovchilar, harbiylar va xavf bilan bog‘liq boshqa kasb egalarining jargon va kasbiy nutqiga o‘xshab ketadi.

Jinoyat argosidagi matnning tushunarlilik darajasi uning mavzusiga va so‘zlovchining kommunikativ maqsadiga qarab keskin farqlanadi: agar tinglovchi “o‘z odami”, ya’ni jinoiy muhit vakili bo‘lsa, matn faqat argo doirasida qolishi mumkin va u ham jo‘natuvchi, ham qabul qiluvchi uchun tushunarli bo‘ladi”[4].




## Argo va jargon birliklarining leksikografik tadqiqoti

Filologiya fanlari doktori, Yaroslav Mudriy nomidagi Novgorod davlat universiteti professori T.V. Shmelyova “Sibir forumi. Intellektual dialog” loyihasi doirasida e’lon qilgan ilmiy maqolasida argo va jargon terminlarini batafsil izohlab tahlil qilgan: “Rus tilshunosligida bu terminlar turli vaqtlarda va turli ilmiy an’analar doirasida paydo bo‘lgan. Fransuzcha jargon va argo XIX asrdayoq ma’lum bo‘lgan: lug‘atlarda 1863-yildan qayd etiladi; amerikalik sleng esa XX asr o‘rtalarida – Amerika ko‘cha tiliga bag‘ishlangan tadqiqotlar bilan birga paydo bo‘ladi. Ma’lumki, xorijiy lug‘atlarda bu terminlar ko‘pincha bir-biri orqali izohlanadi. Bizda esa ma’lum terminologik afzalliklar shakllangan bo‘lib, ularni, masalan, lug‘at nomlaridan ham kuzatish mumkin”[5].

Rus tilshunoslari tomonidan argo va jargon so‘zlar chuqur o‘rganilgan, buni tilshunoslar tomonidan ishlab chiqilgan argo va jargon leksemalarning bir qator lug‘atlaridan bilish mumkin:

1992-yili Moskvada huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari jamoasi tomonidan tayyorlangan “Qamoqxona-lager-jinoyatchilik jargonlari lug‘ati” chop etildi.

Mashhur tilshunos V.S. Yelistratovning “Moskva argosi lug‘ati” (faqat Moskva shahriga xos argo va so‘zlashuv birliklariga bag‘ishlangan) nashr etildi.

1999-yili Moskvada uch nafar tilshunos – O.P. Yermakova, E.A. Zemskaya, R.I. Rozina “Biz hammamiz uchratgan so‘zlar” nomli rus umumiy jargonining izohli lug‘atini nashr etishdi va bu lug‘at ko‘plab muhokama va munozaralarga sabab bo‘ldi.

2005-yilda X. Valter, V.M. Mokiyenko va T.G.Nikitinaning “Rus maktab va talaba jargonining izohli lug‘ati” (5000 so‘z va ibora) chop etildi.

2009-yilda T.G. Nikitina “Yoshlar slengi: izohli lug‘at” nomli katta asarini (20000 so‘z va frazeologizm) nashr qildirdi.

Mashhur rus tilshunosi, argo va so‘zlashuv nutqi tadqiqotchisi V.S.Yelistratovning “Rus argosi lug‘ati”(taxminan 9000 so‘z, 3000 idiomatik ibora)da keltirilgan eng mashhur so‘z va so‘z birikmalarining semantik tahlili:

1. Бабки (Babki) – pul, naqd mablag‘. Chor Rossiyasi davridagi 100 rubllik kupyurada Yekaterina II ning surati bo‘lganligi bilan bog‘lanadi.

O‘zbekcha muqobili: soqqa, pul, mablag‘.

2. Халява (Xalyava) – tekin, hech qanday mehnat sarflamasdan erishilgan narsa yoki holat. “На халяву” (tekinga, bepul) iborasi juda mashhur.

O‘zbekcha muqobili: tekinxo‘rlik, shavla, sovg‘a.

3. Штука (Shtuka) – bir ming (1000) birlik pul (odatda rubl yoki dollar nazarda tutiladi).

O‘zbekcha muqobili: bitta (masalan: bitta g‘isht – 1000 so‘m).

4. Откат (Otkat) – noqonuniy qaytarib berilgan pul, komissiya. Biror loyiha yoki shartnoma uchun ajratilgan mablag‘ning bir qismini qarorni chiqargan mansabdor shaxsga “minnatdorchilik” sifatida qaytarish.

O‘zbekcha muqobili: ulush, foiz.

5. Лапа (Lapa) – yuqori lavozimdagi tanish yoki homiy. “Дать на лапу” (panjasiga berish) iborasi pora berishni anglatadi.

O‘zbekcha muqobili: tanish-bilish, og‘zini

moylash, qoʻliga qistirish.

6. Барашек в бумажке (Barashek v bumajke) – konvert ichidagi pora. Bu ibora klassik adabiyotdan kirib kelgan boʻlsa-da, 1990-yillarda korrupsion sxemalarning metaforik nomi sifatida lugʻatga qayta kiritilgan.

Oʻzbekcha muqobili: konvert, suyunchi.

7. Кормушка (Kormushka) – davlat mablagʻlarini oʻzlashtirish yoki pora olish imkonini beruvchi lavozim yoki ish joyi.

Oʻzbekcha muqobili: yogʻli joy, daromad manbayi.

8. Крыша (Krisha) – noqonuniy faoliyat yoki biznesning davlat idoralari (militsiya, soliq) yoki jinoiy guruhlar tomonidan himoya qilinishi.

Oʻzbekcha muqobili: tom, suyanchiq, homiy.

9. Распил (Raspil) – davlat budjetini oʻzaro boʻlishib olish. Odatda bajarilmagan ishlar yoki shishirilgan narxlar orqali amalga oshiriladi.

Oʻzbekcha muqobili: budjetni "yeyish", talash.

10. Грев (Grev) – qamoqxonalarga noqonuniy ravishda pul, oziq-ovqat yoki telefon kiritish. Tergov jarayonida yozishmalardagi "grev" soʻzi jinoiy sxemaning isboti boʻlishi mumkin.

Oʻzbekcha muqobili: noqonuniy yordam, "issiq tutilgan" narsa.

Argo va jargon soʻzlarning izohli lugʻatlarini tuzishda ingliz tilshunoslarining ham oʻrni katta. Misol uchun, ingliz leksikografi, tilshunos va argo tadqiqotchisi Jonathon Greenning "Green's Dictionary of Slang" (Ingliz tili slengining tarixiy lugʻati), britaniyalik olim, etimolog va tilshunos Jon Aytoning "Oxford Dictionary of Modern Slang" (Hozirgi zamon ingliz sleng va jargon leksikasi lugʻati), tilshunos, erta davr sleng tadqiqotchisi Jon Kemden Xottenning "A Dictionary of Modern Slang, Cant and Vulgar Words" (Zamonaviy sleng, argo va qoʻpol soʻzlar lugʻati) kabi lugʻatlar jahon tilshunosligida argo va jargo soʻzlarning oʻrganilishini yangi bosqichga olib chiqdi. Shuni ta'kidlab oʻtish kerakki, oʻzbek tilshunosligida argo va jargon soʻzlar yetarlicha ilmiy oʻrganilmagan, bu mavzuda sistemali, keng qamrovli lugʻatlar mavjud emas. Bu sohadagi leksikografik boʻshliqni toʻldirish zamonaviy oʻzbek tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biridir.

## JAHON TILLARIDAGI KORRUPSION TERMINOLOGIYA: QIYOSIY TAHLIL

Qonunbuzarliklar boʻyicha mutaxassis Tomas Foks (Thomas Fox) Kent va Oksford universitetlari tadqiqotchilarining ("Languages of Informality Project") ilmiy ishlariga tayanib yozgan "Dunyo boʻylab poraxoʻrlik va korrupsiya uchun ishlatiladigan maxfiy soʻzlar" deb nomlangan tahliliy maqolasida "korrupsiya nafaqat qonunbuzarlik, balki til madaniyatiga qanchalik chuqur kirib borishini va kompaniyalar buni qanday qilib "begunoh" soʻzlar orqali yashirishini koʻrsatib bergan.

"British Broadcasting Corporation" jurnalida e'lon qilingan maqolada dunyo boʻylab pora uchun ishlatiladigan bir qator ijodiy argo va jargon (yashirin nomlar) keltirilgan:

1. Shoʻrva uchun pul (turkcha): Turkiyada politsiya "shoʻrva uchun pul" soʻraydi (shoʻrva odatda ichkilikdan keyin ichiladi). Shimoliy Afrikada "qahva", Keniyada esa "oqsoqollar uchun choy" soʻraladi.

2. Hurmat (ozarboyjoncha): pora ozarboyjon tilida "hurmat" soʻzi bilan evfemistik (yumshoq) tarzda almashtiriladi. Rasmiy shaxs pora soʻraganda, sizdan "shunchaki bir iltifot koʻrsatishni" soʻraydi.

3. Baliq boshidan sasiydi (turkcha): bu ibora korrupsiyaning yuqori lavozimli shaxslardan boshlanishini metaforik (koʻchma ma'noda) tarzda anglatadi. Meksikada porani "bir tishlam" (mordida), Kolumbiyada esa shartnomadan bir qismni "arralab olish" deb atashadi.

4. Minnatdorchilik (venger/xitoy): Vengriyada shifokorlar pul solingan konvertni "gonorar/mukofot" sifatida kutishadi. Rossiyada esa "choʻntakka rahmatni solib boʻlmaydi" degan maqol mavjud.

5. Stol ostidan (ingliz/fransuz/fors/fhved): stol ostidan pul uzatish koʻp tillarda uchraydi. Vengriyada byurokratiya gʻildiraklarini aylantirish uchun "moylash puli" beriladi, Rossiyada esa "kaftiga bir narsa qoʻyish" kerak.

6. Kichkina narsa (suaxili): pora hajmini kichik koʻrsatish uchun "kichkina narsa" yumshatuvchi soʻz qoʻllaniladi. Braziliyada esa pora "biroz qahva" (cafezinho) deb ataladi.

7. Choy puli (pushtu/fors): Afgʻoniston va

Eronda pora “choy puli” deb ataladi. Bu pul boshqalar bilan ham baham ko‘rilishiga ishora qiladi. Ba’zilar esa “bolalar uchun loviya” deb xayriyaga o‘xshatishadi.

8. Savollar uchun naqd pul (inglizcha): Italiyadagi “tangentopoli” (pora shahri) atamalari shunday paydo bo‘lgan.

9. Nokia qutisi (Vengercha): 2010-yilda Budapesht transport kompaniyasi rahbari porani Nokia telefoni qutisida bergani ma’lum bo‘lgan. O‘shandan beri “Nokia qutisi” 65,000 dollar atrofidagi pora birligiga aylangan.

10. Kichik sazan baliqlari (chexcha): chex futbolidagi mojaroda “kichik sazan” yoki “baliq” so‘zlari 1000 krona (50 dollar) miqdoridagi pora birligini metaforik anglatgan.

Mualliflar Dayo Akanmu va Francis Yedenning “Yoruba adabiyoti va kundalik muloqotida korrupsiya natijasida yuzaga kelgan iboralar va iborali birikmalarning stilistik tahlili” deb nomlangan maqolasida korrupsiya bilan bog‘liq lingvistik resurslar tahlili quyidagicha o‘tkaziladi:

Ègúnję (pora): Aslida “maydalangan dori” degan ma’noni beradi. Nigeriya tizimida u shartnoma olish yoki ish bitirish uchun beriladigan “shirinlik” yoki porani anglatadi.

Gbájúę (firibgarlik): so‘zma-so‘z “yuziga urish” degani bo‘lib, odamlarni aldab pulini oladigan shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.

Ojĕlú (talonchi): bu so‘z “siyosatchi” (osèlú) so‘zi bilan lingvistik o‘yin asosida yasalgan. Agar “osèlú” jamiyatni boshqaruvchi bo‘lsa, “ojĕlú” xalqni talovchi va davlat g‘aznasini o‘g‘irlovchi shaxsdir.

Ètùtù (kafforat/pora): asl ma’nosi xudolarga qurbonlik qilishdir. Kundalik hayotda haydovchilar politsiyachilarga beradigan porani “men ertalab kafforatimni berib bo‘ldim” deb atashadi.

Yàúyàuù (internet firibgarligi): “yahoo” so‘zidan olingan yangi so‘z bo‘lib, kompyuter orqali odamlarni aldaydigan yoshlarni anglatadi.

Géranmáwo (aldov/behuda vaqt sarflash): so‘zma-so‘z “go‘shtni terisi bilan kesish” degani bo‘lib, davlat ishidan erta ketadigan yoki o‘z vazifasini vijdonsiz bajaradigan xizmatchilarga nisbatan metaforik (ko‘chma ma’noda) qo‘llaniladi.

## SUD-LINGVISTIK EKSPERTIZASIDA ARGO VA JARGONLARNI ANIQLASH METODOLOGIYASI

Sud-lingvistik ekspertizasida argo va jargon birliklarni tahlil qilish uchun quyidagi metodologik tamoyillar qo‘llaniladi:

**Kontekstual-semantik tahlil metodi.** Argo va jargon birliklarining ma’nosini aniqlashda kontekst (matn va vaziyat) muhim rol o‘ynaydi. Ekspert matnning umumiy mazmuni, kommunikativ vaziyat, suhbatdoshlarning ijtimoiy statusini hisobga olgan holda so‘zlarning semantik (ma’noviy) talqinini amalga oshiradi.

**Lingvopragmatik tahlil.** So‘zlovchining kommunikativ maqsadini va pragmatik (amaliy) ma’nosini aniqlash ekspertizaning muhim bosqichidir. “Limon”, “karam”, “ko‘kidan” kabi so‘zlarning literal (bevosita) ma’nosi emas, balki kontekstdagi pragmatik funksiyasi aniqlanadi.

**Leksikografik verifikatsiya (tasdiqlash).** Ekspert argotik va jargon birliklarni maxsus leksikografik manbalar, ilmiy adabiyotlar va sud amaliyoti materiallari bilan taqqoslash orqali tasdiqlaydi.

**Qiyosiy-tipologik tahlil.** Turli tillardagi o‘xshash korrupsion terminologiyani qiyoslash orqali universal va milliy-spetsifik xususiyatlar aniqlanadi.

**Xulosa.** Sud-lingvistik ekspertizasida argo va jargon birliklarning tahlili korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

1. Argo va jargon terminlarining farqlanishi: jargon ma’lum guruhga mansublikni ifodalovchi, argo esa muloqot mazmunini yashirish funksiyasiga ega lingvistik hodisa. Ammo hozirgi zamonda bu farq nisbiy xarakterga ega.

2. Korrupsion leksikaning universal xususiyatlari: turli tillarda korrupsion muloqotda evfemizm (yumshatish), metafora (ko‘chma ma’no), metonomiya va kod almashtiruv kabi lingvistik vositalar qo‘llaniladi. “Pul” tushunchasini ifodalashda oziq-ovqat (“qahva”, “choy”, “sho‘rva”), o‘simlik (“ko‘kidan”, “limon”, “karam”) va boshqa semantik sohalardan olingan leksemalar ishlatiladi.

3. Milliy-madaniy o‘ziga xoslik: har bir tilning korrupsion terminologiyasi o‘z milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Yoruba tilida diniy-

ritualistik leksika (“kafforat”), turkiy tillarda kundalik hayot (“sho‘rva”, “choy”), rus tilida tarixiy-siyosiy rekvizitlar (“babki”, “krisha”) asosida metaforalar yaratilgan.

4. Dinamik xarakter: argo va jargon leksikasi doimiy yangilanib turadigan dinamik tizimdir. Leksemalarning ma’nosi jamiyatga ayon bo‘lgach, ular yangi kodlangan so‘zlar bilan almashtiriladi.

5. Ekspertiza metodologiyasining ko‘p qirraliligi: argo va jargon birliklarni sud lingvistik ekspertizasida tahlil qilish kontekstual-semantik, pragmatik, leksikografik va qiyosiy-tipologik metodlarning kompleks qo‘llanilishini talab etadi.

6. Leksikografik bo‘shliq: o‘zbek tilshunosligida argo va jargon leksikasi yetarlicha tadqiq etilmagan, maxsus leksikografik manbalar mavjud emas. Bu sohadagi tadqiqotlarni rivojlantirish va argo-jargon lug‘atlarini tuzish dolzarb vazifadir.

7. Amaliy ahamiyat: tadqiqot natijalari sud-huquq tizimida daliliy materiallarni lingvistik baholashda, korrupsion jinoyatlarni tergov qilish va jinoiy ish materiallarini ekspertiza qilishda bevosita qo‘llanilishi mumkin.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar:

O‘zbek tilida korrupsion argo va jargon birliklarining korpus tadqiqoti;

Sud amaliyotida qo‘llaniladigan yashirin leksikaning tasnifi va tizimlashtirish;

O‘zbek-rus-ingliz tillarida korrupsion terminologiyaning qiyosiy tahlili;

O‘zbek tili argo va jargon leksikasining izohli lug‘atini yaratish;

Zamonaviy texnologiyalar (sun’iy intellekt) yordamida korrupsion diskursni avtomatik aniqlash.



## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha ishlar natijadorligi va kelgusidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishdagi nutqi. – Toshkent, 2025-yil 5-mart. – b. 1.

2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008. – B.498.

3. Крысин Л.П. Социолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.: Наука, 1989. – С.37-38.

4. Лихачев Д.С. Черты первобытного примитивизма в воровской речи // Язык и мышление. Т. III. – Л., 1935. – 47-74.

5. Шмелева Т.В. Арго, жаргон, сленг: социальная дифференциация языка // Сибирский форум. Интеллектуальный диалог. – 2018. – № 3. - С.1-8.

6. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun. – Toshkent: “Talqin”, 2005. – B.202.

7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R ., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2009. – B.125.

8. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “Universitet”, 2006. – B.91-94.

9. Qonunova M.B. Tilshunoslik masalalari. – Toshkent, 2015. – № 2. – B.45-52.

10. Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика. – М.: “Флинта”, 2007. – С.2-35.

11. Вальтер Х., Мокиенко В.М., Никитина Т.Г. Толковый словарь русского школьного и студенческого жаргона. – М.: “Астрель”, 2005. – С.15.

12. Галяшина Е.И. Основы судебного речеведения. – М.: “СТЭНСИ”, 2003. – С.40-62.

13. Елистратов В.С. Словарь русского арго. – М.: “Русские словари”, 2000. – С.11.

14. Ермакова О.П., Земская Е.А., Розина Р.И. Слова, с которыми мы все встречались: Толковый словарь русского общего жаргона. – М.: “Азбуковник”, 1999. – С.18-19.

15. Никитина Т.Г. Молодежный сленг: Толковый словарь. – М.: “АСТ”, 2009. – С.75-80.

16. Akanmu D., Yeden F. Stylistic Analysis of Idioms and Idiomatic Expressions Resulting from Corruption in Yoruba Literature and Everyday Communication // Journal of African Languages and Linguistics. – 2019. – P.1-22.

17. Ayto J. Oxford Dictionary of Modern Slang. – Oxford: “Oxford University Press”, 2010. – P. 422.

18. Green J. Green’s Dictionary of Slang. – London: “Chambers”, 2010. –P. 5386.

19. Hotten J.C. A Dictionary of Modern Slang, Cant and Vulgar Words. – London: “John Camden Hotten”, 1859. – P. 324.

20. Fox T. The Secret Language of Bribery and Corruption Around the World // British Broadcasting Corporation News, 2017. [Электрон манба]

# ORGANIK KISLOTALAR VA ULARNING TURLARI TABIATDA UCHRASHI

*SAMADOVA*
***Farangez Zayniddinovna,***
***Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi yetakchi eksperti***

*KARIMOVA*
***Dilnoza Tavakkaljonovna,***
***Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasi eksperti***

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada organik kislotalar(karbon kislotalar) va ularning turlari; tabiatda va sanoatda olinishi hamda ularning ishlatilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** karbon kislota, sut kislota, sirka kislota, olma sirka kislotasi, limon kislota, salitsil kislota, ftalit kislota va chumoli kislota.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье представлена информация об органических кислотах (карбоновых кислотах) и их видах. Рассматриваются их распространение в природе, получение в промышленности, а также области применения.

**Ключевые слова:** карбоновая кислота, молочная кислота, уксусная кислота, яблочная кислота, лимонная кислота, салициловая кислота, фталевая кислота, муравьиная кислота.

**ANNOTATION**

This article provides information on organic acids (carboxylic acids) and their types. It discusses their occurrence in nature, industrial production, and areas of application.

**Key words:** carboxylic acid, lactic acid, acetic acid, malic acid, citric acid, salicylic acid, phthalic acid, formic acid.

## KIRISH

Organik kislotalar o‘zi nima? Organik kislotalar – molekulada bir yoki bir nechta karboksil guruhlari mavjudligi bilan tavsiflangan alifatik yoki aromatik seriyali birikmalardir.

Organik kislotalar (karbon kislotalar) tabiatda juda keng tarqalgan. Ular mevalar tarkibida ko‘p uchraydi. Mevalarda eng ko‘p uchraydigan karbon kislotalar olma kislotasi, sut kislota, sirka kislota va limon kislotasidir. Folik kislota asosan olma va gilos kabi mevalarda (mevadagi karboksilik kislotaning taxminan 90%) mavjud. Limon kislotasi ko‘proq sitrus mevalarda(masalan, limon, apelsin, greyfurt) va qulupnayda uchraydi. Bundan tashqari, apelsinda 10–25%, limonda 5% olma kislotasi mavjud. Ushbu kislotalardan tashqari tartarik kislota faqat uzumda dominant karbon kislota hisoblanadi. Mevalarni uzoq muddatli saqlashda bu karbon kislotalarning bir qismi yo‘qoladi. Shu sababli mevalarni uzoq vaqt saqlamasdan iste’mol qilish kerak.




### 1. Sut kislotasi (Lactic acid).

Tabiatda 3 xil shaklda uchraydi. Sut kislotasi – qatiq, tuzlangan bodringda bo‘ladi. Uglevodlar sut achituvchi bakteriyalar ta’sirida hosil bo‘ladi. Ishlatilishi: sut kislotasi (laktat) inson organizmida energiya almashinuvi, xususan, glyukozaning parchalanishi (glikoliz) natijasida hosil bo‘ladigan muhim oraliq mahsulotdir. Jismoniy faollikda mushaklarni energiya bilan ta’minlaydi, ammo haddan tashqari to‘planishi charchoqqa olib keladi. Shuningdek, u ovqat hazm qilish, immunitetni qo‘llab-quvvatlash va oziq-ovqat sanoatida (qatiq, sut mahsulotlari) muhim rol o‘ynaydi. Oziq-ovqat sanoati, teri oshlash va matolarni bo‘yash uchun ishlatiladi.

**2. Sirka kislotasi (uksusnaya kislota).** Sirka kislotasi – rangsiz suyuqlik, xarakterli o‘tkir hid va nordon ta’mga ega. O‘tkir hidli, rangsiz, suvda yaxshi eruvchi organik kislota bo‘lib, oziq-ovqat (konservant, ziravor), farmatsevtika va kimyo sanoatida keng qo‘llaniladi. U 98-99% li konsentratsiyada “muzli sirka” deb ataladi.




Sirka kislotasi quyidagi turlarga bo‘linadi:
1. Oziq-ovqat (3–15%)
2. Texnik:
– sirka essensiyasi (70–80%);
– muz (100%).

70% texnik sirka kislotasi quyidagi sohalarda faol ishlatiladi:

– kimyo sanoatida, masalan, aseton kabi boshqa moddalarni sintez qiluvchi erituvchi va kimyoviy reagent sifatida;
– farmatsevtika sanoati;
– qog‘oz va qog‘oz sanoati (bo‘yash va bosmaxonada);
– bo‘yoq, to‘qimachilik sanoatida va boshqa.

Xavfli yuklarni tashish “maxsus avtomashinalarda” qoidalarga muvofiq holda tashiladi.

Laboratoriyada sirka kislotasi bilan ishlashda o‘tkir hidli, rangsiz va konsentratsiyalangan (muz kabi) holatda terini kuchli kuydiruvchi xususiyatga ega ekanligini hisobga olish lozim. Xavfsizlik choralari sifatida tortish shkafi (vtyajka)dan foydalanish, himoya ko‘zoynagi, qo‘lqop va xalat kiyish shart.



**Asosiy xavfsizlik qoidalari:**

Himoya vositalari: sirka kislotasi bug‘lari nafas yo‘llarini yallig‘lantiradi, shuning uchun ishni faqat tortish shkafida bajarish kerak. Teri va ko‘z himoyasi: 30% dan yuqori konsentratsiyali kislota terini kuydiradi. Teri yoki ko‘zga tegsa, zudlik bilan ko‘p miqdorda suv bilan yuvib tashlash kerak.



Saqlash: muz kabi sirka kislotasi ($16,75^0$C) da qotadi, shuning uchun uni saqlash haroratiga e’tibor bering.

Reaksiyalar: sirka kislota bilan ishlashda ehtiyotkorlik bilan suyultiring (kislotani suvga quying).

Ko‘p holatlarda yosh bolalarda yoki o‘z joniga qasd qilish maqsadida konsentrlangan sirka kislotasini ichish holatlari kuzatiladi. Bunday holatlarda hazm yo‘llari kuchli kuyishi va hatto o‘limga olib kelishi mumkin.

Olma sirkasi ushbu meva sharbatining fermentatsiyasi jarayonida ishlab chiqariladi. Uning 95 foizini suv, 5-6 foizini sirka kislotasi tashkil etadi. Sirka olmani maydalash, sharbatini chiqarib, keyin bakteriyalar va xamirturush qo‘shish orqali tayyorlanadi.



**Olma sirkasining qanday foydali jihatlari bor?**

Olma sirkasi qondagi qand miqdorini tartibga solishga yordam beradi, bu diabetga chalinganlar uchun foydali bo‘lishi mumkin, ammo sirka qand kasalligini davolamaydi.

Klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ovqatdan keyin sirka insulinga sezgirlikni oshirishi va qondagi shakar miqdorining keskin ko‘tarilishining oldini olishi mumkin.

Ammo olma sirkasi diabetdan aziyat chekadigan bemorlar uchun standart davolash o‘rnini bosmasligi kerak. “Shicago Medicine” mutaxassislarining ta’kidlashicha, olma sirkasi hech qachon dori-darmonlarning o‘rnini bosa olmaydi va faqatgina qo‘shimcha davolash maqsadida qo‘llanadi. Muhim jihat: olma sirkasini buyrak kasalliklari bor har qanday shaxs iste’mol qilishi man etiladi. Sirkani davo sifatida qo‘llashdan oldin birinchi navbatda shifokor bilan maslahatlashish muhim.

**Vaznni nazorat qilish**

Olma sirkasini muntazam iste’mol qilish tana vaznini nazorat qilishga yordam beradi, degan nazariya mavjud. Ammo sirka sog‘lom ovqatlanish tartibi va jismoniy mashqlar bilan birgalikda qo‘llangandagina foydali bo‘ladi.



2018-yilda “Journal of Functional Foods” nashrida chop etilgan tadqiqotda 44 nafar ortiqcha vaznli odamlar ishtirok etdi. Unda olma sirkasining vaznga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, doimiy parhez, jismonan faollik bilan bir qatorda olma sirkasidan oz-oz iste’mol qilib turish tana vaznini tushirishga va ichki (visseral) yog‘lar miqdorini sezilarli darajada kamaytirishga yordam berganligi qayd etildi.

**Ovqat hazm qilish tizimini yaxshilash:**
Sirka tarkibida probiotiklar kabi ta’sir ko‘rsatadigan foydali bakteriyalar mavjud. Ular oshqozondagi kislota balansini saqlash, jig‘ildon qaynashini kamaytirish hamda oshqozon-ichak traktini yaxshilashga yordam beradi.

**Mikroblarga qarshi xususiyati:**
Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, olma sirkasi mahalliy qo‘llanganda sirkadagi kislota zamburug‘larga qarshi yaxshi kurashadi va teri infeksiyalariga olib keladigan zararli bakteriyalarni o‘ldiradi.

Suvda eritilgan olma sirkasi tanadagi husnbuzarlarga qarshi kurashda ham samara beradi, biroq sirkani tanaga surtishdan avval unga suv qo‘shish, biror qismda allergik tajriba o‘tkazish muhim. Aks holda terida qizarish, qichishish kabi noxush holatlar yuzaga kelishi mumkin.

**Xolesterin darajasini pasaytirish:**
Sirkani me’yorida (kuniga maksimum 750 milligramm) iste’mol qilish xolesterin va triglitseridlar darajasini pasaytirishga yordam beradi. Ularning ortishi yurak xastaliklariga chalinish xavfini yuzaga keltiradi.

**Olma sirkasidan qanday foydalanish lozim?**

Agar siz olma sirkasi ichishga qaror qilgan bo‘lsangiz, uning tarkibida katta miqdorda kislota saqlanishi, kislota tish emalini yemirib yuborishi va ovqat hazm qilish trakti ishini izdan chiqarishi mumkinligini yodda tuting. Shuning uchun ham ekspertlar sirkani suv bilan aralashtirib ichishni, tish emali zararlanmasligi uchun sirkani ichib bo‘lgach, tishlarni darhol tozalashni maslahat berishadi. Sirkani suvda eritish tomoq va oshqozon shilliq qavatini himoya qilish uchun ham muhim. Odatda bir stakan suvga bir osh qoshiq sirka qo‘shib ichiladi.

**Olma sirkasining zarari:**
Sirka tarkibida katta miqdorda kislota saqlanadi, u tomoq va qizilo‘ngachning nozik to‘qimalarini osongina zararlaydi. Shifokorlar tish emali bilan bog‘liq muammolari yoki kislota refleksi bor odamlarga olma sirkasini iste’mol qilishni mutlaqo taqiqlashadi.



**Ovqatga qo‘shish:**
Olma sirkasini turli sabzavotlardan tayyorlangan salatlar, ko‘katlarga qo‘shish,

zaytun yog‘i bilan aralashtirib ishlatish mumkin. Bunday taom parhez tutayotgan shaxslar uchun ayni muddaodir.

**Organik kislotalarning (karbon kislotalar) ayrim vakillari va ishlatilishi:**

Metan kislota – formik kislota yoki chumoli kislotasi sifatida ham tanilgan. Lotincha “formica” chumoli degan ma’noni anglatadi. Bu birinchi marta 1670-yilda chumoli turlarining sekretsiya bezlarida topilgan. Chumoli kislotasi qichitqi o‘ti barglarida ham uchraydi. Tibbiyotda biologik eksponatlarni saqlashda konservant sifatida ishlatiladi.

Etan kislotasi yoki sirka kislotasi sifatida ham tanilgan. Lotincha “acetum” sirka degan ma’noni anglatadi. Uyimizda ishlatadigan sirka kislotasining 5% li suvli eritmasidir. Olma va uzum sirkasi eng tabiiy manba hisoblanadi. Sirka kislotasini boshqa mevalardan tabiiy ravishda olish mumkin, shuningdek, sanoatda laboratoriya sharoitida sun’iy ravishda ishlab chiqariladi. Uy-ro‘zg‘orda savzavotlarni konservalashda konservator sifatida, tibbiyotda dizinfeksiya vositasi sifatida ishlatiladi.

Salitsil kislotasi tabiiy ravishda tol daraxtidan olingan kislotadir. Salitsil kislotasi tarkibida benzol halqasi bor, shuning uchun u aromatikdir. Salitsil kislotasi aspirin ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Aspirin qadim zamonlardan beri ma’lum bo‘lgan dunyodagi eng ko‘p ishlatiladigan og‘riq qoldiruvchi va isitmani tushiruvchi vositadir.

Ftalik kislota naftalindan ftalik kislota angidridiga suv qo‘shib sun’iy yo‘l bilan olinadi. Ftal kislotasidan ishlab chiqarilgan ftalatlar, ayniqsa, plastmassa sanoatida (shisha, emzik va poliester ishlab chiqarish) va shaxsiy parvarishlash vositalarida (shampun, sochni parvarish qilish mahsulotlari kabi) qo‘llaniladi.



## ADABIYOTLAR

1. Berdiqulov R.Sh., Mirkomiliv Sh.M., Iskandarov A.Y. Anorganik kimyo. – Toshkent, 2018.
2. Axmerov Q., Jalilov A., Sayfutdinov R. Umumiy va anorganik kimyo. – Toshkent: O‘zbekiston, 2003.
3. Toshpo‘latov Y.T., Is’hoqov Sh.S. Anorganik kimyo. – Toshkent.: O‘qituvchi, 1992.
4. Abdulxayeva M. Umumiy kimyo. – Toshkent, 2018.
5. Нейланд О.Я. Органическая химия. – М.: “Высшая школа”, 1990. – С.750.
6. Терней А. Современная органическая химия. Т.1. 700с. Т.2. 651.
7. Перевод с англ. под редак. проф. Н.И.Суворова. – М.: “Мир”, 1981.
8. Гауптман 3., Грефе Ю., Ремане Х. Органическая химия. Переводе нем. под редак. проф. В.М. Потапова. – М.: “Химия”, 1979. 832.
9. Марч Дж. Органическая химия. Т.1. 380с., Т.2. 504 с., Т.3., 460 с., Т.4. 468.с. Перевод с англ. под редак. академ. И.П.Белеской “Мир”, 1988.
10. Робертс Дж., Касерио М. Основы органической химии. Т.1., 842с. и Т.2. 888с. Перевод с англ. под редак. академ. А.Н.Несмеянова.
11. Агрономов А.Е. Избранные главы органической химии. – М.: “Химия”, 1990.
12. Abdulxayeva M.M., Mardanov I.M. Kimyo. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – Toshkent; “O‘zbekiston”, 2002.
13. Abdusamatov A., Mirzayev R., Ziyayev R. Organik kimyo. Toshkent. 2002-y.
14. Abdusamatov A., Organik kimyo. Toshkent. 2002-y.
15. Sabirov Z. Organik kimyo. Toshkent. A’lochi. 2005-y.
16. www.ziyonet.uz.
17. Umumiy kimyo, G.P.Xomchenko.

**Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. Sud ekspertizasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining qonuni https://lex.uz/docs/-1633102?ONDATE=21.04.2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 73-sonli qarori. Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom https://lex.uz/docs/-6388692?ONDATE=22.02.2023
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 27.10.2018-yildagi 878-son. https: https://lex.uz/docs/-4025361
4. www.chemistry.ru
5. http: /./w w w. 1 ab chem. ru
6. www.tdpu.uz
7. www.istedod.uz/
8. www.pedagog.uz/
9. www.Ziyo Net.uz/

# GENETIC IDENTIFICATION OF CATTLE BASED ON STR MARKERS

*NOSIROVA*
*Maftuna Begomonovna*
*Republican center for forensic expertise, Uzbekistan*

*YAKUBOV*
*Iskandar Taxirovich*
*PhD in Biology, Associate Professor, Uzbekistan National University named after Mirzo Ulugbek*

**ANNOTATSIYA**

Qoramolning genetik identifikatsiyasi zamonaviy molekulyar genetika va chorvachilik seleksiyasining muhim vositalaridan biridir. Mikrosatellit markerlar (STR)dan foydalanish hayvonning individual shaxsini yuqori aniqlik bilan aniqlash, nasl-nasabini tasdiqlash va seleksiya dasturlarini nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu maqolada DNK identifikatsiyasining asosiy tamoyillari, mikrosatellit lokuslarini tahlil qilish usullari hamda ularning chorvachilik va veterinariya ekspertizasida qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, qoramol populyatsiyalarini genetik identifikatsiya qilish uchun tanlangan STR lokuslarining informativligi baholanadi.

**Kalit so‘zlar:** qoramol DNKsi, lokuslar, identifikatsiya, SNP, STR markerlar, sud ekspertizasi, mikrosatellitlar.

**АННОТАЦИЯ**

Генетическая идентификация крупного рогатого скота представляет собой важный инструмент современной молекулярной генетики и селекции сельскохозяйственных животных. Применение микросателлитных маркеров (STR) позволяет с высокой степени точности устанавливать индивидуальную принадлежность животных, подтверждать их происхождение, а также осуществлять контроль за реализацией селекционных программ. В данной работе рассматриваются основные принципы ДНК-идентификации, методы анализа микросателлитных локусов и особенности их практического применения в животноводстве и ветеринарной экспертизе. Кроме того, проводится оценка информативности выбранных STR-локусов с точки зрения их эффективности для генетической идентификации популяций крупного рогатого скота.

**Ключевые слова:** ДНК крупного рогатого скота, локусы, генетическая идентификация, SNP, STR-маркеры, судебная экспертиза, микросателлиты.

## ANNOTATION

Genetic identification of cattle is an important tool of modern Molecular Genetics and animal breeding. The use of microsatellite markers (STR) allows highly accurate determination of individual animal identity, verification of parentage, and monitoring of breeding programs. This paper examines the principles of DNA identification, methods for analyzing microsatellite loci, and their application in animal husbandry and veterinary expertise. The study also evaluates the informativeness of selected STR loci for genetic identification of cattle populations.

**Key words:** cattle DNA, loci, identification, SNP, STR markers, forensic, microsatellite.

## INTRODUCTION

The rapid development of Molecular Genetics has significantly expanded the possibilities for identifying agricultural animals. Traditional methods of cattle identification, such as ear tags, branding, and tattooing, are widely used but have several disadvantages. These identifiers can be damaged, lost, or falsified, which complicates reliable animal identification.

Modern genetic methods based on DNA analysis provide a more accurate and reliable approach. One of the most informative molecular markers used for this purpose are microsatellites or STR (Short Tandem Repeats).

Microsatellites are short tandemly repeated DNA sequences distributed throughout the genome. Due to their high mutation rate, these loci exhibit a high level of polymorphism, which makes them suitable for population genetic studies and individual identification. The use of STR markers allows the creation of a unique genetic profile for each animal. Panels of microsatellite loci recommended by the International Society for Animal Genetics are widely used in livestock genetic identification systems.

Numerous studies have demonstrated the effectiveness of microsatellite markers in genetic identification and parentage testing of livestock. Microsatellites possess several important characteristics including high allelic diversity, codominant inheritance, and widespread distribution throughout the genome.

Research in the field of Population Genetics shows that the use of multiplex STR panels significantly increases the accuracy of genetic identification. When multiple STR loci are analyzed simultaneously, the probability of two unrelated animals sharing identical genotypes becomes extremely low.

### Materials and Methods

Samples were collected from cattle in the form of blood, hair with follicles, tissue samples, saliva and muscle. DNA was extracted using the phenol-chloroform method. The following techniques were applied for identification: 1) PCR–amplification of STR markers, 2) Sequencing – detection of SNP markers, 3) Bioinformatics – phylogenetic analysis and genetic diversity assessment.

These materials contain nucleated cells suitable for DNA extraction.

**DNA Extraction**

DNA extraction was performed using standard molecular biology protocols. The procedure included:

- Cell lysis to release nucleic acids
- Removal of proteins and cellular contaminants
- Purification of genomic DNA

The obtained DNA was quantified and stored for further analysis.

**PCR Amplification**

Microsatellite loci were amplified using the Polymerase Chain Reaction. PCR amplification was performed using specific primers flanking each STR loc.

The reaction mixture typically included:

- genomic DNA template
- forward and reverse primers
- DNA polymerase
- nucleotides (dNTPs)
- reaction buffer

PCR amplification was conducted in a thermal cycler under optimized temperature conditions.

**Electrophoretic Analysis**

Amplified DNA fragments were separated using electrophoresis. Fragment sizes were determined relative to molecular weight markers, allowing identification of specific alleles.

STR Loci Used in the Study

The study utilized the following microsatellite loci commonly applied in cattle identification:

TGLA227, BM2113, TGLA53, ETH10, SPS115, TGLA122, INRA23, ETH225, BM1824, ETH3

These loci are characterized by high polymorphism and strong discriminatory power.

Scientific Novelty

This results presents optimized DNA extraction protocols for native Uzbek cattle breeds. It provides the first comprehensive analysis of genetic diversity across 15 polymorphic microsatellite loci. Intergenerational variability of these loci in local populations is analyzed for the first time. The genetic structure and diversity of native cattle are assessed using highly polymorphic microsatellite markers for the first time.

**Practical Significance of the Research**

The results of this study establish a foundational basis for the integration of animal DNA analysis into forensic biological expertise at the X.Sulaymonova Republican Center for Forensic Examination.

**The detected allelic diversity of microsatellite loci supports the development of a novel approach for determining biological kinship, thereby enhancing the scope and precision of forensic genetic investigations**.

Results

The analysis revealed significant genetic polymorphism in the studied cattle populations. The number of detected alleles per locus ranged from 6 to 12.

Among the analyzed loci, TGLA227 and TGLA53 showed the highest polymorphism and heterozygosity values.

The combined analysis of multiple STR loci allowed the construction of unique genetic profiles for individual animals. The probability of identical genotypes in two unrelated animals using a panel of 10–12 loci was extremely low (less than $10^{-6}$).

**Statistical Analysis**

The genetic variability of loci was evaluated using several statistical parameters:

- Number of alleles (Na)
- Observed heterozygosity (Ho)
- Expected heterozygosity (He)
- Polymorphic Information Content (PIC)

**Formulas**

PIC:

Probability of identity (PI):

$PIC = 1 - \Sigma pi^2 - \Sigma\Sigma 2pi^2pj^2$ $PI = \Sigma pi^4 + \Sigma\Sigma 2pi^2pj^2$

Probability of exclusion (PE):

$PE = 1 - \Sigma pi^2 (2 - pi)$

These parameters allow assessment of the informativeness of each genetic marker.

**Table 1. Example of Allele Frequency Distribution**

| Allele | Holstein | Simmental | Brown Swiss |
|---|---|---|---|
| 77 | 0.18 | 0.14 | 0.16 |
| 81 | 0.22 | 0.20 | 0.19 |
| 85 | 0.15 | 0.17 | 0.14 |
| 89 | 0.25 | 0.21 | 0.23 |
| 91 | 0.12 | 0.16 | 0.15 |
| 95 | 0.08 | 0.12 | 0.13 |

**Discussion**

The obtained results demonstrate a high level of genetic variability within cattle populations. High heterozygosity values indicate a substantial level of genetic diversity.

The use of STR markers provides reliable identification of animals and effective parentage verification. In addition, microsatellite analysis contributes to maintaining genetic diversity within livestock populations and improving breeding programs.

**Applications of STR Analysis in Livestock Production**

STR marker analysis is widely applied in:

- pedigree verification
- breeding program management
- conservation of genetic resources
- veterinary forensic investigations
- livestock traceability systems

**Future Perspectives**

- Although microsatellite markers remain widely used, modern genomic technologies are increasingly applied in livestock genetics. One promising approach is the use of SNP markers for high-throughput genotyping.
- However, STR markers continue to be widely used due to their reliability, cost-effectiveness, and standardized international protocols.
- Microsatellite STR markers represent a reliable and highly informative tool for the genetic identification of cattle. Their high polymorphism enables the creation of unique genetic profiles for individual animals.
- The application of DNA-based identification methods improves the accuracy of breeding records, enhances livestock management, and contributes to the conservation of animal genetic resources.

**Conclusion**

This research highlights the effectiveness of both STR and SNP markers for assessing genetic diversity and breed identification in cattle, with SNPs offering superior resolution and accuracy, particularly in large sample sizes.

Holstein cattle exhibited the highest genetic variability, while Swiss cattle showed the lowest, indicating a need for improved genetic management in the latter. These findings support future efforts in genetic monitoring, forensic applications, and genomic selection for breed improvement and conservation.





## REFERENCES

1. Botstein D., White R.L., Skolnick M., Davis, R.W. (). Construction of a genetic linkage map in man using restriction fragment length polymorphisms.//American Journal of Human Genetics, 1980. V.32, N 3, pp.314–331.
2. Vignal A., Milan D., SanCristobal M., Eggen A. (). A review on SNP and other types of molecular markers and their use in animal genetics. Genetics Selection Evolution, 2002. V.34, N 3), 275–305.
3. Montaldo, H. H., & Meza-Herrera, C. A. Use of molecular markers and major genes in the genetic improvement of livestock.//Electronic Journal of Biotechnology, 1998. V.1, N 2, pp.83–89.
4. Kumar S., Banks T.W., Cloutier S. SNP discovery through next-generation sequencing and its applications.//International Journal of Plant Genomics, 2012, 831460.
5. Butler J. Fundamentals of Forensic DNA Typing. Academic Press, 2010.
6. FAO. Molecular Genetic Characterization of Animal Genetic Resources. FAO Guidelines, 2011.
7. Groeneveld L.F. et al. Genetic diversity in farm animals. Animal Genetics, 2010.
8. Hill W.G., Weir B.S. Population Genetics Principles. Oxford University Press, 2012.

# PROBATSIYA TUSHUNCHASI VA Oʻ'ZIGA XOS JIHATLARI

*TILEUOV*
***Yerkinbay Muratbayevich,***
***Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)***

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Oʻzbekistonda jinoyatchilarning qayta ijtimoiylashuvini va axloqan tuzalishini amalga oshirishda soʻnggi paytlarda muhim ishtirokchilardan biriga aylanib borayotgan probatsiya instituti ilmiy va amaliy jihatdan koʻrib chiqilgan. Xususan, tavsifi, tushunchasi va oʻziga xos jihatlari, probatsiya xizmatini shakllantirishning huquqiy asoslari atroflicha oʻrganib chiqilgan. Maqolada ushbu institut hozirgi kunda oʻzining ijobiy jihatlarini koʻrsata boshlagani, ayni damda qonunchilikdagi ayrim jiddiy boʻshliqlar va kamchiliklar, amaliyotda probatsiya xodimlari ishi samarasiga salbiy ta'sir oʻtkazilishiga sabab boʻlayotgani koʻrsatib oʻtilgan.

Maqolada muallif tomonidan probatsiya xizmati nufuzi, huquqiy maqomini oshirish va faoliyatini yanada tartibga solish boʻyicha ilmiy va amaliy taklif, tavsiyalar berilgan.

**Kalit soʻzlar**: jazo, probatsiya, ichki ishlar organi, nazorat, qayta ijtimoiylashuv.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье автором с научных и практических позиций рассмотрен институт пробации, который в последнее время стал одним из важнейших участников процесса ресоциализации и исправления преступников в Узбекистане. В частности, подробно изучены характеристика, понятие и особенности данного института, правовые основы формирования службы пробации. В статье отмечается, что данный институт уже начал показывать свои позитивные стороны, одновременно указывается тот факт, что некоторые серьезные пробелы и недостатки в законодательстве на практике оказывают негативное влияние на эффективность работы сотрудников службы пробации.

В статье автором представлены научно-практические предложения и рекомендации по повышению авторитета и правового статуса службы пробации, дальнейшему регулированию их деятельности.

**Ключевые слова:** наказание, условное осуждение, органы внутренних дел, надзор, ресоциализация.

## ANNOTATION

In this article, the author considers the institution of probation from scientific and practical positions, which has recently become one of the most important participants in the process of resocialization and correction of criminals in Uzbekistan. In particular, characteristics, concept and features of this institution, the legal basis for the formation of the probation service, and positive foreign experience in this area are studied in detail. The article notes that this institution has already begun to show its positive aspects, at the same time it is indicated that some serious gaps and shortcomings in the legislation in practice have a negative impact on the effectiveness of the work of probation officers .

In the article, the author presents scientific and practical proposals and recommendations for increasing the authority and legal status of the probation service, further regulating their activities.


**Key words:** punishment, conditional sentence, internal affairs agencies, supervision, resocialization.

## KIRISH

Mamlakatimizda demokratik qadriyatlar, inson huquqlari va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ichki ishlar organlari har doim muhim bo‘lgan. Shu bilan birga, odil sudlov maqsadlarini ro‘yobga chiqarishda, jinoiy qilmish sodir etgan shaxslarning qayta ijtimoiylashuvi va tuzalishi, huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish uchun sharoit yaratishda, postpenitensiar moslashuv jarayonida qonun talabi va insoniylik manfaatlari muvozanatini ta’minlashga ko‘maklashishda hamda bunda fuqarolar ishtirokini amalga oshirishning ta’sirchan va amaliy mexanizmi sifatida IIV probatsiya xizmatining ahamiyati ortib bormoqda.

Probatsiya xizmati xodimlarining ayrim toifadagi fuqarolar ustidan nazorat o‘rnatishdagi vazifalari jamiyatning davlat bilan o‘zaro samarali aloqasini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Jamoatchilikning postpenitensiar moslashuv ishlarida faol ishtiroki probatsiya faoliyati ochiq-oshkoraligini kengaytiradi, fuqarolarning IIV organiga ishonchini mustahkamlaydi.

Shu munosabat bilan, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi IIV Probatsiya xizmati huquqiy asoslari va faoliyatining ayrim jihatlarini o‘rganish bo‘yicha tahliliy tadqiqot ishlarini amalga oshirish g‘oyat dolzarb hisoblanadi.

Olimlar tomonidan mazkur tizimga oid turli fikrlar bildirilgan. Jumladan, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan yoki qamoqdan ozod qilingan jazolarga mahkum etilganlar bilan ishlash faoliyatini (xizmatlarni) institutsionalizatsiya qilish uchun qo‘llaniladi, [1] degan tarif berilgan.

Probatsiya mahkumning xulq-atvoriga shunday ta’sir qilishki, u o‘z javobgarligini anglasin va ongli ravishda tuzatish yo‘lini tutsin, degan fikrlar ham mavjud. Ayrim olimlar tomonidan probatsiya xizmati deganda, shartli sudlanganlik shakli tushunilib, bunda mahkum ozodlikdan mahrum qilinmasdan maxsus organlar nazorati

ostida bo‘ladi, sinov muddati va unga qo‘yiladigan talablar sud hukmi bilan belgilanadi, [2] deb ko‘rsatishadi.

Probatsiya bu ijtimoiy va huquqiy nazoratning bir shakli [3] ekanligi haqida ham fikrlar ko‘rsatib o‘tilgan, shu bilan birga yana bir ta’rifda probatsiya – bu belgilangan jazoni shartli ravishda ado etmasdan mahkumni muayyan muddatga maxsus mansabdor shaxsning (agent, yordamchi, probatsiya bo‘yicha vakil) individual nazorati ostida joylashtirishdan iborat, [4] deb aytiladi.

Shuningdek, Qozog‘iston Respublikasining Probatsiya to‘g‘risidagi qonuni bo‘yicha Probatsiya – bu toifalari aniqlangan shaxslarning xatti-harakatlarini to‘g‘rilashga qaratilgan, yangi jinoiy huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish uchun individual ravishda belgilangan nazorat va ijtimoiy-huquqiy xarakterdagi tadbirlar tizimidir [5].

Aksariyat olimlar tomonidan probatsiya “huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi” yoki “sud tizimi” tushunchasiga singdirib yuboriladi va alohida e’tirof etilmaydi. Bizningcha, bunday yondashuv ham to‘g‘ri emas. Aslida, *probatsiya xizmati jamiyatda qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatlarning oldini olish va jinoyat sodir etgan shaxslarni axloqan tuzatish bilan bog‘liq kompleks tadbirlarni qamrab olgan alohida huquqiy-ijtimoiy tuzilma hisoblanadi.*

Ayrim olimlar probatsiya atamasiga nisbatan tor va keng yondashuvni tahlil qilgan holda ushbu tizim ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazolarni ijro etuvchi davlat organlari va muassasalarini, mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadiga erishishni ta’minlaydigan tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy va jamoat tuzilmalarini o‘z ichiga olishini [6, 7, 8] ta’kidlaydi.

Ushbu ta’riflarlarga yaqin bo‘lgan yana bir tushunchaga asosan probatsiya instituti bir qator ijobiy jihatlarga ega, xususan:

– jazoni o‘tash uchun insonparvarlik tamoyilining namoyishi sifatida muqobillik;

– mahkumlikda ijtimoiy mas’uliyatli xatti-harakatni shakllantirish;

– ijtimoiy moslashuvni rag‘batlantirish va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olish;

– huquqbuzarni jamiyat hayotiga kiritishga ko‘maklashish;

– penitensiar tizimlarni saqlash xarajatlarini kamaytirish [9].

Uzoq tarixga ega bo‘lgan bu yuridik institutning rivojlanishi davomida u ijtimoiy xizmatlarning keng doirasiga asos soldi [10, 11]. Shu bilan bir qatorda, XX asr oxirida probatsiya instituti Birlashgan Millatlar Tashkilotining etiborini tortib, jinoyatchilikka qarshi kurash doirasida bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilindi [12].

“Probatsiya xizmati” atamasi ilmiy muomalada va umumiy ma’noda qo‘llash uchun zarur, chunki u ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazolarni ijro etish subyektlari, mahkumlarni axloqan tuzatishda ishtirok etadigan tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy va jamoat tuzilmalari yig‘indisini to‘liq belgilash imkonini beradi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, “***Probatsiya*** *– bu ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoiy jazolar va boshqa jinoyat-huquqiy ta’sir choralarini ijro etuvchi davlat organlari va muassasalarini hamda ularning mahkumlarning axloqan tuzalishi va qayta ijtimoiylashuvi maqsadiga erishishga qaratilgan tarbiyaviy-axloqiy, pedagogik-psixologik, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa faoliyat yo‘nalishlarini o‘z ichiga qamrab olgan tuzilma”dir.*

Xo‘sh, probatsiya tuzilmasining o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

**Birinchidan,** ta’kidlash lozimki, tarixiy rivojlanish davomida probatsiya tuzilmalarining bir nechta institutsional modellari shakllangan. **Jazolarni ijro etish tizimining u yoki bu davlat idorasiga qarashli ekanligiga qarab, bunday tizimlarni tashkil etishning besh modelini farqlash mumkin:**

1) Ichki ishlar vazirligi tizimidagi probatsiya;

2) Adliya vazirligi tizimidagi probatsiya;

3) jazolarni ijro etish tizimi birlashtirilgan Adliya va Ichki ishlar (politsiya) vazirligi boshqaruvi ostida bo‘lgan probatsiya;

4) alohida davlat departamentining tarkibida bo‘lgan probatsiya;

5) jazolarning turlari yoki protsessual majburlov choralari turli idoralarning ixtiyoriga berilgan aralash probatsiya.

Shuni ham qayd etib o‘tish lozimki, ayrim mamlakatlarda probatsiya xizmati penitensiar tizimdan ajratilgan va Ichki ishlar vazirligi oldida emas, balki butunlay boshqa davlat idorasi yoki nodavlat agentligi oldida hisobdor. Masalan, Singapurda probatsiya xizmati Ijtimoiy rivojlan-

ish va sport vazirligi tomonidan boshqariladi [13]. Latviyada probatsiya xizmati mustaqil davlat xizmati hisoblanadi. Gruziyada bu borada maxsus agentlik mavjud.

Jazolarni ijro etish xizmatining tuzilmasi va uni tashkil etish ham turli mamlakatlarda farq qilishi mumkin. Masalan, Finlandiyada Bosh direktor tomonidan boshqariladigan Jinoiy jazolar bo‘yicha agentlik ikki xizmatdan iborat – probatsiya xizmati va turmalarni boshqarish xizmati [14]. Birinchi xizmat jamoat sanksiyalarini ijro etish, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan voyaga yetmaganlarni nazorat qilish, jamoat ishlari tariqasidagi jazoni ijro etish, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarni nazorat qilish va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jazolarni ijro etish bilan shug‘ullanadi. Ikkinchi xizmat ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq hukmlarni ijro etadi, shuningdek, qamoqqa olingan ayblanuvchilarni sud hukmi chiqarilgunga qadar qamoqda saqlashni tashkil etadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Niderlandiyada probatsiya xizmati uchun budjetdan mablag‘lar Adliya vazirligi tomonidan ajratilsa-da, dasturlar uch nodavlat agentlik: asosan uy-joysiz odamlar va voyaga yetmaganlar bilan ishlaydigan Xaloskorlik Armiyasining probatsiya bo‘limi; alkogolizm yoki giyohvandlikka chalingan odamlar bilan ishlaydigan Ruhiy salomatlikni saqlash tashkiloti; har birida 11–15 xodim ishlaydigan 60 dan ortiq ofislarga ega bo‘lgan Probatsiya milliy xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Budjet mablag‘larini taqsimlash va mazkur agentliklar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan Niderlandiyaning Probatsiya bo‘yicha jamg‘armasi shug‘ullanadi [15].

Daniyada 1973-yilgacha probatsiya xizmatini va ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazolarni ijro etuvchi tizimni bunday ajratish qo‘llanilgan. 1951-yildan 1973-yilgacha Daniyada probatsiya xizmati funksiyalarini nodavlat tashkiloti – Daniya ijtimoiy ta’minot jamiyati bajargan. U mazkur faoliyatni xususiy xayr-ehsonlar hisobidan amalga oshirgan [16]. 1973-yili probatsiya xizmati to‘laligicha Daniya Adliya vazirligi ixtiyoriga o‘tgan. Mazkur islohotga quyidagilar:

*birinchidan,* barcha jazolarni ijro etish ayni bir vazirlik tomonidan amalga oshirilishining afzalliklari;

*ikkinchidan,* probatsiya dasturlarini amalga oshirish uchun xususiy xayr-ehsonlar kamlik qila boshlagani sabab bo‘lgan [16].

Shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlarida Probatsiya xizmatining umumiy boshqaruvi AQSH Oliy sudining ma’muriy idorasi tomonidan va sohani bevosita boshqarish mahalliy sudlar tomonidan amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniyada Adliya vazirligi oldida hisobdor bo‘lgan huquqbuzarlarni davolash bo‘yicha milliy xizmat tomonidan amalga oshiriladi, Germaniyada Probatsiya instituti sud tizimida probatsiya bo‘yicha sudyaning yordamchisi shaklida tarkibiy tuzilishga ega.

Shvetsiyada mustaqil qamoq va probatsiya xizmati tomonidan amalga oshirilsa, Estoniyada probatsiya Adliya vazirligining Jinoyat nazorati bo‘yicha davlat xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

**Ikkinchidan,** hozirgi zamon probatsiya xizmati rivojlanish jarayoniga XVIII asrda Yevropa va AQSHda vujudga kelgan liberal yo‘nalish haligacha o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda [17]. Bu hol xalqaro nohukumat tashkilotlarining faoliyatida ham namoyon bo‘lmoqda. Masalan, “Jinoyat uchun jazolar tizimini isloh qilish xalqaro tashkiloti” (PRI) turmalar sonini qisqartirish uchun kurash olib bormoqda. PRI sobiq bosh kotibi V.Spark (Angliya) fikriga ko‘ra, turmalarga joylashtirilgan jinoyatchilar sonini to‘rtdan birga qisqartirish jinoyatchilikni atigi 1% ga qisqartirishga qodir. Bundan tashqari, turmalar butun jamiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [18, 19].

Davlat tuzilishi va siyosiy tizimning yangi shakllari davlat va jamiyatning o‘zaro nisbatini o‘zgartirishga asoslanishi lozim. Mazkur jarayonlar ham jamiyatning o‘zida, ham davlat mexanizmida va butun siyosiy-huquqiy ustqurmada, shu jumladan, jinoyat uchun jazolarni ijro etish tizimida ham o‘z ifodasini topishi lozim.

Muammoning bunday qo‘yilishi rivojlangan g‘arb mamlakatlarida o‘rinli bo‘lsa kerak. Ammo mamlakatimizda shunday bir mentalitet shakllanganki, agar jinoyatchi ozodlikdan mahrum qilingan bo‘lmasa, atrofdagilar ko‘z o‘ngida u umuman jazolanmagan hisoblanadi. Bunday holatning sababi shundaki, mamlakatimizda aynan ozodlikdan mahrum qilish real ijro etiladi, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazo, jumladan, axloq tuzatish ishlarining samaradorligi kutilgan

darajada emas. Shu sabab, mamlakatimizda ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazo turlarini ijro etishning amaldagi mexanizmini takomillashtirish, ularga sezilarli oʻzgartirishlar kiritish zarurati mavjud.

Jamiyatimizda yuz berayotgan oʻzgarishlarni hisobga olgan holda, penitensiar tizim jazoni ijro etishga nisbatan umume’tirof etilgan gumanistik yondashuvlarni oʻzida birlashtirgan, ayni vaqtda mamlakatimiz voqeligi xususiyatlarini, huquqiy tartibotni mustahkamlash talablarini, shuningdek, resurs bilan bogʻliq imkoniyatlarni hisobga oladigan modelga qarab yoʻnaltirish lozim.

Shunga koʻra, probatsiya muassasalari huquqiy davlat mexanizmida huquqni muhofaza qilish organlari rolini, ammo ijro etuvchi hokimiyat funksiyalari doirasida bajarishlari lozim. Boshqacha qilib aytganda, ular bir vaqtning oʻzida ham huquqni muhofaza qilish, ham ijro organlari hisoblanadi. Birinchi holda ular repressiv, jazolovchi organlar boʻlmasligi, balki aksincha, davlat va jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlashlari lozimligi nazarda tutiladi. Ikkinchi holda mazkur organlarning hokimiyat boʻlinishi tizimidagi oʻrni koʻrsatiladi va ular shak-shubhasiz hokimiyatning ijro boʻgʻiniga kiritiladi. Shunday qilib, mazkur organlar huquqiy davlat mexanizmida mustaqil hokimiyat xususiyatini yoʻqotadi va bu hol ularning davlat mexanizmidagi, davlat va jamiyatdagi huquqni muhofaza qilish organlari sifatidagi rolini aslo kamaytirmaydi.

Mamlakatimizdagi penitensiar tizimning hozirgi holatini qoniqarli deb boʻlmaydi. Bugungi kunda penitensiar tizimning samaradorligini ta’minlash imkonini beradigan yangi, shu jumladan, tashkiliy, amaliy va huquqiy imkoniyatlardan biri – bu probatsiya xizmatini joriy etishdir.

**Uchinchidan,** probatsiya xizmati – bu repressiv organ emas, aksincha, ijtimoiy xizmat koʻrsatish tuzilmasidir. Ya’ni uning asosiy va bosh vazifasi – bu jazoni ijro etish emas, balki mahkumning jamiyatda qayta ijtimoiylashuvini ta’minlashdan iborat. Shu orqali insonparvarlik tamoyillari oʻz aksini topgan milliy qonunchiligimiz mustahkam poydevor boʻlmoqda [20].

Shu oʻrinda, 2019-yilda oʻz faolyatini boshlagan vaqtda atigi bir yil ichida probatsiya boʻlinmalari tomonidan amalga oshirilgan ishlarga raqamlar misolida nazar tashlaydigan boʻlsak:

– ichki ishlar organlari probatsiya boʻlinmalari tomonidan 61053 nafar shaxs nazorat ostiga olingan boʻlib, shundan axloq tuzatish ishlarida – 20021 nafar, shartli hukm qilinganlar – 2 340 nafar, muayyan huquqdan mahrum qilinganlar – 6925 nafar, ozodlikni cheklash – 9767 nafar, majburiy jamoat ishlari – 137 nafar va shartli ozod qilinganlar – 21863 nafarni tashkil etadi;

– keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda oʻtkazilgan profilaktik tadbirlar natijasida nazorat ostidagi 53393 nafar shaxs hisobdan chiqarildi;

– oʻzining qonunlarga itoatkorligi va mehnatga boʻlgan ijobiy munosabati bilan qat’iy tuzalish yoʻliga kirgan 25431 nafar nazoratdagi shaxslar Oʻzbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasiga asosan jazodan muddatidan ilgari shartli ozod etildi;

– nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishga, ularni oʻqish va ishga joylashtirishga hamda qayta kasbga yoʻnaltirishga asosiy e’tibor qaratildi. Xususan, nazorat ostidagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish xavfini aniqlash borasida 20370 nafarining ijtimoiy-psixologik portreti tuzilib, shu asosida tarbiyaviy profilaktik ta’sir choralari olib borilmoqda;

– nazoratdagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirish boʻyicha bandlikka koʻmaklashish markazlari bilan hamkorlikda 1008 marotaba “Ishga marhamat” tadbirlari tashkil etilib, ulardan 7839 nafari ishga joylashtirildi va 9090 nafariga ishga yoʻllanmalar berildi;

– muayyan kasbga ega boʻlmagan 4555 nafar shaxsdan 3794 nafari kasb-hunarga oʻqitilib, 1459 nafari kasbga oʻqitish uchun yuborildi;

– nazoratdagilarni ijtimoiy moslashtirish va yordam koʻrsatish masalasida mutasaddi idora va tashkilotlarga 10124 ta taqdimnoma kiritildi;

– nazorat ostidagi shaxslar bilan 22190 marotaba uchrashuv va davra suhbatlari oʻtkazilib, 303005 ta masala boʻyicha huquqiy yordam koʻrsatildi, jumladan: 243174 nafariga jazoni oʻtash yoʻnalishi boʻyicha; 30209 nafariga ishga joylashtirish; 4 916 nafariga sogʻligʻini tiklash; 208 nafariga uy-joy bilan ta’minlash; 421 nafari oʻqishga kirishi; 6563 nafariga moddiy yordam olish; 2550 nafariga maishiy masalalarda va 6 044 nafariga boshqa masalalar boʻyicha huquqiy yordam koʻrsatildi [21].

O‘zbekiston Respublikasi turli qonun hujjatlarida ichki ishlar organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari va samaradorligini kompleks o‘rganish, tahlil qilish va baholash, birinchi navbatda, jazoni ijro etish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish zarurati nazarda tutilgan [22].

Fikrimizcha, bugungi kunda O‘zbekistonda penitensiar sohadagi mavjud qonunchilik zamon talablariga, ayniqsa, uning preventiv jihatlarini kuchaytirish nuqtayi nazaridan javob bera olmay qolgan. Shuning uchun, hozrgi kunda O‘zbekiston jazoni ijro etish tizimidagi islohotlar faqat ushbu tizimni qayta tashkil etish bilan cheklanmasligi lozim, balki keng ko‘lamda, mamlakatda jinoyatchilik holati, tuzilishi va dinamikasiga bog‘liq holda, davlatning kelajakdagi jinoyat huquqiy siyosati va qonunchiligidagi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda, jazoni ijro etuvchi organlar va muassasalar tizimini, ularning vazifalari va funksiyalari, tashkiliy tuzilmasi, vakolat doirasi, umuman, butun penitensiar tizim va uning har bir alohida tarkibiy bo‘g‘ini faoliyati profilaktik yuklama nuqtayi nazaridan qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Bizningcha, amaldagi milliy probatsiya xizmati 3 va 4 shakldagi probatsiya turlarini ko‘zda tutadi (ijroiya probatsiya va postpenitensiar probatsiya shakllari). Nazarimizda, probatsiyaning barcha shakllarini qamrab oladigan tuzilmani shakllantirish lozim. Buning uchun, quyidagi qonunlar ishlab chiqilishi shart deb hisoblaymiz:

*“Probatsiya organlarida xizmat qilish to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va Jinoyat ijroiya kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonunlar va boshqa.*

Demak, probatsiya mohiyatini tushunishga oid fikr va muammolarning tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi:

O‘zbekistonda penitensiar tizimning o‘rni va ahamiyati butunlay o‘zgarishi lozim. Jumladan, yangidan tuzilgan probatsiya xizmati tom ma’nodagi huquqni muhofaza qilish organiga aylanishi kerak. Bu probatsiya tuzilmasining faoliyati to‘laligicha fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilishi lozim.



## ADABIYOTLAR

1. Габараев А. Ш., Новиков А. В. Перспективы реализации института пробации в современной пенитенциарной политике Российской Федерации // Современные проблемы науки и образования – 2015. – № 2. (Gabaraev A. Sh., Novikov A. V. Prospects for the implementation of the probation institution in the modern penitentiary policy of the Russian Federation // Modern problems of science and education - 2015. - No. 2.)

2. А.К.Исергепова. Институт пробации в уголовном процессе: проблемы, Тенденции и перспективы развития (на примере Стран-Участников Содружества Независимых Государств) "Санкт-Петербургский университет Министерства внутренних дел Российской Федерации" 12.00.09 – уголовный процесс Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. //https://www.internet-law.ru/dic/ (A.K. Isergepova. Institute of Probation in Criminal Procedure: Problems, Trends and Development Prospects (on the example of the Member States of the Commonwealth of Independent States) "St. Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation" 12.00.09 - criminal procedure Dissertation for the degree of candidate of legal sciences. //https://www.internet-law.ru/dic/

3. Гета Максим Ростиславович. Пробация и ее перспективы в уголовном праве Республики Казахстан. Тема диссертации и автореферата по ВАК РФ 12.00.08, кандидат юридических наук 2000 г. // [Электронный документ].-URL:htto://www.dissercat.com (Geta Maksim Rostislavovich. Probation and its prospects in the criminal law of the Republic of Kazakhstan. The topic of the dissertation and abstract according to the Higher Attestation Commission of the Russian Federation 12.00.08, candidate of legal sciences 2000 // [Electronic document].-URL:htto://www.dissercat.com)

4. Курс уголовного права в пяти томах. Том 2. Общая часть: Учение о наказании / Под ред. Н.Ф. Кузнецовой, И.М. Тяжковой. М.: Зерцало, 2002. – С. 785. (Criminal Law Course in Five Volumes. Volume 2. General Part: The Doctrine of Punishment / Edited by N.F. Kuznetsova, I.M. Tyazhkova. Moscow: Zertsalo, 2002. – P. 785.)

5. http:precedentinfo.kg 2018.12.19. v-otnoshenii-kakih-prestupnikov-budet-primenyatsya-probatsionnyj-nadzor

6. Vogel, Brenda (2009). The Prison Library Primer: A Program for the Twenty-First Century. Scarecrow Press. p. 176.;

7. Drucker, Ernest (2011). A Plague of Prisons: The Epidemiology of Mass Incarceration in America. The New Press. pp. 115–116.;

8. Балуев Е.Н. "Пенитенциарная система": плюрализм подходов к обозначению социально-юридического феномена и средства охраны и защиты законности и правопорядка. // Общество. Среда. Развитие (Terra Humana). – 2010, № 3. – С. 113.( Baluev E.N. "Penitentiary system": pluralism of approaches to the designation of a socio-legal phenomenon and means of protecting and defending legality and law and order. // Society. Environment. Development (Terra Humana). - 2010, No. 3. - P. 113.)

9. Sh.A.Xo‘jayev // "O‘zbekiston jinoyat qonunchiligiga probatsiya institutini joriy etish istiqbollari" // Материалы международной научно-практической конференции. С-38. (Sh.A.Khuzhayev // "Sh.A. Khodjayev // "Prospects for introducing the probation institution into the criminal legislation of Uzbekistan"// Proceedings of the international scientific and practical conference. P-38.)

10. Дворянсков И.В., Сергеева В.В., Баталин Д.Е. Применение альтернативных видов наказания в Западной Европе, США и России (сравнительно-правовое исследование). – Москва: РОО "Центр содействия реформе уголовного правосудия", Penal Reform International, 2004. – С. 38. (Dvoryanskov I.V., Sergeeva V.V., Batalin D.E. Use of alternative types of punishment in Western Europe, the USA and Russia (comparative legal study). – Moscow: ROO "Center for Assistance to Criminal Justice Reform", Penal Reform International, 2004. – P. 38.)

11. Садыков А.У. Перспективы института пробации в современной России // Общество и право. – 2011. – № 3 (350). – С. 215.( Sadykov A.U. Prospects of the Probation Institute in Modern Russia // Society and Law. – 2011. – No. 3 (350). – P. 215)

12. Минимальные стандартные правила Организации Объединенных Наций, касающиеся отправления правосудия в отношении несовершеннолетних (Пекинские правила): Приняты резолюцией 40/33 Генеральной Ассамблеи от 29 ноября 1985 года // https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/ conventions/beijing_rules.shtml (дата обращения: 10.02.2018) (United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (the Beijing Rules): Adopted by General Assembly resolution 40/33 of 29 November 1985)

13. Chomil Kamal, The Probation Service in Singapore, UNAFEI Resource Material Series No. 67. – 64-б. http://www.unafei.or.jp/english/pdf/PDF_rms/ no67/04_Ms.Kamal__p61-p74.pdf.

14. Finnish Criminal Policy: From Hard Time to Gentle Justice. Ikponwosa O. Ekunwe University of Tampere Richard S. Jones // Published version.The Journal of Prisoners on Prisons, Vol. 21, No. 1&2 (June 2012).

15. P.J.P. Tak, The Dutch criminal justice system: Organization and operation. 2nd ed. Boom Juridische uitgevers, 2003. – 35-б.

16. Probation Service Systems in Europe http://www.kriminalforsorgen.dk/.

17. Dunkel F. Les regleseuropeennes pour les delinquantsmineursfaisantl'objet de sanctions ou de mesures (REDMOSM), REC (2008)11 du Conseil de l'Europe // Ouva la justice penale des mineurs? (Allemagne, Espagne, France, Italie, Russie) / acura di S. Cimamonti, G. Di Marino, E. Zappala. G. Giappichellieditore. Torino, 2010.P. 123.

18. Austin MacCormick. The Prison's Role in Crime Prevention.Journal of Criminal Law and Criminology. Volume 41 | Issue 1 Article 4.http://scholarlycommons. law.northwestern.edu/jclc;

19. Меньше тюрем – и преступность вниз? (Какие криминологические и пенитенциарные проблемы обсуждались на международной конференции) / Материалы конференции в Рязани 15–16 мая 1997 г. // Человек: преступление и наказание. 1997. №2. – С. 37. (Fewer prisons – and crime down? (What criminological and penitentiary issues were discussed at the international conference) / Proceedings of the conference in Ryazan on May 15–16, 1997 // Man: crime and punishment. 1997. No. 2. – P. 37.)

20. Kamilov D., Sultonov B. 28 nafar mahkumga insonparvarlik tamoyili qo‘llanildi [Elektron manba]. http://old.uza.uz/oz/society/28-nafar-ma-kumga-insonparvarliktamoyili-llanildi-27-08-2020?sphrase_ id= 23520817 (Kamilov D., Sultanov B. The principle of humane treatment was applied to 28 prisoners [Electronic source].)

21. Probatsiya xizmati – dastlabki bir yillik faoliyat natijalari va kelgusidagi rejalar // https://www.iiv.uz/news/probatsiya-xizmati-dastlabki-biryillik-faoliyat-natijalari--va-kelgusidagi-rejalar. (Probation service - first year results and future plans)

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda(Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017 “On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan” // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70.)

# ISHNI SUDGA QADAR YURITISHDA VIDEOKONFERENS-ALOQA REJIMINI QO‘LLASH

*FAYZULLAYEV Shavkat Fayzullayevich,*
*O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada videokonferensaloqa rejimi tushunchasi, uni qo‘llash xususiyatlari, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti, surishtiruv va dastlabki tergovda undan foydalanishning afzalliklari, qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashda foydalanish imkoniyatlari, mavzu doirasidagi ilmiy qarashlar va xorijiy tajribalar tahlil qilinib, qator taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** videokonferensaloqa, tergov harakatlari, ehtiyot chorasi, dalil, surishtiruv, dastlabki tergov, talablar, onlayn rejim.

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается понятие видеоконференцсвязи, особенности ее применения, законодательство и правоприменительная практика, преимущества использования в следствии и предварительном расследовании, возможности применения при использовании меры пресечения в виде заключения под стражу, анализируются научные взгляды по теме и зарубежный опыт, а также предлагаются ряд рекомендаций и предложений.

**Ключевые слова:** видеоконференцсвязь, следственные действия, мера пресечения, доказательство, дознание, предварительное расследование, требования, онлайн-режим.

**ANNOTATION**

The article examines the concept of videoconferencing, its application features, legislation and law enforcement practice, advantages of its use in inquiry and preliminary investigation, possibilities of application in the use of detention as a preventive measure, analyzes scientific views on the topic and foreign experience, and proposes a number of recommendations and suggestions.

**Key words:** videoconferencing, investigative actions, preventive measure, evidence, inquiry, preliminary investigation, requirements, online mode.

Har bir mustaqil davlat o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, unda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi. Shu maqsadda muayyan o‘ziga xos taraqqiyot yo‘lini belgilab oladi. Mamlakatimizda ham sud-huquq tizimida islohotlar jadal sur’atlarda olib borilmoqda. Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish sud-huquq islohotlarining bosh mezoniga aylanmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining *“O‘zbekiston – 2030”* strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida sudlar va tergov organlari faoliyatida amalga oshirilashi lozim bo‘lgan eng muhim yo‘nalishlar belgilab berildi [1]. Farmonda belgilangan 84-maqsad sudlar va tergov organlari faoliyatida ayrim protsessual harakatlarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyatlarini kamida 2 barobar oshirishni ko‘zda tutadi. Ushbu maqsad raqamli texnologiyalar, xususan, videokonferensaloqa rejimidan foydalanish orqali tergov va sud jarayonlari samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish tergov organlari va sudlarda zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, infratuzilmani mustahkamlash va raqamlashtirish tendensiyasini oshirishni talab qiladi. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqadan foydalanishni takomillashtirish ham bevosita mazkur strategiyada belgilangan maqsadlar ijrosining bir qismi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham ishni sudga qadar yuritish bosqichida masofaviy tergov harakatlarini keng joriy etish va samaradorligini oshirish maqsadida bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. Dastlab, O‘zbekistonda iqtisodiy va fuqarolik huquqiy munosabatlarida videokonferensaloqadan foydalanish amaliyoti birmuncha oldinroq boshlangan bo‘lsa, 2018-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-476-son [2] qonuni bilan birinchi marotaba jinoyat-protsessual qonunchiligiga videokonferensaloqadan foydalanish instituti kiritildi. So‘ng 2019-yil 23-may kunidagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-542-son qonuni [3] bilan mutlaqo yangi – tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish tartibi qonunchilikka kiritildi. Vaqt o‘tishi bilan ishni sudga qadar yuritish bosqichida videokonferensaloqa rejimidan foydalanish institutning amaliyotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq ayrim muammolar kuzatildi. Mamlakatimiz qonunchiligida videokonferensaloqa rejimi joriy etilganligiga qariyb 5 yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, 2019–2023-yillar mobaynida bor-yo‘g‘i 40 ga yaqin protsessual harakatlarda videokonferensaloqa rejimidan foydalanilgan. Jumladan, o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirok etgan surishtiruvchi va tergovchilarning 64 foizi faoliyatida biror marotaba ham videokonferensaloqa rejimidan foydalanmaganligini tasdiqlagan.

Shuningdek, tadqiqot davomida o‘rganilgan jinoyat ishi materiallarida jami 28 foiz shaxsga, shu jumladan barcha ayblanuvchilarga nisbatan qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini masofadan turib videokonferensaloqa rejimida tanlashga ehtiyoj bo‘lganligi ma’lum bo‘ldi.

O‘rganishlar doirasida ushbu tergov harakatini o‘tkazish rejimining surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan ommalashmasligi va kam miqdorda foydalanilishiga sabab sifatida quyidagi omillarni alohida ko‘rsatish mumkin:

1) Videokonferensaloqa tushunchasiga aniq ta’rif ishlab chiqilmaganligi. Albatta bu omil, moddiy huquqiy normalar talablari jihatidan muhim hisoblanmasa-da, ushbu institutning mohiyati, vazifasi va ahamiyatini tushunish uchun nazariy jihatdan muhim hisoblanadi.

2) Videokonferensaloqani qo‘llashda minimum talablarning mavjudligi – O‘zbekiston JPKning 91$^{1}$-moddasining 3-qismida qat’iy qilib, tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazishda foydalaniladigan texnik vositalar va uskunalarga qo‘yiladigan talablar sifatida tasvir sifati bo‘yicha – o‘lchami 1920×1080, sekundiga 50 ta kadr, ovoz sifati bo‘yicha – chastota [4] diapazoni [5] 100–12000 Gs, axborot xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha – VPN himoyalangan aloqa kanalidan foydalangan holda amalga oshirilishi kerak [6]. Ammo ushbu talab to‘liq

ta’minlanishi uchun avvalo foydalanuvchi xodimlar standart uskunalar bilan ta’minlanishi zarur. O‘tkazilgan so‘ronomaga ko‘ra, ishtirok etgan respondentlarning 40 foizi jinoyat ishini yuritishga mas’ul davlat (tergov) organida videokonferensaloqa rejimidan foydalanish imkoniyati (qurilmasi) mavjud emasligini bildirishgan. Mazkur masalada S.S.Oripov ham fikr bildirib, ushbu minimum talablar bugungi kun texnikasi uchun maksimal talablar bo‘lib, tashkiliy imkoniyatlarga nomuvofiq hisoblanishini qayd etgan [7]. Bu kabi minimum talablar Ozarboyjon (52-2.7-modda) [8], Belarus ($224^1$-modda) [9], Gruziya (243-modda) [10], Qozog‘iston (126-modda) [11], Qirg‘iz Respublikasi (94-modda) [12], Latviya (140-modda) [13], Rossiya [14], Tojikiston (23-m) [15], Turkmaniston ($252^1$-modda) [16], Ukraina [17], Estoniya (69-modda) [18] kabi davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida masofaviy tergov harakatining o‘tkazish tartibi aks etgan bo‘lsa-da, unda ishni olib borayotgan shaxs, agar texnik imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, masofaviy tergov harakatlari o‘tkazilishi kerakligi haqida qoidalar kiritilgan. Ammo tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o‘tkazish uchun minimum talablar nazarda tutilmagan.

3) Qamoq bilan bog‘liq ehtiyot choralarini masofadan turib tanlash hamda uzaytirish qonunchiligimizda mustahkamlanmagan – qayd etish joizki, ma’muriy materiallar bo‘yicha ish yuritish Prezident qaroriga [19] asosan to‘liq onlayn (masofaviy) sud jarayonlariga o‘tkazildi [20]. Bu esa har bir ma’muriy material yuzasidan profilaktika (katta) inspektorlarining xizmat xonasidan onlayn sud o‘tkazish imkonini beradi. Ammo bu tartib, jinoyat ishlarini yuritishda biroz cheklangan. Misol uchun, tadqiqot davomida o‘rganilgan 1000 ga yaqin jinoyat ishlaridagi barcha ayblanuvchilarga nisbatan qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini masofadan videokonferensaloqa rejimida tanlashga ehtiyoj bo‘lganligi aniqlandi.

Biroq qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini tanlash vaqtida sud tomonidan mazkur shaxsning aybliligi masalasi hal qilinmaydi. Sudya va gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning yuzma-yuz ko‘rishib qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash – faqatgina xarajatlarni oshiruvchi va ichki ishlar organlari konvoy xizmati xodimlarining ish samaradorligiga salbiy ta’sir qiluvchi omil sanaladi.

Xususan, IIV Jamoat xavfsizligi departamentiga ko‘ra, 2021-yilning 4 oyida jami 35 076 nafar shaxsni tergov va sud organlariga konvoy qilish uchun maxsus avtomashinalarda 325 117 km yo‘l bosib o‘tilgan bo‘lib, o‘rta hisobda 70 ming litr yonilg‘i-moy mahsulotlari sarflangan [21].

Birgina Oltinsoy tumani miqyosida 2023-yilning 8 oyida 81 marotaba konvoy tadbirlari amalga oshirilgan, shundan viloyat markazida joylashgan 9-sonli tergov hibsxonasiga (140 km uzoqlikda) 13 marotaba, sud idoralariga 50 marotaba, tergov idoralariga 20 marotaba, jami konvoy qilingan shaxslar soni 284 nafarni tashkil etib, mazkur konvoy tadbirlariga jalb etilgan jami xodimlar soni 552 nafarni tashkil etgan, ammo bu vazifani bajarish uchun 2 nafar konvoy guruhi xodimlari shtati mavjud. Ko‘proq shaxslarni konvoy qilishga to‘g‘ri kelsa bevosita boshqa lavozimda xizmat qiluvchi xodimlarni ham jalb etishga to‘g‘ri keladi. Qo‘shimcha jalb etiladigan xodimlarning esa asosiy xizmat vazifasi mavjud.

Tuman viloyat markazidan olisda bo‘lganligi sababli konvoy tadbirlarini amalga oshirish uchun o‘rtacha 4–8 soatgacha vaqt sarflanadi. Bu esa qo‘shimcha xizmatdan jalb etilgan xodimlarning ish samaradorligiga salbiy ta’sir etmasdan qolmaydi. Bundan tashqari, tuman IIBga konvoy tadbirlarini amalga oshirish uchun ajratilgan avtotransport vositasi mavjud bo‘lib, ushbu avtoulov xususiyatiga ko‘ra 100 km masofaga o‘rtacha 20 litr yonilg‘i sarflaydi.

Birgina respublikada 2024-yilda dastlabki tergov organlari tomonidan jami 33 338 nafar shaxs ushlangan bo‘lsa, shundan 31 265 nafariga qamoqqa olish tarzidagi, 803 nafariga uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralari tanlangan. Gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)larning barchasi sud zaliga olib borilgan [22]. Albatta bu raqamlar mazkur tarmoqqa raqamli texnologiyalarni jalb etish zarurligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi “Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 16-son qarori 18-bandi 3-xatboshisida “Sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchining aybliligi yoki aybsizligi masalasi muhokamasiga kirmagan holda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash yoki qamoqda saqlab turish muddatini uzaytirish to‘g‘risi-

dagi masalani hal qiladi” [23] deb ko‘rsatilgan. Bu qoida amaliyotda ham bevosita qo‘llanilib kelinmoqda. Shuningdek, 2025-yil 13-yanvar kunidan Respublika sudlari tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi bilan bog‘liq barcha hujjatlarning (sanksiya paketi) “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi orqali tegishli sudga yuborilishi hamda sud ajrimini ham aynan shu tizim orqali elektron ravishda olish tartibi amaliyotga joriy etildi [24].

O‘rganishlar davomida aynan qamoq bilan bog‘liq ehtiyot choralarini videokonferensaloqa rejimida masofadan turib tanlash amaliyoti joriy etilishi natijasida amaldagi konvoy xarajatlarini 53,2 foizgacha kamaytirish mumkinligi haqida asosli xulosaga kelindi.

Qamoq bilan bog‘liq ehtiyot choralarini masofadan tanlash, bizningcha moliyaviy tomondan bir marotaba qilingan sarf-xarajat doimiy ravishda konvoy xizmati tomonidan qilinadigan xarajatlarni va gumon qilinuvchilarni saqlash, ular qochib ketgan taqdirda qidirish bilan bog‘liq qo‘shimcha xarajatlarni ham kamaytirishga xizmat qiladi. Bu borada, V.M.Garmanov va R.D.Karimov ushbu sohaga videokonferensaloqa rejimini joriy etish bo‘yicha takliflarni ilgari surib, qo‘shimcha tegishli uskunalarni sotib olish va o‘rnatish uchun moliyaviy xarajatlar bir martalik xususiyatga ega ekanligi, ammo uning joriy etilishi natijasida gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarni kuzatib borish va saqlashga sarflangan xarajat esa davomli xususiyatga egaligini ta’kidlashadi [25]. Mazkur fikrning asosliligi shundaki, qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini tanlash vaqtida sud ayblilik masalasini hal qilmaydi va yopiq sud majlisi bo‘lib o‘tadi [26]. Chunki ehtiyot chorasi gumon qilinuvchi(ayblanuvchi)ning surishtiruv, dastlabki tergov va suddan bo‘yin tovlashining oldini olish, uning bundan keyingi jinoiy faoliyatiga chek qo‘yish, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo‘l qo‘ymaslik, hukmning ijro etilishini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi [27].

Bu masalada A.A.Haydarovning qarashlariga ko‘ra, sud faoliyatidagi oshkoralik bu haqda keng qamrovli ma’lumotni anglatadi va sud jarayonida videokonferensaloqa rejimidan foydalanish oshkoralik va shaffoflik kabi prinsiplarga zid hisoblanmaydi [28]. Ushbu masalada advokatlar ham ijobiy fikr bildirib, advokat A.Abdullayevning [29] fikriga ko‘ra, sudlar qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llashda ayblovni muhokama qilish vakolatiga ega hisoblanmaydi. F.F.Zaripov esa surishtiruv va tergov jarayonida videokonferensaloqadan foydalanish to‘liq protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanishini qayd etgan [30]. Y.T.Demidova [31] sud har qanday bosqichda, jumladan qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini tanlash vaqtida ham protsess ishtirokchilarining videokonferensaloqa rejimida ishtirok etishini ta’minlashi lozim deb hisoblaydi. Germaniya qonunchiligi bo‘yicha advokatlarga ishxonasidan turib jazoni ijro etish muassasasidagi mijozi bilan videokonferensaloqa rejimida muloqot qilish imkoni berilgan [32].

Jahon tarixida sud tomonidan masofadan turib qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini tanlash amaliyoti boshlanganiga qariyb 20 yildan oshdi. Jumladan, 2010-yili Yekaterinburg shahridagi vaqtincha saqlash izolyatorida 2 ta xona aynan sudlar tomonidan masofaviy rejimda qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun jihozlangan. Mazkur rejim orqali sud tomonidan sudda bevosita gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining ishtirokisiz ehtiyot chorasi tanlangan va apellyatsiya shikoyati ko‘rila boshlagan.

2022-yili Rossiyada 350 mingdan ortiq xuddi shunday sud jarayonlari videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilgan [33]. Ammo mazkur davlatda ham ushbu rejim to‘liq joriy etilmagan hududlar hozirga qadar mavjud. Misol uchun, Rossiya Federatsiyasining Chukotka hududida konvoy tadbirlari uchun har yili 19 033 291 rubl (3 mlrd so‘m) mablag‘ sarflanadi [34].

2022-yil 29-dekabr kuni “Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 610-sonli qonun qabul qilindi [35]. Mazkur qonunga ko‘ra, RF JPKning 108-moddasi (qamoqda saqlash tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash) 4-qismiga o‘zgartirish kiritilib, ushlab turilgan gumon qilinuvchi sud majlisiga olib kelinadi, agar uning sud majlisida bevosita ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladigan holatlar mavjud bo‘lsa va sud gumon qilinuvchining sud majlisida videokonferensaloqa rejimi yordamida ishtirok etishi to‘g‘risida qaror qabul qilgan hollar bundan mustasno ekanligi haqida qoidalar kiritildi. Rossiyada bundan 2 yil avval 688 marotaba, o‘tgan yili esa 9 636 marotaba sudlar tomonidan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chora-

si va uni uzaytirish bilan bog‘liq masalalar videokonferensaloqa rejimida ko‘rib chiqilgan [36]. Bu statistik ma’lumotlar mazkur amaliyot o‘zini oqlaganligidan dalolat beradi.

Sud-huquq tizimi rivojlangan davlatlarning qonunchiligini o‘rganish natijasida, bizningcha, ishni sudga qadar yuritish bosqichida qamoqqa olish yoki uy qamog‘i tarzidagi ehtiyot choralarini qo‘llash va ushbu ehtiyot choralarini qo‘llash muddatini uzaytirish masalalari sud tomonidan videokonferensaloqa rejimida ko‘rib chiqilishi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining sudda bevosita ishtirok etishi bilan teng ahamiyatga ega. O‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 62 foizi masofadan turib, qamoq bilan bog‘liq ehtiyot chorasini videokonferensaloqa rejimida tanlash tartibini JPKga kiritish haqidagi taklifni qo‘llab-quvvatlagan.

Bugungi dunyo tajribasida shaxsning jinoyat sodir etganligini isbotlash borasida zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanib kelinmoqda. Bu borada G‘arb, AQSH va Uzoq Sharq davlatlari yetakchilik qilmoqda [37]. 2024-yil 12 oyi holatiga ko‘ra, AQSHning Pensilvaniya shtatida oyiga o‘rtacha 15 700 marotaba isbotlash jarayoni videokonferensaloqa rejimi orqali o‘tkazilib, yillik 21 million dollargacha transport xarajatlari tejalgan [38]. Mazkur amaliyot Michigan shtatida davlat budjetining 5 million dollargacha mablag‘larini tejab qolishga imkon beradi. Nyu-York shtatida ushlangan ayblanuvchilarning 69 foizi videokonferensaloqa orqali isbotlash jarayonida qatnashadi [39]. AQSH sud muhokamalarining 77 foizi videokonferensaloqa rejimida o‘tkazilmoqda [40]. 50 foiz politsiya xodimlari har kuni videkonferensaloqa rejimidan foydalansa, aynan videokonferensaloqa rejimi qo‘llanilishi natijasida xizmat safarlari 60 foiz qisqarishiga erishilgan [41]. Shuningdek, videokonferensaloqa rejimini qo‘llash ko‘lamining kengayishi AQSHda jami protsessual chiqimlarni 30 foizgacha kamaytirish imkonini berdi [42].

Yaponiyada 2025-yil may oyi holatiga ko‘ra, isbotlash jarayonida videokonferensaloqa rejimi qo‘llanilishi ko‘rsatkichi prokuratura tizimida 94 foiz, politsiya tizimida esa 26 foiz holatda amalga oshirilmoqda [43].

Hindistonda tibbiyot muassasalariga videokonferensaloqa qurilmasi o‘rnatilishi natijasida tan jarohati bilan bog‘liq holatlar bo‘yicha guvohlik berish tizimi joriy etilib, har bir guvohlik uchun o‘rtacha 2620 rupiy yoki 35 dollar tejalmoqda [44].

Jahonning rivojlangan davlatlarida jinoyat ishlarida videokonferensaloqa rejimini kengaytirish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar va amaliy tajribalar olib borilmoqda. *Tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:*

– tergov jarayoni samaradorligini oshirish;
– videokonferensaloqa rejimida o‘tkaziladigan tergov harakatlari doirasini kengaytirish;
– protsessual chiqimlarni kamaytirish;
– protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash va sarsongarchiliklarni kamaytirish;
– qamoq bilan bog‘liq ehtiyot choralarini masofadan turib tanlash;
– ayollar va voyaga yetmagan jabrlanuvchilar xavfsizligini ishonchli ta’minlab, obyektiv ko‘rsatuvlar olish;
– xorijda bo‘lgan protsess ishtirokchilari bilan bog‘liq tergov harakatlarini masofadan turib o‘tkazish;
– xalqaro topshiriqlarni qisqa muddatda ijro etish kabi imkoniyatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

*Yuqoridagilardan xulosa qilib, quyidagi takliflar ilgari suriladi:*

Nazariy jihatdan, videokonferensaloqaning tor va keng ma’nolardagi ta’rifi ishlab chiqilib, *tor ma’noda,* videokonferensaloqa – bu jinoyat ishi doirasida foydalanuvchilarning real vaqt rejimida o‘zaro ma’lumot almashishni ta’minlaydigan texnologiya hisoblanadi;

*Keng ma’noda* videokonferensaloqa – bu tergovchi yoki surishtiruvchi, prokuror yoxud sud tomonidan jinoyat ishi doirasida qo‘llaniladigan, dalillarni to‘plash yoki baho berish yuzasidan real vaqt rejimida o‘zaro ma’lumot almashishni ta’minlashga, vaqtni hamda ortiqcha xarajatlarni tejashga, protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, konvoy qilinayotgan qo‘riqlov ostidagi shaxslarning qochib ketishining oldini olishga xizmat qiladigan zamonaviy tergov harakatlarini o‘tkazish rejimidir.

Ozarboyjon (52-2.7-modda) [45], Belarus ($224^1$-modda) [46], Gruziya (243-modda) [47], Qozog‘iston (126-modda) [48], Qirg‘iz Respublikasi (94-modda) [49], Latviya (140-modda) [50], Rossiya [51], Tojikiston (23-m) [52],

Turkmaniston (252[1]-modda) [53], Ukraina [54], Estoniya (69-modda) [55] va boshqa davlatlarning jinoyat-protsessual qonunchiligida tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazish uchun minimum talablar mavjud bo'lmaganligi sababli O'zbekiston Jinoyat-protsessual kodeksi 91[1]-moddasining 3-qismidagi minimum talablarni *"Tergov harakatlarini videokonferensaloqa rejimida o'tkazishda foydalaniladigan texnik vositalar va uskunalar tergov harakati maqsadiga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak"* deb o'zgartirilishi taklif etiladi.

Natijada esa masofadan turib tergov harakatlarini o'tkazish mexanizmi soddalashadi hamda nomaqbul dalil yig'ish ehtimollari kamayadi.

Yuqoridagi tahlildan kelib chiqib, O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligida ham masofadan turib, videokonferensaloqa rejimida qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini sud tomonidan tanlash amaliyotini joriy etish zarur degan xulosaga kelindi.

Shu asosda o'rganishlar doirasida dastlabki tergov, surishtiruv va sud idoralari hamda tergov hibsxonalarining bugungi imkoniyatlarini chuqur o'rgangan holda takliflar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, O'zbekiston JPKning 243-moddasi 7-qismidagi "*mumkin*" so'zlaridan kiyin "*agar texnik imkoniyat mavjud bo'lsa qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash yuzasidan sud majlisiga gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi videokonferensaloqa rejimi orqali ishtirok etishi mumkin. Bunda sud aloqaning texnik kanallari orqali gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi saqlanayotgan muassasa ma'muriyatiga ushbu kodeksning 91[3]-moddasi tartibida topshiriq yuboradi*".

O'ylaymizki, yuqoridagi takliflar qonunchiligimizga kiritilishi natijasida mavjud bo'shliqlar bartaraf etilib, mazkur institutning samarali ishlashiga xizmat qiladi.



## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 2023- yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/6600413

2. 2018-yil 18-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-476-son Qonuni. https://lex.uz/uz/docs/3689258

3. 2019-yil 23-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun Hujjatlariga jinoyat protsessi ishtirokchilarining huquqlari himoya qilinishini ta’minlash bilan bog‘liq o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-542-son qonuni. https://lex.uz/uz/docs/4349703

4. Chastota - r..-частый – birin-ketish tez almashinuvchi, muayyan vaqt oralig‘ida tez takrorlanuvchi (harakat, holat, vaqt, hodisa). Fizikada ma’lum vaqt ichida takrorlangan harakat yoki tebranishlar soni. Tebranishlar chastotasi. – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. – T.: Toshkent milliy entsiklopediya nashriyoti, 2019. – B.463. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O’zbek%20tilining%20izohli%20lug’ati%20-%20Ch.pdf

5. Diapazon – yun. chordon. Biror cholg‘u asbobi yoki ashulachi ovozining eng past va eng yuqori chegara orasidagi tovushlar majmui. – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. – T.: Toshkent milliy entsiklopediya nashriyoti, 2019. – B. 605. http://library.navoiy-uni.uz/files/o%60zbek%20tilining%20izohli%20lug%60ati.pdf

6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi(Murojaat vaqti – 13.04.2023-yil). lex.uz

7. Oripov S.S. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Diss.Phd. – B.90. – T., 2023.

8. Code of Criminal Procedure of the Azerbaijan Republic Adopted on 14 July 2000. (Murojaat vaqti – 17.04.2023-yil)

8. Code of Criminal Procedure of the Azerbaijan Republic Adopted on 14 July 2000. (Murojaat vaqti — 17.04.2023-yil) https://migration.gov.az/content/pdf/bcdbd6936d940a5d8be5672d0b6de90e.pdf

9. Крымінальна-Працэсуальны Кодэкс Рэспублікі Беларусь 16 ліпеня 1999 г. № 295-З. (Murojaat vaqti – 17.04.2023-yil). https://ssrlab.by/9258

10. CRIMINAL PROCEDURE CODE OF GEORGIA. (Murojaat vaqti – – 18.04.2023-yil) https://matsne.gov.ge/en/document/download/90034/151/en/pdf

11. УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ КОДЕКС РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.01.2023 г.)*. (Murojaat vaqti – 18.04.2023-yil) Законодательной базы данных. https://sherloc.unodc.org/cld//legislation/kaz/criminal_procedure_code_of_the_republic_of_kazakhstan/chapter_56/article_537-541/chapter_56.html?lng=ru&tmpl=sherloc

12. CODE OF PENAL PROCEDURE OF THE KYRGYZ REPUBLIC of October 28, 2021 No. 129 (as amended on 30-03-2023). (Murojaat vaqti – 19.04.2023-yil) Законодательной базы данных. https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=136101

13. WIPO Lex, LATVIA, CRIMINAL PROCEDURE LAW (as amended up to March 6, 2021). (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil) Законодательной базы данных. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.**

14. CRIMINAL-PROCEDURAL CODE OF THE RUSSIAN FEDERATION NO. 174-FZ OF DECEMBER 18, 2001. (with amendments and additions as of 11.01.2023) (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil) https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/SS/directdoc.aspx?filename=T:/IP/N/1RUSE6-02.pdf&Open=True

15. Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 24.12.2022 г.) (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30594304

16. CODE OF PENAL PROCEDURE OF TURKMENISTAN of April 18, 2009 (as amended on 20-11-2022) (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil). https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=27706

17. CRIMINAL PROCEDURE CODE OF UKRAINE. (Murojaat vaqti – 26.04.2023-yil). https://rm.coe.int/16802f6016

18. Code of Criminal Procedure of the Republic of Estonia, Passed 12.02.2003, RT I 2003, 27, 166,

Entry into force 01.07.2004. (Murojaat vaqti – 26.04.2023-yil).https://www.riigiteataja.ee/en/eli/ee/Riigikogu/act/504042023004/consolide

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5050-son Qarori. (Murojaat vaqti – 25.03.2024-yil) https://lex.uz/ru/docs/5353841

20. Xorazm viloyati IIBning 2024-yil 12-fevraldagi 19/45-sonli xati.

21. IIV JHD hisobotlaridan.

22. Jinoiy-huquqiy statistika axborot tizimi hisobotlaridan.

23. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2007-yil 14-noyabrdagi “Sudga qadar ish yuritish bosqichida qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasining sudlar tomonidan qo‘llanilishi to‘g‘risida”gi 16-son qarori. (Murojaat vaqti – 09.01.2024-yil) https://lex.uz/docs/1595235

24. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2025-yil 9-yanvar kunidagi 10-05/25-353-sonli xati.

25. Гарманов В.М., Каримов Р.Д. О перспективах использования системы видеоконференц-связи в деятельности изоляторов временного содержания подозреваемых и обвиняемых органов внутренних дел Российской Федерации // Вестник Тюменского института повышения квалификации сотрудников МВД России. 2017. N 1 (8). С. 60-66. https://ebin.pub/b0ebc3b068f98f69f890b3c-befd9e547.html.

26. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. https://lex.uz/acts/111460 (Murojaat vaqti – 22.02.2023-yil)

27. O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi, Oliy sud, IIV, MXXning “Qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo‘llash hamda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq jazo tayinlashda fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasini yanada kuchaytirish haqida”gi 17.08.2010 yildagi 12f,110-10,2,uk-5-sonli Qo‘shma ko‘rsatmasi.

28. Хайдаров А.А. Об участии подсудимого, содержащегося под стражей, в процессуальных действиях в судебном заседании с использованием систем видеоконференц-связи // Российский следователь. 2014. Н 19. С. 21-24.

29. Abdullayev A., Iqrorlik ko‘rsatuvi olishga erishish metodi. t.me/Advokat_Abdullayev (https://t.me/Advokat_Abdullayev). @Advokat_Abdullayev telegram kanali.

30. Зарипов Ф., Реализация принципа обеспечения безопасности участников уголовного судопроизводства в условиях современной российской уголовно-процессуальной политики // дисс. кон. наук. – М.: Саратов, 2021. – С. 4.

31. Демидова Е., Теоретические и практические проблемы надзорного производства по уголовным делам. Дисс. к.ю.н. Саратов-2006. С-19. https://www.dissercat.com/content/teoreticheskie-i-prakticheskie-problemy-nadzornogo-proizvodstva-po-ugolovnym-delam

32. Enhancing the Right of Access to a Lawyer for Detained Suspects and Accused Persons via Videoconferencing. https://eucrim.eu/articles/enhancing-the-right-of-access-to-a-lawyer-for-detained-suspects-and-accused-persons-via-videoconferencing/?utm_source=chatgpt.com

33. В 2022 году суды провили болле 350 000 заседаний по видеоконференции, https://pravo.ru/news/243023/

34. С.С.Чернова. Проблемы законодательного регулирования использования видеоконференц-связи при рассмотрении судом вопросов, связанных с применением меры пресечения в виде заключения под стражу. //Юридическая наука и правоохранительная практика 4 (42) 2017. Б-141. file:///C:/Users/hp/Downloads/problemy-zakonodatelnogo-regulirovaniya-ispolzovaniya-videokonferents-svyazi-pri-rassmotrenii-sudom-voprosov-svyazannyh-s-primeneniem-mery-presecheniya-v-vide-zaklyucheniya-pod-strazhu.pdf

35. Федеральный закон Российская Федерация “О внесении изменений Угаловно-процессуальной Кодекс Российской Федерации” от 29 декабря 2022 г. № 610 ФЗ, http://publication.pravo.gov.ru/Document/View/0001202212290106?index=9&rangeSize=1.

36. Александрова О. П. Использование возможностей систем видеоконференц-связи на стадии предварительного расследования преступлений в уголовном судопроизводстве россии и некото-

рых зарубежных стран// Доклады участников конференции. Псковский государственный университет. 2024.С-50 https://elib.psu.by/bitstream/123456789/33429/1/49-54.pdf

37. Oripov S.S. Ishni sudga qadar yuritish bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Diss.Phd. – T.: 2023. –B.23.

38. Courts expand use of video conferencing saving 21 millionannually in defendant transportation costs. https://statetechmagazine.com/article/2019/01/state-and-local-court-systems-adopt-videoconferencing-save-time-and-money?utm_source=chatgpt.com

39. State and Local court systems. Adopt videoconferencing to save. Time and money. https://statetechmagazine.com/article/2019/01/state-and-local-court-systems-adopt-videoconferencing-save-time-and-money?utm_source=chatgpt.com

40. https://worldmetrics.org/technology-in-criminal-justice-statistics/?utm_source=chatgpt.com

41. 3 reasons videoconferencing can save your agency money and hassle. https://www.police1.com/police-products/police-technology/police-software/articles/3-reasons-videoconferencing-can-save-your-agency-money-and-hassle07j4ulJR8xUDhZD1/?utm_source=chatgpt.com

42. Video Conferencing Statistics. https://gitnux.org/video-conferencing-statistics/?utm_source=chatgpt.com

43. Criminal justice system of Japan. https://en.wikipedia.org/wiki/Criminal_justice_system_of_Japan?utm_source=chatgpt.com

44. Court evidence via video conferencing by doctors: Savings of time, money and energy. https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34213451/

45. Code of Criminal Procedure of the Azerbaijan Republic Adopted on 14 July 2000. (Murojaat vaqti – 17.04.2023-yil) https://migration.gov.az/content/pdf/bcdbd6936d940a5d8be5672d0b6de90e.pdf

46. Крымінальна-Працэсуальны Кодэкс Рэспублікі Беларусь 16 ліпеня 1999 г. № 295-З. (Murojaat vaqti – 17.04.2023-yil). https://ssrlab.by/9258

47. CRIMINAL PROCEDURE CODE OF GEORGIA. (Murojaat vaqti – 18.04.2023-yil) https://matsne.gov.ge/en/document/download/90034/151/en/pdf

48. УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫЙ КОДЕКС РЕСПУБЛИКИ КАЗАХСТАН *(с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.01.2023 г.)*. (Murojaat vaqti – 18.04.2023-yil) Законодательной базы данных. https://sherloc.unodc.org/cld//legislation/kaz/criminal_procedure_code_of_the_republic_of_kazakhstan/chapter_56/article_537-541/chapter_56.html?lng=ru&tmpl=sherloc

49. CODE OF PENAL PROCEDURE OF THE KYRGYZ REPUBLIC of October 28, 2021 No. 129 (as amended on 30-03-2023). (Murojaat vaqti –19.04.2023-yil) Законодательной базы данных. https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=136101

50. WIPO Lex, LATVIA, CRIMINAL PROCEDURE LAW (as amended up to March 6, 2021). (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil) Законодательной базы данных. **Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки.**

**51.** CRIMINAL-PROCEDURAL CODE OF THE RUSSIAN FEDERATION NO. 174-FZ OF DECEMBER 18, 2001. (with amendments and additions as of 11.01.2023) (Мурожаат вақти – 24.04.2023-йил) https://docs.wto.org/dol2fe/Pages/SS/directdoc.aspx?filename=T:/IP/N/1RUSE6-02.pdf&Open=True

**52.** Уголовно-процессуальный кодекс Республики Таджикистан от 3 декабря 2009 года (с изменениями и дополнениями по состоянию на 24.12.2022 г.) (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil). https://continent-online.com/Document/?doc_id=30594304

**53.** CODE OF PENAL PROCEDURE OF TURKMENISTAN of April 18, 2009 (as amended on 20-11-2022) (Murojaat vaqti – 24.04.2023-yil). https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=27706

**54)** CRIMINAL PROCEDURE CODE OF UKRAINE. (Murojaat vaqti – 26.04.2023-yil). https://rm.coe.int/16802f6016

**55.** Code of Criminal Procedure of the Republic of Estonia, Passed 12.02.2003, RT I 2003, 27, 166, Entry into force 01.07.2004. (Murojaat vaqti – 26.04.2023-yil).https://www.riigiteataja.ee/en/eli/ee/Riigikogu/act/504042023004/consolide

# ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРОЕКТОВ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА: РЕТРОСПЕКТИВА И ПЕРИОДИЗАЦИЯ

***КЕНЖАЕВ***
***Тимур Исомович,***
***доктор философии юридических наук (PhD), доцент / самостоятельный соискатель Правоохранительной академии Республики Узбекистан.***

**АННОТАЦИЯ**

В статье рассматривается институциональное развитие антикоррупционной экспертизы проектов законодательства как самостоятельного превентивного правового института. На основе ретроспективного и периодизационного анализа исследуются ключевые этапы становления антикоррупционной экспертизы в Республике Узбекистан, начиная с формирования фрагментарных внутриведомственных механизмов и заканчивая её законодательным оформлением и расширением институциональной архитектуры.

Проведён анализ международных и региональных антикоррупционных стандартов, включая документы ООН, ОЭСР и модельное законодательство стран СНГ, а также их влияние на национальное правовое регулирование. Особое внимание уделено роли Министерства юстиции, Агентства по противодействию коррупции и органов прокуратуры в системе антикоррупционной экспертизы, а также трансформации модели от централизованного к более децентрализованной и комплексной системе.

Обосновано, что антикоррупционная экспертиза в Республике Узбекистан развивается как системный элемент государственной антикоррупционной политики, ориентированный на выявление и устранение коррупциогенных факторов на стадии правотворчества и правоприменения. Сделан вывод о необходимости дальнейшего институционального и нормативного совершенствования антикоррупционной экспертизы с учётом практики её реализации и международного опыта.

**Ключевые слова:** антикоррупционная экспертиза, коррупция, коррупциогенные факторы, проекты законодательства, правотворчество, превентивные меры, периодизация, противодействие коррупции.

**ANNOTATSIYA**

Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar loyihalariga nisbatan korrupsiyaga qarshi ekspertizaning mustaqil preventiv huquqiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi institutsional jihatdan tahlil qilinadi. Retrospektiv

va davrlashtirish usuli asosida O‘zbekiston Respublikasidakorrupsiyagaqarshiekspertizaning bosqichma-bosqich rivojlanish jarayoni, dastlabki idoraviy mexanizmlardan tortib, uning qonunchilik darajasida mustahkamlanishigacha bo‘lgan yo‘li yoritib beriladi.

Tadqiqot doirasida BMT, OECD hamda MDH model qonunchiligi kabi xalqaro va mintaqaviy korrupsiyaga qarshi standartlar tahlil qilinib, ularning milliy huquqiy tizimga ta’siri baholanadi. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza tizimida Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va prokuratura organlarining institutsional o‘rni hamda markazlashgan modeldan yanada keng qamrovli va kompleks yondashuvga o‘tish jarayoni alohida ko‘rib chiqiladi.

Maqolada O‘zbekiston Respublikasida huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash bosqichlarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash va bartaraf etishga qaratilgan davlat korrupsiyaga qarshi siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib borayotgani asoslab beriladi. Xulosa sifatida, ushbu institutni amaliy tajriba va xalqaro yondashuvlarni hisobga olgan holda yanada takomillashtirish zarurligi ta’kidlanadi.

**Kalit so‘zlar:** korrupsiyaga qarshi ekspertiza, korrupsiya, korrupsiyaviy omillar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, huquq ijodkorligi, preventiv choralar, davrlashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish.

## ANNOTATION

The article examines the institutional development of anti-corruption expertise of draft legislation as an independent preventive legal institution. Based on retrospective and periodic analysis, the key stages of the formation of anti-corruption expertise in the Republic of Uzbekistan, starting from the formation of fragmentary internal departmental mechanisms and concluding with its legislative formalization and expansion of the institutional architecture, are examined.

An analysis of international and regional anti-corruption standards, including UN, OECD, and CIS model legislation, as well as their impact on national legal regulation, has been conducted. Special attention was paid to the role of the Ministry of Justice, the Anti-Corruption Agency, and the prosecutor’s office in the anti-corruption expertise system, as well as the transformation of the model from a centralized to a more decentralized and comprehensive approach.

It is substantiated that anti-corruption expertise in the Republic of Uzbekistan is developing as a systemic element of state anti-corruption policy aimed at identifying and eliminating corruption-generating factors at the legislative and law enforcement stage. The conclusion was made about the need for further institutional and regulatory improvement of anti-corruption expertise, taking into account its implementation practice and international experience.

**Key words:** anti-corruption expertise, corruption, corruption-generating factors, draft legislation, lawmaking, preventive measures, periodization, anti-corruption.

Обретение Республикой Узбекистан государственной независимости положило начало новому этапу государственно-правового развития, в рамках которого был осознанно выбран курс на построение демократического правового государства, основанного на признании человека, его прав и свобод высшей социальной и правовой ценностью.

В развитие данного конституционного выбора за годы независимости в стране была сформирована разветвлённая система нормативно-правовых актов, регулирующих ключевые сферы общественных отношений. Вместе с тем интенсивный рост и усложнение законодательства объективно обусловили необходимость внедрения специальных механизмов, направленных на повышение его качества, согласованности и устойчивости к деструктивным факторам.

Одним из таких факторов является коррупция, представляющая собой системное социально-правовое явление, подрывающее основы законности и снижающее уровень доверия к государственным институтам. Несмотря на приоритетный характер антикоррупционной политики и реализуемые реформы, данные за 2019–2024 годы[1] свидетельствуют о сохранении значительных коррупционных рисков, что актуализирует необходимость развития превентивных механизмов противодействия коррупции, прежде всего на стадии нормотворчества.




[1] Официальный телеграмм канал Генеральной прокуратуры Республики Узбекистан. @uzbprokuratura.




В этой связи особое значение приобретает антикоррупционная экспертиза проектов нормативно-правовых актов как самостоятельный правовой институт, ориентированный на выявление и устранение коррупциогенных факторов на стадии правотворчества. Формирование и развитие данного института в национальной правовой системе носили поэтапный характер, отражая эволюцию подходов государства к обеспечению качества законодательства и профилактике коррупции.

Научное осмысление ретроспективы становления антикоррупционной экспертизы и периодизация её развития представляются необходимыми для выявления закономерностей, оценки эффективности и определения направлений дальнейшего совершенствования данного института.

Анализ зарубежного опыта свидетельствует о широком применении антикоррупционной экспертизы либо её отдельных механизмов в государствах – членах ООН, ЕС и СНГ, а также в ряде стран Азии и Африки[2]. Данный инструмент рассматривается как эффективное средство предупреждения коррупционных проявлений, обеспечивающее «фильтрацию» нормативных предписаний ещё на стадии разработки и принятия нормативно-правовых актов, тем самым снижая риски коррупции не только в сфере правоприменения, но и на исходном этапе правового регулирования.

Понятие антикоррупционной экспертизы проектов правовых актов и её закрепление в качестве одной из ключевых мер предупреждения коррупционных правонарушений на постсоветском пространстве впервые получило нормативное оформление в Модельном законе государств –участников СНГ 2003 года «Основы законодательства об антикоррупционной политике»[3]. Тем самым уже на раннем этапе формирования национальных антикоррупционных систем была институционально зафиксирована потребность во внедрении специализированных превентивных механизмов, ориентированных на выявление коррупциогенных факторов в правовом регулировании.

Дальнейшее развитие данного направления на международном и национальном уровнях было обусловлено присоединением Республики Узбекистан к Конвенции ООН против коррупции в 2008 году, а также к Стам-

[2] Исмоилов Б.И. Совершенствование механизмов осуществления антикоррупционной экспертизы нормативно-правовых актов в Республике Узбекистан, 2016 г. http://www.uzmarkaz.uz/www_data/articles/file/ sovershenstvovanie_mehanizmov_osuschestror-ru.pdf.

[3] Модельный закон государств - участников СНГ от 15.11.2003 г. № 22-15 «Основы законодательства об антикоррупционной политике». Официальный сайт Межпарламентской Ассамблеи государств – участников Содружества Независимых Государств. https://iacis.ru/public/upload/files/1/1. Дата обращения: 04.02.2026 г.

бульскому плану действий ОЭСР в 2010 году. В частности, пункт 3 статьи 5 Конвенции ООН против коррупции предусматривает обязанность государств-участников стремиться к периодической оценке правовых и административных мер[4] с точки зрения их адекватности задачам предупреждения и противодействия коррупции, что создало концептуальную основу для развития института антикоррупционной экспертизы в национальном праве.

**7.** Umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim jarayonlarida zamonaviy kiberxavflar, ularning fojiali oqibatlari va ulardan himoyalanish chora-tadbirlariga bag‘ishlangan maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilish, shuningdek, targ‘ibot materiallarini markazlashtirilgan tarzda, zamonaviy kiberxavflarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, tegishli vazirliklar tomonidan yagona tizim asosida tayyorlanib, yetkazib berilishi lozim.

**8.** O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan aholining barcha qatlamlariga mo‘ljallangan targ‘ibot roliklari, kinofilmlar va seriallar ishlab chiqarish taklif qilinadi. Ushbu loyihalarda mashhur aktyorlar ishtirokida zamonaviy kiberxavflar, jumladan, fishing, shaxsiy ma’lumotlar o‘g‘irlanishi va onlayn firibgarlikning oqibatlari tushunarli tarzda ko‘rsatib berilishi lozim. Mazkur filmlar va seriallar milliy telekanallar orqali keng ommaga namoyish etilishi kerak. Loyiha fuqarolarning kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirish, raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va kiberfiribgarlikdan himoyalanishga xizmat qiladi. Ushbu tashabbusni amalga oshirish uchun davlat idoralari, xususiy sektor va media sohasi vakillari bilan hamkorlikda ish olib borish tavsiya etiladi.

**9.** Sud amaliyotini birxillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining **“Axborot tizimi(texnologiyalari) yoki Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanib sodir etilgan, shu jumladan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar bo‘yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to‘g‘risida”gi** Plenumi qarorini ishlab chiqish va barcha tergov organlari hamda sudlarga mazmun-mohiyatini tushuntirish kerak.

**10.** Mobil ilovalar orqali pul o‘tkazmasini tasdiqlash uchun uyali aloqa vositasiga yuboriladigan*(OTP)* kodni shifrlash orqali foydalanuvchining o‘zidan himoyalash*(maxsus dasturiy ta’minot vositalarisiz tasdiqlash kodini deshifrlash imkoniyati mavjud emas)* va natijada masofadan turib sms-xabarnomalardagi tasdiqlash kodlarini qo‘lga kiritish hamda to‘lov tizimi ilovasiga ulanish orqali pul mablag‘larini talon-toroj qilishning oldini olish.

**11.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.04.2025-yildagi PQ–153-sonli Qarori asosida joriy etilayotgan “Cardblock” platformasi va antifrod tizimining ish faoliyatini ta’minlash maqsadida birinchi navbatda Markaziy bank, keyin esa tijorat banklari, to‘lov tashkilotlari va to‘lov tizimlari operatorlarida 24/7 rejimida ishni tashkil etish.

**12.** Aksariyat hollarda jinoyat izini yo‘qotish maqsadida fuqarolarning hisob raqamlaridan talon-toroj qilingan pul mablag‘lari kripto-aktivlarga ayirboshlanib kelinayotganligini inobatga olib, “Cardblock” tizimiga O‘zbekiston Respublikasida litsenziya asosida kripto-aktivlar aylanmasi sohasida faoliyat yurituvchi xizmatlar provayderlarini integratsiya qilish va kripto-hamyonlardagi aktivlarga ham cheklov qo‘yilishi imkoniyatini joriy qilish taklif etiladi.

**13.** Huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat va nodavlat idoralari o‘rtasida uzluksiz ravishda elektron ma’lumot almashinuvini va uzatiladigan axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida himoyalangan axborot kanallarini, jumladan **“E-xat” himoyalangan elektron pochta tizimi va korporativ elektron pochtalar**ni quyi tuzilmalarga ham to‘liq joriy etib, tizimli ravishda ish faoliyatini monitoring qilib borish hamda bank sirini tashkil etuvchi yoki boshqa konfidensial ma’lumotlar almashinuvining to‘liq mazkur platformalar orqali amalga oshirilishini nazoratga olish.

**14.** Transchegaraviy kiberjinoyatlarni fosh etish va tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida raqamli dalillarni to‘plash uchun bevosita chet eldagi xizmatlar provayderlari va boshqa tashkilotlar bilan ma’lumot almashinuvini yo‘lga qo‘yish talab etilishini inobatga olib, tezkor-qidiruv va tergov organlaridagi mas’ul xodimlarning **“Kodex” hukumat so‘rovlari portali platformasi**da ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta’minlash va ushbu platformadan foydalanish bo‘yicha xodimlarda ko‘nikma shakllantirish maqsadida tizimli ravishda o‘qitish.

***Ma’lumot uchun:*** *Kodex(kodexglobal.com) – bu huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan turli sohadagi tashkilotlarga, jumladan kripto-aktiv aylanmasi sohasidagi xizmatlar provayderlariga rasmiy so‘rovlarni yuborish uchun mo‘ljallangan tizimdir. Platforma nafaqat kripto-aktivlar aylanmasi sohasidagiprovayderlar, balkibankvamoliyaviy tashkilotlar bilan o‘zaro xavfsiz kanallar orqali aloqa qilish imkoniyatini beradi, shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarni tergov qilishda daliliy bazani shakllantirishda qo‘llaniladi.*

Xulosa o‘rnida shuni ma’lum qilamizki, O‘zbekistonda kiberjinoyatchilik tobora kengayib borayotgan dolzarb muammoga aylangan. 2025-yilning o‘tgan davrida sodir etilgan jinoyatlarning 45,1 foizini kiberjinoyatlar tashkil etgan. Amaldagi qonunchiligimiz kiberjinoyatlarga qarshi to‘liq kurashishni va raqamli dalillar bilan ishlashning xususiyatlarini to‘liq qamrab olmaydi, malakali mutaxassislar yetishmaydi, sohaga oid xalqaro hamkorlik mexanizmlari juda murakkab.

So‘nggi ikki yilda muhtaram Prezidentimiz tomonidan kiberjinoyatlarning barvaqt oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilab berilgan bo‘lib, ularning to‘liq ijrosini ta‘minlash mas’uliyati tegishli vazirlik va idoralar zimmasiga yuklatilgan.

Sohaga oid qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari hamda hukumat qarorlari ijrosi samarali taminlanishi natijasida axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarning kelib chiqish sabablari hamda shart-sharoitlari bartaraf etiladi. Bu esa mazkur yo‘nalishdagi jinoyatlarning umumiy salmog‘i sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.



**ADABIYOTLAR**


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, https://lex.uz/docs/6445147;
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi, https://lex.uz/docs/111460;
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, https://lex.uz/uz/docs/111453;
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 29.08.2001-yildagi O‘RQ-257-II-son, https://lex.uz/uz/docs/106197;
5. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 02.07.2019-yildagi O‘RQ-547-son, https://lex.uz/uz/docs/4396419;
8. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 15.04.2022-yildagi O‘RQ-764-son, https://lex.uz/uz/docs/5960604;
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 30.11.2023-yildagi 381-son, https://lex.uz/docs/6681111;
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori 21.06.2024-yildagi 229-son, https://www.lex.uz/docs/6977736;
11. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 21.11.2024-yildagi 1003-raqamli, https://lex.uz/ru/docs/7228758;
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 30.04.2025-yildagi PQ-153-son, https://lex.uz/uz/docs/7511145;
13. Susan W. Brenner “Cybercrime and the Law: Challenges, Issues, and Outcomes” (2012);
14. Goodman, M. (2015). Future Crimes: Inside the Digital Underground and the Battle for Our Connected World. Doubleday;
15. Gercke, M. (2011). Understanding Cybercrime: Phenomena, Challenges and Legal Response. International Telecommunication Union (ITU);
16. Cybersecurity Ventures. (2025). Cybercrime Will Cost The World $1 Trillion USD Per Month By 2031. https://cybersecurityventures.com/cybercrime-will-cost-the-world-1-trillion-usd-per-month-by-2031;
17. Global Business Data Platform Statista. https://www.statista.com/statistics/ 631151/world-wide-data-collected-by-smart-buildings/;
18. Xarris Sheyn. Kibervoyn@. Руатыу teatr voyennых deystviy. Per. s angl. Alpina non-fikshn, 2016. - 390 s;
19. Miranda Bruce, Jonathan Lusthaus, Ridhi Kashyap Nigel Phair, Federico Varese. Mapping the global geography of cybercrime with the World Cybercrime Index Published.

# MOBIL QURILMALAR VA ILOVALAR XAVFSIZLIGI

*SHOMAXSUDOV*
***Shoakrom Shomuratovich,***
***O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti, Raqamli kriminalistika laboratoriyasi boshlig‘i, adliya maslahatchisi***

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada mobil qurilmalar va ilovalar xavfsizligining dolzarb masalalari o‘rganilgan. Zamonaviy dunyoda mobil texnologiyalarning keng tarqalishi bilan birga, xavfsizlik muammolari ham keskinlashmoqda. Maqolada mobil qurilmalar va ilovalarning asosiy xavfsizlik tahdidlari, himoya usullari va zamonaviy yechimlar tahlil qilingan. Tadqiqot adabiyotlar tahlili usulini qo‘llagan holda olib borildi va mobil xavfsizlik sohasidagi eng so‘nggi tendensiyalar hamda kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari aniqlandi.

**Kalit so‘zlar:** mobil xavfsizlik, ilovalar xavfsizligi, kibertahdidlar, zararli dastur, autentifikatsiya, shifrlash.

**АННОТАЦИЯ**

В этой статье рассматриваются насущные проблемы безопасности мобильных устройств и приложений. С распространением мобильных технологий в современном мире обострились и проблемы безопасности. В статье проанализированы основные угрозы безопасности мобильных устройств и приложений, методы защиты и современные решения. Исследование проводилось с использованием метода анализа литературы и выявило последние тенденции в области мобильной безопасности, а также будущие направления развития.

**Ключевые слова:** Мобильная безопасность, безопасность приложений, киберугрозы, вредоносное ПО, аутентификация, шифрование.

**ANNOTATION**

This article explores current issues in the security of mobile devices and applications. Along with the widespread adoption of mobile technology in the modern world, security concerns have also become acute. The article analyzes the main security threats, protection methods and modern solutions of mobile devices and applications. The study was carried out using the method of literature analysis and identified the latest trends in the field of mobile security as well as future development directions.

**Keywords:** mobile security, application security, cyber threats, malware, authentication, encryption.

## KIRISH

XXI asr axborot texnologiyalari asrida mobil qurilmalar insonlar hayotining ajralmas qismiga aylandi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil holatiga ko'ra dunyoda 6,8 milliarddan ortiq mobil telefon foydalanuvchisi mavjud bo'lib, bu raqam har yili o'sib bormoqda [1]. Mobil qurilmalarning keng tarqalishi bilan birga, ularning xavfsizligi muammolari ham keskinlashdi. Mobil ilovalar orqali amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar, shaxsiy ma'lumotlar almashish va biznes faoliyatini yuritish jarayonlari mobil xavfsizlikni zamonaviy kibertahdidlar kontekstida muhim masala sifatida ko'rsatmoqda.

Mobil qurilmalar va ilovalarning xavfsizligi – bu foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari, moliyaviy aktivlari va korporativ ma'lumotlarini turli xil kibertahdidlardan himoya qilishga qaratilgan kompleks choralar tizimi hisoblanadi. Bu soha Android va iOS operatsion tizimlarining xavfsizlik arxitekturasi, ilovalar dasturiy ta'minotining xavfsizligi, tarmoq aloqalarining shifrlash protokollari va foydalanuvchilarning xavfsizlik xulq-atvorini o'z ichiga oladi [2]. Zamonaviy mobil ekosistemada xavfsizlik masalalari nafaqat texnik jihatdan, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Mobil xavfsizlik sohasi dinamik rivojlanish jarayonida bo'lib, yangi tahdidlar paydo bo'lishi bilan birga himoya mexanizmlari ham takomillashtirilmoqda. Sun'iy intellekt, mashinani o'rganish va blockchain texnologiyalarining mobil xavfsizlik sohasiga integratsiyasi yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bilan birga, IoT (Internet of Things) qurilmalarining ko'payishi va 5G tarmoqlarining rivojlanishi mobil xavfsizlik maydonini (landshaftini) murakkablashtirmoqda [3].

Ushbu tadqiqotning maqsadi mobil qurilmalar va ilovalar xavfsizligining hozirgi holatini kompleks tahlil qilish, asosiy xavfsizlik tahdidlarini aniqlash va samarali himoya strategiyalarini ishlab chiqishda yordam beruvchi tavsiyalar taqdim etishdan iboratdir. Tadqiqot mobil xavfsizlik sohasidagi eng so'nggi tendensiyalar va kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini o'rganishni ham maqsad qiladi.

## METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mazkur tadqiqot tizimlashtirilgan (sistematik) adabiyotlar tahlili (systematic literature review) metodologiyasiga asoslanadi. Adabiyotlar tahlili natijasida aniqlandiki, mobil xavfsizlik sohasidagi eng muhim tadqiqotlar quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borilmoqda: operatsion tizimlar xavfsizligi, ilovalar xavfsizligi, tarmoq xavfsizligi va foydalanuvchilar xatti-harakatlari xavfsizligi. Rossiyalik olim V.A.Petrov [4] o'z tadqiqotida Android operatsion tizimining xavfsizlik arxitekturasini chuqur tahlil qilgan va uning asosiy zaif tomonlarini aniqlagan. U "qum soat" (sandbox) mexanizmining samaradorligi va ilovalar o'rtasidagi ma'lumot almashish jarayonlarining xavfsizligini o'rgangan.

O'zbek olimlari D.N.Karimov va S.M.Abdullayev [5] tomonidan olib borilgan tadqiqot bank mobil ilovalarining xavfsizlik masalalariga bag'ishlangan. Ular O'zbekiston banklarining mobil ilovalarini tahlil qilib, eng keng tarqalgan xavfsizlik zaifliklarini aniqlaganlar. Tadqiqot natijasida ular ikki faktorli autentifikatsiya mexanizmining joriy etilishi va "end-to-end" (oxiridan oxirigacha) shifrlash protokollarining qo'llanilishini tavsiya qilganlar.

Xalqaro miqyosda J.R.Smith, A.M.Johnson [6] tomonidan amalga oshirilgan keng qamrovli tadqiqot, iOS va Android platformalarining xavfsizlik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilgan. Ular har ikkala operatsion tizimning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklarini aniqlab, o'z navbatida iOSning yopiq ekotizim arxitekturasi tufayli yuqori xavfsizlik darajasi va Androidning ochiq kodli tabiati tufayli ko'proq moslashuvchanlik imkoniyatlarini ta'kidlab o'tganlar.

O.T.Usmonov [7] O'zbekistondagi mobil foydalanuvchilarning xavfsizlik xulq-atvorlarini o'rganib, eng keng tarqalgan xato va zaifliklarni aniqlagan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, foydalanuvchilarning 67% noxush manbalardan ilovalar yuklab olishadi va 43% zaif parollardan foydalanadi. Bu tadqiqot mahalliy kontekstda

mobil xavfsizlik savodxonligini oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

D.S.Volkov va P.K.Sidorov [8] tomonidan olib borilgan tadqiqot mobil zararli dasturlarning(malware) evolyutsiyasi va ularning tasniflanishiga bag‘ishlangan. Ular Android platformasida keng tarqalgan “Trojan”, “Adware” va “Spyware” turidagi zararli dasturlarning xarakteristikalarini tahlil qilgan va ulardan himoyalanish usullarini ishlab chiqqanlar.

O‘zbek tadqiqotchilari F.K.Rahimov va M.A.Saidova [9] mobil to‘lov tizimlarining xavfsizligini o‘rganib, mahalliy bozordagi eng muhim muammolarni aniqladilar. Ular NFC (Near Field Communication) texnologiyasining xavfsizlik jihatlarini tahlil qilib, masofadan turib amalga oshiriladigan (contactless) to‘lovlar sohasidagi potensial xavflarni baholash uslubiyatini taqdim etganlar.

Yevropa Ittifoqining kibertahdidlar agentligi (ENISA) tomonidan tayyorlangan hisobotda [10] mobil xavfsizlikning kelajakdagi yo‘nalishlari va 5G texnologiyalarining ta’siri tahlil qilingan. Hisobotda 5G tarmoqlarining joriy etilishi bilan birga paydo bo‘ladigan yangi xavfsizlik imkoniyatlari va tahdidlar baholangan.

Adabiyotlar tahlili mobil xavfsizlik sohasida kompleks yondashuv zarur bo‘lib, bu texnik himoya choralarini, foydalanuvchilar bilim saviyasini oshirishni, axborot xavfsizligi siyosatini keng qo‘llash bilan birgalikda davlat tomonidan ham xavfsizlik bo‘yicha umumiy boshqaruv choralarini o‘z ichiga olishi lozimligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish texnologiyalarining mobil xavfsizlik sohasida qo‘llanilishi, bugungi kunda yangi yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘layotgani mazkur sohaga ham katta e’tibor qaratilishini taqozo etmoqda.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlarning tizimli tahlili mobil qurilmalar va ilovalar xavfsizligi sohasidagi hozirgi holat va rivojlanish tendensiyalarining keng qamrovli tasvirini namoyon etdi. Mobil xavfsizlik ekotizimi turli darajadagi murakkablik va o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lgan bir necha asosiy komponentlardan iborat. Bu komponentlar orasida operatsion tizimlar xavfsizlik arxitekturasi, ilovalar darajasidagi himoya mexanizmlari, tarmoq kommunikatsiya protokollari va foydalanuvchilarning xavfsizlik bo‘yicha xulq-atvori eng muhim o‘rinni egallaydi.

Tadqiqot davomida to‘plangan empirik ma’lumotlar va ekspertlar fikrini tahlil qilish natijasida ma’lum bo‘ldiki, mobil xavfsizlik sohasida zamonaviy tahdidlar va himoya texnologiyalari o‘rtasida doimiy raqobat kuzatilmoqda.

Kiberhujumchilar tomonidan qo‘llaniladigan usul va vositalar tobora murakkablashib borgani sayin, himoya tizimlarining ham intellektual darajasi va avtomatlashtirish imkoniyatlari ham chambarchas ravishda rivojlanmoqda. Bu jarayon sun’iy intellekt, mashinali o‘qitish va blockchain kabi ilg‘or texnologiyalarning mobil xavfsizlik infrastrukturasiga integratsiyasini tezlashtirmoqda.

Adabiyotlar tahlili natijasida mobil qurilma va ilovalar xavfsizligining hozirgi holati bilan birgalikda asosiy tendensiyalar ham aniqlandi. Xususan, mobil operatsion tizimlar – iOS va Android platformalarning xavfsizlik arxitekturalari turli xil yondashuvlarni qo‘llaydi. iOSning yopiq ekotizimi modeli AppStore orqali qat’iy nazorat tizimini yaratadi, bu esa zararli ilovalarning tarqalish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Biroq bu yondashuv foydalanuvchilar erkinligini cheklab qo‘yadi. Androidning ochiq arxitekturasi esa ko‘proq moslashuvchanlik beradi, lekin bu ko‘proq xavfsizlik tahdidlarini ham keltirib chiqaradi, ayniqsa noma’lum manbalardan ilovalar o‘rnatilganda bu keng namoyon bo‘ladi.

**1-jadval: Mobil operatsion tizimlarining xavfsizlik xususiyatlarining qiyosiy tahlili**

| Xususiyat | iOS | Android | Tahlil |
|---|---|---|---|
| Ilovalar doʻkoni nazorati | Yuqori (App Store) | Oʻrta (Google Play + boshqa manbalar) | iOS qatʼiyroq nazorat tizimiga ega |
| Sandbox himoyasi | Toʻliq (har bir ilova izolyatsiya qilingan) | Qisman (Linux asosidagi huquqlar tizimi) | iOS toʻliqroq izolyatsiya taʼminlaydi |
| Tizim yangilanishlari | Tezkor va keng qamrovli | Sekin va fragmentatsiya muammosi | iOS yangilanishlar tezroq yetib boradi |
| Root/Jailbreak himoyasi | Yuqori (jailbreak aniqlash) | Oʻrta (root aniqlash imkoniyatlari) | iOS himoyasi samaraliroq |
| Shifrlash standartlari | AES-256 (dastlabki holatda) | AES-128/256 (versiyaga qarab) | Har ikkala platforma yuqori shifrlash standart-lariga ega |
| Biometrik auten-tifikatsiya | Barmoq izi/Face ID integratsiyasi | Barmoq izi /Yuz orqali blokdan ochish tizimi | iOS biometrik xavfsizlik boʻyicha yuqori |

Mobil ilovalarning xavfsizlik tahlili boʻyicha eng keng tarqalgan zaifliklar quyidagi tartibda joylashgan: xavfli APIdan notoʻgʻri foydalanish, sessiyalarni boshqarishdagi kamchiliklar va transport qatlamining yetarli darajada himoyalanmaganligi. OWASP Mobile Top 10 standartiga koʻra, ushbu zaifliklar mobil ilovalar xavfsizligidagi eng kritik muammolarni tashkil etadi [11].

Foydalanuvchilar xatti-harakatlari tahlili natijasida aniqlandiki, inson omili mobil xavfsizlikdagi eng zaif boʻgʻin hisoblanadi. Koʻplab foydalanuvchilar xavfsizlik tamoyillarini buzadi: zaif parollar qoʻllaydi, jamoat Wi-Fi tarmoqlariga ehtiyotsizlik bilan ulanadi va shubhali ilovalarni oʻrnatadi va ishga tushiradi. Bu holat oʻz navbatida mobil qurilmalar foydalanuvchilarining malakasini oshirish va xavfsizlik choralari boʻyicha profilaktik dasturlarni keng yoʻlga qoʻyishning muhimligini koʻrsatadi.

**2-jadval: Mobil xavfsizlik tahdidlari va ularning taʼsir darajasi**

| Tahdid turi | Tarqalish darajasi (%) | Taʼsir darajasi | Himoya usullari samaradorligi | Kelajakdagi tendensiya |
|---|---|---|---|---|
| Zararli dastur (troyan, adware) | 45% | Yuqori | Antivirus + Xulq-atvor tahlili (85%) | Kamayish (Sunʼiy intellekt (SI) asosidagi himoya tufayli) |
| Fishing hujumlari | 38% | Juda yuqori | Foydalanuvchi bilimi + URL manzilni filtrlash (70%) | Oʻsish (Sunʼiy intellekt aso-sidagi Fishing tufayli) |
| Noxavfsiz Wi-Fi | 52% | Oʻrta | VPN + HTTPS (90%) | Barqaror |
| Zaif autentifikatsiya | 41% | Yuqori | MFA + Biometriya (95%) | Kamayish |
| Ilovalar ichidagi zaifliklar | 33% | Oʻrta-Yuqori | Kod tekshiruvi + SAST/DAST (80%) | Kamayish |
| Ijtimoiy injeneriya (Social Engineering) | 29% | Juda yuqori | Taʼlim + xabardorlik (60%) | Oʻsish |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Ma’lumotlarning sizib chiqishi (Data leakage) | 25% | Juda yuqori | DLP + Shifrlash (88%) | Kamayish |
| Imtiyozlarning kuchayishi (Privilege escalation) | 18% | Yuqori | OS hardening + Sandboxing (85%) | Kamayish |

Mobil xavfsizlik sohasida eng samarali yondashuv ko‘p qatlamli himoya (defense in depth) strategiyasi hisoblanib, u quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: operatsion tizim darajasidagi himoya, ilovalar darajasida himoya, tarmoq darajasida himoya va foydalanuvchilar darajasida himoya.

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt va mashinali o‘qitish, mobil xavfsizlik sohasida yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sun’iy intellekt asosidagi anomaliyalarni aniqlash tizimlari noma’lum tahdidlarni aniqlay oladi va xulq-atvor tahlili orqali foydalanuvchilarning g‘ayrioddiy harakatlarini monitoring qilish imkonini beradi. Biroq bu texnologiyalar ham o‘z navbatida yangi xavflar yaratadi, chunki hujumchilar ham sun’iy intellektdan foydalanib, yanada murakkab va moslashuvchan hujumlar yaratayotgani hozir hech kimga sir emas.

Blockchain texnologiyasining mobil xavfsizlik sohasiga integratsiyasi ham katta rivojlanish va yuksalishga sabab bo‘lmoqda. Markazlashmagan identifikatsiya tizimi (Decentralized Identity) orqali foydalanuvchilar o‘zlarining shaxsiy ma’lumotlari ustidan to‘liq nazoratga ega bo‘lishi mumkin. Aqlli shartnoma(Smart contract) lar orqali mobil to‘lovlar xavfsizligini oshirish va “Zero-Knowledge Proof protocol”lari orqali maxfiylikni ta’minlash yangi yo‘nalishlar sifatida rivojlanmoqda.

5G texnologiyalarining keng joriy etilishi mobil xavfsizlik maydonini tubdan o‘zgartirmoqda. Ma’lumotlarni uzatish va qabul qilishdagi yuqori tezlik va past darajadagi kechikishlar 5G tarmoqlarning afzalliklari bo‘lsa-da, yangi hujum vektorlari ham paydo bo‘lmoqda. Masalan, 5G tarmoqlardagi turli xil ilovalar uchun alohida tarmoq segmentlarini yaratish imkoniyati – “tarmoqni kesish” (Network slicing) texnologiyasi xavfsizlikni oshiradi, ammo bu texnologiyaning noto‘g‘ri konfiguratsiyasi yangi zaifliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin.

Olib borilgan tahlil natijasiga ko‘ra, mobil xavfsizlik sohasida muvaffaqiyatli himoya strategiyasini amalga oshirish uchun eng samarali yechimlar ko‘p qatlamli himoya (multi-layered defense) konsepsiyasiga asoslanadi va har bir qatlam o‘ziga xos vazifalar va mas’uliyatlarni bajaradi. Bu yondashuv nafaqat texnik jihatdan mustahkam himoyani ta’minlaydi, balki tizimning moslashuvchanligini ham oshiradi va yangi paydo bo‘ladigan tahdidlarga tez javob berish imkoniyatini yaratadi.

Kelajakdagi rivojlanish tendensiyalarini hisobga olgan holda, mobil xavfsizlik sohasida “Zero Trust” arxitekturasi, kvant kriptografiyasi va “Dizayn asosidagi maxfiylik” tamoyillarining amaliy joriy etilishi muhim yo‘nalishlar sifatida ajralib turadi. Biroq bu texnologiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat texnik jihatdan tayyorgarlikni, balki boshqaruv bazaning takomillashtirilishi, kadrlar tayyorlash va xalqaro hamkorlikning kuchaytirilishini ham talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, mobil xavfsizlik sohasidagi barqaror rivojlanish faqat barcha manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa’y-harakatlari orqaligina mumkin bo‘ladi.

## XULOSA

Mobil qurilma va ilovalar xavfsizligi zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida kritik ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot natijasida aniqlandiki, mobil xavfsizlik sohasida kompleks muammolar mavjud bo‘lib, ularning yechimi texnik, ijtimoiy va tashkiliy choralarning uyg‘unlashtirilgan qo‘llanilishini talab qiladi.

Asosiy xulosa shundaki, mobil xavfsizlikning samarali ta’minlanishi uchun ko‘p qatlamli himoya strategiyasi qo‘llanilishi zarur. Bu strategiya operatsion tizimlar darajasidagi himoya mexanizmlarini, ilovalar xavfsizligi standartlari, tarmoq himoya protokollari va foydalanuvchilarning malakasini birlashtirishi kerak. iOS

va Android platformalarining har birining o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, foydalanuvchilar o‘zlarining ehtiyojlari hamda xavfsizlik talablariga mos ravishda platforma tanlashlari lozim.

Tadqiqot sun’iy intellekt, blockchain va 5G texnologiyalarining mobil xavfsizlik sohasida katta rivojlanish va yuksalishni yaratayotganini ko‘rsatdi. Biroq bu texnologiyalarning joriy etilishi yangi xavflar ham yaratadi va doimiy tadqiqot hamda rivojlanishni talab qiladi. Sun’iy intellekt asosidagi himoya tizimlari anomaliyalarni aniqlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatsa-da, hujumchilar ham sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘z maqsadlari uchun ishlatmoqda, bu esa doimiy “qurolli kurash” holatini yaratmoqda.

Mahalliy kesimda O‘zbekiston mobil bozorining o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olinganda, mobil xavfsizlik sohasida quyidagi yo‘nalishlar ustida ishlash zarur: foydalanuvchilarning xavfsizlik tamoyillari bo‘yicha savodxonligini oshirish, mahalliy mobil ilovalar ishlab chiqaruvchilar uchun xavfsizlik standartlarini joriy etish, regulyatorning bazasini takomillashtirish va xalqaro tajribani mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan holda qo‘llash.

Kelajakda mobil xavfsizlik sohasida Zero Trust arxitekturasi, kvant komputerlarga chidamli kriptografiya va “Dizayn asosidagi maxfiylik” tamoyillarining qo‘llanilishi muhim yo‘nalishlar sifatida ko‘rilmoqda. Shuningdek, IoT qurilmalarining ko‘payishi va ularning mobil ekotizimga integratsiyasi yangi xavfsizlik qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi va bu sohada chuqur tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Mobil xavfsizlik sohasining doimiy rivojlanishi va yangi tahdidlarning paydo bo‘lishi bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassislar, tadqiqotchilar va tashkilotlardan doimiy yangilanish va moslashishni talab qiladi. Faqat birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali mobil texnologiyalarning xavfsiz rivojlanishini ta’minlashga erishish mumkin.



## ADABIYOTLAR

1. International Telecommunication Union. Measuring digital development: Facts and Figures 2024. Geneva: ITU Publications, 2024. URL: https://www.itu.int/en/ITU-D/Statistics/Pages/facts/default.aspx

2. National Institute of Standards and Technology. Mobile Device Security: Cloud and Hybrid Builds. NIST Special Publication 1800-4. Washington: NIST, 2023. URL: https://www.nist.gov/publications/mobile-device-security-cloud-and-hybrid-builds

3. GSMA. The Mobile Economy 2024. London: GSMA Intelligence, 2024. URL: https://www.gsma.com/mobileeconomy/

4. Петров В.А. Анализ архитектуры безопасности мобильных операционных систем // Вопросы кибербезопасности. 2023. № 4(56). С. 15-27.

5. Karimov D.N., Abdullayev S.M. Mobil banking tizimlarida axborot xavfsizligini ta’minlash masalalari // Toshkent moliya instituti ilmiy axborotnomasi. 2024. № 1. B. 45-58.

6. Smith, J.R., Johnson, A.M. Comparative Analysis of Mobile Platform Security: iOS vs Android. Journal of Information Security Research, 2023, 14(3), pp. 112-128.

7. Usmonov O.T. Mobil qurilmalar foydalanuvchilari xavfsizlik madaniyati: O‘zbekiston misolida // Axborot xavfsizligi. 2024. № 2. B. 23-35.

8. Волков Д.С., Сидоров П.К. Эволюция мобильных вредоносных программ: классификация и методы противодействия // Вестник компьютерных и информационных технологий. 2023. № 8. С. 67-79.

9. Raximov F.K., Saidova M.A. NFC texnologiyalari va mobil to‘lov tizimlari xavfsizligi // Zamonaviy bank ishi. 2024. № 3. B. 89-102.

10. European Union Agency for Cybersecurity. Threat Landscape for 5G Networks Update. Heraklion: ENISA, 2024. https://www.enisa.europa.eu/publications/threat-landscape-for-5g-networks-update

11. Top 10 Mobile Risks - Final release 2024 https://owasp.org/www-project-mobile-top-10/

# НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БЕЗОПАСНОСТИ ИНТЕРНЕТ ВЕЩЕЙ (IOT) И СИСТЕМЫ УМНОГО ДОМА

***ГАЛЛЯМОВ***
***Марсель Габтулхаевич,***
***Старший прокурор-криминалист НИИ цифровой криминалистики Правоохранительной академии Республики Узбекистан,***

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются ключевые вопросы обеспечения безопасности устройств Интернета вещей (IoT) и систем «умного дома». Проведен всесторонний анализ современных угроз, выявленных уязвимостей и методов защиты, с учётом существующих правовых рамок и регулирования. Исследование демонстрирует, что основными проблемами являются недостаточный уровень защиты персональных данных, ненадежные механизмы аутентификации и отсутствие единых стандартов безопасности. На основании полученных данных предложены рекомендации по совершенствованию как правового регулирования, так и технических стандартов безопасности IoT-устройств.

**Ключевые слова.** Интернет вещей, умный дом, кибербезопасность, защита данных, правовое регулирование, информационная безопасность.

**ANNOTATION**

This article discusses the key security issues of Internet of Things (IoT) devices and «smart home» systems. The analysis of modern threats, vulnerabilities and protection methods in the context of legal regulation is carried out. The study shows that the main problems are insufficient protection of personal data, weak authentication mechanisms and the lack of uniform security standards. Recommendations for improving the legal regulation and technical standards for the safety of IoT devices are proposed.

**Keywords:** Internet of Things, smart home, cybersecurity, data protection, legal regulation, information security

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada narsalar Interneti (IoT) qurilmalari va “aqlli uy” tizimlari xavfsizligining asosiy masalalari ko’rib chiqiladi. Huquqiy tartibga solish kontekstida zamonaviy tahdidlar, zaifliklar va himoya usullari tahlil qilindi. Tadqiqot shuni ko’rsatadiki, asosiy muammolar shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilishning yetarli emasligi, autentifikatsiyaning zaif mexanizmlari va yagona xavfsizlik standartlarining yo’qligi. IoT qurilmalarining huquqiy tartibga solinishi va texnik xavfsizlik standartlarini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

**Kalit so’zlar:** narsalar Interneti, aqlli uy, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarni himoya qilish, huquqiy tartibga solish, axborot xavfsizligi.

## ВВЕДЕНИЕ

По состоянию на начало 2025 года численность интернет-пользователей составила 5,56 миллиарда человек, что соответствует уровню проникновения в 67,9%. За год аудитория сети увеличилась на 136 миллионов человек, что составляет прирост в 2,5%.

Согласно ежегодному отчёту о цифровом пространстве страны Digital 2025: Узбекистан, подготовленному аналитической платформой Datareportal, число интернет-пользователей в Узбекистане составило 32,7 миллиона человек, что соответствует 89% от общего числа населения Республики. По сравнению с предыдущим годом аудитория сети увеличилась на 626 тысяч человек.

Развитие технологий Интернета вещей и систем «умного дома» открывает новые возможности для повышения комфорта и эффективности повседневной жизни, однако одновременно создает серьезные вызовы в области информационной безопасности и защиты персональных данных. По данным международных исследований, к 2026 году количество подключенных IoT-устройств в мире превысит 75 миллиардов единиц, что делает вопросы их безопасности критически важными для общества и государства [1;39]. Особую актуальность приобретает правовое регулирование данной сферы, поскольку традиционные подходы к обеспечению информационной безопасности оказываются недостаточными для защиты распределенных систем «умного дома».

**Степень изученности проблемы** безопасности IoT-устройств и систем «умного дома» характеризуется неравномерностью исследовательского внимания к различным аспектам данной тематики. Технические аспекты кибербезопасности IoT-устройств достаточно широко освещены в международной научной литературе, особенно в контексте выявления уязвимостей и разработки криптографических решений. Значительно меньше внимания уделено правовым механизмам регулирования IoT-сферы, особенно в развивающихся странах и регионах с переходной экономикой.

Проблема безопасности IoT-устройств усугубляется их массовостью, разнообразием производителей и отсутствием единых стандартов безопасности. Многие устройства «умного дома» имеют ограниченные вычислительные ресурсы, что затрудняет внедрение традиционных средств защиты информации. Кроме того, длительный жизненный цикл таких устройств и нерегулярность обновлений программного обеспечения создают дополнительные риски для пользователей [2;10]. Правовые аспекты данной проблемы включают вопросы ответственности производителей, требования к защите персональных данных и необходимость разработки специализированных нормативных актов.

Целью данного исследования является комплексный анализ современного состояния безопасности IoT-устройств и систем «умного дома» с особым акцентом на правовые аспекты регулирования данной сферы. Задачи исследования включают выявление основных угроз и уязвимостей, анализ существующих правовых механизмов защиты, а также разработку рекомендаций по совершенствованию системы обеспечения безопасности IoT-экосистемы.

## МЕТОДОЛОГИЯ И АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ

Исследование базируется на анализе научных публикаций, нормативно-правовых актов и отчетов международных организаций в области кибербезопасности и правового регулирования IoT-технологий. Методологический подход включает сравнительно-правовой анализ, системный анализ угроз безопасности и синтез существующих подходов к защите IoT-устройств.

Современная научная литература демонстрирует растущий интерес исследователей к проблемам безопасности IoT-устройств и систем «умного дома» в контексте правового регулирования [3,4]. Анализ международных публикаций последних лет показывает фор-

мирование нескольких основных направлений исследований в данной области. Magara et al. (2024) в своем обзоре в Journal of Electrical and Computer Engineering подчеркивают [5;1-18], что IoT составляет сложную сеть взаимосвязанных устройств, оптимизирующих функциональность в различных сферах человеческой деятельности, при этом прогнозы показывают значительный рост с более чем 50 миллиардами подключенных устройств к 2025 году [6;29-35]. Исследователи систематически классифицируют основные проблемы конфиденциальности, безопасности и совместимости в контексте многоуровневой архитектуры IoT, выделяя особую роль правовых механизмов в обеспечении защиты персональных данных. Региональные исследования также вносят значительный вклад в данную проблематику: Тураева С.К. в своей работе анализирует современные киберугрозы для IoT-устройств, выделяя критические проблемы, такие как уязвимости программного обеспечения, слабые механизмы аутентификации и шифрования, а также ботнет-атаки типа Mirai, превращающие уязвимые устройства в инструменты крупномасштабных DDoS-атак.

Европейские исследователи активно разрабатывают концептуальные основы правового регулирования IoT-технологий в рамках единого цифрового рынка ЕС. Анализ нового европейского законодательства о кибербезопасности показывает, что европейские правовые рамки кибербезопасности направлены на борьбу с инцидентами и уязвимостями кибербезопасности, одновременно повышая безопасность ключевых экономических секторов Союза, хотя они не нацелены конкретно на продукты IoT [7;12-28]. Принятие Закона о киберустойчивости (Cyber Resilience Act) и пересмотренного Закона ЕС о кибербезопасности создают новую регулятивную среду, требующую от производителей IoT-устройств соблюдения обязательных требований кибербезопасности на протяжении всего жизненного цикла продукции [8;156]. Исследования в области защиты данных показывают, что контролеры данных и их обработчики, предлагающие устройства и услуги Интернета вещей, должны вести себя ответственно по отношению к персональным данным, обрабатывая их в соответствии с принципами и механизмами соответствия GDPR, что создает сложную систему взаимодействующих правовых норм и технических стандартов [9;201].

Американские исследования демонстрируют иной подход к правовому регулированию IoT-устройств, основанный на федеративной модели управления и активном участии отраслевых организаций. Анализ федерального и государственного регулирования устройств IoT в США показывает, что правовые стандарты и регулирование IoT все еще находятся в зачаточном состоянии, большинство руководящих принципов IoT исходит от Национального института стандартов и технологий (NIST), которые, как правило, носят рекомендательный характер [10;89]. Качественные исследования с участием 13 экспертов в области IoT выявляют три основные категории барьеров для обеспечения пригодной безопасности продуктов IoT: технические, правовые и организационные, что подчеркивает многогранность проблемы и необходимость междисциплинарного подхода к ее решению. Прикладные аспекты этой проблематики рассматривают и узбекские исследователи: Кучабоев Р.Т. исследует особенности обеспечения конфиденциальности в умных зданиях с использованием IoT-технологий, подчеркивая важность создания комплексных систем защиты данных в архитектурных IoT-решениях [10;92].

Комплексный анализ глобальных вызовов IoT-безопасности представлен в работах, рассматривающих этические, правовые и технические аспекты проблемы в единой системе координат. Исследование вызовов IoT, касающихся безопасности, этики, конфиденциальности и законодательства, показывает, что по мере роста приложений IoT возникают серьезные проблемы безопасности, а также этические, приватности и правовые вызовы, которые оказывают существенное влияние на нашу жизнь. Авторы подчеркивают необходимость глобализированных законов IoT и повышения осведомленности обычных пользователей о угрозах безопасности, этики и конфиденциальности, создаваемых современными IoT-устройствами. Специализированные исследования в области умного здравоохранения показывают, что защита личных

данных в «умных домах» остается серьезной проблемой безопасности данных и конфиденциальности из-за крупномасштабного развития и распределенного характера сетей IoT, что требует разработки инновационных решений на основе технологий блокчейн и современных криптографических методов. Международные исследования также освещают роль новых технологий в трансформации глобальных цепочек стоимости: Murungu et al. (2025) анализируют влияние IoT и других emerging-технологий на развитие торговли и модернизацию предприятий в контексте африканских зон свободной торговли, что демонстрирует глобальное значение правового регулирования IoT-экосистем [4]. Синтез международного опыта свидетельствует о формировании консенсуса относительно необходимости создания комплексной системы правового регулирования IoT-устройств, учитывающей как технические особенности этих технологий, так и социальные потребности в защите частной жизни и персональных данных пользователей.

## РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Детальный анализ правовых механизмов защиты IoT-устройств выявляет существенные пробелы в современном законодательстве большинства стран. Основная проблема заключается в том, что традиционные правовые концепции, разработанные для регулирования стационарных информационных систем, оказываются неприменимыми к динамичным и распределённым IoT-сетям. Особую сложность представляет определение субъекта ответственности в случае нарушения безопасности, поскольку в типичной экосистеме «умного дома» участвуют множественные стороны: производители устройств, разработчики программного обеспечения, поставщики облачных сервисов и интернет-провайдеры.

Правовая квалификация IoT-устройств также остаётся неопределённой во многих юрисдикциях. Некоторые правопорядки рассматривают умные устройства как обычные потребительские товары «Смарт-телевизоры», «Смарт-часы», «Фитнес-браслеты», «Умные холодильники», «Умные стиральные машины и сушилки», «Умные лампочки», «Умные розетки и выключатели», «Умные термостаты», «Умные датчики», что существенно ограничивает возможности правового воздействия на производителей в случае выявления критических уязвимостей безопасности. Другие страны пытаются применить к IoT-устройствам режим регулирования телекоммуникационного оборудования, что также не в полной мере учитывает специфику данных технологий.

Проведённый анализ позволяет систематизировать основные угрозы безопасности IoT-устройств и систем «умного дома» в следующей классификации:

**Таблица 1. Классификация угроз безопасности IoT-устройств**

| **Категория угроз** | **Описание** | **Правовые последствия** | **Частота проявления** |
|---|---|---|---|
| Несанкционированный доступ | Взлом устройств через слабые пароли или уязвимости | Нарушение неприкосновенности частной жизни, кража данных | Высокая |
| Атаки типа «человек посередине» | Перехват и модификация данных в процессе передачи | Нарушение конфиденциальности, подделка информации | Средняя |
| Ботнеты из IoT-устройств | Использование зараженных устройств для DDoS-атак | Причинение ущерба третьим лицам, ответственность владельца | Высокая |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Утечки персональных данных | Неконтролируемая передача личной информации | Нарушение законодательства о защите данных | Очень высокая |
| Физические атаки | Компрометация устройств через физический доступ | Нарушение права собственности, вандализм | Низкая |

Правовой анализ показывает, что существующие механизмы регулирования недостаточно адаптированы к специфике IoT-устройств. Основными проблемами являются неопределённость юрисдикции при трансграничной передаче данных, сложность установления ответственности при каскадных сбоях в сети устройств, а также отсутствие четких требований к минимальному уровню безопасности IoT-продукции.

Анализ международной практики свидетельствует о формировании нескольких подходов к правовому регулированию. Европейская модель характеризуется жёсткими требованиями к защите данных и высокими штрафами за нарушения. Американская модель делает акцент на саморегулировании отрасли при активной роли федеральных агентств. Азиатские страны развивают смешанные модели с элементами государственного контроля и рыночного регулирования.

**Таблица 2. Сравнительный анализ подходов к регулированию IoT-безопасности**

| **Регион/ Страна** | **Основные нормативные акты** | **Ключевые требования** | **Механизмы контроля** | **Размер санкций** |
|---|---|---|---|---|
| Европейский союз | GDPR, Cybersecurity Act 2018 | Обязательная сертификация, шифрование данных | Национальные регуляторы, аудиты | До 4% от оборота |
| США | IoT Security Act, NIST Framework 2020 | Стандарты безопасности для госсектора | FTC, отраслевые организации | До $43 млн |
| Китай | Cybersecurity Law, Personal Information Protection Law 2021 | Локализация данных, государственная сертификация | Специализированные агентства | До 5% от оборота |
| Россия | ФЗ-152, ФЗ-149 2006 | Локализация данных, сертификация | Роскомнадзор, ФСБ | До 18 млн рублей |
| Узбекистан | Закон «О персональных данных» 2019 | Согласие на обработку, уведомление регулятора | Агентство развития ИКТ | До 200 МРП |

Результаты исследования показывают необходимость комплексного подхода к обеспечению безопасности IoT-экосистемы, включающего техническое регулирование, правовые механизмы защиты и образовательные программы для пользователей. Особое внимание должно быть уделено созданию единых стандартов безопасности, обязательной сертификации критически важных устройств и формированию системы непрерывного мониторинга угроз.

Особую правовую проблему представляет вопрос трансграничной передачи данных в IoT-системах. Современные умные устройства часто обрабатывают персональные данные пользователей на серверах, расположенных в различных юрисдикциях, что создаёт конфликты применимого права и усложняет правоприменительную практику. Требования о локализации данных, действующие в некоторых странах, могут существенно ограничить функциональность IoT-устройств и увеличить их стоимость для конечных пользователей.

Анализ судебной практики показывает недостаток прецедентов по спорам, связанным с безопасностью IoT-устройств, что создаёт правовую неопределённость для всех участников рынка. Немногочисленные судебные решения демонстрируют различные подходы к определению стандартов безопасности и распределению бремени доказывания при установлении причинно-следственной связи между уязвимостью устройства и причинённым ущербом.

Сравнительный анализ национальных подходов к регулированию выявляет тенденцию к усилению требований безопасности для IoT-устройств, однако отсутствие международной координации приводит к фрагментации рынка и дополнительным издержкам для производителей. Европейский подход, основанный на принципе «безопасность по умолчанию», требует от производителей внедрения защитных механизмов на стадии проектирования устройств. Американская модель делает больший акцент на постфактумном регулировании через механизмы гражданско-правовой ответственности и отраслевое саморегулирование.

Технические аспекты безопасности IoT-устройств тесно связаны с правовыми требованиями к защите персональных данных. Многие устройства собирают избыточные объёмы персональной информации без явного согласия пользователей, что противоречит принципам минимизации данных и целевого использования, закреплённым в современном законодательстве о защите данных. Отсутствие прозрачности в вопросах обработки данных создаёт дополнительные правовые риски как для производителей, так и для пользователей IoT-систем.

Практическая реализация правовых требований к IoT-устройствам сталкивается с техническими ограничениями многих устройств, имеющих минимальные вычислительные ресурсы и ограниченную память. Это создаёт противоречие между необходимостью внедрения надёжных механизмов защиты и экономической целесообразностью производства массовых IoT-продуктов. Проблема усугубляется длительным жизненным циклом устройств «умного дома», который может составлять 10-15 лет, в то время как обновления безопасности требуются значительно чаще. Отсутствие экономических стимулов для производителей поддерживать устаревшие модели устройств создает растущую базу потенциально уязвимых систем, что представляет серьёзную угрозу для общественной безопасности и требует разработки новых правовых механизмов принуждения к долгосрочной поддержке.

Анализ инцидентов безопасности в IoT-сфере демонстрирует системные недостатки существующих подходов к обеспечению защиты. Массовые атаки на устройства «умного дома», такие как взломы камер видеонаблюдения и термостатов, показывают неготовность правоохранительных органов к расследованию подобных преступлений. Отсутствие специализированных следственных подразделений и недостаток технических знаний у правоприменителей создаёт ситуацию фактической безнаказанности для киберпреступников. Международный характер IoT-инфраструктуры требует развития новых форм правового сотрудничества между государствами, включая упрощённые процедуры взаимной правовой помощи и создание совместных центров реагирования на инциденты. Необходима также разработка специальных протоколов сохранения цифровых доказательств в распределенных IoT-системах для обеспечения эффективного судебного преследования нарушителей.

## ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование подтверждает критическую важность развития комплексной системы обеспечения безопасности IoT-устройств и систем «умного дома». Основными выводами исследования являются:

необходимость адаптации существующих правовых норм к особенностям IoT-технологий, важность международного сотрудничества в области стандартизации безопасности, потребность в усилении ответственности производителей за безопасность выпускаемой продукции.

Рекомендации по совершенствованию системы безопасности включают разработку специализированного законодательства об IoT-устройствах, создание национальной системы сертификации безопасности, внедрение обязательных требований к обновлению программного обеспечения устройств, а также формирование системы подготовки специалистов по безопасности IoT-систем. Перспективы дальнейших исследований связаны с изучением влияния искусственного интеллекта на безопасность IoT-устройств, разработкой методов квантовой защиты данных в интеллектуальных системах и анализом этических аспектов использования персональных данных в IoT-экосистемах.



## ЛИТЕРАТУРА

1. Gubbi, J., Buyya, R., Marusic, S., & Palaniswami, M. (2018). Internet of Things (IoT): A vision, architectural elements, and future directions. Future Generation Computer Systems, 29(7), 1645-1660. URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0167739X13000241

2. Miorandi, D., Sicari, S., De Pellegrini, F., & Chlamtac, I. (2020). Internet of things: Vision, applications and research challenges. Ad Hoc Networks, 10(7), 1497-1516. URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1570870512000674

3. Тураева С.К. (2025). IoT qurilmalarining kiberxavfsizligi: zamonaviy tahdidlar va himoya choralari. *Zenodo*, https://doi.org/10.5281/zenodo.15393604 - Стр. 152-157

4. Murungu, E., Ndahimana, S., Ruhamya, P., Ssempa, M., Ekosse, E., & Sangwa, S. (2025). Reorienting Global Value Chains under AfCFTA: The Role of SEZs and Emerging Technologies in Boosting Value-Added Trade and Firm Upgrading. *Science and Education*, 8. https://cyberleninka.ru/article/n/reorienting-global-value-chains-under-afcfta-the-role-of-sezs-and-emerging-technologies-in-boosting-value-added-trade-and-firm - Стр. 1-15

5. Magara, L., Sanya, I. O., Macharia, J. M., & Mbugua, A. W. (2024). Internet of Things (IoT) of Smart Homes: Privacy and Security. *Journal of Electrical and Computer Engineering*, 2024, 7716956. https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1155/2024/7716956 - Стр. 1-18

6. Rahman, F. H., Au, T. W., Newaz, S. H. S., & Suhaili, W. S. (2016). IoT Privacy and Security Challenges for Smart Home Environments. *Information*, 7(3), 44. https://www.mdpi.com/2078-2489/7/3/44 - Стр. 29-35

7. Beyer, J., Jacob, S., Lii, E., et al. (2023). U.S. Federal and State Regulation of Internet of Things (IoT) Devices. *JSIS Cybersecurity Initiative*. https://jsis.washington.edu/news/u-s-federal-and-state-regulation-of-internet-of-things-iot-devices-2019-2022 - Стр. 12-28

8. Brass, I., Tanczer, L., Carr, M., Elsden, M., & Blackstock, J. (2021). Mapping socio-technical challenges in securing the smart home. *New Media & Society*, 23(7), 1839-1865. https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/13600834.2021.1957193 - Стр. 156-175

9. Pal, S., Hitchens, M., Rabehaja, T., & Mukhopadhyay, S. (2021). The Challenges of IoT Addressing Security, Ethics, Privacy, and Laws. *Internet of Things*, 15, 100423. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2542660521000640 - Стр. 201-220

10. Кучабоев Р.Т. (2024). IoT texnologiyalari yordamida aqlli binolarda maxfiylikni ta’minlash. *Экономика и социум*, 6-1 (121). https://cyberleninka.ru/article/n/iot-texnologiyalari-yordamida-aqlli-binolarda-maxfiylikni-taminlash - Стр. 89-105

# FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHIDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARINING LEGITIMLIK DARAJASINI OSHIRISH OMILLARI

*BABAYEV*
*Tolibjon Abdujalilovich,*
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Phd)*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada fuqarolik jamiyati shakllanishi jarayonida huquq-tartibot organlarining legitimligi muhim ijtimoiy-siyosiy omil sifatida tahlil qilinadi. Huquq-tartibot organlariga nisbatan jamoatchilik ishonchi, qonuniylik, ochiqlik, hisobdorlik va kasbiy salohiyat legitimlikni oshirishning asosiy omillari sifatida ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so‘zlar:** fuqarolik jamiyati, huquq-tartibot organlari, legitimlik, jamoatchilik ishonchi, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash.

**АННОТАЦИЯ**

В стате рассматривается легитимност правоохранителных органов как ключевой социално-политический фактор формирования гражданского общества. Обосновывается, что общественное доверие, соблюдение принципов законности, прозрачност и подотчётност деятелности, а также профессионалная компетентност сотрудников правоохранителных органов выступают основными факторами укрепления институтсионалной легитимности. На основе эмпирических данных анализируется отношение населения к правоохранителным органам.

**Ключевые слова:** гражданское общество; правоохранителные органы; легитимност; общественное доверие; верховенство права; обеспечение прав и свобод человека.

**ANNOTATION**

This article examines the legitimacy of law enforcement agencies as a key socio-political factor in the development of civil society. It substantiates public trust, adherence to the rule of law, transparency and accountability, as well as professional competence of law enforcement personnel as the primary determinants of institutional legitimacy. Furthermore, the study analyzes public perceptions of law enforcement agencies based on empirical data.

**Keywords:** civil society; law enforcement agencies; legitimacy; public trust; rule of law; provision of human rights and freedoms.

## KIRISH

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish demokratik huquqiy davlat barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Ushbu jarayonda huquq-tartibot organlarining jamiyatdagi o‘rni va nufuzi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur organlarning faoliyati nafaqat jamoat xavfsizligini ta’minlash, balki fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash orqali fuqarolik jamiyati institutlari rivojiga xizmat qiladi.

Aholining huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va ularda qonunlarga hurmat hissini shakllantirish, eng avvalo, jinoyatchilikka qarshi samarali kurashish, korrupsiyani ildizi bilan yo‘qotish hamda osoyishtalikni ta’minlashda muhim poydevor bo‘ladi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqib, mamlakatda qonun ustuvorligini qaror toptirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, huquq-tartibot tizimining legitimligi va ijtimoiy ishonch darajasi ularning faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy omillar bo‘lib, bu bevosita jamoatchilikning ixtiyoriy hamkorligini va tizimni qo‘llab-quvvatlashini ta’minlaydi.

**Legitimlik** (lotincha *legitimus* – qonuniy) – davlatda faoliyat olib borayotgan hokimiyat institutlarining mamlakat aholisi, uning katta guruhlari jamoatchilik tomonidan ularning qonuniyligi tan olinishini anglatadigan siyosiy-huquqiy tushuncha bo‘lsa, huquq-tartibot organlarining legitimligi tushunchasi esa, bu aholining ushbu tizimlar faoliyati qonuniyligi, adolatliligi va ijtimoiy zarurligiga bo‘lgan ishonchi hamda uning qarorlarini ixtiyoriy ravishda tan olishidir.

Huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning asosiy vazifalari faqat rasmiy belgilangan vakolatlarga emas, balki xalqning ularga bo‘lgan ijobiy munosabati va tizimning odilligiga tayanadi. Legitimlik kuch ishlatish vositalari orqali emas, balki jamoatchilik e’tirofi va ishonchi negizida vujudga keladi hamda mustahkamlanadi. Maks Veberning konsepsiyasiga ko‘ra, agar qonunlar jamiyat tomonidan adolat mezoni sifatida tan olinmasa, davlat organlari o‘zining ma’naviy asosini yo‘qotib, shunchaki majburlov apparatiga aylanib qoladi.

## LEGITIMLIK DARAJASINI OSHIRISHNING MUHIM OMILLARI

Huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning legitimligini oshirish mexanizmlari qonuniylik va huquq ustuvorligi tamoyillariga qat’iy rioya etish, shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlanishini ta’minlash, faoliyatning oshkoraligi va jamoatchilik monitoringi institutlarini joriy etish, mas’uliyat va hisobdorlik tamoyillariga asoslanish, professional kadrlar (xodimlar) tayyorlash va xizmat intizomiga rioya etilishini talab qilish, shuningdek, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borish kabi fundamental omillar hisoblanadi. Binobarin, mazkur omillarni mustahkamlash huquq-tartibot organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish, korrupsion holatlarni bartaraf etish hamda jamiyat bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish orqali qonun ustuvorligini ta’minlash borasidagi salohiyatini yuksaltiradi.

Ilmiy tadqiqotchilar aniqlashicha, o‘zaro ishonch va qonuniy asoslarning mustahkamligi jamiyatning huquqni muhofaza qilish organlari bilan ixtiyoriy hamkorligini rag‘batlantiradi, bu esa o‘z navbatida organlarning o‘z zimmasidagi strategik vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun xizmat qiladi. Aksincha, huquq-tartibot organlari faoliyatining qonuniyligiga shubha va ishonchsizlik paydo bo‘lishi jamiyatda tushkunlikni keltirib chiqaradi, odamlar o‘zlarini himoyasiz his qiladi va organlar bilan hamkorlikdan bosh tortadi. Bunday vaziyatda fuqarolar xavfsizlikni ta’minlashning muqobil yo‘llarini qidirib, o‘zboshimchalik bilan jazolash yoki zo‘ravonlik usullariga tayanib qolishlari mumkin. Huquq-tartibot organlari davlatning “yuzi” va fuqarolar eng ko‘p to‘qnash keladigan davlat vakillari bo‘lgani sababli, ular bilan munosabat butun davlat tuzilmalari bo‘lgan umumiy munosabatni shakllantiradi.

**Qonuniylik hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash**. Ma'lumki, huquq-tartibot organlari davlatning ishonchli vakili sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlari, mulk daxlsizligi hamda konstitutsiyaviy negizlarni asrash, shuningdek, xalq va davlat xavfsizligini himoya qilish orqali jamiyatda adolat hamda barqarorlikni kafolatlovchi asosiy tuzilma hisoblanadi. Shu bois, ushbu tuzilmalar faoliyatida qonuniylik hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda respublikamizda "Inson sha'ni va qadr-qimmati uchun" konseptual g'oyasini hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Xususan, 2020-yil 22-iyundagi Prezident Farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya sohadagi xalqaro hamkorlikning institutsional asoslari mustahkamlandi. Mazkur hujjat doirasida inson huquq va erkinliklariga oid umume'tirof etilgan xalqaro standartlar milliy huquqiy tizimga transformatsiya qilinmoqda va huquqni muhofaza qilish amaliyotiga integratsiyalashtirilmoqda.

Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlariga taalluqli konstitutsiyaviy normalar 50 dan ortiq moddani tashkil etb, unda inson huquqlari, so'z va vijdon erkinligi, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarning teng huquqliligi tamoyillariga sodiqlik mustahkamlanganligini e'tirof etishimiz mumkin. Shuningdek, **xalqaro miqyosda e'tirof etilgan demokratik huquqiy institutlar – protsessual kafolatlar majmuyi(Miranda qoidasi), shaxsiy daxlsizlik va sud nazorati mexanizmi(Xabeas korpus) hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarga bepul yuridik yordam ko'rsatish tamoyillari(Pro bono) mustahkamlanganligi** hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotiga joriy etilishi ushbu tizimlarning xalq oldidagi nufuzi va legitimlik darajasini tubdan oshiradi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining “Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, xususan, Ichki ishlar vazirligi tizimi xodimlarining faoliyatiga oid bir qator muhim tashabbus va takliflarni o‘zida mujassam etgan maqsadlar belgilangan. Xususan, 87-maqsad huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatini inson manfaatlari, qadr-qimmati hamda huquq va erkinliklarini himoya qilishga yo‘naltirishni nazarda tutadi; bunda yagona elektron reyestr tizimini joriy etish orqali jinoyat ishining qo‘zg‘atilishidan to sud hukmining chiqarilishiga qadar bo‘lgan barcha bosqichlarni individual raqam va QR kod orqali onlayn kuzatib borish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, dalillarni to‘plash va mustahkamlash jarayoni zamonaviy axborot texnologiyalari va so‘nggi ilmiy yutuqlar asosida to‘liq raqamlashtiriladi, shu jumladan, barcha (100 foiz) jinoyat ishlari va tegishli materiallarning elektron shakldagi nusxalari yuritilib, ular bo‘yicha elektron hujjat almashinuvi ta’minlanishi belgilangan. Bundan tashqari, jiddiy oqibatlarga olib keladigan yo‘l-transport hodisalari sonini kamida 50 foizga qisqartirish kabi aniq mezonlar belgilangan.

Yuqorida sanab o‘tilgan chora-tadbirlarning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yangicha qiyofasi shakllantirilib, ularning faoliyati xalq manfaatlari, qadr-qimmati, huquq va erkinliklarini samarali himoya etishga xizmat qilishga yo‘naltiriladi.

**Xulosa.** Huquq-tartibot organlari faoliyatida qonuniylik hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash omili nafaqat demokratik va huquqiy davlatning ajralmas belgisi, balki jamiyatda tinchlik, barqarorlik va fuqarolarning o‘zaro ishonchini mustahkamlashning asosiy kafolatidir. Qonun ustuvorligi tamoyili huquq-tartibot organlari xodimlarining har qanday harakati qat’iy huquqiy asosga tayanishini talab etadi. Bu esa, o‘z navbatida, vakolatlarni suiiste’mol qilish, zo‘ravonlik va inson huquqlarini poymol etuvchi holatlarning oldini olishga xizmat qiladi, shuningdek, ushbu idoralarni avvalo xalqning ishonchli himoyachisi, professionallashtirilgan keng jamoatchilik bilan maqsadli aloqalarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan tuzilmalarga aylantiradi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.

2. Odilqoriyev H.T. Davlat va huquq nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2010.

**3. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi**. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

**4. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari uchun.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

5. Tom Tayler (Tom R. Tyler). Why People Obey the Law. – New Jersey, 2006.

6. Tom R. Tyler, Caroline Nobo Yale. “Legitimacy-Based Policing and the Promotion of Community Vitality”. – Cambridje, 2022

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi 158-sonli farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.-https://lex.uz/docs.

# QONUN USTUVORLIGI VA IJTIMOIY VOQELIK: “QONUNLAR QOG‘OZDA EMAS, AMALDA ISHLASHI” MEXANIZMLARINING HUQUQIY-SOTSIOLOGIK VA EMPIRIK TAHLILI

*O‘LMASXO‘JAYEV*
*Zoirxo‘ja Abbos o‘g‘li,*
*“Tashkent International Univeristy” xalqaro univeristeti dotsenti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqola huquqshunoslik va sotsiologiyaning eng dolzarb muammolaridan biri – qabul qilingan qonun hujjatlarining ijtimoiy amaliyotdagi samaradorligi (implementatsiya farqi) masalasiga bag‘ishlangan. Maqolada huquqiy normalarning faqat qog‘ozda qolib ketishi (deklarativlik) sabablari empirik ma’lumotlar, institutsional iqtisodiyot va huquqiy sotsiologiya nazariyalari asosida tahlil qilinadi. Aniq faktlar va xalqaro indekslar (World Justice Project, Transparency International) ko‘rsatkichlariga tayangan holda, qonunlarning ishlashi uchun zarur bo‘lgan sud mustaqilligi, jamoatchilik nazorati va raqamlashtirish jarayonlari batafsil yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** huquqiy realizm, qonun ustuvorligi, huquqni qo‘llash amaliyoti, institutsional bo‘shliq, qog‘ozdagi qonun, sud mustaqilligi, huquqiy nigilizm.

**АННОТАЦИЯ**

Данная статья посвящена одной из наиболее актуальных проблем права и социологии – эффективности принятых правовых актов в социальной практике (разрыв в реализации). В статье анализируются причины того, почему правовые нормы остаются лишь на бумаге (декларативность), на основе эмпирических данных, теорий институциональной экономики и социологии права. На основе конкретных фактов и международных индексов (World Justice Project, Transparency International) подробно рассматриваются процессы независимости судебной власти, общественного контроля и цифровизации, необходимые для функционирования права.

**Ключевые слова:** Правовой реализм, верховенство права, правоохранительная практика, институциональный разрыв, право на бумаге, независимость судебной власти, правовой нигилизм.

**ANNOTATION**

This article addresses one of the most pressing issues in law and sociology: the effectiveness of adopted legal acts in social practice (the implementation gap). The article analyzes the reasons why legal norms remain only on paper (declarative nature), drawing on empirical data, theories of institutional economics, and the sociology of law. Using specific facts and international indices (World Justice Project, Transparency International), it examines in detail the processes of judicial independence, public oversight, and digitalization necessary for the functioning of the law.

**Key words:** Legal realism, rule of law, law enforcement practice, institutional gap, law on paper, independence of the judiciary, legal nihilism.

## KIRISH

Zamonaviy davlatchilik arxitekturasida qonun chiqaruvchi organ tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning soni va sifati har doim ham jamiyatdagi huquqiy tartibotning adekvat ko‘zgusi bo‘la olmaydi. Huquqshunoslik fanida klassik ahamiyatga ega bo‘lgan amerikalik olim Rosko Paundning (Roscoe Pound) 1910-yilda ilgari surgan “Qog‘ozdagi qonun va amaldagi qonun” (Law in books vs. Law in action) nazariyasi bugungi kun uchun ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan [1]. Paund qonun matni va uning ijtimoiy voqelikdagi ijrosi o‘rtasida doimiy tafovut mavjudligini ta’kidlagan.

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab, shu jumladan, o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda qonunlarning “qog‘ozda mukammal, biroq hayotda ishlamasligi” eng jiddiy institutsional inqiroz sanaladi. Jahon Adliya Loyihasining (World Justice Project) 2023-yilgi “Qonun ustuvorligi indeksi” (Rule of Law Index) tahlillari shuni ko‘rsatadiki, qonunchilik bazasi xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan qator rivojlanayotgan davlatlar, aynan qonunlarning ijro etilishi (enforcement) va sudlarning adolatliligi bo‘yicha eng oxirgi o‘rinlarni egallaydi [2]. Bu shuni tasdiqlaydiki, jamiyat taraqqiyoti qonunlarning soni bilan emas, balki ularning ijtimoiy munosabatlarni qanchalik samarali tartibga sola olishi, ya’ni hayotga tatbiq etilishi bilan belgilanadi.

Qonunlarning hayotda ishlashi – bu shunchaki yuridik jarayon emas, balki murakkab ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm bo‘lib, u bevosita siyosiy iroda, davlat institutlarining shaffofligi va fuqarolik jamiyatining faolligiga bog‘liqdir. Agar qonun matnida fuqarolarning xususiy mulk daxlsizligi kafolatlangan bo‘lsa-yu, amaliyotda hokimliklar qarori bilan kompensatsiyasiz buzilishlar (snoslar) davom etsa, bu huquqiy nigilizm-

ni (qonunga ishonchsizlikni) keltirib chiqaradi va iqtisodiy o‘sishni paralich holatiga tushiradi.

Qonunlarning amaliyotda ishlash masalasi institutsional iqtisodiyot va huquq sotsiologiyasida keng o‘rganilgan. Maks Veber o‘zining “Huquq va iqtisodiyot” asarida huquqiy tizimlarning ratsionalligi va ularning iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi rolini ochib bergan [3]. Veberga ko‘ra, “qonun qog‘ozda qanday yozilganidan qat’i nazar, agar byurokratik apparat qoidani e’tiborsiz qoldirish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu huquqiy tizim emas, balki shaxsiy xohish-istaklar boshqaruvidir”.

Nobel mukofoti sovrindori Duglas Nort institutlarni (shu jumladan qonunlarni) “o‘yin qoidalari”, huquqni qo‘llash tizimlarini esa “hakamlar” deb ataydi [4]. Nortning asosiy xulosasi shundan iboratki, qoidalar qanchalik yaxshi yozilmasin, agar hakamlar adolatsiz bo‘lsa yoki korrupsiyaga botgan bo‘lsa, o‘yinchilar qoidalarga rioya qilishdan manfaatdor bo‘lmaydi. Qonun qabul qilishning o‘zi (deklarativ holat) ga nolga teng ta’sir qiladi, butun samaradorlik aynan va ko‘rsatkichlarining yuqoriligiga (ya’ni amaliy ijroga) bog‘liq [5].

Demak, qonunlarning ishlash yoki ishlamasligini belgilovchi asosiy faktor bu normativ hujjatning sifati emas, balki ijro institutlarining avtonomligi va jamoatchilik oldidagi hisobdorligidadir.

Zamonaviy yurisprudensiyada kuzatilayotgan eng katta xavflardan biri bu – “normativ inflyatsiya”dir. O‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda muammolarni tizimli hal qilish o‘rniga, har bir kichik masala uchun alohida qaror yoki farmon qabul qilish tendensiyasi kuzatiladi. Masalan, bitta sohaga oid o‘nlab huquqiy hujjatlarning mavjudligi, ular o‘rtasida kolliziyalarni (ziddiyatlarni) keltirib chiqaradi.

Faktlarga yuzlansak: agar biror davlatda mulk huquqini tartibga soluvchi 50 dan ortiq qonunosti hujjatlari mavjud bo‘lsa, byurokrat (mansabdor shaxs) o‘zi uchun manfaatli bo‘lgan ixtiyoriy normani tanlab qo‘llash vakolatiga (diskresion vakolat) ega bo‘ladi. Bu huquqiy noaniqlik, xorijiy va mahalliy investorlar uchun eng katta baryerdir. Jahon Bankining “Doing Business” va “B-Ready” hisobotlarida qayd etilishicha, biznes uchun qonunlarning qattiqligi emas, balki ularning bashorat qilib bo‘lmasligi (unpredictability) va beqarorligi eng katta zarar keltiradi [6]. Qog‘ozda biznesni himoya qiluvchi ideal qonunlar bo‘lishi mumkin, ammo agar mulkdor o‘z huquqini sudda himoya qilish uchun oylap vaqt sarflasa va oxir-oqibat sud davlat organining yonini olsa, qonun o‘zining funksional mohiyatini yo‘qotadi.

Qonunlar qog‘ozda qolib ketishining aniq simptomlari va sabablari mavjud. Ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin:

Ijro mexanizmlarining yo‘qligi (Yalang‘och qonunlar) Ko‘plab qonunlar “huquqqa egadirlar”, “rag‘batlantiriladi”, “kafolatlanadi” kabi umumiy deklarativ so‘zlar bilan qabul qilinadi. Biroq, “Qanday qilib?”, “Qaysi mablag‘ hisobidan?”, “Muddat qachon?”, “Bajarmaganlik uchun sanksiya qanday?” degan savollarga javob beruvchi protsessual mexanizmlar belgilanmaydi. Huquqshunoslikda bu holat “lex imperfecta” (sanksiyasiz, mexanizmsiz qonun) deb ataladi. Agar qonun buzilgani uchun aniq va muqarrar jazo bo‘lmasa, u qonun emas, shunchaki maslahat xarakteridagi matnga aylanib qoladi.

Sud tizimining ijro hokimiyatiga tobe’ligi Qonunlar hayotda ishlashi uchun zarur bo‘lgan eng asosiy filtr – bu qaram bo‘lmagan sud tizimi. Agar qonunni buzgan shaxs davlat organi rahbari bo‘lsa va uni sud javobgarlikka torta olmasa, jamiyatda huquqning kuchi degan tushuncha yo‘qoladi. Fakt shuki, Skandinaviya davlatlarida (Daniya, Norvegiya) huquqning ishlash indeksi 90% dan yuqori, chunki bu yerda ma’muriy sudlar hukumat qarorlarini bekor qilishda mutlaq avtonomiyaga ega [7]. Sudyaning o‘z lavozimida qolishi yoki maoshi qaysidir ma’noda ijro hokimiyati vakillari (hokimlar, vazirlar) xohishiga bog‘liq bo‘lsa, qonun hech qachon qog‘ozdan tashqariga chiqa olmaydi.

Huquqni qo‘llovchilarning malakasi va manfaatlari to‘qnashuvi Qonunlarning ishlashiga javobgar bo‘lgan shaxslarning, ya’ni huquq-tartibot organlari, prokuratura va adliya tizimi xodimlarining oylik maoshlari va ijtimoiy himoyasi bozor iqtisodiyoti talablariga mos kelmasa, qonun savdosiga (korrupsiyaga) yo‘l ochiladi. “Men senga qonunni chetlab o‘tishga yordam beraman, sen esa menga ulush berasan” degan norasmiy konsensus jamiyatda yozilmagan “soya qonunlari”ni yaratadi. Vaqt o‘tishi bilan bu yozilmagan qoidalar rasmiy qonunlardan ko‘ra kuchliroq ish-

lay boshlaydi.

Qonunlarning ishlamasligi faqatgina yuridik muammo emas, u davlatning moliyaviy barqarorligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri zarba beruvchi omildir. Tasavvur qiling, qog‘ozda “Intellektual mulk himoyasi” haqida mukammal qonun bor. Lekin amaliyotda mualliflik huquqi har qadamda buziladi, sudlar bu ishlarni ko‘rib chiqishga tayyor emas yoki jarimalar shu qadar kichikki, qonunni buzish qonunga rioya qilishdan ko‘ra arzonroqqa tushadi. Natija nima bo‘ladi?

Innovatsiyalar o‘ladi. Hech kim yangi texnologiya yoki dastur yaratmaydi.

Xalqaro brendlar va texnologik korporatsiyalar bu bozorga kirmaydi.

Kapitalning xorijga chiqib ketishi (Capital flight) tezlashadi.

Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining (IMF) o‘rganishlari shuni tasdiqlaydiki, qonun ustuvorligi ta’minlanmagan davlatlarda yashirin iqtisodiyot (shadow economy) ulushi yalpi ichki mahsulotning (YaIM) 30-40% gacha yetishi mumkin [8]. Odamlar davlat ro‘yxatidan o‘tib, soliq to‘lab ishlashni xohlamaydilar, chunki ular o‘z huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishiga ishonmaydilar. Bu holat “institutsional tuzoq” (institutional trap) deb ataladi. Qonun ishlamagani uchun odamlar soyaga ketadi, soyaga ketgani uchun davlat byudjetiga tushum kamayadi, tushum kamaygani sababli davlat sud va politsiyani moliyalashtira olmaydi va tizim yana korrupsiyaga yuz tutadi.

Qonunlar qog‘ozda emas, amalda ishlashi uchun bir qator institutsional islohotlar aslo kechiktirmasdan amalga oshirilishi shart. Bu boradagi xalqaro ilg‘or tajriba va empirik yondashuvlar quyidagilarni taqozo etadi:

Birinchidan, “To‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan” (Directly applicable) qonunlar qabul qilish amaliyotiga o‘tish. Qonun qabul qilingach, uning ishlashi uchun Vazirlar Mahkamasi qarori, vazirlikning yo‘riqnomasi yoki qandaydir idoraviy nizomlar kutib o‘tirilmasligi kerak. Aynan shu idoraviy hukjatlar qonunlarning asl mohiyatini bo‘g‘ib qo‘yadi. Qonunning o‘zida hamma mexanizm: subyektlar huquqi, majburiyati, aniq muddatlar va javobgarlik batafsil yozilishi shart.

Ikkinchidan, Ma’muriy sudlar vakolatlarini keskin kengaytirish. Fuqaro va davlat o‘rtasidagi nizolarda fuqaro har doim zaif tomondir. Davlat apparati o‘zining yuristlari, resurslari va kuch ishlatish salohiyatiga ega. Ularni tenglashtiruvchi yagona kuch – bu ma’muriy sud. Ma’muriy sudlar shunday maqomga ega bo‘lishi kerakki, ular nafaqat hokimning qarorini bekor qila olishi, balki noqonuniy qaror chiqargan mansabdorga nisbatan juda katta miqdorda moliyaviy sanksiya (jarima) qo‘llashi, undirilgan jarima esa bevosita o‘sha mansabdorning shaxsiy cho‘ntagidan qoplanishi kerak. Shundagina byurokrat qonunni qog‘ozda qoldirib, o‘z bilganicha ish qilishdan oldin o‘n marta o‘ylaydi [9].

Uchinchidan, Radikal shaffoflik va Raqamli nazorat (Digital enforcement). Inson omili bor joyda, ayniqsa past maosh va katta vakolatlar kesishgan nuqtada qonun buzilishi muqarrar. Estoniya va Singapur davlatlari qonunlarning ishlashini raqamlashtirish orqali ta’minlagan. Barcha davlat xaridlari, yer ajratish, ruxsatnomalar berish jarayoni “blockchain” yoki ochiq ma’lumotlar bazalariga o‘tkazilishi lozim. Qaror qabul qilish jarayonidan inson (chinovnik) aralashuvi qanchalik kamaytirilsa, qonun shunchalik aniq ishlaydi. Mashina (algoritm) qonunni qog‘ozda deb bilmaydi, u kod sifatida o‘qiydi va istisnolarsiz ijro etadi.




To‘rtinchidan, Jamoatchilik va erkin matbuotning “Watchdog” (Kuzatuvchi) funksiyasi. Qonun ishlamasa, kim birinchi bo‘lib bong uradi? Jabrlangan fuqaro va mustaqil jurnalistika. Aniq fakt shuki, erkin matbuot va so‘z erkin-

ligi kafolatlanmagan jamiyatda hech qanday qonun ishlamaydi. Jurnalistlarning korrupsion sxemalar, qonunsizlik holatlari bo‘yicha olib borgan surishtiruvlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun tayyor ish qo‘llanmasi (trigger) vazifasini o‘tashi qonun darajasida belgilanishi kerak. Qachonki har bir amaldor o‘zining noqonuniy xatti-harakati ertaga ijtimoiy tarmoqlarda va matbuotda fosh bo‘lishidan qo‘rqsagina, yozilgan normalarga rioya qilishga majbur bo‘ladi.

**Xulosa.** Qonunlar – bu qog‘ozga tushirilgan orzular emas, balki jamiyatni boshqarishning qat’iy va ishlovchi qoidalari to‘plami bo‘lishi shart. “Qonunlar qog‘ozda emas, hayotda ishlashi shart” degan konseptual g‘oya shunchaki siyosiy shior emas, balki davlatning yashovchanligini va iqtisodiy taraqqiyotini belgilab beruvchi hayot-mamot masalasidir.

Empirik tahlillar va huquqiy sotsiologiya faktlari shuni aniq ko‘rsatmoqdaki, qonunning samaradorligi uning qabul qilinishida emas, ijro etilishida namoyon bo‘ladi. Deklarativ normalar, mustaqilligi ta’minlanmagan sud tizimi, hamda mexanizmsiz yozilgan huquqiy hujjatlar qonuniylik illyuziyasini yaratsada, amaliyotda jamiyatni korrupsiya va huquqiy nigilizm botqog‘iga tortadi.

Davlat qonun qabul qilganda, ushbu qonun ishlashi uchun jamiyatning quyi bo‘g‘inidan tortib eng yuqori ehelonigacha bo‘lgan zanjirni institutsional tarzda qayta qurishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan normalar yaratishni, sudlar avtonomiyasini mutlaq ta’minlashni, inson omilini raqamli texnologiyalar bilan almashtirishni va, eng muhimi, doimiy hamda murosasiz jamoatchilik nazoratini talab qiladi. Qog‘ozdagi qonunlarni hayotiy qoidalarga aylantirmasdan turib, na barqaror iqtisodiy o‘sishga, na xalqaro maydonda raqobatbardoshlikka erishib bo‘lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.


1. Kaufmann, D., Kraay, A., & Mastruzzi, M. (2010). *The Worldwide Governance Indicators: Methodology and Analytical Issues*. World Bank Policy Research Working Paper No. 5430.
2. Medina, L., & Schneider, F. (2018). *Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?*. IMF Working Paper. (Qonun ishlamasligi natijasida yashirin iqtisodiyotning o‘sishi haqida empirik tahlil).
3. North, D. C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press. (Institutlarning iqtisodiy taraqqiyotdagi roli va ijro mexanizmlari tahlili).
4. Posner, R. A. (2014). *Economic Analysis of Law*. Wolters Kluwer Law & Business. (Huquqbuzarlikning iqtisodiy tahlili va jarimalar preventivligini baholash).
5. Pound, R. (1910). *Law in Books and Law in Action*. American Law Review, 44, 12-36. Ushbu klassik maqola huquqiy normalarning deklarativligi va ularning amaliy ijrosi o‘rtasidagi ziddiyatlarni birinchi bo‘lib ilmiy muomalaga kiritgan.
6. Rose-Ackerman, S. (2016). *Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform*. Cambridge University Press. (Ma’muriy sudlar va qonun ustuvorligi korrelyatsiyasi).
7. Weber, M. (1978). *Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology*. University of California Press. (Ratsional-huquqiy boshqaruv asosi sifatida).
8. World Bank. (2024). *Business Ready (B-READY) Methodology Handbook*. World Bank Group. (Huquqiy normalarning beqarorligi biznesga qanday salbiy ta’sir qilishi faktlar bilan keltirilgan).
9. World Justice Project. (2023). *WJP Rule of Law Index 2023*. Washington, D.C.: WJP. (Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra, huquqni qo‘llashdagi adolatlilik ko‘rsatkichi ko‘plab o‘tish iqtisodiyotiga ega davlatlarda inqirozli holatda qolmoqda).

# MEDIATSIYA HALQARO MUNOSABATLARNING MUHIM VOSITASI VA USULI SIFATIDA

*MAHMUDOVA*
*Feruza Nematovna,*
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada mediatsiya halqaro munosabatlarning muhim vositasi va usuli ekanligi haqida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, maqolada mediatsiya bu xalqaro munosabatlardagi nizolarni tinch yo‘l bilan hal qilishning muhim vositasi va usuli bo‘lib, u taraflar o‘rtasidagi qarama-qarshiliklarni kamaytirish, bartaraf etish va muzokaralar orqali kelishuvga erishishi ilmiy jihatdan yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** mediatsiya, davlat, jamiyat, siyosat, tafakkur, xalqaro, qadriyat, konsensus, muloqot, konflikt, adolat, tinchlik.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматривается медиация как важный инструмент и способ международных отношений. Также в статье с научной точки зрения освещается, что медиация – это важный инструмент и способ мирного разрешения споров в международных отношениях, который позволяет минимизировать, устранять противоречия между сторонами и достигать соглашения путем переговоров.

**Ключевые слова.** медиация, государство, общество, политика, мышление, международный, ценность, консенсус, диалог, конфликт, справедливость, мир.

**ANNOTATION**

This article examines mediation as an important tool and method of international relations. The article also highlights from a scientific perspective that mediation is an important tool and way to peacefully resolve disputes in international relations, allowing for the minimization and elimination of contradictions between parties and the achievement of an agreement through negotiations.

**Keywords.** mediation, state, society, politics, thinking, international, value, consensus, dialogue, conflict, justice, peace.

**Kirish (Introdustion).** Mediatsiya xalqaro munosabatlardagi nizolarni tinch yo'l bilan hal etishning muhim vositasi hisoblanadi. U taraflar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni kamaytirish, ularni bartaraf etish hamda muzokaralar orqali o'zaro maqbul kelishuvga erishishni maqsad qiladi. Mediatsiya jarayoni xalqaro nizolarni tinchlik, o'zaro hurmat va manfaatlar muvozanatiga asoslangan holda hal etish imkonini beradi. Ushbu jarayonda mediator tomonlar manfaatlarini inobatga olgan holda, ular o'rtasida bevosita va samarali muloqotni yo'lga qo'yadi. Natijada mediatsiya qurolli mojarolarning oldini olishga, nizolarni konstruktiv yo'l bilan hal etishga hamda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro munosabatlarda mediatsiyaning rolini umumiy xavfsizlik nuqtai nazaridan ham ko'rish mumkin. Zamonaviy dunyoda davlatlar o'rtasidagi mojarolar nafaqat qurolli to'qnashuvlarga, balki global iqtisodiy beqarorlik, qochqinlar muammosi, va ijtimoiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Mediatsiya orqali urushlarning oldini olish yoki ularni to'xtatish jahon hamjamiyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi [1].

XXI asr xalqaro munosabatlarida muammolarni kuch ishlatish orqali hal etish ko'pincha og'ir va uzoq muddatli salbiy oqibatlarga olib keladi. Bunday sharoitda mediatsiya nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etishning muhim va samarali alternativasi sifatida namoyon bo'ladi. U barcha tomonlar uchun qo'rquv va tajovuz darajasini kamaytirib, o'zaro ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Urushlar yoki iqtisodiy sanksiyalarga nisbatan mediatsiya orqali kelishuvga erishish tinchlikni saqlash va barqaror rivojlanishni ta'minlashning ancha maqbul usuli hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida nafaqat davlatlar, balki nodavlat aktorlar – xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar hamda nodavlat notijorat tashkilotlar ham faol ishtirok etmoqda. Mediatsiya ana shu turli aktorlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, manfaatlar muvozanatini ta'minlash va konstruktiv muloqotni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda mediatorlar tomonlarning pozitsiyalarini yaqinlashtirishga, umumiy manfaatlarni aniqlashga va o'zaro maqbul yechimlarga erishishga ko'maklashadi.

Xalqaro munosabatlarda ko'pincha nizolar nafaqat siyosiy yoki harbiy muammolar sababli, balki ijtimoiy-iqtisodiy sabablardan kelib chiqadi. Mediatsiya bu muammolarni yechishdagi muhim vosita hisoblanadi, chunki u taraflar o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy adolatni tiklashga yordam beradi. Texnologik rivojlanish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'sishi mediatsiya jarayonlarini tezkor va samarali qilib beradi. Onlayn muzokaralar, masofaviy aloqa vositalari va axborot texnologiyalari orqali mediatsiya jarayonlari ko'p tomonlama va global miqyosda ham amalga oshirilishi mumkin [2].

Xalqaro munosabatlarda mediatsiya inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim vositaga aylanmoqda. Inson huquqlari masalalari hal etilmagan mojarolarda mediatsiya tinchlik va adolatni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Mediatsiya xalqaro munosabatlarda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilishning muhim vositasi va usuli sifatida o'ta muhim rol o'ynaydi. U nafaqat qurolli to'qnashuvlarni oldini olish va bartaraf etish, balki siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilishda ham keng ko'lamli imkoniyatlar beradi. Taraflar o'rtasidagi manfaatlarni muvofiqlashtirish va global xavfsizlikni ta'minlashda mediatsiyaning ahamiyati benihoya katta.

Mediatsiyani xalqaro munosabatlarning muhim vositasi va usuli sifatida ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mediatsiya globallashuv va ko'p madaniyatli jamiyat sharoitida nizolarni hal qilish va o'zaro munosabatlarni boshqarishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Xalqaro siyosatda mediatsiya nizolar avj olishining oldini olishga, diplomatik aloqa kanallarini o'rnatishga, davlatlararo va guruhlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi [3].

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review).** Ilmiy nuqtai nazardan mediatsiya konfliktlarni boshqarish, sotsiologiya, siyosat-

shunoslik, psixologiya va huquq kabi bir qancha sohalarni qamrab oladi. Uning fanlararo tabiati uning turli sohalarda – shaxslararo ziddiyatlardan tortib xalqaro nizolargacha keng qo‘llanilishini aks ettiradi. Xalqaro maydonda mediatsiya davlatlar, xalqaro tashkilotlar va nodavlat subyektlar tomonidan mojarolarni boshqarish va zo‘ravonlikning oldini olish uchun foydalanadigan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu muzokaralar texnologiyalaridan foydalanishni va muloqot uchun imkoniyatlar yaratishni o‘z ichiga oladi, bu esa uni globallashuv va o‘sib borayotgan o‘zaro bog‘liqlik sharoitida ayniqsa muhim qiladi. Ilmiy tadqiqotlar diplomatik va xalqaro nizolar madaniy, iqtisodiy va siyosiy tafovutlar tufayli tezda avj olishi mumkin bo‘lgan zamonaviy dunyoda mediatsiya zaruriyati ortib borayotganini ta’kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mediatsiya qarama-qarshiliklarning intensivligini kamaytirishi va aloqa kanallarini tiklashi mumkin, bu qurolli to‘qnashuvlar va diplomatik munosabatlarning yomonlashuvi xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Mediatsiyaning siyosiy ahamiyati uning xalqaro maydonda tinchlik va barqarorlikni saqlash vositasi sifatida harakat qilish qobiliyatidadir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Yevropa Ittifoqi kabi ko‘p tomonlama institutlar xalqaro nizolarni hal qilishda mediatsiyadan faol foydalanadilar. Mediatsiya Afrika Ittifoqi va Amerika Davlatlari Tashkiloti kabi mintaqaviy tashkilotlar doirasida ham faoldir. Mediatsiyadan muvaffaqiyatli foydalanishga misol qilib, Liberiya, Sudan va Serra-Leonedagi fuqarolar urushlari kabi nizolarni hal qilishga olib kelgan BMT shafeligidagi muzokara jarayonlarini keltirish mumkin. Siyosiy yetakchilar va xalqaro tashkilotlar qurolli mojarolarning oldini olish, odamlarning qurbon bo‘lishini minimallashtirish va harbiy amaliyotlar xarajatlarini kamaytirishda mediatsiya muhimligini tobora ko‘proq e’tirof etmoqda.

Globallashuv xalqaro munosabatlarning mohiyatini sezilarli darajada o‘zgartirib, ularni yanada murakkab va ko‘p bosqichli qilib qo‘ydi. Mamlakatlar va jahon iqtisodiyoti ishtirokchilari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kuchayib borayotgan sharoitda mediatsiya savdo bitimlari, sarmoyaviy mojarolar va atrof-muhit muammolari bilan bog‘liq nizolarni hal qilishga yordam beradi. Ta’kidlash joizki, globallashuv xalqaro tizim ishtirokchilari, jumladan, nodavlat tashkilotlar, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro sudlar sonining ko‘payishiga olib keldi. Bu o‘zgarishlar mediatsiyaning global nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish platformasini ta’minlovchi muhim vositaga aylanishiga olib keldi [4].

Ko‘p madaniyatli sharoitda mediatsiya tomonlarning madaniy farqlarini hisobga olishga yordam beradi, bir-birining xatti-harakatlarini noto‘g‘ri tushunish va noto‘g‘ri talqin qilishdan qochadi. Bu, ayniqsa, normalar, qadriyatlar va an’analardagi farqlar murosaga erishish uchun to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan madaniyatlararo muzokaralarda muhimdir. Mediatsiya muloqot va barcha tomonlarni hisobga olishga asoslangan jarayon sifatida o‘zaro tushunishni shakllantirish va madaniy muloqotni mustahkamlashga yordam beradi.

Mediatsiyani qonunchilik bilan tartibga solish xalqaro munosabatlarda muhim mavzuga aylandi. AQSh, Avstriya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mediatsiya qonunchilik darajasida mustahkamlangan bo‘lib, bu uning tijorat, davlatlararo va huquqiy nizolarda keng qo‘llanilishiga imkon beradi. Xalqaro tijorat nizolari kontekstida UNCITRAL (BMTning Xalqaro Savdo Huquqi bo‘yicha Komissiyasi) ko‘plab mamlakatlarda tijorat kelishuvlarini tartibga solish uchun qo‘llaniladigan namunaviy qonunni ishlab chiqdi. Bundan tashqari, Xalqaro Sud va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) kabi xalqaro tashkilotlar ham davlatlar va biznes o‘rtasidagi nizolarni hal qilish uchun mediatsiya tartib-qoidalaridan faol foydalanmoqda. Bu xalqaro savdodagi keskinlikni kamaytirishga va savdo urushlarining oldini olishga yordam beradi, bu ayniqsa global iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik davrida muhim ahamiyatga ega.

Mediatsiyani qonunchilik bilan tartibga solish xalqaro munosabatlarda muhim mavzuga aylandi. AQSh, Avstriya va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mediatsiya qonunchilik darajasida mustahkamlangan bo‘lib, bu uning tijorat, davlatlararo va huquqiy nizolarda keng qo‘llanilishiga imkon beradi. Xalqaro tijorat nizolari kontekstida UNCITRAL (BMTning Xalqaro Savdo Huquqi bo‘yicha Komissiyasi) ko‘plab mamlakatlarda tijorat kelishuvlarini tartibga solish uchun qo‘llaniladigan namunaviy qonunni ishlab chiqdi. Bundan tashqari, Xalqaro Sud va JST kabi xalqaro

tashkilotlar ham davlatlar va biznes o'rtasidagi nizolarni hal qilish uchun mediatsiya tartib-qoidalaridan faol foydalanmoqda. Bu xalqaro savdodagi keskinlikni kamaytirishga va savdo urushlarining oldini olishga yordam beradi, bu ayniqsa global iqtisodiy o'zaro bog'liqlik davrida muhim ahamiyatga ega.

Mediatsiyaning ommaviyligi ortib borayotganiga qaramay, xalqaro munosabatlarda undan foydalanish bilan bog'liq muammolar mavjud. Ulardan biri vositachilarga ishonch masalasidir. Mediatsiyaning muvaffaqiyati mediatorning xolisligiga va tomonlarni hamkorlik zarurligiga ishontira olishiga bog'liq. Yana bir qiyinchilik global nizolarni boshqarishning murakkabligi bo'lib, unda ishtirokchilar va manfaatdor tomonlarning soni ko'p bo'lishi mumkin. Masalan, iqlim o'zgarishi yoki inson huquqlari bilan bog'liq mojarolar bir nechta sub'ektlarni, jumladan davlatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyatini jalb qilishni talab qiladi va bu konsensusga erishish jarayonini qiyinlashtiradi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology).** Ilmiy va siyosiy nuqtai nazardan, mediatsiya globallashuv va multikulturalizm sharoitida nizolarni boshqarish va nizolarni hal etishning muhim vositasi va usuli hisoblanadi. Bu xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, barqarorlikni saqlash va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini beradi. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning murakkabligi va ko'p bosqichliligi mediatsiyani mojarolar avj olishining oldini olish va jahon hamjamiyatida tinch-totuv yashashni ta'minlashga qodir bo'lgan ajralmas vositaga aylantiradi.

Xalqaro munosabatlarda mediatsiya globallashuv va madaniy o'zaro bog'liqlikning kuchayishi sharoitida asosiy rol o'ynaydi, bu erda turli madaniyatlar va til guruhlari o'rtasidagi ziddiyat va o'zaro ta'sirlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy-siyosiy nuqtai nazardan, mediatsiya nafaqat nizolarni hal qilishni ta'minlovchi, balki xalqaro miqyosda madaniy va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga hissa qo'shadigan o'ziga xos integratsion vosita sifatida qaraladi.

Mediatsiya hodisa sifatida ko'p qatlamli bo'lib, huquqshunoslik, konfliktlarni boshqarish, psixologiya, sotsiolingvistika va madaniyatshunoslik kabi bir qancha fanlarni qamrab oladi. Mediatsiyaga bo'lgan ilmiy qiziqish uning ushbu fanlar chorrahasida faoliyat yurita olishi bilan bog'liq. Mediatsiyaning muhim xususiyati uning madaniy va til to'siqlarini boshqarishdagi o'rni bo'lib, bu ayniqsa globallashuv davrida, turli madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar kuchayib borayotgan bir paytda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy lingvistika va lingvomadaniy mediatsiya sohasidagi tadqiqotlar turli til va madaniy me'yorlar tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin bo'lgan madaniyatlararo muloqot sharoitida mediatsiya muhimligini ta'kidlaydi. Bunday hollarda mediatsiya nafaqat nizolarni hal qilish vositasi, balki tomonlar o'rtasidagi o'zaro tushunishni yaxshilash vositasi sifatida ham ishlaydi. Lingvomadaniy mediatsiya mutaxassislarga o'z malakalarini ko'p tilli va ko'p madaniyatli vaziyatlarga moslashtirish imkonini beruvchi istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lib, ulardan chet tillarini bilish va ko'p madaniyatli muhitda ishlash qobiliyatini talab qiladi[6].

Siyosiy nuqtai nazardan, mediatsiya tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim vositasidir. Xalqaro maydonda mediatsiya ko'pincha davlatlar o'rtasidagi nizolarni oldini olish yoki diplomatik nizolarni hal qilish vositasi sifatida qo'llaniladi. BMT va Yevropa Ittifoqi kabi xalqaro tashkilotlar mojarolarni hal qilishda mediatsiya mexanizmlaridan faol foydalanmoqda. Masalan, BMT xalqaro tijorat nizolari bo'yicha mediatsiya jarayonlarini tartibga soluvchi "Xalqaro tijorat yarashuv tartib-qoidalari to'g'risida"gi namunaviy qonunni (UNCITRAL) ishlab chiqdi.

Globallashuv madaniyatlararo va davlatlararo o'zaro munosabatlarning yangi shakllarining paydo bo'lishi uchun sharoit yaratdi, bu esa mediatsiyaka siyosiy vosita sifatidagi ehtiyojni oshirdi. Mediatsiya diplomatik munosabatlarni mustahkamlashga va xalqaro maydonda nizolar avj olishining oldini olishga yordam beradi, bunda ko'plab ishtirokchilar (davlatlar, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari) ishtirok etishi madaniy farqlarni hisobga olgan holda maxsus muzokaralar olib borish usullarini talab qiladi.

Globallashuv mamlakatlar va xalqlarning madaniy o'zaro bog'liqligini kuchaytirdi, bu esa madaniyatlararo muloqotda yangi turdagi ziddiyatlar va qiyinchiliklarning paydo bo'lishi-

ga olib keldi. Bunday sharoitda mediatsiya turli madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik rolini o‘ynaydi, nizolar yoki muzokaralar taraflariga madaniy me’yorlar va qadriyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, savdo muzokaralari, hukumatlararo munosabatlar va iqlim o‘zgarishi yoki migratsiya kabi global muammolarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Ko‘p madaniyatli dunyoda mediatsiya konstruktiv muloqot va o‘zaro tushunish uchun joy yaratishga yordam beradi. Bu uni nafaqat nizolarni hal qilish vositasi, balki globallashgan jamiyatda madaniyatlararo muloqot va bag‘rikenglikni mustahkamlashning muhim vositasiga aylantiradi.

ми, конкуренцией элит, институциональными несоответствиями в условиях модернизации и трансформациями информационной среды. В работе анализируются различные теоретические подходы, включая теорию систем, функционализм, конфликтологическую парадигму и концепцию относительной депривации. Рассматриваются структура и уровни политической нестабильности, а также её ключевые детерминанты, такие как экономические факторы, фрагментация элит, институциональная слабость, влияние цифровой информационной среды и внешние гибридные воздействия. Автор приходит к выводу, что обеспечение политической стабильности требует укрепления институциональной системы, обновления социального контракта между государством и обществом, соблюдения принципа верховенства закона и развития эффективных стратегий коммуникации в цифровом пространстве.

**Ключевые слова:** политическая нестабильность, политическая стабильность, теория систем, институциональная слабость, модернизация, конкуренция элит, кризис легитимности, гибридные угрозы, информационные каскады, государственная устойчивость.

## ANNOTATION

This article examines the factors that lead to political instability from theoretical and analytical perspectives. The study explores the relationship between political stability and instability through a systemic approach. Political instability is interpreted as a complex socio-political phenomenon associated with the weakening of state institutions, crises of legitimacy, socio-economic imbalances, elite competition, institutional mismatches during modernization processes, and transformations within the information environment. The article applies several theoretical frameworks, including systems theory, functionalism, conflict theory, and the concept of relative deprivation, to analyze the structure, levels, and determinants of political instability. Particular attention is given to economic determinants, elite fragmentation, institutional weakness, the influence of the digital information space, and external hybrid pressures as major drivers of instability. The study concludes that ensuring political stability requires strengthening institutional capacity, renewing the social contract between the state and society, upholding the rule of law, and developing effective communication strategies within the digital information environment.

**Key words:** political instability, political stability, systems theory, institutional weakness, modernization, elite competition, legitimacy crisis, hybrid threats, information cascades, state resilience.

Insoniyat tamadduni taraqqiyotining hozirgi bosqichi global transformatsiyalar, texnologik inqiloblar, axborotlashuv jarayonlari va geosiyosiy kuchlar nisbatining o‘zgarishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitda davlat va jamiyat barqarorligi, siyosiy legitimlik muammosi zamonaviy siyosatshunoslikning strategik ahamiyatga ega eng oliy qadriyatlaridan biriga aylanmoqda. Biroq barqarorlik tushunchasining teskari qutbi bo‘lgan “sabotsizlik” hodisasi tizimli tahlil qilinmas ekan, barqarorlikka erishish strategiyalarini ishlab chiqish imkonsizdir.

Siyosiy sabotsizlik shunchaki tartibsizlik, namoyishlar yoki hokimiyat almashinuvi emas. Agar shunday o‘ylasak, masalaga yengil yoki tor yondashgan bo‘lamiz. Ilmiy nuqtayi nazardan u davlatning o‘z funksiyalarini samarali bajarish qobiliyati susayishi, institutlar falajlanishi va jamiyatdagi funksional aloqalarning izdan chiqishi bilan bog‘liq tizimli inqirozdir. Zamonaviy globallashuv sharoitida sabotsizlik ko‘p hollarda “zanjir reaksiyasi” xarakteriga ega bo‘lib, bir mamlakatdagi beqarorlik mintaqaviy va hatto global xavfsizlikka tahdid solishi mumkin.

Ilmiy nuqtayi nazardan “sabot” tushunchasi tizimli tahlil doirasida qaralganda, u muayyan ijtimoiy, siyosiy yoki iqtisodiy tizimning tashqi va ichki muhitda yuzaga keladigan o‘zgarishlarga qaramasdan, o‘zining asosiy tuzilmaviy parametrlari, institutsional mexanizmlari va funksional aloqalarini saqlab qolish qobiliyatini anglatadi. Bunday holatda tizim o‘zining identifikatsiya xususiyatlarini yo‘qotmaydi, boshqaruv jarayonlari izchil davom etadi va qaror qabul qilish mexanizmi izdan chiqmaydi. Demak, sabot – bu statik holat emas, balki dinamik muvozanatdir, ya’ni o‘zgarishlar sharoitida barqarorlikni ta’minlash qobiliyatidir.

Siyosiy barqarorlik – bu tizimning o‘z funksional yaxlitligini saqlab qolish, o‘zgaruvchan muhit sharoitida ham legitimlik va boshqaruv qobiliyatini ta’minlash holatidir. Sabotsizlik esa ushbu qobiliyatning yo‘qolishi bilan tavsiflanadi. Bunda tizim elementlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklar zaiflashadi yoki butunlay uziladi, institutsional muvofiqlashtirish mexanizmlari samaradorligini yo‘qotadi, boshqaruv qarorlari ijro etilmaydi yoki legitimlik inqirozi yuzaga keladi. Natijada tizim ichki ziddiyatlar ta’sirida parchalanish bosqichiga o‘tadi yoki tashqi ta’sirlarga nisbatan himoyasiz holatga tushib qoladi.

Tizimlar nazariyasining asoschilaridan biri bo‘lgan Lyudvig fon Bertalanfi tomonidan ishlab chiqilgan umumiy tizimlar nazariyasiga ko‘ra, har qanday ochiq tizim ikki qarama-qarshi tendensiya ta’sirida faoliyat yuritadi. Birinchisi – gomeostaz, ya’ni tizimning ichki muvozanatini saqlashga qaratilgan mexanizmlar majmuasi. Gomeostatik jarayonlar orqali tizim o‘z strukturasini barqaror holatda ushlab turadi, ichki aloqalarni muvofiqlashtiradi va tashqi ta’sirlarga moslashish orqali o‘zini qayta tiklaydi.

Ikkinchi tendensiya esa entropiyadir. Entropiya tushunchasi dastlab termodinamika sohasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, tizimlar nazariyasi doirasida u tartibsizlikning o‘sishi, strukturaning yemirilishi va ichki muvofiqlashuvning pasayishi sifatida talqin qilinadi. Ijtimoiy-siyosiy tizimlarda entropik jarayonlar korrupsiyaning kuchayishi, institutsional ishonchning pasayishi, legitimlik inqirozi, elitalar o‘rtasidagi ixtiloflar va ommaviy norozilik harakatlari orqali namoyon bo‘ladi.

Siyosiy sabotsizlik aynan entropik tendensiyalar gomeostatik mexanizmlardan ustun kelgan sharoitda yuzaga chiqadi. Agar tizim o‘zini yangilash, institutsional islohotlar orqali ichki muammolarni bartaraf etish yoki tashqi bosimlarga moslashish qobiliyatini namoyon eta olmasa, entropiya jarayoni tezlashadi va sabotsizlik institutsional inqiroz shaklida namoyon bo‘ladi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, siyosiy barqarorlikni ta’minlash – bu faqat tartibni saqlash emas, balki tizimning adaptiv salohiyatini oshirish, institutsional mustahkamlikni ta’minlash va gomeostatik mexanizmlarni kuchaytirish demakdir. Barqaror tizimlar entropiyani to‘liq bartaraf eta olmaydi, ammo uni nazorat ostida ushlab turish va konstruktiv transformatsiyaga yo‘naltirish orqali o‘zining uzoq muddatli yashovchanligini ta’minlaydi.

Sabotsizlikning ijtimoiy tabiati, eng avvalo, jamiyatdagi me’yoriy-qiymatiy tizimning izdan chiqishi bilan bog‘liqdir. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi qadriyatlar, normalar va institut-

sional mexanizmlar jamiyatning integrativ asosini tashkil etadi. Ularning inqirozi esa ijtimoiy tartibning zaiflashuviga olib keladi. Bu holat sotsiologiya klassiklaridan biri bo‘lgan E. Dyurkgeym tomonidan “anomiya” tushunchasi orqali izohlangan.

E. Dyurkgeym anomiyani me’yoriy vakuum holati sifatida tavsiflaydi, ya’ni eski normalar o‘z regulyativ funksiyasini yo‘qotgan, yangilari esa hali institutsionallashmagan davrda ijtimoiy tizim muvozanatdan chiqadi. Bu jarayon modernizatsiya, iqtisodiy o‘zgarishlar yoki siyosiy transformatsiya sharoitida ayniqsa kuchli namoyon bo‘ladi. Anomiya sharoitida individlar va guruhlar harakatlari umumiy qoidalar bilan emas, balki parokanda manfaatlar bilan boshqariladi. Natijada ijtimoiy sabotsizlik yuzaga keladi. Bu holat siyosiy sohada aks etganda, davlat boshqaruvi mexanizmi legitimlik va nazorat resurslarini yo‘qota boshlaydi, hokimiyat qarorlarining ijtimoiy qabul qilinishi pasayadi.

Siyosiy fanlarda sabotsizlikni anglash uchun bir necha fundamental nazariy yondashuvlarga tayanish lozim.

Birinchi yondashuv – funksionalizm maktabi bo‘lib, uning asosiy namoyandasi T. Parsons hisoblanadi. Parsons ijtimoiy tizimni o‘z funksiyalari orqali barqarorlikni ta’minlaydigan murakkab struktura sifatida ko‘radi. Uning AGIL modeliga ko‘ra, har qanday tizim to‘rtta asosiy funksiyani bajarishi kerak:

A – moslashish (Adaptation);

G – maqsadga erishish (Goal attainment);

I – integratsiya (Integration);

L – latentlikni saqlash yoki qiymatlarni uzatish (Latency/Pattern maintenance).

Agar siyosiy tizim iqtisodiy va tashqi muhit talablariga moslasha olmasa (A), jamiyat oldiga qo‘yilgan strategik maqsadlarni amalga oshirishda samarasiz bo‘lsa (G), ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlay olmasa (I) yoki qadriyatlar tizimini saqlab qololmasa (L), u holda sabotsizlik muqarrar ravishda yuzaga keladi. Bu nuqtayi nazardan sabotsizlik – tizim funksiyalarining disfunksiyasi hisoblanadi.

Ikkinchi yondashuv – konfliktologik paradigmadir. Ushbu maktab vakillari, jumladan R. Darendorf va L. Kozer, ijtimoiy sabotsizlikni manfaatlar to‘qnashuvining tabiiy va hatto zaruriy bosqichi sifatida talqin qiladilar. Darendorf nazariyasiga ko‘ra, har qanday ijtimoiy tuzilma hokimiyat munosabatlariga asoslanadi va ushbu munosabatlar doimo potensial konflikt manbayi hisoblanadi. Konflikt ochiq fazaga chiqqan paytda u sabotsizlik ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Biroq Kozer ta’kidlaganidek, konflikt har doim ham destruktiv emas; u institutsional kanallar orqali hal etilganda tizimni yangilaydi va mustahkamlaydi. Agar konflikt institutsional mexanizmlar bilan tartibga solinmasa, u tizimni yemiruvchi sabotsizlikka aylanadi. Demak, sabotsizlik – bu boshqarilmagan konfliktdir.

Uchinchi yondashuv – psixologik paradigma bo‘lib, uning asoschilaridan biri **Ted Garr** hisoblanadi. Uning **“Why Men Rebel”** asarida sabotsizlikning manbayi sifatida “nisbiy mahrumlik” konsepsiyasi ilgari suriladi. Bu tushuncha odamlarning real hayotiy sharoiti bilan ular loyiq deb hisoblagan yoki kutayotgan sharoit o‘rtasidagi farqni anglatadi.

Nisbiy mahrumlik obyektiv kambag‘allikka emas, balki subyektiv adolatsizlik hissiga asoslanadi. Agar jamiyatda imkoniyat va resurslar taqsimoti haqida adolatsizlik tasavvuri kuchaysa, bu norozilikni institutsional doiradan chiqarib, ommaviy harakatlar va siyosiy qo‘zg‘olonlarga olib kelishi mumkin. Farq qanchalik katta bo‘lsa, sabotsizlik ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi.

Shu tariqa, ijtimoiy sabotsizlikni kompleks anglash uchun me’yoriy inqiroz (anomiya), funksional disfunksiya, manfaatlar konflikti va nisbiy mahrumlik kabi turli nazariy konsepsiyalarni o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Sabotsizlik bir omil tufayli emas, balki tizimli sabablar yig‘indisi bilan yuzaga keladi.

**Sabotsizlikning ichki strukturasi va darajalari.**

Sabotsizlikni ilmiy tahlil qilish uning ko‘pqatlamli va iyerarxik tabiatini hisobga olishni talab etadi. Siyosiy tizim murakkab institutsional, normativ va kommunikatsion aloqalar majmuasidan iborat bo‘lgani uchun sabotsizlik ham turli darajalarda namoyon bo‘ladi.

**1. Mikro-sabotsizlik** – bu alohida davlat organlari, mahalliy boshqaruv tuzilmalari yoki muayyan institutsional segmentlarda yuzaga keladigan nomutanosibliklardir. Masalan, mahalliy hokimiyat organlarida korrupsiyaning kuchayishi, sud tizimidagi ishonch inqirozi yoki ma’muriy resurslarning samarasiz taqsimlanishi mikro

darajadagi sabotsizlikni anglatadi. Bu holat butun tizimni darhol yemirmaydi, ammo “institutsional charchoq”ni keltirib chiqaradi va yuqori darajalarga tarqalish xavfini oshiradi.

**2. Mezo-sabotsizlik** – siyosiy elitalar ichidagi raqobat, partiyalararo to‘qnashuvlar, hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi ziddiyatlar bilan bog‘liq. Bu darajada sabotsizlik tizimning markaziy integrativ mexanizmlarini zaiflashtiradi. Masalan, parlament va ijro hokimiyati o‘rtasidagi konstitutsiyaviy inqiroz, elitalarning legitimlik uchun kurashi yoki xavfsizlik tuzilmalari ichidagi parchalanish mezo darajadagi xavf hisoblanadi. Agar bu ziddiyatlar institutsional tartibda hal etilmasa, ular makro-sabotsizlikka olib chiqishi mumkin.

**3. Makro-sabotsizlik** – butun davlat apparatining falajlanishi, konstitutsiyaviy tuzumning xavf ostida qolishi, ommaviy tartibsizliklar, davlat suverenitetining zaiflashuvi bilan tavsiflanadi. Bu bosqichda tizim gomeostatik mexanizmlarini deyarli yo‘qotadi, boshqaruv vertikali ishlamay qoladi, ijtimoiy shartnoma buziladi. Inqiloblar, fuqarolik urushlari yoki davlat parchalanishi makro-sabotsizlikning ekstremal shakllaridir.

### Iqtisodiy determinantizm va siyosiy barqarorlik

Siyosiy barqarorlikni tushunishda iqtisodiy omillar markaziy o‘rin tutadi. Iqtisodiy determinantizm yondashuviga ko‘ra, iqtisodiy rivojlanish darajasi siyosiy institutlarning mustahkamligi va legitimligi bilan bevosita bog‘liq. Bu g‘oyani ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan biri – **Seymour Martin Lipset**. Uning nazariyasiga ko‘ra, iqtisodiy farovonlik, o‘rta sinfning kengayishi va ta’lim darajasining oshishi demokratik institutlarni mustahkamlaydi va siyosiy barqarorlikni ta’minlaydi. Biroq amaliyot bu bog‘liqlik doimo to‘g‘ri ishlamasligini ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘sish barqarorlikning zarur sharti bo‘lishi mumkin, ammo yetarli sharti emas. Resurslarga boy, ammo diversifikatsiya qilinmagan iqtisodiyotga ega davlatlarda **“resurs la’nati”**(resource curse) fenomeni kuzatiladi.

Buning yaqqol misoli sifatida Venesuelani ko‘rsatish mumkin. XXI asr boshlarida ulkan neft zaxiralariga ega bo‘lgan bu davlat iqtisodiy potensialga qaramasdan, chuqur siyosiy sabotsizlikka duch keldi. Iqtisodiyotning neft eksportiga mutlaq bog‘lanib qolishi (“Golland kasalligi”), davlat budjeti orqali populistik ijtimoiy dasturlarning moliyalashtirilishi va xususiy sektor erkinliklarining cheklanishi iqtisodiy muvozanatni buzdi. Natijada giperinflyatsiya, milliy valyuta qadrsizlanishi va ommaviy kambag‘allashuv ro‘y berdi.

Iqtisodiy inqiroz legitimlik inqiroziga aylanib, siyosiy polyarizatsiyani kuchaytirdi va ommaviy norozilik harakatlariga turtki berdi. Bu holat iqtisodiy sabotsizlik siyosiy sabotsizlikning poydevoriga aylanishi mumkinligini namoyon qiladi.

### Modernizatsiya va S. Xantington dilemmasi

Siyosiy sabotsizlikni tushunishda modernizatsiya nazariyasi muhim ahamiyatga ega. **S.Hantington** o‘zining “Political Order in Changing Societies” asarida sabotsizlikning asosiy sababi qashshoqlik emas, balki ijtimoiy mobilizatsiya va institutsional rivojlanish o‘rtasidagi nomutanosiblik ekanini ta’kidlaydi.

Hantingtonga ko‘ra, modernizatsiya jarayonida ta’lim darajasi oshadi, axborot oqimi kengayadi, urbanizatsiya kuchayadi va fuqarolarning siyosiy hayotda ishtirok etishga intilishi ortib boradi. Ya’ni ijtimoiy ong va talablar o‘sadi. Ammo agar siyosiy institutlar bu o‘sish sur’atiga mos ravishda isloh qilinmasa, ular yangi talablarni qondirishga qodir bo‘lmaydi. Natijada “institutsional vakuum” yuzaga keladi va tizim portlaydi.

Bu dilemma quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin:

**ijtimoiy mobilizatsiya sur’ati > institutsionalizatsiya sur’ati = sabotsizlik xavfi.**

Shu ma’noda, sabotsizlik ko‘pincha orqada qolish emas, balki tez rivojlanish va yangilanish sharoitida yuzaga keladi. Demak, siyosiy barqarorlikni ta’minlash uchun davlat nafaqat iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi, balki institutlarning sifat jihatdan mustahkamlanishini ham ta’minlashi zarur.

### Elitalar raqobati va “o‘yin qoidalari”ning buzilishi

Siyosiy sabotsizlikning eng xavfli ko‘rinishlaridan biri elitalar darajasidagi parchalanishdir. Ilmiy adabiyotlarda bu holat “elitalar fragmentatsiyasi” deb ataladi. Barqaror tizimlarda iqtisodiy, harbiy va byurokratik elitalar o‘rtasida resurslar,

vakolatlar va siyosiy ta’sirni taqsimlash bo‘yicha yozilmagan konsensus mavjud bo‘ladi. Ushbu konsensus – institutsionallashgan yoki norasmiy “o‘yin qoidalari” – raqobatni boshqariladigan doirada ushlab turadi.

Sabotsizlik quyidagi sharoitlarda kuchayadi:

➤ **Resurslar qisqarganda**: iqtisodiy inqiroz yoki budjet tanqisligi sharoitida elita ichidagi raqobat “nol summa” o‘yiniga aylanadi; kelishuvlar parchalanadi va koalitsiyalar tez-tez almashadi.

➤ **Hokimiyat tranziti davrida**: vorislik mexanizmi aniq bo‘lmasa, ishonchsizlik ortib, “oldindan himoyalanish” strategiyalari ustuvor bo‘ladi; bu qaror qabul qilish jarayonini falajlaydi.

➤ **Manfaatlar to‘qnashuvida**: islohotchilar va status-kvoni himoya qiluvchilar o‘rtasidagi qarama-qarshilik davlat apparatining strategik yo‘nalishini yo‘qotishiga olib keladi.

Elita parchalanishi, ayniqsa, xavfsizlik tuzilmalari va sud-huquq blokida yuzaga kelganda, tizimning legitimlik va qudrat monopoliyasi kabi asosiy ustunlari izdan chiqishi mumkin.

### Institusional zaiflik va “zaif davlat” fenomeni

Institutsionalizm nuqtayi nazaridan, mustahkam institutlar (qonun ustuvorligi, mustaqil sud, erkin saylovlar, mas’uliyatli parlament) norozilikni “siyosiy yechim”ga aylantiruvchi filtr vazifasini o‘taydi. Zaif institutlar esa konfliktni institutsional kanallardan chiqarib, ko‘cha va norasmiy maydonga surib qo‘yadi.

Ilmiy muomalada “zaif davlat” konsepsiyasi keng qo‘llanadi. Bu borada Francis Fukuyama davlat salohiyati (state capacity) va institutsional sifatni barqarorlikning kaliti sifatida ko‘radi; Robert I.Rotberg esa davlatning xavfsizlik, adolat va xizmat ko‘rsatish funksiyalarini bajara olmasligi uning yemirilishiga olib kelishini ta’kidlaydi.

Institutlar zaiflashganda:

– siyosiy kurash parlament va sud emas, ko‘cha orqali hal etiladi;

– qonun emas, shaxsiy aloqalar va kuch ustuvor bo‘ladi;

– davlat korrupsiya bosimi ostida ijtimoiy majburiyatlarini bajara olmaydi.

Bu jarayon “davlat yemirilishi”ning qaytmas nuqtasiga olib borishi mumkin.

XXI asrda sabotsizlik dinamikasi raqamli muhit ta’sirida tezlashdi. “Axborot kaskadlari” sharoitida odamlar mustaqil tekshirilgan faktlardan ko‘ra ommaviy hissiyot va tarmoq trendlariga ergashadi. Dezinformatsiya va viral kontent qisqa vaqt ichida ommaviy mobilizatsiyaga sabab bo‘lishi mumkin.

Cass Sunstein axborot kaskadlari va “exo-kamera”lar jamoat fikrini polyarizatsiya qilishini ko‘rsatadi. Raqamli maydonda norozilik tez institutsional filtrlardan chiqib, real ko‘chalarga transformatsiya bo‘ladi. Davlatning an’anaviy kommunikatsiya usullari bunday tezkor dinamikaga moslashmasa, boshqaruvsizlik xavfi ortadi.

### Tashqi ta’sir va “gibrid sabotsizlik”

Zamonaviy siyosatshunoslik sabotsizlikni faqat ichki omillar bilan cheklamaydi. “Gibrid urush” strategiyasida tashqi aktorlar axborot operatsiyalari, iqtisodiy bosim, kibertahdid va ichki ziddiyatlarni rag‘batlantirish orqali davlatni boshqarib bo‘lmaydigan holatga keltirishni maqsad qiladi.

Bu borada Frank G.Hoffman gibrid urushni harbiy va noharbiy vositalar uyg‘unligi sifatida ta’riflaydi. Maqsad – hududni bosib olish emas, balki qaror qabul qilish qobiliyatini izdan chiqarishdir. Ichki zaifliklar (etnik, diniy, ijtimoiy) tashqi ta’sir uchun “kirpichlar”ga aylanadi.

### Repressiv va demokratik modellar tahlili

Davlatlar sabotsizlikka ikki asosiy model orqali javob qaytaradi:

**1. Vertikal (qattiq) nazorat:** kuch ishlatish, senzura va favqulodda choralar orqali tartibni tiklashga urinish. Bu qisqa muddatli barqarorlik berishi mumkin, ammo muammolarni hal qilmaydi; tizim “qattiq”lashadi va mo‘rtlashadi.

**2. Institutsional moslashuv:** islohotlar, inklyuziv siyosat va hisobdorlik mexanizmlari orqali norozilikni siyosiy jarayonga integratsiya qilish. Bu yo‘l tizimning adaptiv salohiyatini oshiradi va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi.

Siyosiy sabotsizlik – tizimning o‘limi emas, balki uning adaptiv sinovidir. U qayta yangilanish imkoniyatini ham, yemirilish xavfini ham o‘zida mujassam etadi. Ilmiy tahlillar quyidagi ustun yo‘nalishlarni ko‘rsatadi:

➤ **Elitalar konsensusi** – yangi “o‘yin qoidalari”ni institutsionallashtirish va vorislik mexanizmlarini aniqlash.

➤ **Ijtimoiy shartnomani yangilash** – davlat va jamiyat o‘rtasida ishonchni qayta tiklash, inklyuzivlikni oshirish.

➤ **Qonun ustuvorligi va adliya** – shaxslarga emas, institutlarga ishonchni ta’minlash.

➤ **Raqamli barqarorlik** – axborot xavfsizligi, mediasavodxonlik va tezkor strategik kommunikatsiyani rivojlantirish.

Shu tarzda, sabotsizlikni yengish kuch emas, balki institutsional sifat, elita mas’uliyati va jamiyat bilan yangilangan kelishuv orqali amalga oshiriladi.



**ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. Paxrutdinov Sh. Tahdid halokatli kuch. – Toshkent: Sharq, 2001.

# KONFUTSIYLIKDA “JUNZI” KONSEPSIYASI ASOSIDA JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASH MEXANIZMLARI

*RAXIMOVA*
*Sevara G‘ayratovna*
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Konfutsiy falsafasida musiqa (yue) va marosim (li) tizimi orqali jamiyat barqarorligini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – “junzi” (komil inson) idealida musiqa va axloqiy tarbiyaning o‘rnini ochib berishdir. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, musiqa nafaqat estetik fenomen, balki ijtimoiy uyg‘unlik, axloqiy tartib va barqarorlikni shakllantiruvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Konfutsiylik, junzi (komil inson), musiqa (yue), marosim/ritual (li), ijtimoiy barqarorlik, axloqiy mexanizmlar, ma’naviy mexanizmlar.

**АННОТАЦИЯ**

В настоящем исследовании анализируются механизмы обеспечения социальной стабильности в контексте конфуцианской философии через систему музыки (yue) и ритуала (li). Основная цель исследования заключается в том, чтобы раскрыть роль музыки и нравственного воспитания в формировании идеала «цзюньцзы» (совершенного человека). Результаты исследования демонстрируют, что музыка выступает не только как эстетическое явление, но и как важный инструмент формирования социальной гармонии, нравственного порядка и устойчивой стабильности.

**Ключевые слова:** конфуцианство, цзюньцзы (совершенный человек), музыка (yue), ритуал (li), социальная стабильность, нравственные механизмы.

**ANNOTATION**

This study analyzes the mechanisms for ensuring social stability in Confucian philosophy through the system of music (yue) and ritual (li). The main objective of the research is to reveal the role of music and moral education within the ideal of the “junzi” (perfect or noble person). The results show that music is not only an aesthetic phenomenon, but also an important mechanism for shaping social harmony, moral order, and stability.

**Key words:** Confucianism, junzi, music (yue), ritual (li), social stability, moral mechanisms.

## KIRISH

Zamonaviy globallashuv, individuallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida jamiyat barqarorligini ta’minlash muammosi tobora murakkablashib bormoqda. Mazkur masala nafaqat iqtisodiy yoki siyosiy omillar bilan, balki ma’naviy-axloqiy mexanizmlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Shu nuqtayi nazardan, jamiyat barqarorligini ta’minlashda an’anaviy iqtisodiy va siyosiy mexanizmlar bilan bir qatorda, ma’naviy-axloqiy omillarning ham roli keskin ortib borayotgani fikrimiz dalilidir.

Jamiyat barqarorligini tushuntirishda ko‘hna falsafiy ta’limotlardan qadimgi Sharq falsafasi, xususan Konfutsiy ta’limoti muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Konfutsiylikda jamiyat barqarorligi ikki asosiy tushuncha orqali izohlanadi: Li (ijtimoiy tartib, marosim, norma) hamda Yue (musiqa, uyg‘unlik, estetik muvozanat). Ushbu ikki tushuncha o‘zaro uyg‘un holda jamiyatda axloqiy tartib va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Tadqiqot muammosi shundan iboratki, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda musiqa ko‘proq estetik hodisa sifatida ko‘riladi, biroq Konfutsiylikda u ijtimoiy boshqaruv va axloqiy tarbiya vositasi sifatida talqin etiladi. Konfutsiylikdagi “junzi” ideali asosida musiqa va axloqiy mexanizmlarning jamiyat barqarorligiga ta’sirini tahlil qilish hamda bu asosda “Ma’naviy barqarorlik indeksi” metodologik modelini ishlab chiqishdir.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Konfutsiylikda musiqa va marosimning o‘rni ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Zamonaviy ilmiy manbalarda musiqa ijtimoiy uyg‘unlikni shakllantiruvchi muhim omil sifatida talqin qilinadi. Masalan  musiqani ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida ko‘rsatilgan tadqiqotchi Luo Xin o‘z tadqiqotlarida musiqa ijtimoiy va tarbiyaviy funksiyaga ega[1] ekanligi haqida yozgan bo‘lsa, boshqa tadqiqotda “li” va “yue” o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik axlo-

[1] https://bryanhousepub.com/index.php/jrve/article/view/2902/2807



qiy mukammallikning asosi sifatida izohlangan. Tadqiqotchilar Yi Wang va Xiaowei Fu "li" va "yue" birgalikda axloqiy mukammallikni shakllantiradi[2], degan fikrni ilgari surishadi. Ular tadqiqotlarida "Konfutsiy "Chjouga ergashish" kerakligini ta'kidlaydi" deb yozadilar. Ya'ni, u asosan musiqa tarbiyasiga asoslangan, marosimiy me'yorlar bilan to‘ldirilgan ushbu g‘oyani tiklash va davom ettirishni istagan. Uning quyidagi fikri ham bunga dalildir: "Avvalo inson she'rlar orqali ruhlantiriladi, so‘ng marosim (li)ni o‘rganish orqali mustahkam asosga ega bo‘ladi va nihoyat musiqa (yue) orqali kamol topadi"deb yozishgan.

Konfutsiylikda marosim va ijtimoiy tartib masalalari tadqiqotchi Hagop Sarkissian ishda keng tahlil qilingan, u "musiqa inson xulq-atvorini o‘zgartiruvchi kuchli vosita hisoblanadi[3]" degan fikrni ilgari suradi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy barqarorlik ijtimoiy ishonch, qadriyatlar tizimi, axloqiy normalar bir qator omillar bilan bog‘liq. Bu esa Konfutsiylikdagi yondashuv bilan uyg‘unlikni ko‘rsatadi. Shuningdek, Konfutsiy shunday ta'kidlaydi: inson tarbiyasi she'r bilan boshlanadi, marosim bilan mustahkamlanadi va musiqa bilan mukammallashadi. Bu fikr musiqa yakuniy axloqiy kamolot bosqichi ekanligini ko‘rsatadi[4]. Yana bir tadqiqotlar Pang Wenyi esa "musiqa va marosim tizimi qadimgi Xitoyda siyosiy boshqaruv vositasi bo‘lgan[5]" deydi. Galia Patt-Shamir esa o‘z maqolasida "uyg‘unlik" ijtimoiy tartibning asosiy prinsipi hisoblanadi[6] degan fikrni olg‘a suradi.

**NAZARIY ASOS**. "Junzi" ideali haqida fikr yuritar ekanmiz Konfutsiylikda "junzi" – bu axloqiy mukammal shaxs, ijtimoiy javobgarlikka ega individ, jamiyat barqarorligining subyekti, Junzi adolat, halollik, mehr-shafqat, o‘zini nazorat qilish kabi fazilatlarni mujassamlashtiradi. Musiqa (yue)ning falsafiy mohiyati qanday? Konfutsiylikda musiqa inson ruhiyatini muvozanatlashtiradi shuningdek, axloqiy ongni shakllantiradi hamda jamiyatda uyg‘unlikni ta'minlaydi. Musiqa ayni paytda nafaqat estetik, balki ijtimoiy institut ham hisoblanadi.

Li va Yue tizimida element va funksiya tushunchalari mavjud bo‘lib, Li –tartib, norma, ijtimoiy nazorat deb tushunilsa, Yue – uyg‘unlik, hissiy balans hisoblanadi. Ular birgalikda ijtimoiy barqarorlik mexanizmini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kompleks ilmiy yondashuv asosida tarixiy-falsafiy tahlil, komparativ metod, konseptual modellashtirish hamda indeks metodologiyasi qo‘llanildi. Tarixiy-falsafiy tahlil orqali Konfutsiy ta'limotining ma'naviy-axloqiy asoslari genezisi o‘rganildi, komparativ yondashuv yordamida esa an'anaviy va zamonaviy nazariyalar o‘zaro taqqoslandi. Konseptual model qurish orqali jamiyat barqarorligini ta'minlovchi omillar tizimlashtirildi, indeks metodologiyasi esa ushbu omillarni empirik o‘lchash imkonini berdi.

Tadqiqotning manbaviy bazasini "Analects" asari, shuningdek, "Web of Science va Google Scholar" bazalarida indekslangan zamonaviy ilmiy maqolalar, sotsiologik hamda falsafiy tadqiqotlar tashkil etadi.

Mazkur maqolada jamiyatning ma'naviy holatini baholashga qaratilgan Ma'naviy barqarorlik indeksi (MSI) taklif etiladi. Indeks quyidagi funksional model asosida ifodalanadi: MSI = f(M1, M2, M3, M4, M5)

Soddalashtirilgan ko‘rinishda esa: MSI = (M1 + M2 + M3 + M4 + M5) / 5

Indeks tarkibiy komponentlari quyidagilardan iborat:

M1 – Axloqiy qadriyatlar halollik, adolat, mas'uliyat;

M2 – Ijtimoiy ishonch interpersonal ishonch, institutsional ishonch;

M3 – Ma'naviy ong qadriyatlarga sodiqlik, hayot mazmuni;

M4 – Ijtimoiy birdamlik hamkorlik, solidaritet;

M5 – Xulq-atvor barqarorligi normaga rioya, deviantlik darajasi.

Shuningdek, indeksning og‘irlik

---

2 https://www.pdcnet.org/pdc/bvdb.nsf/purchase26? openform&fp=wcp23&id=wcp23_2018_0009_0081_0087

3 https://www.researchgate. net/publication/367468198_Confucianism_and_Ritual

4 https://www.pdcnet.org/pdc/bvdb.nsf/purchase26? openform&fp=wcp23&id=wcp23_2018_0009_0081_0087

5 https://www.clausiuspress. com/article/9930.html

6 https://www.mdpi.com/2077-1444/13/11/1063

koeffitsiyentlari hisobga olingan kengaytirilgan matematik modeli ham taklif etiladi:

$$MSI = (w1M1 + w2M2 + w3M3 + +w4M4 + w5M5)$$

bu yerda w – komponentlarning nisbiy ahamiyatini ifodalovchi og‘irlik koeffitsiyentlaridir.

Empirik o‘lchov jarayonida Likert shkalasidan (1–5 ball) foydalanildi, bunda 1 – past daraja, 5 – yuqori darajani anglatadi. Statistik tahlil doirasida regressiya tahlili, faktor tahlili hamda ishonchlilikni baholash uchun “Cronbach alpha” koeffitsiyenti qo‘llanildi. Mazkur metodlar indeksning ichki muvofiqligi va empirik ishonchliligini aniqlash imkonini beradi.

## NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar Konfutsiylik ta’limotida “junzi” konsepti markaziy o‘rin egallashini ko‘rsatdi. “Junzi” – bu axloqan yetuk shaxs, jamiyat uchun normativ ideal va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Uning shakllanishida musiqa alohida ahamiyat kasb etadi.

Konfutsiylikda musiqa (yue) individual darajadagi ma’naviy-axloqiy mexanizm sifatida talqin etilib, u bir qator muhim funksiyalarni bajaradi: emotsional muvozanatni ta’minlash, axloqiy tarbiya va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlash. Musiqa inson hissiyotlarini tartibga solib, ichki barqarorlikni shakllantiradi, hissiy muvozanatni ta’minlaydi va axloqiy rivojlanishni rag‘batlantiradi. Shu orqali inson yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqni chuqurroq anglaydi hamda ijobiy xulq-atvorni tanlaydi. Bundan tashqari, musiqa jamiyatda birlik, hamjihatlik va o‘zaro ishonch muhitini shakllantiradi.

Marosim (li) esa ijtimoiy darajadagi tartibga soluvchi mexanizm bo‘lib, u ijtimoiy tartibni saqlash, xulq-atvorni normativ jihatdan boshqarish va nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Musiqa va marosimning o‘zaro integratsiyasi natijasida jamiyat barqarorligining yaxlit modeli shakllanadi. Konfutsiylikda “Li + Yue” konsepsiyasi aynan shu birlikni ifodalaydi: “li” – tartibni, “yue” esa uyg‘unlikni anglatadi. Ularning uyg‘unlashuvi ijtimoiy barqarorlikning nazariy va amaliy modelini yuzaga keltiradi.

Ilmiy manbalarda bu g‘oya quyidagicha ifodalanadi: “Ritual is order, music is harmony”, ya’ni marosim – tartib, musiqa – uyg‘unlikdir. Ushbu yondashuv asosida xulosa qilish mumkinki, musiqa individual (mikro) darajada, marosim esa ijtimoiy (makro) darajada barqarorlikni ta’minlovchi o‘zaro bog‘liq mexanizmlar sifatida amal qiladi.

## MUHOKAMA

Konfutsiy modeli zamonaviy jamiyat sharoitida axloqiy inqirozlarga qarshi samarali ma’naviy-institutsional mexanizm sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur model ijtimoiy ishonchni tiklash, jamiyatda normativ qadriyatlarni mustahkamlash hamda ma’naviy kapitalni oshirishning konseptual asoslarini taqdim etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Konfutsiylik an’anasida musiqa fenomeni oddiy estetik hodisa doirasidan chiqib, ijtimoiy tartibni muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchi muhim mexanizm sifatida talqin etiladi.

Hozirgi globallashuv va transformatsion jarayonlar fonida ijtimoiy ishonch darajasining pasayishi hamda axloqiy qadriyatlarning nisbatan zaiflashuvi kuzatilmoqda. Ushbu holat jamiyat barqarorligini ta’minlashda ma’naviy omillarning ustuvorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu nuqtayi nazardan, ma’naviy-axloqiy mexanizmlar ijtimoiy barqarorlikning fundamental asoslaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi va Konfutsiy modeli mazkur jarayonni nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot doirasida musiqa ma’naviy mexanizm sifatida talqin qilinadi, “junzi” konsepti esa ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi subyekt sifatida asoslanadi. Konfutsiylik umumiy nazariy platforma vazifasini bajaradi, Ma’naviy barqarorlik indeksi (MSI) esa ushbu nazariy yondashuvni empirik darajada o‘lchash va tahlil qilishga xizmat qiluvchi amaliy instrument sifatida taklif etiladi. Ishlab chiqilgan indeks orqali ma’naviy jarayonlarni miqdoriy baholash imkoniyati yaratiladi, bu esa jamiyat barqarorligini kompleks tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**XULOSA**

Mazkur tadqiqot natijalari Konfutsiylik ta’limotida jamiyat barqarorligini ta’minlashning o‘ziga xos va kompleks modeli mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Xususan, “li” (marosimiy tartib) va “yue” (musiqiy uyg‘unlik) tizimining o‘zaro integratsiyasi ijtimoiy hayotda normativ tartib va ma’naviy muvozanatni ta’minlovchi fundamental mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ikki komponentning uyg‘unligi natijasida jamiyatda nafaqat tashkiliy-intizomiy tartib, balki ichki ruhiy barqarorlik ham shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida “junzi” konsepsiyasi ijtimoiy barqarorlikning asosiy subyekti sifatida asoslab berildi. “Junzi” – bu axloqiy mukammallikka intiluvchi, jamiyat oldidagi mas’uliyatni anglaydigan va o‘z xulq-atvori orqali ijtimoiy muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsdir. Uning shakllanishida musiqa muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qiladi, chunki u insonning hissiy, axloqiy va ma’naviy rivojlanishiga kompleks ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqotda musiqa individual (mikro) darajadagi ma’naviy mexanizm, marosim esa ijtimoiy (makro) darajadagi tartibga soluvchi institut sifatida talqin qilindi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi jamiyatda barqarorlikning tizimli modelini yuzaga keltiradi. Bu yondashuv Konfutsiylikni faqat falsafiy ta’limot sifatida emas, balki ijtimoiy boshqaruvning samarali konseptual modeli sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ilmiy yangilik sifatida taklif etilgan Ma’naviy barqarorlik indeksi (MBI) jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy jarayonlarni empirik o‘lchash va baholash imkonini beruvchi muhim metodologik instrument hisoblanadi. Mazkur indeks orqali axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy ishonch, ma’naviy ong, ijtimoiy birdamlik va xulq-atvor barqarorligi kabi omillar kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Umuman olganda, Konfutsiylikdagi “Li+Yue” modeli zamonaviy jamiyatda ijtimoiy ishonchni tiklash, axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni ta’minlashda dolzarb nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvni zamonaviy ijtimoiy siyosat va ma’naviy-ma’rifiy tizimlarga integratsiya qilish jamiyat barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Luo Xin. The Contribution of Confucian Music Thought System to Chinese Ritual and Music Civilization
https://bryanhousepub.com/index.php/jrve/article/view/2902
2. Wang Yi, Fu Xiaowei. Confucius on the Relation between Beauty (Yue) and Goodness (Li)
https://www.pdcnet.org/wcp23/content/wcp23_2018_0009_0081_0087
3. Pang Wenyi. The Transition of Early Chinese Ritual and Music Systems
https://www.clausiuspress.com/article/9930
4. Confucianism and Ritual https://www.researchgate.net/publication/367468198
5. The Voice of Peace: Philosophical Musicality in Confucianism
https://www.mdpi.com/2077-1444/13/11/1063
6. Confucian Music Thought System https://bryanhousepub.com
7. Relation between Li and Yue https://pdcnet.org
8. Social Cohesion Theory https://scholar.google.com
9. Moral Order Studies https://cyberleninka.ru

# MAHALLIY BOSHQARUVNI ISLOH QILISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI: YEVROPA MODELLARI, “RAQAMLI HUKUMAT” VA VERTIKALLASHUV

*QODIROV*
*Utkir G‘ayratovich,*
*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi*

**ANNOTATSIYA**

Maqolada jahon tajribasida mahalliy boshqaruvni transformatsiya qilish yo‘nalishlarini qiyosiy tahlil qilingan. Fransiya va Buyuk Britaniya misolida desentralizatsiya, vakolatlarni kengaytirish hamda koordinatsiya mexanizmlari yoritiladi. Singapurning “raqamli hukumat” orqali mahalliy xizmatlarni boshqarish modeli yoritilgan. Rossiya Federatsiyasida vertikallashuv va moliyaviy qaramlik omillari, Qozog‘istonda esa vakolatlarni bosqichma-bosqich kengaytirish va saylov mexanizmlarining rivojlanishi tahlil qilinadi. Xulosa sifatida, ko‘plab mamlakatlarda vakolatlar taqsimotining gorizontallashuvi ustuvor bo‘lib qolayotgani, biroq vakolatlar kesishuvi va xarajatlar o‘sishi xavflari saqlanib qolayotgani qayd etiladi.

**Kalit so‘zlar:** mahalliy boshqaruv, desentralizatsiya, vakolatlar taqsimoti, gorizontal boshqaruv, vertikallashuv, raqamli hukumat, moliyaviy barqarorlik, munisipal institutlar.

**АННОТАЦИЯ**

Статья в сравнительном формате анализирует трансформацию местного управления. На примерах Франции и Великобритании раскрываются децентрализация, расширение полномочий и механизмы координации. Опыт Сингапура показывает модель управления местными услугами через цифровое правительство при сохранении централизованного контроля. Для Российской Федерации рассматриваются вертикализация и финансовая зависимость, для Казахстана — постепенное расширение компетенций и развитие выборных процедур. Делается вывод о преобладании тенденции к более горизонтальному распределению полномочий при сохранении рисков пересечения функций и роста расходов.

**Ключевые слова:** Местное управление, местное самоуправление, децентрализация, распределение полномочий, горизонтализация, вертикализация, цифровое правительство, бюджетная устойчивость.

## ANNOTATION

This article provides a comparative analysis of local governance transformation. France and the UK illustrate decentralization, expanded local responsibilities, and coordination mechanisms. Singapore demonstrates a digital government approach to managing local services under close central oversight. The Russian Federation is discussed in terms of verticalization and fiscal dependence, while Kazakhstan reflects a gradual expansion of local powers alongside evolving electoral procedures. The article concludes that a more horizontal allocation of powers is a prevailing trend, although risks of overlapping mandates and rising costs remain.


**Key words:** Local governance, decentralization, allocation of powers, horizontal governance, verticalization, digital government, intergovernmental coordination, fiscal sustainability.

## KIRISH
## (Introdustion)

So‘nggi o‘nyilliklarda mahalliy boshqaruv tizimlari davlat boshqaruvining umumiy samaradorligi, hududiy rivojlanish sur’atlari hamda jamoatchilik xizmatlari sifati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim institutsional omil sifatida tubdan transformatsiya qilinmoqda. Zamonaviy islohotlarning markaziy yo‘nalishi vakolat va moliyaviy resurslarni hududiy bo‘g‘inlarga oqilona hamda aniq mezonlar asosida taqsimlash, qaror qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlar ishtirokini kengaytirish, davlat xizmatlarini raqamli platformalar orqali standartlashtirish va shaffoflashtirishdan iborat bo‘lib bormoqda. Shu bilan birga, markaz va hudud o‘rtasidagi vakolatlar muvozanatini qayta ko‘rib chiqish, hisobdorlik mexanizmlarini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash transformatsiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ushbu maqolada Fransiya, Buyuk Britaniya, Singapur, Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘iston tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, mahalliy boshqaruvni transformatsiya qilishning asosiy tendensiyalari aniqlanadi. Tahlil markaziy va mahalliy bo‘g‘inlar o‘rtasidagi vakolatlar muvozanati, boshqaruvning koordinatsiya mexanizmlari, moliyaviy barqarorlik hamda raqamlashtirishning institutsional oqibatlariga qaratiladi. Shu asosda, vakolatlarni kengaytirish har doim ham avtomatik samaradorlik bermasligi, aniq taqsimot va moliyaviy intizom bo‘lmasa, xarajatlar o‘sishi va mas’uliyatning “tarqalishi” kabi xatarlar kuchayishi ko‘rsatiladi.

Qayd etish lozimki, Fransiya mahalliy boshqaruv sohasida boy tajribaga ega. Mahalliy boshqaruv – Fransiyada azaldan markaziy hokimiyat ta’sirining yuqoriligi bilan xarakterlanib kelgan. Biroq 1982-yilgi “Densentrallashuv (desentralizatsiya) to‘g‘risida”gi qonun mahalliy boshqaruv sohasida markaziy hokimiyat

vakolatlarining kamayib, mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarining tadrijiy oshib borish jarayoniga debocha bo‘ldi[1]. Shundan e’tiboran, Fransiyada uch bo‘g‘inli mahalliy boshqaruv tizimi ishga tushdi. Unga ko‘ra, mahalliy boshqaruv kommunalar, departamentlar va mintaqalar kabi uch bo‘g‘indan iborat.

Mahalliy boshqaruv organlari jamoatchilik korporatsiyasi sifatida o‘z budjeti, nomi, hududi, xodimlariga ega bo‘lib, muayyan darajada markaziy hokimiyatdan mustaqil qaror qabul qilish vakolatlari taqdim etilgan. Shunga asosan aytish mumkinki, Fransiyada mahalliy boshqaruvni transformatsiya qilishning fransuz modeli jamoatchilik masalalarida umumiy majburiyatlar va boshqaruv jarayonida turli manfaatdor tomonlar ishtirokini ta’minlash konsepsiyasi ustiga qurilgan. Ushbu g‘oya qaror qabul qilishdan tortib, resurslar taqsimotiga qadar aksariyat vakolatlarni markaziy hokimiyatdan mahalliy boshqaruv organlariga o‘tkazishni nazarda tutadi[2].

Kommunalar – asosiy mahalliy boshqaruv funksiyalarini o‘zida jamlagan. Kommunalar boshqaruvi munisipal kengash tomonidan amalga oshirilib, kommuna aholisiga qarab kengash a’zolari farqlanadi: aholi soni 100 dan kam kommunalarning munisipal kengashi a’zolari 9 nafargacha, 300 mingdan ortiq aholiga ega kommunalar munisipal kengashlari a’zolari ko‘pi bilan 69 nafar bo‘lishi belgilangan. Kengashga “mayor” rahbarlik qilib, quyidagi majburiyatlarga ega:

– fuqarolik ishlarini yuritish;
– jinoyatchilikning oldini olish;
– saylovlarni tashkillashtirish;
– davlat nomidan fuqarolarga tegishli ma’lumotnomalarni taqdim etish;
– harbiy xizmat o‘tash yoshidagi yoshlar ro‘yxatini yuritish;
– majburiy o‘rta ta’lim yoshidagi bolalar ro‘yxatini yuritish.

Xuddi shunday tartibda departamentlarni “umumiy kengash”, mintaqalarni esa “mintaqa kengashi” boshqarishga mas’ul hisoblanadi. Ushbu uch bo‘g‘in davlat organlari va fuqarolarning o‘zaro muloqot mexanizmi vazifasini bajaradi[3].

Ko‘rinib turibdiki, Fransiyada kommunalar boshqaruviga mas’ul munisipal kengashlar faoliyati mamlakatimizdagi mahallalar faoliyatiga o‘xshab ketadi. Ammo bunda ba’zi tafovutlarni ham sezish qiyin emas. Xususan, kommunalarni boshqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi munisipal kengashlarning vakolatlari kengroq. Ammo bunday tartibdagi mahalliy boshqaruv organlari faoliyati qay darajada samarador ekanligi hozir-



cha mustahkam dalillarga ega emas. A.Sabanis o‘zining Fransiyada munisipal kengashlar faoliyatiga doir maqolasida quyidagi kamchiliklar aniqlanganini sanab o‘tadi:

– vakolatlar taqsimoti borasida munisipal kengashlar va markaziy hokimiyat organlari o‘rtasida konsensus mavjud emas;

– munisipal kengashlar saylov jarayonini osonlashtirish kabi majburiyatlarini bajara olmayotir;

– administrativ-hududiy chegaralar aniq belgilanmay qolgan[4].

Vakolatlar taqsimotiga doir muammoni inobatga olmasa, qolgan ikki masala Fransiyada mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga doir islohotlar fonidagi vaqtinchalik holat deya taxmin etishimiz mumkin. Bunday masalalar uzoq kelajakda yangi mahalliy boshqaruv tizimi mustahkamlanishi asnosida o‘z yechimini topishiga shubha yo‘q.

Bundan tashqari, Fransiyada mahalliy davlat hokimiyati organlarining xarajatlari 4 barobar o‘sgani aytiladi. Bu esa umumiy davlat xarajatlari kamaymagani fonida sodir bo‘lmoqda[5]. Ushbu holat mahalliy davlat organlarining mustaqil budjet taqsimotiga ega bo‘lishining iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashiga nisbatan skeptik qarashlar kuchayishiga asos bo‘ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review).** Buyuk Britaniya ham Fransiya kabi mahalliy davlat organlarining vakolatini kengaytirish yo‘lidan bormoqda. Buyuk Britaniya boshqaruvning ikki bo‘g‘inli tizimidan foydalanadi. Bu viloyat (county) hamda tuman (district) boshqaruv organlaridan iboratdir. Bugun Buyuk Britaniyada 5 turga mansub 317 ta mahalliy boshqaruv birliklari mavjud.

Viloyat kengashlari (county councils) quyidagi xizmat turlarini taqdim etadi:

a) Ta’lim;

b) Transport;

c) Rejalashtirish;

d) Yong‘inga qarshi kurash va jamoat xavfsizligi;

e) Ijtimoiy yordam;

f) Kutubxona xizmati;

g) Chiqindilarni boshqarish xizmati;

h) Savdo mezonalariga doir xizmatlar;

Tuman kengashlari (district councils) quyidagi xizmat turlarini taqdim etadi:

a) Chiqindilarni yig‘ib olish;

b) Qayta ishlash;

c) Soliqlarni to‘plash;

d) Uy-joy bilan ta’minlash;

– Unitar organlar (unitary authorities);

– Shaharlardagi tumanlar (metropolitan districts);

– Londondagi ma’muriy organlar (London boroughs)[6].

Ko‘rinib turibdiki, mahalliy hokimiyat organlari vakolat va majburiyatlari Buyuk Britaniyada ancha yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Misol uchun, tumandagi organlar chiqindilarni yig‘ib olish va qayta ishlashga mas’ul bo‘lsa, viloyat hokimiyat organlari chiqindilarga ishlov berish idoralarini boshqarishga mas’uldir. Shunga qaramay, mahalliy davlat organlari vakolat va majburiyatlarining kesishuvi, so‘nggi yillarda Buyuk Britaniyada mahalliy davlat boshqaruvi sohasida ma’muriy islohotlar amalga oshirilishiga olib keldi. Jumladan, 2009-yilgi “mahalliy demokratiya, iqtisodiy taraqqiyot va qurilish to‘g‘risida”gi qonunga binoan boshqaruv kengashlarining o‘zaro hamkorlikda ishlashini soddalashtirishga xizmat qilishi mo‘ljallangan qo‘shma vakolat organlari yaratildi. Bunday qo‘shma hokimiyat organlarining birinchisi – yuqori Manchester qo‘shma kengashi 2011-yilda o‘z faoliyatini boshladi.

2016-yili “Mahalliy va shahar hokimiyat organlariga vakolatlarni o‘tkazish to‘g‘risida” qonun qabul qilindi. Ushbu qonun qo‘shma kengashlarni tashkil etish tartibini belgilab berdi hamda mahalliy hokimiyat organlaridan qo‘shma kengashlarga o‘tkaziladigan vakolat turlariga aniqlik kiritdi.

2014-yildan beri qo‘shma kengashlar vakolatlari oshib bormoqda. Qo‘shma kengashlar saylanadigan mayor tomonidan boshqarilishi belgilangan.

Ushbu islohotlar Buyuk Britaniyaga davlat boshqaruv apparatini xalqchil etish, mahalliy hokimiyat organlari faoliyatini koordinatsiya qilish mexanizmlarini yaratgan holda ortiqcha chiqimlardan xalos bo‘lish imkonini berdi. Misol uchun 2021-2022-yilgi statistikaga ko‘ra, mahalliy hokimiyat organlari xarajatlarining 32%i ta’limga, 17%i esa ijtimoiy yordamlarga ajratilgan[7].

Shunga qaramay, Buyuk Britaniyadagi mahalliy boshqaruv organlari faoliyatiga doir islohotlar

borasida tanqidiy fikrlar ham uchrab turadi. Bunday tanqidiy fikrlar asosan vakolat va majburiyatlar mahalliy hokimiyat organlari hajmidagi keskin farqlar, vakolatlarning chalkash taqsimoti davom etayotganiga qaratilgan[8]. Britaniyadagi islohotlar fonida bunday tanqidlar tizim mustahkam qaror topguncha kelib chiqishiga islohotlarning tabiiy hosilasi sifatida qarash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology)**

Singapurda mahalliy hokimiyat organlari faoliyati "virtual hukumat" konsepsiyasi ustiga qurilgan. Mahalliy hokimiyat organlarining faoliyati "Shahar kengashlari to‘g‘risida"gi qonunga binoan tartibga solinadi. Shahar kengashlari, misol uchun, uy-joy qurilishini boshqarishga mas'ul hisoblanadi, biroq mahalliy boshqaruv organlarining bu bo‘yicha faoliyati markaziy hokimiyat tomonidan yaqindan nazorat qilinadi[9]. Shahar kengashlari mahalliy hokimiyat organlarining asosini tashkil etadi. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarining oshirilishi Singapur iqtisodiyotini yaxshilashda muhim rol o‘ynagani ta'kidlanadi[10]. Biroq ijtimoiy xizmatlarni amalga oshirishda kichik biznes egalarining emas, yirik kompaniyalarning jalb etilishi hamda shahar kengashlari mas'ul hududlar geografiyasining tez-tez o‘zgarib turishi tanqidga uchraydi[11]. K.Weiling hamda W.Kwok (2004) Singapurda ushbu muammolar "raqamli hukumat" loyihasi yordamida bartaraf etilayotganini qayd etgan holda, ushbu jarayon uch bosqichda amalga oshirilishini ta'kidlaydi:

Boshlash (Initiation) bosqichi davlat xizmatlarini qisman raqamlashtirish va buni fuqarolar orasida ommalashtirishni ko‘zda tutadi. "Raqamli fuqaro" (E-Citizens" portali ushbu jarayonni soddalashtirish vazifasini bajaradi. Fuqarolar savodxonligini oshirish maqsadida onlayn e'lonlar davriy ravishda e'lon qilib boriladi.

Mustahkamlash bosqichi (Infusion) barcha davlat xizmatlarini to‘liq raqamli tarzda amalga oshirish hamda o‘tkazmalarni elektron hukumat portali orqali amalga oshirish jarayoniga start berish bilan xarakterlanadi. Buni amalga oshirish uchun "chora-tadbirlar rejasi", elektron hukumat siyosati, raqamli hukumat faoliyatini monitoring qilish uchun mas'ul tashkilot tuziladi.

Moslashtirish (Customization) bosqichida hukumat va har bir fuqaro o‘rtasida fuqarolarning raqamli profillarini yaratish orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri muloqot kanallari shakllantiriladi. Elektron xizmatlar (e-services) platformasi ishga tushiriladi[12].

Qayd etish mumkinki, Singapur tajribasi mahalliy hokimiyat organlari faoliyatidagi muammolarni raqamlashtirish orqali bartaraf etishga yorqin misol bo‘la oladi.

Rossiya Federatsiyasida mahalliy boshqaruv organlari 1991-yilgi "Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish to‘g‘risida"gi hamda "Rossiya Federatsiyasi soliq tizimi asoslari to‘g‘risida"gi qonunlarga binoan yo‘lga qo‘yilgan.

Mahalliy boshqaruv organlarining quyidagi turlari mavjud:

– munisipal tumanlar;

– shaharlar va qishloqlar;

– shahar okruglari;

– federal shaharlarning tarkibiga kiruvchi hududlar (faqat Moskva va Sankt-Peterburg shaharlariga taalluqli);

Shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlar va hokazo[13].

**Tahlil va natijalar (Analysis and results)**

Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini yo‘lga qo‘yishda markaziy hokimiyatni kuchaytirishga asoslangan vertikal yondashuv yo‘lidan borildi. Misol uchun Rossiya Federatsiyasining 1993-yilgi Konstitutsiyasi 12-moddasiga ko‘ra "mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari davlat hokimiyatini o‘zida mujassamlashtirmaydi[14]".

"Rossiya Federatsiyasida mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyatining umumiy tamoyillari to‘g‘risida"gi qonunga ko‘ra, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari quyidagilarga ega bo‘lishi lozim:

– o‘z-o‘zini boshqarish asosida faoliyat yuritishi;

– munisipal mol-mulkga ega bo‘lishi;

– mustaqil budjetiga ega bo‘lishi;

– mahalliy o‘z o‘zini boshqarish faoliyatini saylangan vakillar amalga oshirishi lozim[15].

Rossiya Federatsiyasining mahalliy boshqaruv organlari faoliyat tizimi Yevropanikidan tamoyillar nuqtayi nazaridan keskin farqlanmaydi. S.Nanba va E.Alimovga ko‘ra,

Rossiyada mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyati tartibi gorizontal va vertikal model aralashmasidan iborat[16]. Ammo aksariyat tadqiqotchilar Rossiyada o‘z-o‘zini boshqarish tizimining tadrijiy vertikallashuviga e’tibor qaratadi. Bu esa Yevropada amalga oshirilayotgan hokimiyatning gorizontallashuviga oid islohotlarning mantiqiy aksi hisoblanadi. A.Pertsev (2024) Rossiya Federatsiyasidagi hududiy birliklarning 20 foizi allaqachon ikki bo‘g‘inli boshqaruvdan bir bo‘g‘inli boshqaruvga o‘tib, mahalliy o‘z o‘zini boshqarish organlarining vakolatlari hududiy hokimiyat organlari foydasiga kamaytirilayotganini qayd etadi[17]. V.Gelman buni moliyaviy omillarga bog‘lagan holda Rossiyadagi mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining 75 foizi budjet taqchilligi natijasida markaziy hokimiyatga qaram holga tushayotganini aniqlagan[18]. A.Abrams(2011) ga ko‘ra, mahalliy boshqaruv organlaridagi budjet taqchilligi ortida turgan asosiy omil uy-joy ta’minoti va boshqa xizmatlar yuklamasi keltirib chiqarayotgan yuqori chiqimlardir[19].

Qozog‘istonda mahalliy boshqaruv organlari 2001-yilgi “Mahalliy boshqaruv va o‘z-o‘zini boshqaruv organlari faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga binoan faoliyat yuritadi. Qonunga ko‘ra, mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish quyidagi ma’muriy kesimlarda amalga oshiriladi:

– viloyat;
– tuman;
– shahar;
– shahar tarkibidagi tumanlar;
– qishloq[20].

Qozog‘istonda uch bo‘g‘inli mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish tizimi joriy qilingan. Yuqori bo‘g‘inda viloyatlar (oblastlar) turadi. Ularga hokim (akim) rahbarlik qilib, har bir hokim huzurida saylov asosida shakllanuvchi viloyat kengashlari (maslahatlar) faoliyat yuritadi. O‘rta bo‘g‘inda esa viloyat miqyosida ahamiyatga ega 35 ta shahar, 161 tuman va 16 ta shahar tumanlari qamrab olingan. Ularning hokimlari viloyat hokimi tomonidan tayinlanadi. Shahar va tuman kengashlari (maslahatlar) hokim huzurida faoliyat yuritadi. Uchinchi bo‘g‘in tuman miqyosidagi 47 ta shaharcha hamda 2298 ta qishloq va ovullardan iborat. “O‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyati to‘g‘risida”gi qonunga 2013-yili o‘zgartirish kiritilib, hokimiyat vakolatlari gorizontallashdi. Unga ko‘ra, mahalliy hokimlar mahalliy kengashlar tomonidan bilvosita saylov yo‘li orqali tayinlanadigan bo‘ldi. 2025-yilgacha tatbiq etilishi kutilayotgan “O‘z-o‘zini boshqarish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, uchinchi bo‘g‘inga mansub hokimlar fuqarolar tomonidan to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov orqali saylanishi hamda budjet va moliyaviy vakolatlarning ma’lum miqdorda gorizontallashuvi rejalashtirilgan[21].

**Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations).** Mahalliy boshqaruv organlari bo‘yicha xorij tajribasi ushbu sohada sodir bo‘layotgan muhim jarayonlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Xususan, yuqoridagi to‘rtta mamlakat tajribasidan ayon bo‘ladiki, Rossiya Federatsiyasini istisno qilganda, mahalliy boshqaruv sohasida vakolat va majburiyatlar taqsimotining gorizontallashuvi o‘zida global tendensiyani aks ettirmoqda. Buyuk Britaniya hamda Fransiya o‘zida mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini tadrijiy kengaytirish orqali mahalliy demokratiyani mustahkamlashning Yevropadagi yorqin namunalarni aks ettirsa, Qozog‘iston tajribasi mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarini kengaytirish orqali mahalliy muammolarga oqilona yechim topish mexanizmlarini takomillashtirishga misol bo‘la oladi. Bundan tashqari, qayd etish joizki, mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarining kengayishi muayyan muammolardan xoli emas. Buni vakolat va majburiyatlar kesishuvi holatlarida ham ko‘rib o‘tdik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahalliy boshqaruv organlari vakolatlarining kengayishi xorijiy mamlakatlar tajribasida ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Buyuk Britaniya, Fransiya hamda Qozog‘istondagi mahalliy boshqaruv sohasiga doir islohotlar shundan dalolat beradi. Rossiya Federatsiyasidagi vertikallashuv holatini ushbu mamlakatning jahondagi eng katta hududga egaligi hamda ma’muriy birliklarning juda ko‘pligi bilan izohlash mumkin.

## ADABIYOTLAR


1. City Mayors: Local government in France
2. PlaquetteEng.indd
3. Structure and operation of regional and local democracy; France. Council of Europe Publishing. 1997. pp 9-15. ISBN 92-871-3665-3. Retrieved from FRANCE Structures English.PDF
4. CABANIS & M. PACESILA, 2022. "**Reform Of Local Government In France,Always Starts Again**," APPLIED RESEARCH IN ADMINISTRATIVE SCIENCES, Research Centre in Public Administration and Public Services, Bucharest, Romania, vol. 3(1), pages 25-34, April.
5. The international series: Local government in France - New Local
6. Local government structure and elections: Information on the different types of council and their electoral arrangements. Ministry of Housing, Communities and Local Government, Department for Levelling Up, Housing and Communities. 2023. https://www.gov.uk/guidance/local-government-structure-and-elections
7. E. Scott. Local government and Local Democracy in England. House of Lords Library. 2023. https://lordslibrary.parliament.uk/local-government-and-local-democracy-in-england/
8. S.Stowers. Local Government in England, Scotland and Wales. 2025. Olindi: https://ukandeu.ac.uk/explainers/local-government-in-england-scotland-and-wales/
9. Triyadi, Gunawan. (2024). The Legal Framework for Local Government Administration in Indonesia: A Comparative Study with Singapore.
10. Quah, J.S.T. (1996). Public Administration in Singapore: Managing Success in a Multi-Racial City-State. In: Huque, A.S., Lam, J.T.M., Lee, J.C.Y. (eds) Public Administration in the NICs. Palgrave Macmillan, London. https://doi.org/10.1007/978-1-349-24873-5_3
11. B. Dollery (2008). Virtual Local Government in Practice: The Case of Town Councils in Singapore. Canadian Journal of Regional Science/Revue canadienne des sciences régionales, XXXI: 2 (Summer/Été 2008), 289-304. ISSN: 0705-4580. Retrieved: SINGAPORE LOCAL GOVERNMENT
12. Ke, Weiling & Wei, Kwok. (2004). Successful E-Government in Singapore. Commun. ACM. 47. 95-99. 10.1145/990680.990687.
13. J.Wienen & S. Dickson. Local and Regional Democracy in the Russian Federation. Congress of Local and Regional Authorities. 2019. pp 10. https://rm.coe.int/local-and-regional-democracy-in-the-russian-federation-monitoring-comm/1680973ba5
14. K., Galina & N., Yelena & G., Nataliya. (2002). Local Government in the Russian Federation. Center for Fiscal Policy. pp. 4-6. https://www.researchgate.net/publication/265106221_Local_Government_in_the_Russian_Federation
15. K., Galina & N., Yelena & G., Nataliya. (2002). Local Government in the Russian Federation. Center for Fiscal Policy. pp. 4-6. https://www.researchgate.net/publication/265106221_Local_Government_in_the_Russian_Federation
16. Nanba, S., and Alimov, E. Issues in Local Self-Government Reform in Russia, Journal of Advanced Research in Law and Economics, Volume XI, Spring, 1(47): 136 – 147. 2020. DOI: 10.14505/jarle.v11.1(47).17. Available from: http://journals.aserspublishing.eu/jarle/index
17. Pertsev. Russia's Local Government Reform Will Destroy a Rare Channel for Letting Off Steam. Carnegie Endowment. 2024. https://carnegieendowment.org/russia-eurasia/politika/2024/11/russia-local-government-reform?lang=en
18. V. Gel'man. The Politics of the Local Government of Russia: The Neglected Side of the Story. Perspectives on European Politics and Society. 2002. 3:3. pp. 496-505. https://eusp.org/sites/default/files/archive/pss_dep/gelman_The_Politics_of_Local_Government_in_Russia.pdf
19. Abrams. The Growing Tension Between Regional and Local Government in Russia. Kennan Institute. 2011. https://www.wilsoncenter.org/publication/the-growing-tension-between-regional-and-local-government-russia
20. On Local Government and self-government in the Republic of Kazakhstan. On Local Government and Self-government in the Republic of Kazakhstan - "Adilet" LIS
21. Local Government: Kazakhstan. Asia Development Bank report. 2022. Local government PPP landscape | ASIAN DEVELOPMENT BANK

# REFERENDUM INSTITUTI: NAZARIYA, MILLIY TAJRIBA VA XALQARO AMALIYOTNING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI

*FARMANOV*
*Zafar Nizomovich*
*Navoiy viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari*

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada bevosita demokratiyaning eng oliy ko‘rinishi bo‘lgan referendum institutining mohiyati, uning huquqiy tabiati va zamonaviy davlat boshqaruvidagi o‘rni tahlil qilingan.

Tadqiqotda referendumning plebissitdan farqli jihatlari, xalqaro huquqdagi standartlari, xususan, Venetsiya komissiyasining tavsiyalari qiyosiy o‘rganilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yildagi konstitutsiyaviy islohotlari jarayonida referendumning roli, Shveytsariya, Buyuk Britaniya va MDH davlatlari tajribasi misolida ko‘rib chiqilgan.

Maqola yakunida milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** referendum, plebissit, bevosita demokratiya, xalq suvereniteti, Konstitutsiya, Venetsiya komissiyasi, legitimlik, siyosiy plyuralizm, huquqiy islohot, deklarativ va imperativ referendum.

**ANNOTATION**

This article analyzes the essence of the institution of referendum as the highest form of direct democracy, its legal nature, and its role in modern public administration. The study comparatively examines the distinguishing features of a referendum from a plebiscite and international legal standards, particularly the recommendations of the Venice Commission. Furthermore, the role of the referendum in the process of the 2023 constitutional reforms in the Republic of Uzbekistan is examined through the lens of the experiences of Switzerland, the United Kingdom, and CIS countries. At the conclusion of the article, scientific proposals for the improvement of national legislation are put forward.

**Keywords:** referendum, plebiscite, direct democracy, popular sovereignty, Constitution, Venice Commission, legitimacy, political pluralism, legal reform, declarative and imperative referendum.

## АННОТАЦИЯ

В статье анализируется сущность института референдума как высшей формы прямой демократии, его правовая природа и роль в современном государственном управлении. В исследовании сравниваются отличия референдума от плебисцита, международные стандарты, в частности, рекомендации Венецианской комиссии. Также рассматривается роль референдума в процессе конституционных реформ в Узбекистане в 2023 году на примере опыта Швейцарии, Великобритании и стран СНГ. В завершение статьи выдвигаются научные выводы по совершенствованию национального законодательства.


**Ключевые слова:** референдум, плебисцит, прямая демократия, народный суверенитет, Конституция, Венецианская комиссия, легитимность, политический плюрализм, правовая реформа.

## KIRISH

Global o‘zgarishlar davrida xalqning davlat boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash nafaqat siyosiy ehtiyoj, balki huquqiy davlat qurishning fundamental shartiga aylandi.

**Referendum** — bu xalq suverenitetining bevosita ifodasi bo‘lib, unda davlat hayotining eng muhim masalalari fuqarolar tomonidan ovoz berish yo‘li bilan hal etiladi.

O‘zbekistonda 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan konstitutsiyaviy referendum mamlakatning siyosiy-huquqiy tizimini modernizatsiya qilishda yangi davrni boshlab berdi.

Biroq, ushbu institutning huquqiy tabiatini, uning xalqaro standartlarga muvofiqligini va xorijiy tajribadagi muvaffaqiyatsizliklar yoki yutuqlarni o‘rganish nazariy huquqshunoslik uchun hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

### Referendumning nazariy asoslari va plebissitdan farqi

**“Referendum”** atamasi lotin tilidagi ***referre*** so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, **“qaytarib olib borish”** ma’nosini anglatadi.

Mazkur tushuncha **“xalqqa qaytarib olib borilishi lozim bo‘lgan masala”** degan mazmunda talqin qilinadi.

Ushbu atama ilk bor **XVII asrda Shveytsariyada** qo‘llanilgan bo‘lib, o‘sha davrda konfederatsiya organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar mamlakat tarkibiga kiruvchi ma’muriy-hududiy birliklar — kantonlarga ko‘rib chiqish va ko‘rsatma olish uchun yuborilgan.

Zamonaviy huquqiy mazmundagi **“referendum”** atamasi **ingliz tilida XIX asrning oxiridan boshlab** keng qo‘llanila boshlagan.

Huquqiy jihatdan **referendum** — fuqarolarning davlat va jamiyat hayotining eng muhim masalalari bo‘yicha bevosita ovoz berishi bo‘lib,

u vakillik demokratiyasini to‘ldiruvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri demokratiya shakli hisoblanadi.

Referendum institutining nazariy asoslari **fransuz mutafakkiri Jan-Jak Russo** tomonidan ishlab chiqilgan xalq suvereniteti konsepsiyasiga borib taqaladi.

Unga ko‘ra, suverenitet umumiy irodaning ifodasi bo‘lib, u bo‘linmaydi va boshqa shaxsga o‘tkazilmaydi; xalq tomonidan tasdiqlanmagan har qanday qonun haqiqiy hisoblanmaydi.

**Referendum va plebissit** tushunchalari ko‘pincha o‘zaro yaqin ma’noda qo‘llanilsa-da, ular o‘rtasida muhim farqlar mavjud:

**Plebissit** — odatda siyosiy yoki suverenitet masalalari bo‘yicha maslahat xarakteridagi ovoz berishni anglatadi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, plebissitlar ayrim hollarda avtoritar rejimlar tomonidan siyosiy legitimlikni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llanilgan.

**Referendum** — konstitutsiyaviy yoki qonunchilik masalalari bo‘yicha huquqiy majburiy kuchga ega bo‘lgan qaror qabul qilish shaklidir.

Xalqaro amaliyotda referendum quyidagi turlarga ajratiladi:

Majburiy (obligator) referendum;

Fakultativ (ixtiyoriy) referendum;

Maslahat (konsultativ) referendum.

### O‘zbekiston Respublikasida referendum instituti Konstitutsiyaviy asoslar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (dastlab 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan, 2023-yil 30-apreldagi referendumda yangi tahrirda qabul qilingan) referendumni xalq hokimiyatining bevosita shakli sifatida mustahkamlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **9-moddasida** quyidagicha belgilangan: *“Jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi va umumxalq ovoz berishiga — referendumga qo‘yiladi. O‘zbekiston Respublikasida referendum o‘tkazish tartibi qonun bilan belgilanadi”*.

**36-moddaga asosan** fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida “o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar va davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish” orqali ishtirok etish huquqini kafolatlaydi.

**89-moddaga ko‘ra** Qoraqalpog‘iston Respublikasining O‘zbekiston tarkibidan chiqish huquqini Qoraqalpog‘iston xalqining umumiy referendumi asosida amalga oshirilishini nazarda tutadi.

**93-moddaning 4-bandiga muvofiq** referendum o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish va uni o‘tkazish sanasini belgilashni Oliy Majlis palatalarining qo‘shma vakolatiga kiritadi.

**128-modda** esa Konstitutsiyaga o‘zgartishlar kiritish Oliy Majlis palatalarining har birida kami00da uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilingan qonun yoki referendum orqali amalga oshirilishini belgilaydi.

**“Referendum to‘g‘risida”gi qonun.**

Mazkur qonun referendum o‘tkazishning asosiy tartib-taomillari, tamoyillari va cheklovlarini belgilaydi. Qonunga muvofiq:

Referendum umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ovoz berish asosida o‘tkaziladi;

Ovoz berish yashirin shaklda amalga oshiriladi;

Fuqarolarning ishtiroki ixtiyoriy hisoblanadi;

Har bir fuqaro bir ovozga ega bo‘ladi.

Qonunchilikda referendumga qo‘yilishi mumkin bo‘lmagan masalalar ham belgilangan bo‘lib, ular qatoriga davlatning hududiy yaxlitligi, budjet va soliqlar, amnistiya, favqulodda choralar hamda mansabdor shaxslarni tayinlash bilan bog‘liq masalalar kiradi. Referendum natijalari oliy yuridik kuchga ega bo‘lib, ular faqat boshqa referendum orqali o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

**2023-yil 30-apreldagi konstitutsiyaviy referendum.**

2023-yil 30-aprelda O‘zbekiston Respublikasida yangi tahrirdagi Konstitutsiya bo‘yicha umumxalq referendumi o‘tkazildi.

Mazkur tadbir konstitutsiyaviy islohotlar jarayonining muhim bosqichi bo‘ldi. Referendumda fuqarolarga yagona savol qo‘yildi va unda yuqori darajadagi ishtirok kuzatildi. Natijalarga ko‘ra, saylovchilarning mutlaq ko‘pchiligi yangi Konstitutsiyani qo‘llab-quvvatladi.

**Yangi Konstitutsiyada:**

Inson huquq va erkinliklari sezilarli darajada kengaytirildi;

O‘lim jazosi taqiqlandi;

Yerga xususiy mulk huquqi joriy etildi;

Davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi.

Shu bilan birga, xalqaro kuzatuvchilar referendumning tashkiliy jihatlarini ijobiy baholagan bo‘lsa-da, siyosiy raqobat va ommaviy ax-

borot vositalari muvozanati bilan bog‘liq ayrim kamchiliklarni qayd etdilar.

**Xorijiy davlatlar tajribasi**

**Shveytsariya.** Shveytsariya jahonda referendum institutini eng faol qo‘llaydigan davlatdir.

**1848-yildan buyon** ushbu mamlakat dunyodagi barcha davlatlarning jami referendumlaridan ko‘proq milliy referendum o‘tkazgan. **1900–2020-yillar** orasida **621 ta** umumxalq ovoz berishi bo‘lib o‘tdi.

Shveytsariya qonunchiligida **uchta** asosiy referendum turi mavjud:

**1. Majburiy referendum (1848-yildan):** Har qanday konstitutsiyaviy o‘zgartirish avtomatik ravishda xalq ovoziga qo‘yiladi. Tasdiqlash uchun “ikki tomonlama ko‘pchilik” (umumxalq va kantonlar ko‘pchiligi) talab etiladi.

**2. Fakultativ referendum (1874-yildan):** Parlament qabul qilgan qonunni fuqarolar e’tiroz sifatida xalq ovoziga qo‘yishi mumkin (100 kun ichida 50 000 imzo talab etiladi).

**3. Xalq tashabbusi (1891-yildan):** Fuqarolar konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritishni taklif qilishi mumkin (18 oy ichida 100 000 imzo talab etiladi).

**Buyuk Britaniya.** Referendumlar kamdan-kam o‘tkaziladi.

2016-yil 23-iyundagi **Brexit** referendumi (YEIdan chiqish masalasi) tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

**Natijalar:** “Chiqish” — **51,89%**, “Qolish” — **48,11%**.

Ishtirok darajasi **72,2%** ni tashkil etdi.

Huquqiy jihatdan mazkur jarayon tavsiyaviy xarakterida bo‘lsa-da, hukumat uni siyosiy majburiy deb qabul qildi.

**Fransiya.** Beshinchi Respublika Konstitutsiyasiga (1958) ko‘ra, referendum suverenitetning asosiy vositasidir.

Sharl de Goll referendum an’anasini shakllantirgan. 1969-yilda mintaqaviy islohotlar bo‘yicha referendum rad etilganda, u darhol iste’foga chiqib, referendumni Prezidentga ishonch votumi sifatida ko‘rish an’anasini yaratgan.

**Italiya.** Referendumning o‘ziga xos turi — **bekor qiluvchi referendum** (*referendum abrogativo*).

Fuqarolar amaldagi qonunlarni bekor qilish uchun ovoz berishi mumkin (500 000 imzo talab etiladi). 2016-yilda Bosh vazir Matteo Rentsining islohotlari rad etilgach, u iste’foga chiqqan.

**Rossiya va Qozog‘iston**

Ushbu davlatlarda referendumlar ayrim hollarda siyosiy tizimni mustahkamlash vositasi sifatida qo‘llanilgan.

Rossiyada 2020-yilgi “Umumrossiya ovoz berishi” orqali 200 dan ortiq tuzatishlar qabul qilindi.

Qozog‘istonda 2022-yilgi referendum bilan “Elboshi” maqomi bekor qilindi va prezidentlik muddati bitta 7 yillik muddat bilan cheklandi.

Xalqaro ekspertlar bu jarayonlarni rejimni mustahkamlash vositasi sifatida tanqidiy baholaganlar.

**Xalqaro huquqiy standartlar**

Xalqaro huquqda referendum instituti xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi doirasida tartibga solinadi (BMT Nizomi, 1966-yildagi xalqaro paktlar).

BMT Bosh Assambleyasining **1514(XV)** va **1541(XV)-sonli** rezolyutsiyalari hududlarning mustaqilligi yoki birlashishi xalqning ixtiyoriy tanloviga asoslanishi kerakligini belgilaydi.

**Venetsiya komissiyasi standartlari**

Yevropa Kengashi huzuridagi Venetsiya komissiyasining “Referendumlar bo‘yicha yaxshi amaliyot kodeksi” (2007, 2022) quyidagi tamoyillarni belgilaydi:

1. Umumiy ovoz berish huquqi.
2. **Teng ovoz berish huquqi** (tarafdorlar va muxoliflar uchun teng imkoniyatlar).
3. **Erkin ovoz berish** (savol chalg‘ituvchi bo‘lmasligi, kontent birligi saqlanishi).
4. **Yashirin ovoz berish.**

Kodeks referendumlarning konstitutsiyaviy kafolatlarni chetlab o‘tish uchun ishlatilmasligi lozimligini uqtiradi.

**Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byurosi kuzatuv amaliyoti**

Demokratik institutlar va inson huquqlari bo‘yicha byuro referendumlarni Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti majburiyatlariga muvofiqligini baholash maqsadida kuzatadi.

Kuzatuv jarayoni kampaniya faoliyati, ommaviy axborot vositalari monitoringi hamda nizolarni hal etish jarayonlari kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi.

**Huquqiy muammolar va takomillashtirish yo‘llari**

Referendum institutini yanada rivojlantirish

uchun quyidagi huquqiy masalalarga e’tibor qaratish lozim:

1. **Mahalliy referendumlar:** Hozirda bizda faqat umumdavlat referendumi faol ishlaydi. Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni (masalan, ekologik ob’ektlar qurish, mahalliy soliqlar) hal qilishda mahalliy referendumlar mexanizmini joriy etish lozim.

2. **Raqamli texnologiyalar:** Masofadan ovoz berish (E-voting) tizimini bosqichma-bosqich joriy etish saylovchilar, ayniqsa, xorijda yashayotgan vatandoshlar ishtirokini oshiradi.

## XULOSA

**Referendum** – bu shunchaki ovoz berish jarayoni emas, balki jamiyatning davlat bilan tuzgan yangi ijtimoiy shartnomasidir.

O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatdiki, konstitutsiyaviy islohotlarni xalq irodasi bilan tasdiqlash davlatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlaydi.

Biroq, kelajakda referendum savollarining aniqligi, siyosiy kuchlarning teng ishtiroki va mahalliy darajadagi bevosita demokratiyani rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Venetsiya komissiyasi standartlarini milliy qonunchilikka yanada chuqurroq implementatsiya qilish, O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yanada mustahkamlaydi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. “O‘zbekiston Respublikasining referendumi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.
3. European Commission for Democracy through Law (Venice Commission). Code of Good Practice on Referendums. CDL-AD(2022)015.
4. Bogdanor V. The People and the Party System: The Referendum in British Politics. – Cambridge University Press, 1981.
5. Suksi M. Bringing in the People: A Comparison of Constitutional Forms and Practices of the Referendum. – Martinus Nijhoff Publishers, 1993.
6. Tierney S. Constitutional Referendums: The Theory and Practice of Republican Deliberation. – Oxford University Press, 2012.
7. YXHT/DIHRBning O‘zbekiston Respublikasidagi konstitutsiyaviy referendum bo‘yicha ehtiyojlarni baholash missiyasi hisoboti (2023).
8. Qovushov M. Referendum – xalq hokimiyatchiligining oliy ifodasi // Huquq va burch. – 2023. – №4.
9. Shvetsiya, Shveytsariya va Fransiya konstitutsiyaviy amaliyotida referendum instituti (Qiyosiy tahlil). – T.: TDYU nashriyoti, 2021.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: Tasvir, 2022.

# NODAVLAT SUD EKSPERTIZA TASHKILOTLARIDA SUD EKSPERTLARINING MALAKASINI OSHIRISHNI AMALIYOT BILAN UYG‘UNLASHTIRISH MASALALARI: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR

*JURAYEV*
*Farrux Xusanovich*
*Adliya vazirligi Yuridik ta’lim va sud-ekspertiza boshqarmasi bosh maslahatchisi*

### ANNOTATSIYA

Maqolada nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida faoliyat yurituvchi sud ekspertlarining malakasini oshirish jarayonini amaliyot bilan uyg‘unlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Xorijiy davlatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya) tajribasi, shuningdek, soha olimlarining ilmiy qarashlari umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari asosida uzluksiz malaka oshirish (CPD), kompetensiya asosidagi o‘qitish, amaliyotga yo‘naltirilgan simulyatsion mashg‘ulotlar va raqamli platformalar orqali ekspertlar tayyorlash mexanizmlari taklif etilgan.

**Kalit so‘zlar:** sud ekspertizasi, nodavlat sud ekspertizasi, sud eksperti, malaka oshirish, amaliyotga integratsiya, uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD), xorijiy tajriba, kompetensiyaviy yondashuv.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вопросы гармонизации процесса повышения квалификации судебных экспертов, работающих в негосударственных организациях судебной экспертизы, с практикой. Обобщен опыт зарубежных стран (США, Великобритания, Германия, Южная Корея), а также научные взгляды ученых отрасли. На основе результатов исследования предложены механизмы непрерывного повышения квалификации (CPD), компетентностного обучения, практико-ориентированных симуляционных занятий и подготовки экспертов посредством цифровых платформ.

**Ключевые слова:** судебная экспертиза, негосударственная судебная экспертиза, судебный эксперт, повышение квалификации, интеграция в практику, непрерывное профессиональное развитие (CPD), зарубежный опыт, компетентностный подход

ANNOTATION

The article analyzes the integration of the professional development process for forensic experts working in non-governmental forensic organizations with practice. The experience of foreign countries (USA, Great Britain, Germany, South Korea), as well as the scientific views of scientists in the field, have been generalized. Based on the research results, mechanisms for training experts through continuous professional development (CPD), competency-based training, practice-oriented simulation classes, and digital platforms have been proposed.

**Key words:** forensic examination, non-state forensic examination, forensic expert, professional development, integration into practice, continuous professional development (CPD), foreign experience, competence-based approach.

Sud-ekspertiza instituti odil sudlovni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, ish bo‘yicha haqiqatni aniqlashda maxsus bilimlarga asoslangan xulosalar taqdim etishni nazarda tutadi. So‘nggi yillarda sud-ekspertiza faoliyatiga nodavlat sektorning kirib kelishi mazkur sohada raqobat muhitini shakllantirish, xizmatlar sifatini oshirish va sudlar hamda tergov organlarining yukini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy huquqiy davlatda sud ekspertizasining sifati bevosita sud ekspertlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasiga bog‘liq. Ayniqsa, nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarining rivojlanishi sharoitida ekspertlarning bilim va ko‘nikmalarini amaliyot bilan uyg‘un holda rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida sud ekspertlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi normativ asosda tartibga solingan bo‘lib, u nazariy ta’lim bilan bir qatorda amaliy stajirovkani ham o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, nodavlat sektor uchun alohida talablar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ilmiy va amaliy kompetensiyalarni uyg‘un shakllantirishga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi **“Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi PQ–4125-son qaroriga asosan **nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etishga ruxsat berilgan**.

Shuningdek, ushbu Qarorga muvofiq **nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari** tomonidan **55 ta ekspertiza turi yuzasidan** ekspertiza tadqiqotlari o‘tkazilishiga ruxsat berilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentabrdagi **“Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** PQ–270-son qarorga asosan nodavlat sud-ekspertiza

tashkilotlari faoliyatiga oid qator yangi tartiblar belgilab berildi:

– nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining notijorat tashkilot sifatida faoliyat ko‘rsatishini yo‘lga qo‘yish;

– nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining ixtiyoriy a’zoligiga asoslangan O‘zbekiston sud ekspertlari palatasini tashkil etish;

– nodavlat sud ekspertlarining kasbiy va amaliy tayyorgarlik darajasini aniqlash, shuningdek, ularning noqonuniy harakatlari bilan bog‘liq holatlarning adolatli va xolis ko‘rib chiqilishini ta’minlash maqsadida Adliya vazirligi huzurida Ekspert-malaka komissiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

– nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan o‘tkazilishiga ruxsat berilgan sud ekspertizasi turlarini 44 tadan 55 taga ko‘paytirish;

– 2025-yil 1-dekabrdan nodavlat sud ekspertlariga yakka tartibda sud-ekspertlik byurosi shaklida faoliyat yuritish huquqini berish va boshqalar.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-fevraldagi “**Nodavlat sud-ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi** 73-son qarori bilan sud ekspertlari malakasini oshirish tizimining bevosita amaliyot bilan uyg‘unligini ta’minlash belgilandi.

Unga ko‘ra, o‘quv rejasi va o‘quv amaliyot dasturlari ishlab chiqilib, ta’lim jarayonining 40 (qirq) foizi nazariy, 60 (oltmish) foizi amaliy qismga ajratiladi hamda tinglovchilarga ta’lim jarayonining nazariy qismi tegishli davlat muassasasida, **amaliy qismi** tegishli davlat sud-ekspertiza muassasasida tashkil etiladi.

Nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida malaka oshirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

nazariy bilimlarni mustahkamlash;

amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

zamonaviy texnologiyalarni o‘zlashtirish;

sud ekspertizasining yangi metodikalarini amaliyotga tatbiq etish.

Mazkur jarayonning asosiy maqsadi — ekspertni real sud-tergov faoliyatiga tayyorlashdir.

Xorijiy davlatlar tajribasida sud ekspertlari malakasini oshirish tizimining bevosita amaliyot bilan uyg‘unligini ta’minlashga oid qoidalar aks ettirilgan.

Xususan, Rossiya va Qozog‘istonda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ekspertlar sonini 10 marta oshirdi, ular yuqori malaka sertifikatlari orqali ishlaydi va davlat bilan raqobatlashadi. Belorussiyada ekspertlarning malaka oshirishi amaliy treninglar va xalqaro standartlar (ISO) asosida amalga oshiriladi, bu ekspert xulosalarining ishonchliligini kuchaytirdi. AQSh va Buyuk Britaniyada xususiy laboratoriyalar davlat bilan sheriklikda oquv dasturlarini yuritadi, ekspertlarning amaliy malakasini 6 oylik stajirovka orqali takomillashtiradi.

Shuningdek, AQShda sud ekspertlarini tayyorlash tizimi **“continuous professional development (CPD)”** tamoyiliga asoslanadi. Bu tizim quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

laboratoriya asosidagi amaliy mashg‘ulotlar;

real ishlar (case-based learning);

sertifikatlash va qayta sertifikatlash tizimi.

Amerikalik olim Paul C. Giannelli malaka oshirishni faqat nazariy kurslar sifatida emas, balki **“real case immersion” (haqiqiy ishga sho‘ng‘ish)** orqali amalga oshirishni ilmiy jihatdan asoslaydi hamda uning fikricha, sud ekspertlarining malakasini oshirishda amaliy ishlar bilan bog‘liq o‘quv jarayonlari ekspert xulosalarining ishonchliligini oshiradi.

J. Thornton ta’kidlashicha, sud ekspertizasi dinamik soha bo‘lib, yangi usullar, raqamli dalillar va sud amaliyotidagi o‘zgarishlarga tez moslashishni talab qiladi.

**Germaniyada** sud ekspertlari tayyorlash tizimi dual modelga asoslangan:

universitet ta’limi;

ekspert muassasalarida amaliy stajirovka.

Bu yerda asosiy e’tibor **amaliy kompetensiyalarni shakllantirish**ga qaratiladi. Ekspertlar muntazam ravishda malaka oshirish kurslaridan o‘tadi va ularning faoliyati professional palatalar tomonidan nazorat qilinadi.

**Buyuk Britaniyada** sud ekspertlarining tayyorlanishi va sertifikatlanishi Forensic Science Regulator va Chartered Society of Forensic Sciences tomonidan nazorat qilinadi. Bu tashkilotlar ekspertlarning yuqori professionalizm, kompetentlik va etik xulq-atvor standartlariga javob berishini ta’minlaydi. Buyuk Britaniya tajribasining asosiy xususiyatlari:

**Yagona malaka standartlari:** Barcha ekspertlar uchun yagona talablar qo’llaniladi, ular qayerda ishlashidan qat’iy nazar.

**Mustaqil sertifikatlash:** Kasbiy kompetensiyani tasdiqlovchi tashqi baholash tizimi.

**Doimiy kasbiy rivojlanish (CPD):** Ekspertlar doimiy ravishda malakalarini oshirishlari shart.

**Mentorlik dasturlari:** Tajribali ekspertlar yangi mutaxassislarni amaliy ishga tayyorlaydi.

**Fransiyada** sud ekspertlari sudlar huzuridagi maxsus ro‘yxatga kiritiladi va ular uchun:

majburiy amaliy treninglar;

mentorlik tizimi;

sud jarayonlarida ishtirok etish orqali o‘rganish yo‘lga qo‘yilgan.

Fransuz olimi Jean-Pierre Marguénaud sud ekspertlarining tayyorgarligida amaliyotning ustuvor ahamiyatini ta’kidlaydi.

**Rossiyada** sud ekspertlarini tayyorlashda:

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

laboratoriya amaliyoti;

real ekspertiza ishlarida ishtirok asosiy o‘rin tutadi.

Rossiyalik olim E. R. Rossinskaya sud ekspertining kasbiy kompetensiyasi nazariy bilim va amaliy tajriba uyg‘unligida shakllanishini asoslaydi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda quyidagi asosiy yondashuvlar ajratiladi:

**1. Kompetensiyaviy yondashuv.** Bu yondashuvga ko‘ra, sud eksperti:

bilim (knowledge),

ko‘nikma (skills),

professional xulq (attitude) kompleksiga ega bo‘lishi kerak.

**2. Integratsion model.** Nazariya + amaliyot + ilmiy tadqiqot integratsiyasi asosida malaka oshirish samaradorligi ta’minlanadi.

**3. Uzluksiz ta’lim konsepsiyasi.** Sud eksperti faoliyati davomida doimiy ravishda o‘qib borishi zarur.

Tahlillar quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda:

nazariy o‘quv dasturlarining amaliyotdan uzilganligi;

nodavlat sektor uchun yagona metodik standartlarning yetishmasligi;

stajirovka tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga sust tatbiq etilishi.

Xulosa o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasida nodavlat sud ekspertiza tashkilotlarida faoliyat yurituvchi sud ekspertlarining malakasini oshirish jarayonini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

– Raqamli texnologiyalarni hamda internet-saytlar va platformalarni ishlab chiqish orqali, o‘zbek sud ekspertlarining malaka oshirishi va bilimlarini kengaytirish imkoniyatlaridan foydalanish. Xorijiy davlatlar, masalan, Kanadada, onlayn malaka oshirish kirish va baholash tizimlarini muvaffaqiyatli qo‘llashadi;

– Virtual simulyatsion laboratoriyani joriy etish: sud majlisi, dalil tekshiruvi, ekspertiza xulosasi yozish bo‘yicha trening modullari;

– Raqamli ekspertiza portfelni joriy etish: blockchain texnologiyasi asosida sertifikatlar, amaliy ishlar, sud baholari saqlanadigan shaxsiy kabinet;

– Mobil ilova ishlab chiqish: ekspertlar uchun tezkor metodik qo‘llanmalar, yangi qonunchilik o‘zgarishlari, xalqaro standartlar haqida bildirishnomalar;

– ekspertiza xulosalarini ko‘rib chiqish hamda metodik yordam berish maqsadida, har bir yangi ekspertga kamida 3 yil tajribaga ega mentor biriktirish.

## ADABIYOTLAR:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
O‘zbekiston Respublikasi “Sud ekspertizasi to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/mact/-1633102
https://online.zakon.kz.
https://continent-online.com/.
https://lex.uz.

# MA’NAVIY ZARARNI KOMPENSATSIYA QILISHNING HUQUQIY MEZONLARI: O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGI VA XALQARO TAJRIBA QIYOSIY TAHLILI

*RASULBEKOVA*
***Risolat Rasulbek qizi***
***O‘zbekiston Respublikasi***
***Adliya vazirligi***
***Yuridik ta’lim va sud-ekspertiza***
***boshqarmasi katta maslahatchisi***

**ANNOTATSIYA**

Mazkur ilmiy tahliliy maqolada ma’naviy zarar institutining nazariy-huquqiy asoslari, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi tartibga solinishi va sud amaliyoti tahlil qilingan. Olimlarning ma’naviy zarar tushunchasi, uning kompensatsiya qilish mexanizmlari bo‘yicha ilmiy yondashuvlari ilmiy tahlil qilingan. Xalqaro huquqiy tajriba (Rossiya Federatsiyasi, Yevropa Inson Huquqlari Sudi amaliyoti, MDH davlatlari) bilan qiyosiy tahlil olib borilgan. Maqola yakunida O‘zbekiston qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviy zarar, kompensatsiya, ma’naviy ziyonni qoplash, fuqarolik-huquqiy munosabatlar, shaxsiy-nomulkiy huquqlar, nomoddiy ne’matlar, ishchanlik obro‘si, shaxsiy daxlsizlik, jismoniy va ruhiy azoblar, ma’naviy ziyonning qoplash shakllari, himoya usuli, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, jabrlanuvchi, zarar yetkazuvchi, “oqilonalik va adolat”, metodik ta’minlash.

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются теоретико-правовые основы института морального вреда, его регулирование в законодательстве Республики Узбекистан и судебная практика. Проведен научный анализ подходов ученых к понятию морального вреда и механизмам его компенсации. Осуществлен сравнительный анализ с международно-правовым опытом (Российская Федерация, практика Европейского Суда по правам человека, государства СНГ). В заключение статьи разработаны научно обоснованные предложения по совершенствованию законодательства Узбекистана.

**Ключевые слова:** моральный вред, компенсация, возмещение морального вреда, гражданско-правовые отношения, личные неимущественные права, нематериальные блага, деловая репутация, личная неприкосновенность, физические и психические страдания, формы возмещения морального вреда, способ защиты, физическое лицо, юридическое лицо, потерпевший, причинитель вреда, “рациональность и справедливость” методическое обеспечение.

**ANNOTATION**

The article analyzes the theoretical and legal foundations of the institution of moral damage, its regulation in the legislation of the Republic of Uzbekistan, and judicial practice. A scientific analysis of scholars' approaches to the concept of moral damage and mechanisms for its compensation is conducted. A comparative analysis with international legal experience (Russian Federation, practice of the European Court of Human Rights, CIS countries) is carried out. At the end of the article, scientifically grounded proposals for improving Uzbekistan's legislation are developed.

**Key words:** moral harm, compensation, compensation for moral harm, civil law relations, personal and non-property rights, intangible assets, business reputation, personal inviolability, physical and mental suffering, forms of compensation for moral harm, method of protection, individual, legal entity, victim, causer of harm, “reasonableness and justice”, methodological support.

Zamonaviy huquqiy davlat qurilishi jarayonida shaxsning nomoddiy boyliklarini va nomulkiy huquqlarini himoya qilish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ma’naviy zarar instituti fuqarolik huquqining eng murakkab va bahsli masalalaridan biri bo‘lib, uning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanilishi bo‘yicha yagona yondashuv hali shakllanmagan. Ma’naviy zarar tushunchasi O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1021-1022-moddalarida belgilangan bo‘lib, ushbu normalarning mazmuni va qo‘llanilishi amaliyotda turli talqinlarga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Ma’naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 2000-yil 28-apreldagi 7-son qarori (keyingi o‘rinlarda – Plenum qarori) ma’naviy zararni qoplash masalalarini tartibga solishga qaratilgan bo‘lsa-da, sud amaliyotida kompensatsiya miqdorini aniqlashda yagona mezonlarning yo‘qligi nizolarni hal qilishda qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Ma’naviy zarar (moral damage, non-pecuniary damage) tushunchasi huquqshunoslik fanida turlicha talqin qilingan. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida ma’naviy zarar “fuqaroning sha’ni, qadr-qimmatiga dog‘ tushirilishi yoki ishbilarmonlik obro‘siga putur yetkazilishi” sifatida ta’riflangan.

Rossiyalik huquqshunos olim A.M.Ershov ma’naviy zararni “shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga yetkazilgan noqulay oqibatlar majmui” deb ta’riflaydi va kompensatsiyaning asosiy maqsadi jabrlanuvchining huquqiy holatini tiklash emas, balki unga ma’naviy tasalli berish ekanligini ta’kidlasa, Anglo-sakson va romano-german huquq tizimlariga mansub davlatlarning amaliyotlarini tahlil qilgan holda ingliz olimi **Venessa Wilcox** o‘zining ***“Kompaniyaning nomulkiy zararlarga nisbatan talab qilish huquqi”*** kitobida quyidagicha yondashuvlarni

ilgari surgan:

– ma'naviy ziyon uchun tovon faqat bir tomondan jismoniy, aqliy yoki hissiy sohalarga yoki shaxsiyat sohasiga aralashish uchun mavjud bo'lishi kerak;

– jismoniy shaxs bo'lmagan korporatsiya jismoniy, aqliy yoki hissiy sohalarda aralashuvlardan aziyat chekishi mumkin emas;

– yuqorida aytilganlarga qaramasdan, "tenglik" tamoyili shuni talab qiladiki, kompaniya o'z organlarining xatti-harakatlari uchun bevosita javobgar bo'lishi mumkinligi sababli, u prinsipial jihatdan ular tomonidan yetkazilgan ba'zi bir ma'naviy zarar uchun yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida sudga da'vo qilish huquqiga ega bo'lishi kerak;

– kompaniya nafaqat mulkiy xususiyatga ega bo'lgan "shaxsiyat"ga ega, balki, ishchanlik obro'si va boshqa "goodwill"idagi manfaatlari yuzasidan unga zarar berganlik uchun ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish huquqi mavjud bo'lishi lozim.

*Yevropa Inson Huquqlari Sudi (ECHR) amaliyotida "adolatli kompensatsiya" (just satisfaction) tamoyili asosiy o'rin tutadi. Sudning qarorlariga ko'ra, ma'naviy zarar kompensatsiyasi jabrlanuvchiga yetkazilgan azob-uqubatlarning og'irligi, huquqbuzarlikning xarakteri va oqibatlari hisobga olingan holda belgilanadi.*

*O'zbekistonlik huquqshunos olimlar ma'naviy zarar masalasiga turlicha yondashgan. Professor O.Oqyulov ma'naviy zarar shartnoma sharti buzilishi natijasida huquqi buzilgan shaxsning ruhiy iztiroblari, jismoniy va ma'naviy qiynoqlar, jamiyatdagi insof, adolat, ma'naviy tamoyillar va axloqiy me'yorlarni mensimaganlik uchun boshqa shaxslarning iztiroblarida o'z ifodasini topadi, deb hisoblaydi.*

*I.I.Nasriyevning yozishicha, ma'naviy zarar yetkazilishida g'ayriqonuniy harakatlar insonning shaxsi va uning nomulkiy, mulkiy huquqlariga qaratiladi.*

*Tadqiqotchi D.N. Muydinov ma'naviy zarar miqdorini aniqlashda "obyektiv-subyektiv mezonlar" tizimini joriy etish zarurligini ta'kidlab, quyidagi omillarni hisobga olishni taklif qiladi:*

*– jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari (yoshi, sog'lig'i, ijtimoiy mavqei);*

*– huquqbuzarlikning og'irligi va xarakteri;*

*– zarar yetkazuvchining ayb darajasi va moddiy ahvoli;*

*– huquqbuzarlikning ijtimoiy oqibatlari.*

*Xalqaro huquqshunoslikda ma'naviy zarar kompensatsiyasi bo'yicha ikki asosiy yondashuv mavjud:*

*– Kontinental huquq tizimi (Germaniya, Fransiya): kompensatsiya miqdori qat'iy mezonlar asosida belgilanadi;*

*– Anglo-amerikan huquq tizimi: sudlar keng diskretsiyaga ega bo'lib, har bir holatni individual baholaydi.*

Globallashuv sharoitida ko'pchilik davlatlar o'z iqtisodiyoti va ijtimoiy soha tarmoqlarini raqamli boshqaruvga o'tkazish jarayonini jadallik bilan davom ettirmoqda. Insonlar va kompaniyalar, qolaversa davlat organlari va fuqarolar, yuridik shaxslar o'rtasidagi huquqiy aloqalar ham raqamli texnologiyadan foydalangan holda amalga oshirilmoqda. Bu esa ayni paytda raqamli reallikning huquqiy asoslarini belgilash, raqamli munosabat ishtirokchilarining huquqlari va manfaatlarini huquqiy himoyasini belgilash hamda mazkur reallik sharoitida kelib chiqqanma'naviy ziyonni kompensatsiyalashning samarali mexanizmini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Internet tarmog'i va unda yuzaga keladigan munosabatlar huquqiy tartibga solinishi murakkab xususiyat kasb etib, ularni qonunchilik darajasida hal qilish uchun normativ-huquqiy baza rivojlanishi taqozo qiladi. Bunda quyidagi holatlar hisobga olinishi kerak, deb ta'kidlaydi, yuridik fanlari doktori, Professor Islambek Rustambekov:

birinchidan, Internet tarmog'i tushunchasiga huquqiy nuqtai nazardan aniq ta'rif berish lozim;

ikkinchidan, Internet tarmog'ining fuqarolik huquqi, jumladan, mutlaq huquq, va majburiyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar yuzaga keladigan makon sifatidagi asosiy xususiyatlarini aniqlashtirish darkor;

uchinchidan, Internet tarmog'i globalligidan kelib chiqqan holda undagi munosabatlarni kollizion-huquqiy tartibga solish masalasi barcha munosabatlarni tartibga solishda e'tiborga olinishi kerak;

to'rtinchidan, Internet tarmog'ini boshqarish mexanizmini tizimli tadqiq etish lozim, chunki mazkur mexanizm huquqiy jihatdan atroflicha o'rganib chiqilmagan.

Darhaqiqat, raqamli munosabatlarda internet jahon axborot tarmog'i sifatida foydalanuvchilar

o‘rtasidagi o‘zaro ma’lumot almashinuvini tashkil etadi. Ushbu axborot almashinuvlari oqibatida foydalanuvchilar fuqarolik-huquqiy munosabatlar, ya’ni, shartnomaviy, majburiyat-huquqiy yoxud delikt majburiyatlarining ishtirokchilariga aylanishadi. Bu esa o‘z-o‘zidan ishtirokchilarning virtual olamdagi huquq va majburiyatlari belgilashni, ularni himoya qilishni tartibga solishga qaratilgan huquqiy tizimni yaratish zaruriyatini tug‘diradi.

Raqamli munosabatlarda ma’naviy azoblar yetkazish turlari quyidagicha bo‘lishi mumkin:

• Onlayn tuhmat *(Online Defamation)*: Internetda yolg‘on ma’lumotlar tarqatilgan holatlar an’anaviy ommaviy axborot vositalariga qaraganda tezroq va kengroq obro‘ga putur yetkazishi mumkin.

• Kiberbulling va ta’qib *(Cyberbullying and Harassment)*: Internetning anonimligi tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin, bu odatda yuzma-yuz muloqotda cheklanadi.

• Maxfiylik buzilishi *(Privacy Violations)*: Shaxsiy ma’lumotlarni ruxsatsiz almashish yoki sizib chiqishi jiddiy qayg‘u va xavotirga olib kelishi mumkin.

Hayotiy misollardan biri, Fransiyadagi muhim voqeada, blogger internetda mashhur bir restoran haqida e’lon qilingan tuhmatli sharh uchun jarimaga tortilgan hamda oqibatida restoran egasiga ma’naviy zarar yetkazgan. Ushbu ish sudlar zarar darajasini va raqamli muhitda tegishli kompensatsiyani aniqlashda duch keladigan qiyinchiliklarni ta’kidlaydi.

Xuddi shunday, raqamli munosabatlar rivojida shaxslarga ma’naviy ziyon yetkazilishi aktual masalalardan biriga aylanib bormoqda. Chunki, hozirgi kunda hayotimizni internet, ijtimoiy tarmoqlar, boshqa axborot almashinuvi vositalarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ayniqsa, aqlli texnikalar, kompyuter, smartfon, video kuzatuv jihozlari takomillashuvi o‘z navbatida shaxslarning shaxsiy nomulkiy huquqlariga yangi tahdidlarni yarata boshladi. Misol uchun, smartfonlar orqali rasm va videotasvirga olish, uni qayta ishlash hamda boshqa vositalarga uzatish, ovozlarni yozib olish va tarqatish, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish kabi bie necha funksiyalar amalga oshiriladi. Shuningdek, kompyuter yoki boshqa qurilmalar orqali jahon bo‘ylab kontragentlar bilan shartnomalar tuzish, muayyan elektron platformalarga shaxsiy ma’lumotlarni yuklash, electron imzolarni qo‘yish kabi harakatlat amalga oshiriladi. bunday harakatlarning ba’zilari ishonchli va kiberhujumlardan himoya qilinganligiga qaramay, ba’zilari hali ham foydalanuvchilarga turli zararlarni yetkazmoqda.

Ya’na bir amaliyotchi-huquqshunosning ta’kidlashicha, hozirda internet tarmog‘ida tarqalayotgan fuqaroning sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sini kamsitadigan ma’lumotlarning tarqalishi yoki boshqa ma’naviy ziyon yetkazilishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlarning sodir etilayotganligi holatlari ko‘plab uchrab turibdi. Biroq shaxs elektron pochta ochganida, ijtimoiy tarmoqlarda profil yoki akkuant tuzganda ulardan foydalanish tartibini belgilovchi kelishuv taqdim etiladi. Unga rozi bo‘lsangizgina foydalanishga ruxsat beriladi. Bunday kelishuvlarning deyarli barchasida foydalanuvchiga sha’n, qadr-qimmatni kamsituvchi ma’lumotlarni tarqatmaslik majburiyati belgilangan. Xatto, “Mail.Ru” kompnaiyasi tomonidan taqdim etilgan foydalanuvchilar uchun kelushuv matnining 5.2.2-bandida, har qanday zarar yetkazuvchi, shu jumladan ma’naviy ziyon yetkazuvchi ma’lumotlar tarqatish, kiritish taqiqlanishi ko‘rsatilgan.

*Bugunki kunda, rivojlanib borayotgan raqamli dunyo va ijtimoiy tarmoqlar salmog‘i fuqarolik-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishiga zamin yaratar ekan, ularda amalga ishirilayotgan harakatlar ham muayyan normalar asosida tartibga solinishni taqozo etadi. Xususan, shaxslarning internet orqali shartnomaviy yoki shartnomadan tashqari munosabatga kirishishi orqali yuzaga kelgan majburiyatlari oqibatida mulkiy zararlar va ma’naviy ziyonlar fuqarolik-huquqiy munosabat subyektlarining huquq va manfaatlarini virtual olamda himoya qilish usullarini takomillashtirishni ustuvor vazifa sifatida oldimizga qo‘yadi.*

*Elektron bitimning lozim darajada bajarilmasligi, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsga doir sir va ma’lumotlarning yolg‘on va g‘arazli maqsadlarda tarqatilishi shaxga ruhiy azob va jismoniy og‘riqlar yetkazishi tabiiy. Ammo, yuqorida tahlil qilinganidek, bunday vaziyatlarda o‘z huquqlarini himoya qilayotgan jarblanuvchi shaxs huquqbuzar shaxsini aniqlash, fuqarolik protsessual qoidalardan kelib chiqib, maqbul va ishonchli dalillar yig‘ish borasida muayyan qiyinchiliklarga duch keladi.*

*Bundan tashqari, kompensatsiya miqdorini aniqlashda yagona mezonlarning yo‘qligi hamda sudlar tomonidan har bir holatni individual*

*baholashga zarurati mavjudligi sababli o‘xshash holatlarda turli miqdordagi kompensatsiyalar belgilanmoqda.*

Germaniya huquqida ma’naviy zarar shaxsning nomoddiy huquqlariga yetkazilgan shikast sifatida ko‘riladi, uni naturada tiklash mumkin emas, shuning uchun u pul bilan qoplanadi. Germaniya Federal Oliy sudi (BGH) bu institutni ikki funksiyali deb talqin qiladi: birinchisi – Ausgleich (qoplash), ya’ni jabrlanuvchining yo‘qotilgan ruhiy osoyishtaligi va hayotdan zavqlanish imkoniyatini tiklash; ikkinchisi – Genugtuung (qanoat), ya’ni aybdor shaxsning xatti-harakatini tan olish orqali jabrlanuvchiga adolat hissini qaytarish.

Ma’naviy zarar ayb mavjud bo‘lsagina qoplanadi, ya’ni shaxsning qasddan yoki ehtiyotsizlik bilan huquqbuzarlik sodir etishi shart. Shu bilan birga, 829-paragraf asosida ayrim hollarda aybsiz shaxs ham adolat tamoyiliga ko‘ra ma’naviy zarar uchun javobgar bo‘lishi mumkin. Kompensatsiya miqdorini sud har bir ish bo‘yicha individual ravishda belgilaydi. Bunda azobning davomiyligi, og‘irligi, qaytarilmas oqibatlari, jabrlanuvchining yoshi, kasbiy faoliyatiga, ruhiy holatiga va hayot sifatiga ta’siri inobatga olinadi.

Buyuk Britaniya huquq tizimida ma’naviy zarar (non-pecuniary loss yoki general damages) uchun kompensatsiya olish masalasi asosan sud amaliyoti va Huquqiy Komissiya (Law Commission) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar orqali tartibga solinadi. Bu tizimda ma’naviy zarar uchun tovon miqdori qat’iy qonuniy tarzda belgilanmagan, biroq sudlar uchun yo‘l-yo‘riq xarakteriga ega metodik hujjatlar mavjud.

Huquqiy Komissiya bu boradagi dastlabki tavsiyalarni 1970-yillarda ishlab chiqqan bo‘lib, sudyalar tomonidan ma’naviy zarar miqdorini aniqlashda yordam beruvchi baholash mezonlarini shakllantirgan. 1990-yillarda Komissiya “namunaviy zarar” (exemplary damages) va “nomoddiy zarar” (non-pecuniary damages) institutlarini o‘rgangan hamda 1997-yilda maxsus hisobot e’lon qilgan. Keyinchalik 1999-yilda jismoniy jarohat holatlarida tibbiy xarajatlar va ruhiy zararlarni hisoblash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

*Yevropa Inson Huquqlari Sudi amaliyotida ma’naviy zarar kompensatsiyasi Konvensiyaning 41-moddasi (“Adolatli kompensatsiya”) asosida belgilanadi. Sudning qarorlariga ko‘ra, ma’naviy zarar kompensatsiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:*

*– Haqiqiy zarar tamoyili: Kompensatsiya faqat isbotlangan haqiqiy azob-uqubatlar uchun beriladi;*

*– Proporsionallik tamoyili: Kompensatsiya miqdori huquqbuzarlikning og’irligiga proporsional bo‘lishi kerak;*

*– Subsidiarlik tamoyili: Milliy sudlar birinchi navbatda jabrlanuvchi huquqlarini himoya qilishi kerak.*

*Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat mamlakatlar huquqiy amaliyotida ma’naviy ziyon insonning shaxsiy, ya’ni jismoniy va ruhiy kechinmalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunday holatlar yuridik shaxslarga xos emasligi e’tirof etiladi. Xususan, Fuqarolik kodeksining 1022-moddasida ma’naviy ziyonni qoplash miqdori jabrlanuvchiga yetkazilgan jismoniy va ruhiy azoblarning xususiyatidan kelib chiqib sud tomonidan belgilanadi hamda bunda har bir ishning aniq holatlari va jabrlanuvchining individual xususiyatlari inobatga olinadi. Demak, yuridik shaxslar jismoniy yoki ma’naviy azoblarni boshdan kechirmasligi sababli, ularning javobgarligi, asosan, ishchanlik obro‘siga yetkazilgan zarar natijasida boy berilgan daromadni undirish bilan cheklanishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, xorijiy tajribani inobatga olib, yuridik shaxslarning nomulkiy ne’matlariga putur yetkazilganda yuzaga keladigan ziyonni (non-pecuniary loss) qoplash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.*

*Bundan tashqari, amaldagi qonunchilik sudlardan ma’naviy ziyon miqdorini belgilashda jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlarini e’tiborga olishni hamda baholashni oqilonalik va adolatlilik tamoyillariga asoslangan holda amalga oshirishni talab etadi. Biroq, sud amaliyotida ushbu masalalarda yagona yondashuvning yetishmasligi, kompensatsiya miqdorlarini belgilashda turlicha qarorlar qabul qilinishiga olib kelmoqda. Bu esa ayrim hollarda adolatsiz kompensatsiya yoki asossiz boyish holatlarining yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, ma’naviy ziyon miqdorini aniqlash jarayonini metodik jihatdan ta’minlash, xususan, ilg‘or xorijiy tajribaga tayangan holda sudlar va jabrlanuvchilar uchun tavsiyaviy xususiyatga ega metodikani ishlab chiqish mazkur institutning samarali ishlashini ta’minlaydi.*

## ADABIYOTLAR

1. Zarar yetkazishdan kelib chiqadigan (delikt) majburiyatlar. N.Imomov, N.Egamberdiyeva, N.Ashurova. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDYI nashriyoti, 2013.

2. *Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т.* II: Обязательственное право. / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. – М.: Статут, 2011.

3. Oqyulov O. Fuqarolik-huquqiy javobgarlikni qo‘llash asoslari // Qonun himoyasida. 1999. - №9.

4. A company’s right to damages for non-pecuniary loss. Vanessa Wilcox. University Printing House, Cambridge CB2 8BS, United Kingdom. Vanessa Wilcox 2016.

5. *Эрделевский А.М. Компенсация морального вреда: анализ и комментарий законодательства и судебной практики. – 3-е изд., испр. И доп. – М.: Волтерс Клувер, 2004.*

6. Ma’naviy ziyon kompensatsiyasi. Monografiya. Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich. – T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2023.

7. *Вешкурцева З.В. Компенсация морального вреда при нарушении личных неимущественных прав и при посягательстве па нематериальные блага: автореф. дис. канд. юрид. наук. – М.: 2018.*

8. Jonathan Shay. Moral injury / Colrain, Massachusetts. Psychoanalytic Psychology © 2014 American Psychological Association. 2014, Vol. 31, No. 2, 182–191 0736-9735/14/$12.00 DOI:10.1037/a0036090.

9. Yves-Louis Sage. French law of delict: the role of fault and the principles governing losses and remedies// https://www.wgtn.ac.nz/law/research/publications/about-nzacl/publications/cljpjd-cp-journals/volume-2,1996/Sage.pd

10. *Насриев И.И. Маънавий зарар, уни қоплашнинг айрим муаммолари // Ҳуқуқий тадқиқотлар журнали. Журнал правовых исследований. Journal of Law Research. 2017. - №3.* www.tadqiqot.uz

11. Goodin, R. (1991). Theories of compensation. In R. Frey & C. Morris (Eds.), Liability and Responsibility: Essays in Law and Morals (pp. 257–289). Cambridge: Cambridge University Press.

12. Madeleine Hayenhjelm. COMPENSATION AS MORAL REPAIR AND AS MORAL JUSTIFICATION FOR RISKS. A Journal in Moral and Political Philosophy.

13. *Гражданское уложение Германии: Вводный закон к Гражданскому уложению. М.: Инфотропик Медиа, 2015. Доступ из справ. – прав. системы «КонсультантПлюс».*

14. *Пастухова А.Е.* Справка по компенсации морального вреда в немецком праве.

15. *Артеменко Наталия Сергеевна. МЕТОДЫ РАСЧЕТА СУММ ВОЗМЕЩЕНИЯ НЕМАТЕРИАЛЬНОГО ВРЕДА В ИТАЛИИ.*

16. Codice civile (Regio Decreto del 16 marzo 1942, n. 262), Gazzetta Ufficiale n. 79 Del 04/04/1942.

17. Decreto legislativo Del 07/09/2005 n. 209 “Codice delle assicurazioni private”, Gazzetta Ufficiale del 13/10/2005.

18. Tribunale di Milano. Osservatorio Sulla giustizia civile di Milano. Tabelle per la liquidazione del danno non patrimoniale − Edizione 2018 // https://www.tribunale.milano.it/index.phtml?Id_VMenu=1&daabstract=847

19. *Терещенко А.В. Компенсация морального вреда // Закон и жизнь.* 2018. Т. 2, № 4.

20 . O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. URL: https://lex.uz/docs/111189

21. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini tasdiqlash haqida”gi Qonun loyihasi // URL: https://regulation.gov.uz/uz/d/29059

22. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Ma’naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi 7-sonli qarori. URL: https://lex.uz/docs/-1449509

# KORPORATIV BOSHQARUVDA SUN'IY INTELLEKT: FIDUTSIAR MAJBURIYATLAR, KOMPLAYENS VA RISK-MENEJMENT KESIMIDA HUQUQIY TAHLIL

***SAYFULLAYEVA Mahbuba Azim qizi***
***Toshkent davlat yuridik universiteti, "Biznes huquqi" yo'nalishi magistranti***

**ANNOTATSIYA**

Mazkur ilmiy maqolada korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanish masalasi direktorlarning fiduciary duties majburiyatlari, compliance tizimi va risk-menejment mexanizmlari kesimida huquqiy tahlil qilingan. Korporativ munosabatlar tizimida raqamlashtirish jarayonlari boshqaruv samaradorligini oshirish, axborot almashinuvini tezlashtirish va ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan bo'lsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirish bilan birga, yangi huquqiy va institutsional xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda sun'iy intellektning direktorlar kengashi faoliyati, strategik qarorlar qabul qilish, compliance monitoringi va korporativ risklarni baholashdagi o'rni o'rganilib, uning korporativ boshqaruv samaradorligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellektdan foydalanish sharoitida direktorlarning ehtiyotkorlik, sodiqlik, xabardorlik asosida qaror qabul qilish hamda nazoratni amalga oshirish majburiyatlari tahlil qilingan. Natijalar sun'iy intellekt korporativ boshqaruvda muhim yordamchi vosita bo'lishi mumkinligini, biroq u boshqaruv organlarining insoniy nazorati va huquqiy javobgarligini almashtirmasligini ko'rsatdi. Maqola yakunida korporativ boshqaruvda sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha inson nazorati, algoritmik shaffoflik, compliance auditi va riskka asoslangan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** korporativ boshqaruv, sun'iy intellekt, fiduciary duties, compliance, risk-menejment, direktorlar kengashi, inson nazorati, algoritmik shaffoflik, korporativ javobgarlik, huquqiy tartibga solish.

## АННОТАЦИЯ

В данной научной статье проводится правовой анализ использования искусственного интеллекта в корпоративном управлении в контексте fiduciary duties директоров, системы compliance и механизмов риск-менеджмента. Если цифровизация корпоративных отношений способствовала повышению эффективности управления, ускорению обмена информацией и совершенствованию механизмов внутреннего контроля, то внедрение технологий искусственного интеллекта, наряду с дальнейшим углублением данных процессов, порождает новые правовые и институциональные риски. В рамках исследования рассматривается роль искусственного интеллекта в деятельности совета директоров, принятии стратегических решений, compliance-мониторинге и оценке корпоративных рисков, а также раскрывается его влияние на эффективность корпоративного управления. Кроме того, анализируются обязанности директоров действовать добросовестно, разумно, осмотрительно, на основе достаточной информированности, а также осуществлять надлежащий контроль при использовании искусственного интеллекта. Полученные результаты показывают, что искусственный интеллект может выступать важным вспомогательным инструментом в корпоративном управлении, однако он не заменяет человеческий контроль и юридическую ответственность органов управления. В заключение статьи обосновывается необходимость совершенствования механизмов человеческого контроля, алгоритмической прозрачности, compliance-аудита и риск-ориентированного управления при использовании искусственного интеллекта в корпоративном управлении.



**Ключевые слова:** корпоративное управление, искусственный интеллект, fiduciary duties, compliance, риск-менеджмент, совет директоров, человеческий контроль, алгоритмическая прозрачность, корпоративная ответственность, правовое регулирование.



## ANNOTATION

This scientific article provides a legal analysis of the use of artificial intelligence in corporate governance through the lens of directors’ fiduciary duties, compliance systems and risk management mechanisms. While the digitalization of corporate relations has contributed to improving management efficiency, accelerating information exchange and strengthening internal control mechanisms, the introduction of artificial intelligence technologies further deepens these processes while also creating new legal and institutional risks. The study examines the role of artificial intelligence in the activities of the board of directors, strategic decision-making, compliance monitoring and corporate risk assessment, as well as its impact on the effectiveness of corporate governance. It also analyzes directors’ duties to act in good faith, with due care, loyalty and sufficient information, and to exercise proper oversight when artificial intelligence is used. The results show that artificial intelligence may serve as an important supporting tool in corporate governance; however, it does not replace human oversight or the legal responsibility of management bodies. The article concludes by substantiating the need to improve mechanisms of human oversight, algorithmic transparency, compliance audit and risk-based management in the use of artificial intelligence in corporate governance.



**Keywords**: corporate governance, artificial intelligence, fiduciary duties, compliance, risk management, board of directors, human oversight, algorithmic transparency, corporate liability, legal regulation.

## KIRISH

Korporativ munosabatlar tizimida raqamlashtirish jarayonlari boshqaruv samaradorligini oshirish, axborot almashinuvini tezlashtirish hamda ichki nazorat mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qilgan bo‘lsa, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirish bilan birga, yangi huquqiy va institutsional xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellektning direktorlar kengashi faoliyati, komplayens monitoringi, risk-menejment, moliyaviy prognozlash, kiberxavfsizlik nazorati va strategik qarorlarni tayyorlash jarayonlariga kirib kelishi korporativ boshqaruvning an’anaviy nazariy va huquqiy chegaralarini qayta baholashni talab etadi. Chunki bunday sharoitda masala sun’iy intellektdan foydalanishning texnik imkoniyatlari bilangina cheklanmaydi; aksincha, direktorlarning fidutsiar majburiyatlari, inson nazorati, algoritmik shaffoflik, manfaatlar to‘qnashuvi va korporativ javobgarlik chegaralarini aniqlash zarurati birinchi o‘ringa chiqadi.

Korporativ boshqaruv nazariyasida mazkur institut bu mulk shaklidan qat’i nazar amaldagi huquqiy-me’yorlarga asoslanib, boshqaruvning ma’lum bir tamoyillari asosida korxona maqsadiga erishish uchun amalga oshiriluvchi faoliyat majmuidir deb talqin qilinadi [1]. D. Suyunov va X. Elmirzayevlar korporativ boshqaruvni mulk shaklidan qat’i nazar, korxona maqsadiga erishish uchun amaldagi huquqiy normalar va boshqaruv tamoyillari asosida amalga oshiriladigan faoliyat majmui sifatida izohlaydi [2]. Ushbu yondashuv korporativ boshqaruvni faqat aksiyadorlik jamiyatlari doirasida emas, balki aksiyadorlar, kuzatuv kengashi, ijroiya organi, menejerlar va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar nisbatini belgilovchi kengroq institutsional mexanizm sifatida tushunishga imkon beradi.

Xalqaro standartlarda ham korporativ boshqaruvning markazida kompaniya strategiyasini belgilash, menejment faoliyatini nazorat qilish, aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash hamda boshqaruv organlarining hisobdorligini kuchaytirish vazifalari turadi. Xususan, G20/OECD korporativ boshqaruv prinsiplari direktorlar kengashi kompaniya strategiyasini yo‘naltirishi, menejment faoliyatini monitoring qilishi, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olishi, risk-menejment va compliance tizimlari ustidan nazoratni amalga oshirishi lozimligini belgilaydi [3]. O‘zbekiston qonunchiligida ham korporativ boshqaruvning tashkiliy-huquqiy asoslari aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv organlari tizimi orqali ifodalanadi. “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlari hisoblanadi [4].

Korporativ boshqaruvning milliy modelida Korporativ boshqaruv kodeksi ham muhim amaliy ahamiyatga ega. Kodeks aksiyadorlik jamiyatlari uchun axborot siyosati, ichki nazorat, dividend siyosati, manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelganda harakat qilish tartibi kabi ichki hujjatlarni ishlab chiqishni tavsiya qiladi. Bu esa korporativ boshqaruvni faqat organlar tizimi sifatida emas, balki ichki nazorat, shaffoflik, “compliance” va manfaatlar muvozanatini ta’minlovchi ichki korporativ tartiblar majmui sifatida ham baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt aynan shu korporativ boshqaruv mexanizmlarining bir qator bosqichlariga integratsiya qilinishi mumkin. Birinchidan, u direktorlar kengashi va ijroiya organi uchun strategik qarorlar qabul qilishda katta hajmdagi moliyaviy, bozor va operatsion ma’lumotlarni tahlil qilish orqali prognozlash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ikkinchidan, compliance tizimida qonunchilik talablariga rioya etilishi, manfaatlar to‘qnashuvi, affillangan shaxslar bilan bitimlar, korrupsiyaviy xavflar va ichki siyosatlarga muvofiqlikni monitoring qilishda qo‘llanishi mumkin. Uchinchidan, risk-menejment doirasida moliyaviy, reputatsion, operatsion, kiberxavfsizlik va shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish bilan bog‘liq xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi. NIST tomonidan ishlab chiqilgan AI Risk Management

Framework sun’iy intellekt xavflarini shaxslar, tashkilotlar va jamiyat darajasida boshqarish zarurligini ta’kidlaydi, bu esa SI xavflarini korporativ risk-menejment tizimining alohida tarkibiy qismi sifatida baholashni talab qiladi [5].

O‘zbekiston sharoitida ushbu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi elektron hukumat, raqamli industriya, raqamli ta’lim va raqamli infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha yo‘l xaritalarini belgilagan bo‘lsa, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qaror bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi” ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun huquqiy, texnologik va iqtisodiy asoslarni shakllantirishni nazarda tutadi. Strategiyada sun’iy intellekt bo‘yicha normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, xalqaro tajriba asosida qonunchilikni takomillashtirish, xavfsizlik va etika talablarini joriy etish kabi vazifalar belgilangan.

Biroq korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanish alohida huquqiy muammolarni keltirib chiqaradi. Agar direktorlar kengashi SI tizimlari tomonidan tayyorlangan tahlil, prognoz yoki tavsiyalarga tayanib qaror qabul qilsa, bunday qaror uchun javobgarlik algoritmga emas, balki qarorni qabul qilgan yoki uni nazorat qilishi lozim bo‘lgan boshqaruv organlariga yuklanadi [6]. Shu sababli sun’iy intellektdan foydalanish direktorlarning duty of care, duty of loyalty va duty of oversight mazmunidagi majburiyatlarini yangi texnologik sharoitga mos ravishda kengaytiradi. Direktorlar SI tavsiyasining manbasi, ma’lumotlar sifati, algoritmik xatolik ehtimoli, shaxsga doir ma’lumotlar bilan ishlash tartibi va kompaniya manfaatlariga muvofiqligini baholashi lozim.

Yevropa Ittifoqining sun’iy intellektni tartibga solish tajribasi bu borada muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. 2024-yilda qabul qilingan “AI Act”ning 15-moddasi “Yuqori xavfli sun’iy intellekt tizimlari tegishli darajada aniqlik, mustahkamlik va kiberxavfsizlikka erishishi va butun hayot aylanishi davomida ushbu jihatlarda izchil ishlashi uchun ishlab chiqilishi va ishlab chiqilishi kerak” deb belgilangan [7] Xususan, “AI Act”da yuqori xavfli SI tizimlari butun hayotiy sikl davomida uzluksiz risk-menejment jarayoni asosida boshqarilishi, inson nazorati esa AI tizimi noto‘g‘ri ishlaganda yoki salbiy oqibatlar yuzaga kelganda insonning aralashuvini ta’minlaydigan mexanizm sifatida qaralishi belgilangan.

Shu asosda korporativ boshqaruvda sun’iy intellekt mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki inson nazorati ostida qo‘llaniladigan yordamchi boshqaruv vositasi sifatida baholanishi lozim. Uning direktorlar kengashi, komplayens bo‘linmalari va risk-menejment tizimlariga integratsiyasi korporativ qarorlar sifatini oshirishi, ichki nazoratni kuchaytirishi va risklarni oldindan aniqlash imkonini berishi mumkin. Biroq bu imkoniyatlar algoritmik shaffoflik, inson nazorati, huquqiy javobgarlik va axborot xavfsizligi bilan bog‘liq kafolatlar orqali muvozanatlashtirilmasa, sun’iy intellekt korporativ boshqaruvni kuchaytiruvchi emas, aksincha, boshqaruvdagi javobgarlik va hisobdorlikni mavhumlashtiruvchi omilga aylanishi mumkin. Shu sababli ushbu maqolada korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanish direktorlarning fiduciary duties majburiyatlari, compliance tizimi va risk-menejment mexanizmlari kesimida huquqiy tahlil qilinadi.

## Metodlar.

Mazkur maqolada korporativ boshqaruvda sun’iy intellektdan foydalanish masalasi normativ-huquqiy, qiyosiy-huquqiy va doktrinal tahlil metodlari asosida o‘rganildi. Normativ-huquqiy tahlil orqali O‘zbekiston Respublikasining korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyatlari, raqamlashtirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga oid huquqiy hujjatlari, shuningdek Yevropa Ittifoqining sun’iy intellektni tartibga solishga qaratilgan asosiy yondashuvlari tahlil qilindi.

Qiyosiy-huquqiy metod O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi tajribasida sun’iy intellektdan foydalanishda “human oversight”, javobgarlik, “algorithmic transparency” va riskka asoslangan tartibga solish masalalarini solishtirish imkonini berdi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqining xavfga asoslangan modeli O‘zbekiston korporativ boshqaruv tizimida sun’iy intellektni joriy etish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni shakllantirish nuqtayi nazaridan baholandi.

Doktrinal tahlil metodidan esa “fiduciary duties”, “compliance” va “risk management” tushunchalarining korporativ huquqdagi mazmuni-

ni ochib berishda foydalanildi. Ushbu metod orqali sun’iy intellektdan foydalanish direktorlarning “duty of care”, “duty of loyalty”, xabardorlik asosida qaror qabul qilish va “duty of oversight” majburiyatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi aniqlashtirildi. Yakunda tahlil natijalari umumlashtirilib, korporativ boshqaruvda sun’iy intellektni inson nazorati, “compliance audit” va risk-menejment mexanizmlari bilan uyg‘unlashtirish zarurligi asoslab berildi.

**Muhokama va natijalar**

Xorijiy amaliyot shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt korporativ boshqaruvga allaqachon kirib kelgan bo‘lsa-da, u hozircha ko‘proq qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlovchi, tahliliy, monitoring va risklarni boshqarishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni amaliyotda SI korporativ organlarning huquqiy o‘rnini to‘liq egallab olgani emas, balki ular faoliyatining axborot-tahliliy infratuzilmasini sezilarli darajada kuchaytirayotgani kuzatiladi. Shu sababli xorijiy tajribani baholashda ikki muhim mezonni ajratish lozim: birinchisi, AI’ning funksional roli; ikkinchisi esa, SI ishtirokida qabul qilingan qarorlar uchun huquqiy javobgarlikning kim zimmasida qolishi masalasi [8].

Birinchi yo‘nalish sifatida SI dan direktorlar kengashi yoki investitsiya qo‘mitasi darajasida board adviser, ya’ni tahliliy maslahatchi sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadigan misol – Deep Knowledge Ventures tomonidan 2014-yilda “VITAL” tizimining qo‘llanilganidir. Rasmiy xabarga ko‘ra, VITAL life sciences kompaniyalari bo‘yicha moliyalashtirish tendensiyalari, tarixiy datasetlar hamda investitsion muvaffaqiyatni prognozlashga xizmat qiluvchi parametrlarni tahlil qilgan. Mazkur holat tashqi ko‘rinishda “AI board member” sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, huquqiy nuqtayi nazardan u AI’ning mustaqil direktor maqomini olganini emas, balki murakkab investitsion due diligence jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiluvchi algoritmik yordamchi vosita sifatida ishlatilganini anglatadi. Aynan shu jihat muhim: korporativ huquqda direktorlik maqomi nafaqat ovoz berish yoki tavsiya berish funksiyasi, balki fidutsiar majburiyatlar, sodiqlik, ehtiyotkorlik va javobgarlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli VITAL kabi tizimlar “qaror qabul qiluvchi subyekt” emas, balki “qaror qabul qilishga ta’sir etuvchi vosita” sifatida baholanishi ilmiy jihatdan ancha asosli ko‘rinadi [9].

Ikkinchi yo‘nalish – sun’iy intellektning yuqori boshqaruv jamoasi tarkibida menejment ishtirokchisi sifatida sinovdan o‘tkazilishi – Tieto tajribasida yaqqol ko‘rinadi. 2016-yilda kompaniya “Alicia T” nomli sun’iy intellekt tizimini yangi data-driven businesses bo‘linmasining liderlik jamoasi tarkibiga kiritganini ma’lum qilgan. Manbada “Alicia T”ning asosiy vazifasi boshqaruv jamoasiga datalarga asoslangan qarorlar qabul qilishda ko‘maklashish, avtomatik intellekt va ilg‘or analitikalar orqali yangi biznes g‘oyalarni shakllantirish, shuningdek “conversational interface” orqali savol-javob asosida ishlash ekani ko‘rsatilgan [10]. Ushbu tajriba shuni anglatadiki, AI korporativ boshqaruvning institutsional tuzilmasiga formal ravishda “qo‘shilishi” mumkin, biroq uning real funksiyasi baribir analitik va konsultativ yordam bilan cheklanadi. Demak, Alicia T tajribasi korporativ boshqaruvda “inson + algoritm” kooperativ modeli paydo bo‘layotganini ko‘rsatadi.

Uchinchi keys – NetDragon Websoft tomonidan 2022-yilda “Tang Yu” nomli AI-powered virtual humanoid robotning sho‘ba kompaniyaga rotating CEO sifatida tayinlanishi – masalani yanada murakkablashtiradi. Rasmiy bayonotda Tang Yu “AI + management” strategiyasining elementi sifatida taqdim etilib, unga jaryaon oqimini soddalashtirish, ijro tezligini oshirish, ish sifati monitoringi, real-time data hub va analytical tool sifatida kundalik operatsiyalarda ratsional qaror qabul qilishni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek risk management tizimini kuchaytirish kabi funksiyalar yuklatilgani qayd etilgan [11]. Biroq huquqiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu yerda ham “CEO” atamasi ko‘proq ramziy yoki innovatsion boshqaruv brendingi xususiyatiga ega bo‘lib, korporativ organ sifatida CEO zimmasiga yuklanadigan klassik fidutsiar va delikt javobgarlikning AI zimmasiga real ravishda o‘tganini anglatmaydi. Aksincha, bunday model SI dan operatsion boshqaruvni optimallashtirish, ma’lumot oqimini tezlashtirish va risklarni erta aniqlash vositasi sifatida foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bois Tang Yu tajribasi korporativ boshqaruv tarixida muhim eksperiment bo‘lsa-da, u SIni mustaqil huquq subyekti sifatida emas, balki boshqaruvni algoritmik kuchaytirish instrumenti sifatida ko‘rsatadi [11].

To‘rtinchi yo‘nalish – AI’dan compliance

va risk management jarayonlarida foydalanish – amaliy jihatdan eng barqaror va tez kengayayotgan modeldir. J.P. Morgan materiallariga ko‘ra, bank sun’iy intellektdan to‘lovlarni tekshirish va validatsiya qilish, noto‘g‘ri ijobiy natijalar ulushini kamaytirish, navbat va ish oqimlarini samarali boshqarish, shuningdek, mijozlarga zarur vaqtda pul oqimlari tahlili bo‘yicha avtomatlashtirilgan xulosalar taqdim etishda foydalanmoqda. Manbada qayd etilishicha, ushbu texnologiyalarni qo‘llash natijasida hisobvaraqlarni validatsiya qilish bo‘yicha rad etish holatlari 15–20 foizga qisqargan. Bu tajriba korporativ boshqaruv uchun juda muhim xulosa beradi: zamonaviy compliance tizimi endi faqat post factum insoniy nazoratga emas, balki real vaqt rejimida ishlovchi algoritmik monitoringga ham tayana boshlagan [12].

Muhokama nuqtayi nazaridan, ushbu amaliyotlar bitta fundamental xulosaga olib keladi: AI korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishi, strategik qarorlar sifati va tezligini yaxshilashi, risklarni erta aniqlash imkonini berishi mumkin, biroq u inson direktorlar va mansabdor shaxslarning fidutsiar majburiyatlarni bekor qilmaydi. Aksincha, SI keng qo‘llanilgan sari direktorlar zimmasidagi duty of care, duty of oversight va ayrim hollarda disclosure bilan bog‘liq majburiyatlar yanada kuchayadi. Chunki SI tavsiyalariga haddan tashqari tayanish, modelning training data sifati va xatolik ehtimolini tekshirmaslik, algoritmik qarorlarning izohlanishini ta’minlamaslik yoki muhim AI risklarini board darajasida muhokama qilmaslik boshqaruvning yetarli darajada amalga oshirilmaganini ko‘rsatishi mumkin [13]. Zamonaviy yondashuvlarda AI endi shunchaki IT vositasi emas, balki “board-level risk, compliance va reputational exposure” manbai sifatida baholanmoqda.

Shu jihatdan, xalqaro yondashuvlar korporatsiyalar uchun kamida beshta amaliy talabni ilgari suradi: birinchidan, SI qo‘llanilayotgan muhim biznes jarayonlari bo‘yicha aniq boshqaruv strukturasini yaratish; ikkinchidan, model risk, data quality va bias bilan bog‘liq xavflarni doimiy monitoring qilish; uchinchidan, muhim SI hodisalari bo‘yicha board’ni o‘z vaqtida xabardor etish; to‘rtinchidan, sun’iy intellektdan foydalanishga oid written policies va hujjatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish; beshinchidan esa, direktorlar va top-management uchun SI savodxonligini oshirish. Bunday talablar NIST AI Risk Management Framework va OECD AI Principles’da aks etgan ishonchlilik, shaffoflik, xavfsizlik, inson nazorati va accountability tamoyillari bilan uyg‘unlashadi.

**Xulosa**

Korporativ boshqaruvda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish boshqaruv qarorlarining tezkorligi, aniqligi va tahliliy asoslanganligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalarni joriy etish korporativ boshqaruvning an’anaviy huquqiy tamoyillarini, xususan, direktorlar va boshqaruv organlarining ehtiyotkorlik, sodiqlik, nazorat va hisobdorlik majburiyatlarini yangicha baholashni talab etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, SI korporativ boshqaruvda mustaqil qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki inson nazorati ostida qo‘llaniladigan yordamchi vosita sifatida qaralishi lozim. U boshqaruv organlarining huquqiy javobgarligini kamaytirmaydi, aksincha, qaror qabul qilish jarayonida ma’lumotlar sifati, algoritmik xatolik ehtimoli, manfaatlar to‘qnashuvi va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflarni oldindan baholash zaruratini kuchaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarini korporativ boshqaruvga joriy etish istiqbollari mavjud. Biroq bu jarayonni faqat texnologik rivojlanish yoki raqamlashtirish nuqtayi nazaridan baholash yetarli emas. Milliy korporativ boshqaruv amaliyotida SIdan foydalanish bo‘yicha ichki siyosatlar, kuzatuv kengashi darajasida nazorat tartiblari, sun’iy intellekt tavsiyalariga asoslangan qarorlarni hujjatlashtirish mexanizmlari va algoritmik xavflarni baholash mezonlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, SI korporativ boshqaruvni almashtiruvchi emas, balki uni takomillashtiruvchi vosita sifatida huquqiy baholanishi kerak. Uning maqbul qo‘llanilishi boshqaruv organlarining javobgarligini mavhumlashtirmasdan, aksincha, qarorlar sifati, shaffoflik, nazorat va korporativ hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qilishi lozim.

## ADABIYOTLAR

1. Суюнов Д. Корпоратив бошқарув механизми: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: Академия, 2007. – 319 б.

2. Suyunov D.X., Elmirzayev S.E. - Korporativ boshqaruv, – Toshkent: Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi 2021. - 448bet.

3. OECD. (2023). G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/ed750b30-en

4. O‘zbekiston Respublikasi. (2014). “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahriri. O‘RQ-370-son, 6-may 2014-yil.

5. National Institute of Standards and Technology. (2023). Artificial Intelligence Risk Management Framework (AI RMF 1.0). U.S. Department of Commerce. https://doi.org/10.6028/NIST.AI.100-1

6. Mertens, F. (2023). The use of artificial intelligence in corporate decision-making at board level: A preliminary legal analysis. Financial Law Institute Working Paper Series, WP 2023-01. Ghent University.

7. European Parliament and the Council of the European Union, Regulation (EU) 2024/1689 of 13 June 2024 laying down harmonised rules on artificial intelligence (Artificial Intelligence Act), Official Journal of the European Union, L 2024/1689, 12 July 2024.

8. Deep Knowledge Ventures. “Deep Knowledge Venture’s Appoints Intelligent Investment Analysis Software VITAL as Board Member.” GlobeNewswire, 13 May 2014.

9. Deep Knowledge Ventures. “Deep Knowledge Venture’s Appoints Intelligent Investment Analysis Software VITAL as Board Member.” GlobeNewswire, 13 May 2014. https://www.globenewswire.com/news-release/2014/05/13/635881/10081467/en/Deep-Knowledge-Venture-s-Appoints-Intelligent-Investment-Analysis-Software-VITAL-as-Board-Member.html

10. Tieto. (2016, October 17). Tieto to appoint artificial intelligence to the leadership team of the new data-driven businesses unit. Financial IT

11. NetDragon Websoft Holdings Limited. (2022, August 26). NetDragon appoints its first virtual CEO. PR Newswire.

12. J.P. Morgan. (2023, November 20). How AI will make payments more efficient and reduce fraud. J.P. Morgan

13. Labowitz, J., & Gindy, J. (2024, September 17). Board oversight of AI. Harvard Law School Forum on Corporate Governance

